Mutaxassislarining fikriga ko'ra quyon go'shtining biologik qiymati, yumshoqligi hamda yog' va xolesterin moddasining kamligini hisobga olib, aholini barcha qatlamiga shuningdek turli kasalliklarga chalingan (allergiya, gipertoniya, oshqozon-ichak, me'da, o't pufak, jigar kasalliklari)ga chalinganlarga uni istemol qilishni tavsiya etiladi.

Shuningdek Quyon go'shti kishi organizmida oshqozon shiralari ta'sirida tez hazm bo'ladi. U og'ir, jismoniy mehnat bilan shug'ullanuvchilar, uchuvchi, g'avvos, sportchi, zararli ishlab chiqarishda ishlovchilar, ifloslangan hududlarda yashovchi aholi uchun ham foydalidir. Quyon go'shti, ayniqsa, to'laqonli oqsil moddasiga ehtiyoji bo'lgan shaxslar – maktabgacha yoshdagi bolalar, o'smirlar, emizikli ayollar, keksalar uchun ham juda foydalidir. Inson xayoti davomida istemol qiladigan ozuqalar tarkibidagi to'yingan yog'larni kamaytirish xususiyatiga ega. Quyon yog'i jarohatlarni davolashda, qichima va allergiyaga qarshi vosita sifatida qo'llaniladi. Undan pardozi va davolovchi dori-darmonlar ham tayyorlanadi.

Oqsil miqdori qo'y, mol, cho'chqa go'shtlariga qaraganda yuqoridi, vitamin va mineral tarkibiga ko'ra quyon go'shti deyarli barcha go'sht turlaridan ustun turadi. Quyon

go'shti tarkibidagi vitaminlar va temir, fosfor, kobalt, marganes, ftor, kaliy moddalarini boshqa hech qaysi go'sht bilan tenglashtirib bo'lmaydi.

Momiqdan fetra mahsulotlari shlyapalar, valenka uchun qo'y juniga aralashtiriladi jempir sharf, quloqchin.

So'yim chiqitlaridan qon uni tayyorlanadi.

Quyvon ichaklaridan musiqa asboblari uchun sim-tor tayyorlanadi.

Teridan erkaklar uchun podtyashka, remen, 12 yoshgacha bo'lgan bolalar uchun qo'lqop, telpak, palto, kamzil, sumkalar, kartmonlar va boshqa turli narsalar.

Eng yaxshi yelim ham aynan quyvon chiqitlaridan (qulog'i, dumi ichki a'zolaridan) yog'och maxsulotlar uchun.

Organik o'g'it (go'ngi) 20 bosh quyvonchilik agro firmalari 500 bosh quyvondan bog'dorchilik va sabzavotlar uchun yaxshi o'g'it hisoblangan 100 t go'ng oladi.

Medsina va veterinariya o'quv yurtlari, ilmiy tekshirish institutlarida quyvonlar biologik ob'ekt sifatida foydalaniladi. Ulardan turli biologik preparatlar jumladan turli vaksinalar (oqsilga, o'latga) tayyorlab sinashda foydalaniladi.

Ishlab chiqarish yo'nalishiga qarab quyvonchilik ikki guruhga, ya'ni go'sht va go'sht teriga bo'linadi. Go'sht yo'nalishida quyvon bolalari 60-70 kunlikda, go'sht teri yo'nalishida esa 3-4 oyligida so'yiladi. Har bir ona quyvondan yil davomida 6-7 marta bola olish mumkin. Bu esa 80-90 kg go'sht, 30-40 dona sifatli teri demakdir. Quyvonlardan go'sht va teridan tashqari momiq ham olinadi. Quyvon momig'i ingichkaligi, pishiqligi, issiqlikni o'tkazish bo'yicha mayin yungli qo'ylarning yungidan qolishmaydi. 1kg. quyvon momig'idan juda ko'p miqdorda bosh kiyimini tayyorlash mumkin.

Quyvon mo'ynasi yengil chiroyli va arzon bo'lganligi uchun undan bolalar qishki kiyimi, quloqchin, yoqa, poyabzal tayyorlanadi. Binobarin xalq xo'jaligidagi uning ahamiyati juda katta.

1-jadval.

Quyvonlarni bir kecha-kunduz va yillik oziqa ratsioni

№	Ozuqa tarkibi	Jami bir kunlik ratsion (gr.)	Jami bir yillik ratsion (kg)
1	Makkajo'xori	10	3,7
2	Bug'doy	10	3,7
3	Arpa	40	4,0
4	Sabzi	25	2,5
5	Karam	15	1,5
6	Quruq beda yoki so'ligan o'tlar	50	5,0
	Jami ozuqa	150	54,8

Quyondan juda mayin va nozik tivit xam olinadi, undan sharf, ro‘mol, svetir, beret, paypoq, qo‘lqop, sumka, yengil oyoq kiyimlari tayyorlanadi.

O‘zbekiston sharoitida asosiy va qo‘shimcha tarmoq sifatida yangi tashkil etilgan agrofimlar, ko‘p tarmoqli fermer xo‘jaliklarida, bolalar bog‘chasida, maktablar, kollejlarda, institutlarda va harbiy qismlarda 2 ming boshdan 5 ming boshgacha boqish maqsadga muvofiq. Bu esa o‘z navbatida 15-1100 tonna tirik vazn hisobida go‘sh t olish imkoniyatini beradi. Hozirgi kunda quyunchilik fermalarining aniq maqsadi mavjud emas lekin O‘zbekiston sharoitida 2-3, 6-12 va 15 ming boshgacha boqish yaxshi samara beradi. Quyonlar saqlanadigan qafaslar orasi 2-2,5 sm, o‘tish yo‘lagi qafaslar esa 1 qavatli bo‘lishi kerak. Inventar va har kunlik ozuqa zaxirasi uchun 8-10 o‘lchamdagi joy binoning o‘rtasida bo‘lgani ma’qul hisoblanadi.

Quyonxona uchun deraza 2 tabaqali oyna, ustki qismiga fortochka qo‘yilib ketish kerak. Binoni yaxshi shamollatish kerak. Deraza poldan 1.20 m qo‘yilishi kerak. Shifti 2,8 sm gacha bo‘ladi. Devorlar rangi oq bo‘lishi kerak, buning uchun oxak ishlatilishi kerak. Quyonxona uchun kirish darvozasi 1,2 va 1,5 o‘lchamda tashqariga ochiladigan xolatda o‘rnatiladi. Xodimlar uchun kirish eshigi 0,8 m qo‘yiladi. Quyonxona o‘lchamlari 12 x 2,4 m binoga 3800 bosh ona quyonlar, 12 ming bosh yosh naslli quyonlar va 25 ming bosh bo‘rdoqiga boqiladigan yosh quyonlar joylashtiriladi.

2-jadval.

Turli yoshdagi quyonlar uchun ozuqa ratsioni (gramm)

Yoshi (kun hisobida)	Oziq birligi	Hazm bo‘ladigan oqsil	Donli oziq	Qishda		Yozda ko‘k oziq yoki xashaki karam
				qand lavlagi yoki sabzi	pichan	
25-30	65	7	35	20	60	200
50-55	85	9	40	50	74	250
55-60	85	9	40	80	75	250
60-65	95	10	40	80	80	300
65-70	110	11	50	80	90	400
70-75	115	12	55	80	90	400

Quyonxona qurilishi uchun namlikka chidamli, ya’ni suv yuqtirmaydigan, mog‘orlab ketmaydigan qurilish xom–ashyosidan foydalaniladi.

Bir ona quyon uchun $3,3 - 3,5 \text{ m}^3$, yosh quyonlar uchun bo'rdiqiga $0,55 - 0,60 \text{ m}^3$ joy tashkil etiladi.

Quyon oxurlari eni 8–10 sm, balandligi 15 sm-gacha oziqlanish fronti 6 sm bo'ladi. Ona quyon uchun tug'ruqxonasi tashqariga o'rnatiladi.

Suvdoni esa oxirda 10 sm yuqoriroq qo'yilishi kerak. Chunki, ularda jadal moddalar almashinuvi kesradi. Shuning uchun toza suv doimo bo'lishi kerak. Oziqa oxiridan pastda bo'lsa, u tez ifloslanadi. Quyonlar uchun soatiga 4 m^3 , yozda va qishda 0,5; bahor va kuzda $1,5 \text{ m}^3$ /soatiga havo almashishi tavsiya etiladi.

To'shama sifatida eng yaxshisi daraxt qirindisi issiqlikni saqlash ko'rsatkichi 100 % -ga teng, hashaklar 84% ga, somon 79% -ga teng. Bir bosh quyon uchun bir yilga 3 kg to'shama sarflanadi. Imkon darajasda somondan to'shama sifatida foydalanmaslik kerak. Namlik 40 – 70 %, shamol tezligi bino ichida 0,3 m/s kanbonad angidrid 10 mt/m^3 birligi kerak va quyonlarda xaroratni sezish (gomoyotermiya) 30-45 kunda rivojlanadi.

Yosh quyonlar $25 \text{ }^\circ\text{C}$ dan past bo'lsa ular uchun sovuq hisoblanadi. 10 S^0 dan sovuq bo'lsa o'sishi 16,6 % -ga tug'ilgan quyonlarda yashash imkoniyatlari 6,3 % pasayadi $10 \text{ }^\circ\text{C}$ haroratda oziqlari istemol qilish 33 % ortadi shuni hisobga olib qish, kuz va baxor oylariga harorat $15-20 \text{ }^\circ\text{C}$ bo'lishi shart yoz oyiga $25 \text{ }^\circ\text{C}$ oshmasligi kerak. Namlik 70-75 % bo'lishi kerak.

Tajribadan maqsad quyonlar yungining qalinligi, o'sish va rivojlanishiga haroratga bog'liqligini o'rganishdir. Tajriba shundan boshlanadi: bir vaqtda tug'ilgan va sutdan ajratilgan quyonchalardan 10 tasi ajratib olinib, ular tajriba va nazorat uchun ikki guruhga ajratildi. Quyonchalarning o'rtacha massasi aniqlanib, har ikkala guruh ham bir xil ratsion asosida boqildi. Agar ushbu tajriba qish faslida amalga oshirilsa yaxshiroq samara beradi. Buni birinchi guruh (nazorat guruhi) quyonchalarning katagi tashqariga qo'yiladi. Ikkinchi guruh (tajriba guruhi) quyonchalarning katagi xonada issiqroq joyda qoldiriladi. Odatda xonaning harorati $19-20 \text{ }^\circ\text{C}$ atrofida bo'ladi. Tashqaridagi harorat esa 0° dan $5 \text{ }^\circ\text{C}$ gacha bo'lishi mumkin.

Tajriba 2-2,5 oy davom etib, bu davrda har ikkala guruh quyonlarning ozuqlanishi, tanasining massasi kuzatilib, daftarga yozib boriladi. Yungning qalinligi ham alohida qayd qilinishi lozim.

3 jadval

Quyonlarning o'sish va rivojlanishining kunlik nazorati

Nazorat guruhi			Tajriba guruhi		
Quyonlarning inventar nomeri	Tirik vazni, g		Quyonlarning inventar nomeri	Tirik vazni, g	
	Davr boshida, g	Davr oxirida, g		Davr boshida, g	Davr oxirida, g
01520	66	1350	01525	65	1405±55
01562	64	1354	01560	65	1402±48
01532	65	1364	01530	66	1395±31
01544	64	1355	01540	64	1390±35
01563	67	1344	01555	64	1398±53
01542	68	1360	01545	64	1405±45
01551	66	1354	01554	66	1400±46
01556	65	1355	01558	66	1402±47
01526	64	1352	01535	65	1403±51
01533	68	1359	01539	64	1399±40

Xulosa. Issiqlik balansi: quyonlarda tana harorati doimiy bo'lmay tashqi muxit haroratiga bog'liq bo'ladi.

5°S tashqi haroratda quyonining tana harorati 37,5° S bo'ladi.

10°S tashqi haroratda quyonining tana harorati 38°S

20°S tashqi haroratda quyonining tana harorati 38,7°C

30-35°S tashqi haroratda quyonining tana harorati 40,5°S

40°C tashqi haroratda esa quyonining tana harorati 41,6°C

Bundan tashqari quyonning jun qoplamiidan kelib chiqib tana harorati turlicha bo'ladi, masalan shinshila zotlarida tana harorati 38,5-39,5° tashkil qilsa, ularning yelka qismidagi harorati 34,7°C, yonboshida 34°C, son qismida 33,5°C, angor quyon zotlari esa 35,4°C; 35,8°C; 36°C bo'ladi.

Shundan ko'rinib turibdiki, yosh quyonlarning o'sish va rivojlanishiga haroratlarning ta'siri muhim omillardan biri hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Qo‘ziyev I.A., Qo‘chqorov A.X. “Quyov va nutriya go‘sh t mo‘yna”. O‘quv qo‘llanma. “Dizayn-Press” nashriyoti, Toshkent, 2013yil.
2. Ballasov U., Mamatiminov Sh. “Quyovchilik”. O‘quv qo‘llanma. “ToshDAU” tahririyati nashriyoti, Toshkent, 2016yil.
3. Xolmatov A.X. “Quyovchilik” qo‘llanma, “Tasvir” nashriyoti, Toshkent, 2021yil.
4. Снегов А. Самый полный справочник кролиководов. Учебник. Москва. Издательство: АСТ-2016 год.
5. Балашов И.Е. Мясошкурковые кролики. Учебник. Москва. Издательство: ЭКСМО-2014 год.
6. James I. “Rabbit production”. Study guide. “Science” Publishing. USA 2013 year.

ЎЗБЕКИСТОН ИҚТИСОДИЁТИНИНГ РИВОЖЛАНИШИДА САНОАТ ВА БОШҚА ТАРМОҚЛАРНИНГ ТУТГАН ЎРНИНИ СТАТИСТИК БАҲОЛАШ

Хужакулов Хаитмурат Джавлиевич
ТМИ профессори, и.ф.н.

Аюбжонов Аббос Ҳосилович
ТДИУ доценти, и.ф.н.

АННОТАЦИЯ

Мақолада иқтисодий тараққиётни таъминлашда тармоқларнинг ўрни ва роли, халқаро таснифлашлар асосида саноат маҳсулотларини ишлаб чиқаришда тармоқлар улуши ва динамикаси таҳлил қилинган, шунингдек саноат тармоғини янада стратегик ривожлантириш йўналишлари қайд этилган.

Калитли сўзлар: саноат, маҳсулот, тармоқ, ЯИМ, ишлаб чиқариш, таркибий силжишлари, тармоқлар улуши, ўзгариш суръатлари.

АННОТАЦИЯ

В статье проанализированы место и роль отраслей в обеспечении экономического развития, доля отраслей в производстве промышленной продукции и их динамика на основе международных классификаций, а также изложены направления дальнейшего стратегического развития отрасли промышленности.

Ключевые слова: промышленность, продукция, отрасль, ВВП, производство, структурные сдвиги, доля отраслей, темпы изменений.

ANNOTATION

The article analyzes the place and role of industry in economic development, the share of industry in the production of industrial products and their dynamics on the basis of international classifications, and set out areas for further strategic development of the industry.

Key words: industry, products, industry, GDP, production, structural shifts, share of industries, rate of change.

Кириш

Моддий неъматлар ишлаб чиқарадиган соҳа тармоқлари орасида энг салмоқли ўрин эгаллагани ва етакчиси саноат тармоғидир. Республикамизда ялпи ички маҳсулотнинг салкам 26 фоизи саноат тармоғида яратилади. Иқтисодиёт барча тармоқларининг муваффақиятли ўсишининг гарови ушбу тармоқнинг ривожланиш даражаси суръатига боғлиқдир.

Ҳозирги даврда мамлакатимиз иқтисодиётини барқарор ривожлантириш учун иқтисодиётнинг юқори қўшилган қиймат яратувчи тармоқ ва соҳаларида маҳсулотлар ишлаб чиқариш ҳажмини кўпайтириш туфайли жаҳон бозорида рақобатга бардош берадиган пировард товарларни ташқи дунёга сотиш орқали экспорт салоҳиятини мустаҳкамлашнинг имкониятлари яратилмоқда.

Бу борада Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш. М. Мирзиёев 2020 йил 29 декабрда Олий Мажлисга йўллаган Мурожаатномасида “... иқтисодий ўсишга, аввало, рақобатдош саноат занжирларини яратиш ҳамда бундай лойиҳаларга инвестицияларни кўпайтириш орқали эришилади” [1] – деб таъкидлаган эдилар.

Инвестицияларни ишлаб чиқариш соҳаларига йўналтириши натижасида, мамлакатда мустақиллик йилларида мутлақо янги саноат тармоқлари яратилди, жумладан автомобилсозлик, нефтгазкимё, нефтгаз машинасозлиги, ҳозирги замон қурилиш материаллари саноати, темир йўл машинасозлиги, маиший электроника, фармацевтика, замонавий озиқ-овқат ва тўқимачилик саноати ва бошқалар.

Мустақиллик йиллари (1991-2020 йй.) мобайнида ЯИМ қўшимча ўсиш суръатининг 23,2 фоизи иқтисодиётда банд бўлган ходимлар сонининг кўпайиши ҳисобига юз берган бўлса, меҳнат унумдорлиги ошишининг ва моддий харажатлар тежамининг таъсири мос равишда 58,2 ва 18,6 фоизни ташкил этган.

Ўзбекистон Республикаси реал секторида фаолият юритаётган корхоналарни ривожлантириш ҳамда улар ўртасида рақобат муҳитини шакллантириш, мамлакат ялпи ички маҳсулоти ҳажмини ўсишида реал сектор корхоналарининг ўзига хос ўринга эгаллиги, уларнинг рақобатбардош ва сифатли маҳсулотлар ишлаб чиқаришга бўлган интилишларини янада оширди.

Мамлакатимиз Президенти Ш.М.Мирзиёевнинг 2019 йил 1 майдаги “Саноат кооперациясини янада ривожлантириш ва талаб юқори бўлган маҳсулотлар ишлаб чиқаришни кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4302-сонли Қарорида “Саноат маҳсулотлари ишлаб чиқаришни янада кенгайтириш, кичик бизнес субъектларини саноат фаолиятига кенг жалб этиш, саноат кооперациясини

мустаҳкамлаш ва ривожлантириш, ишлаб чиқарилаётган маҳсулотлар таннархини камайтириш” [2] кўзда тутилган.

Адабиётлар шарҳи

Мамлакатимиз иқтисодиётининг барқарор ривожланишини таъминлашда саноат маҳсулотларининг ўрни беқиёсдир. Шунинг учун саноат тармоғини ривожлантиришнинг долзарблиги доимий равишда тадқиқотчи олимларнинг диққат марказида бўлган. Хусусан, мавзу юзасидан хорижий олимлардан Ю.Родионов, Р.С.Портер, Д. Деверюкс, Б.Робертс, Р.Н. Нуреевлар илмий янгиликлар яратган бўлсалар, маҳаллий олимлардан А.Абдуҳамидов, У.Мухитдинов, А.А.Ортиков, Х.Ишбутаева, Ш.Низомова, Э.Х.Махмудов, М.Исоқов, Х.Д.Хужакуловлар бир қатор илмий изланишлар олиб боришган.

Жумладан, А.Ортиков “Ўзбекистонда саноатни ривожлантиришнинг қатор имкониятлари, географик ва иқтисодий омиллари”га [5], М.П.Нарзиқулов “Саноатни ривожланиш стратегиясини ишлаб чиқиш жараёнида асосий эътибор таркибий ўзгаришларга қаратилганлиги”га [6], Э.Х. Махмудов “Саноат тармоқлари ривожланишига шароит яратишнинг стратегик йўналишлари биринчи навбатда бюджет, солиқ, пул кредит, нарх ва валюта сиёсати каби воситаларни қамраб олган қулай макроиқтисодий муҳитни яратиш”га [7], Хужакулов Х.Д., Сайфуллаев С.Н. “Ўзбекистон саноати тармоғининг таркибий ўзгаришларини халқаро таснифлаш асосида статистик ўрганиш”га [8], Мамаджанов Д.Г. “Ўзбекистонда саноат тармоғи ривожланишининг иқтисодий самарадорлигини баҳолаш”га [9] боғлиқликларига алоҳида тўхталиб ўтишган.

Тадқиқот методологияси

Тадқиқот жараёнида иқтисодий-статистик таҳлил, синтез, статистик гуруҳлаш, эксперт баҳолаш ва илмий абстаркциялаш усулларидан фойдаланилди.

Таҳлил ва натижалар

2021 йилнинг дастлабки якунларига назар ташлайдиган бўлсак, мамлакатимиз ялпи ички маҳсулоти 7,4 фоиз, (2020 йилда 1,9%)га, саноатда қўшилган қиймат ҳажми 8,7 фоиз (2020 йилда 0,9%)га ошиб, ишлаб чиқарилган маҳсулотларнинг қарийб 70 фоизини юқори қўшимча қийматга эга бўлган тайёр товарлар ташкил этди.

Республикаимиз корхоналари томонидан 2021 йилда ишлаб чиқарилган саноат маҳсулотлари ҳажми жорий баҳоларда 451,6 трлн. сўмни ташкил қилиб, 2010 йилга нисбатан тармоқда яратилган

қўшилган қийматнинг ўсиш суръати 184,7 фоизга (166,5:90,2), ўртача йиллик қўшимча ўсиш суръати 5,7 фоиздан зиёдга тенг бўлди (1-жадвал, 1-диаграмма).

1-жадвал

Ўзбекистонда асосий макроиқтисодий кўрсаткичларнинг ҳажми ва динамикаси


Йиллар	ЯИМ ва ЯҚҚ ҳажми 2020 йил баҳоларида, трлн. сўм			2020 йил баҳоларида аҳоли жон бошига, минг сўм		
	ЯИМ	Тармоқларнинг ЯҚҚ		ЯИМ	ЯҚҚ	
		жами	шундан саноатда		барча тармоқлар бўйича	шундан саноатда
А	1	2	3	4	5	6
2010	338,9	311,3	90,2	11865,2	10898,9	3158,0
2011	364,4	335,3	94,1	12420,2	11428,3	3207,3
2012	390,2	360,4	99,5	13105,2	12104,3	3341,8
2013	418,7	387,1	106,9	13844,4	12799,6	3534,7
2014	447,6	414,2	111,8	14552,5	13466,5	3634,9
2015	479,8	444,4	117,7	15329,6	14198,6	3760,5
2016	508,1	471,1	124,0	15954,0	14792,2	3893,5
2017	530,5	491,3	130,5	16379,2	15168,9	4029,2
2018	559,1	517,4	144,6	16965,0	15699,7	4387,7
2019	591,0	547,4	151,8	17599,4	16301,1	4520,5
2020	602,2	557,8	153,2	17591,7	16294,6	4475,3
2021	646,8	599,6	166,5	18524,9	17173,1	4768,7

Манба: Ўзбекистон Давлат статистикаси қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф ҳисобламаси.

Умуман саноат республикамиз иқтисодиётининг асосий тармоқларидан бири ҳисобланади. Чунки, саноат ўзининг қўшимча қиймат яратиши, аҳоли эҳтиёжини қондиришдаги ўрни ва юқори даражага эга бўлган ишлаб чиқариш локомотиви билан бошқа соҳа ва тармоқлардан тубдан фарқ қилади. Саноат тармоғининг ривожланиши миллий иқтисодиётнинг барқарор суръатлар билан ривожланишига олиб келади. Саноат соҳасида қазиб олинган, экиб ўстирилган барча ресурсларни қайта ишлаш, улардан янгидан-янги маҳсулотлар ишлаб чиқариш, ассортимент ва номенклатуранинг кўпайиши ҳисобига диверсификациялашув жараёнлари такомиллашади.

Саноат тармоғи йирик ишлаб чиқариш институти бўлиши билан биргаликда, аҳолини иш билан таъминлаш ва янги иш жойларини ташкил этишда ҳам муҳим аҳамият касб этади. Тармоқда иш билан банд бўлганлар сони 2010 йилда 1605,7

минг кишини, 2015 йилда 1768,7 минг кишини, 2020 йилда 1809,5 минг кишини, 2021 йилда 1883,3 минг кишини ёки иқтисодиётда банд бўлганларнинг мос равишда 13,8; 13,5; 13,7 ва 13,9 фоизни ташкил қилган. Натижада 2021 йилда 2010 йилга нисбатан банд бўлганлар сони тармоқда 17,3 фоизга кўпайгани ҳолда, бутун иқтисодиёт бу кўрсаткич 16,4 фоизга тенг бўлган. Саноат тармоғини иш билан бандликни оширишдаги яна бир муҳим хусусияти қайта ишлаш ва қўшимча қиймат яратишдаги фаоллиги ҳисобига юзага чиқади. Яъни, қайта ишловчи корхоналарнинг кўпайгани ва қўшимча қийматнинг ортгани сари саноатда ҳам банд бўлган ходимлар сони ортаверади. Бундан кўринадики, қўшимча қиймат ва қайта ишлашнинг ўсиши билан саноатда банд бўлган ходимлар сонининг ўзгариши ўртасида тўғри боғлиқлик мавжуд. Саноат жаҳон иқтисодиётида иштирок этаётган давлатлар ўртасидаги иқтисодий интеграция жараёнларини мувофиқлаштириш ва иқтисодиёт тармоқлари ўртасидаги мувозанатни таъминлашга ёрдам беради. Натижада, барча мамлакатларнинг табиий, меҳнат ва молиявий ресурслари, фан-техниканинг барча ютуқларидан оқилона фойдаланиш имконияти юзага келади. Бу эса ўз навбатида юқори қўшимча қийматга эга бўлган маҳсулотлар ишлаб чиқаришни кўпайтиришни таъминлайдиган кимё, нефть-газ ва нефть-кимё саноатини, машинасозлик, металлни қайта ишлаш, қурилиш материаллари ишлаб чиқариш, енгил, озиқ-овқат саноатининг юқори технологияларга асосланган тармоқларини ва бошқа соҳаларни юксак даражада ривожлантиришни талаб этади.



1-диаграмма. Ялпи ички маҳсулот (ЯИМ)нинг, тармоқлар ялпи қўшилган қиймати (ЯҚҚ)нинг ва саноатда яратилган қўшилган қиймат (СЯҚҚ)нинг қўшимча ўсиш суръатлари, фоизда.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2017-2021 йилларда Ўзбекистон Республикасини ривожлантиришнинг бешта устувор йўналиши бўйича Ҳаракатлар стратегияси тўғрисида”ги Фармонида “юқори технологияли қайта ишлаш тармоқларини, энг аввало, маҳаллий хом ашё ресурсларини чуқур қайта ишлаш асосида юқори қўшимча қийматли тайёр маҳсулот ишлаб чиқаришни жадал ривожлантиришга қаратилган сифат жиҳатидан янги босқичга ўтказиш орқали саноатни янада модернизация ва диверсификация қилиш” [3] – вазифалари алоҳида таъкидланган.

Кейинги йилларда иктисодиётнинг тармоқ ва соҳаларида таркибий ўзгаришлар содир бўлганлигини таъкидлаш жоиз. 2021 йилда 2010 йилга қараганда ЯИМ ва тармоқлар ялпи қўшилган қиймати таркибида мос равишда саноатнинг ҳиссаси 9,3 ва 9,1 фоиз бандга ва қурилишда 1,4 ва 1,3 фоиз бандга ошган бўлса, қишлоқ, ўрмон ва балиқ хўжалигида 2,0 ва 3,7 фоиз бандга ва хизматлар соҳасида 4,2 ва 6,7 фоиз бандга пасайганлигини кўришимиз мумкин.

2-жадвал

Ўзбекистонда ЯИМ ва тармоқлар ялпи қўшилган қиймати (ЯҚҚ) ҳажмининг ўзгариши курсаткичлари

Йиллар	ЯИМ ва ЯҚҚ ҳажмининг ўзгариш суръати, %			Тармоқлар ЯҚҚнинг ЯИМдаги улуши, %		Саноатнинг қўшилган қиймати улуши, %	
	ЯИМ	ЯҚҚ		барча тармоқлар бўйича	шундан саноатда	Тармоқлар ЯҚҚда	Саноат маҳсулоти ҳажмида
		барча тармоқлар бўйича	шундан саноатда				
А	1	2	3	4	5	6	7
2010	107,1	107,5	105,9	88,0	16,5	18,7	34,1
2011	107,5	107,7	104,4	88,7	15,4	17,4	33,5
2012	107,1	107,5	105,7	88,8	16,1	18,1	35,6
2013	107,3	107,4	107,5	89,6	16,6	18,5	35,9
2014	106,9	107,0	104,5	90,2	17,2	19,1	38,3
2015	107,2	107,3	105,3	90,9	17,4	19,1	39,4
2016	105,9	106,0	105,4	91,2	17,8	19,5	40,6
2017	104,4	104,3	105,2	89,0	18,8	21,1	40,0
2018	105,4	105,3	110,8	89,3	22,6	25,3	40,1
2019	105,7	105,8	105,0	91,5	25,7	28,1	42,2
2020	101,9	101,9	100,9	92,6	25,4	27,5	41,5
2021	107,4	107,5	108,7	92,8	25,8	27,8	42,0

Манба: Ўзбекистон Давлат статистикаси қўмитаси маълумотлари асосида муаллиф ҳисобламаси.

Бу каби таркибий силжишлар натижасида тармоқлар ЯҚҚнинг ЯИМдаги улуши 4,8 фоиз бандга ошиб, маҳсулотларга соф солиқлар улуши 12 фоиздан 7,2 фоизгача пасайган (2- ва 3-жадваллар).

Дастлабки маълумотларга кўра, республикамизда 2021 йилда 2020 ва 2010 йилларга нисбатан мос равишда ЯИМнинг ўсиш суръати 107,4 ва 190,8 фоизни, тармоқларнинг ялпи қўшилган қиймати 107,5 ва 192,6 фоизни, саноат тармоғида яратилган қўшилган қиймат эса 108,7 ва 184,6 фоизни ташкил этгани ҳолда, 2010-2021 йилларда ўртача йиллик қўшимча ўсиш суръати ЯИМ, тармоқлар ва саноатнинг қўшилган қийматлари бўйича 6,0 ; 6,1 ва 5,7 фоизга тенг бўлиб, саноат тармоғида қўшилган қийматнинг илгарилаш коэффициенти ЯИМ ва тармоқларнинг ялпи қўшилган қийматига нисбатан тегишли ҳолда 0,967 ёки 96,7 фоизни (1,846:1,908) ва 0,958 ёки 95,8 фоизни (1,846:1,926) ташкил этган. Бу маълумотлар саноат тармоғида ишлаб чиқаришнинг ўсиш суръати динамикада бир мунча паст бўлганлигидан далolat беради. Олиб борилган тадқиқотлар ва таҳлиллар асосида 2010-2021 йилларда аҳоли жон тўғри келган ЯИМ ва тармоқларнинг ЯҚҚ ҳажми қарийб 1,6 мартага, саноат тармоғида қўшилган қиймат эса 1,5 мартага ошганлигини кузатишимиз мумкин (1- ва 2- жадваллар).

3-жадвал

Ўзбекистонда ЯИМ ва ЯҚҚ ҳажмида тармоқлар хиссасининг ўзгариши (фоиз ҳисобида)

Йиллар	ЯИМ ҳажми, амалдаги баҳода, трлн.сўм	Тармоқлар улуши, % (саноат тармоғисиз)					
		Қишлоқ, ўрмон ва балиқ хўжалиги		Курилиш		Хизматлар	
		ЯИМда	Тармоқлар ЯҚҚда	ЯИМда	Тармоқлар ЯҚҚда	ЯИМда	Тармоқлар ЯҚҚда
А	1	2	3	4	5	6	7
2010	78,9	27,0	30,6	4,8	5,4	39,9	45,3
2011	103,2	29,7	33,5	4,4	4,9	39,2	44,2
2012	127,6	28,9	32,6	4,4	4,9	39,4	44,4
2013	153,3	27,8	31,0	4,8	5,3	40,5	45,2
2014	186,8	28,7	31,8	4,9	5,4	39,4	43,7
2015	221,4	29,2	32,1	5,1	5,7	39,1	43,1
2016	255,4	29,3	32,1	5,1	5,6	39,0	42,8
2017	317,5	28,7	32,2	4,8	5,4	36,8	41,4
2018	424,7	26,8	30,0	5,2	5,8	34,8	38,9
2019	529,4	24,6	26,9	5,8	6,3	35,3	38,7
2020	602,2	25,1	27,1	6,2	6,7	35,8	38,7
2021	734,6	25,0	26,9	6,2	6,7	35,7	38,6

Манба: Ўзбекистон Давлат статистика қўмитаси маълумотлари.

Республикада ИФУТ янги структураси бўйича саноат маҳсулотларини ишлаб чиқаришда таркибий ўзгаришлар ва тармоқлар улуши 4-жадвалда келтирилган маълумотлар билан тавсифланади. Жадвал маълумотлари шундан далолат берадики, 2010 йилда жами саноат маҳсулотининг 13,4 фоизи тоғ-кон саноати ва очиқ конларни ишлаш (В) да яратилган бўлса, 75,4 фоизи ишлаб чиқарадиган саноат (С)га тўғри келган, 2021 йилда бу кўрсаткичлар тегишли равишда 9,5 ва 83,0 фоизни ташкил этган, яъни 2010 йилга нисбатан 3,9 фоиз бандга пасайган ва 7,6 фоиз бандга ошган. Ишлаб чиқарадиган саноат (С-секция) соҳасида металлургия саноати энг катта салмоққа эга бўлиб, 2021 йилда 25,7 фоизни ташкил этган ва 2010 йилга нисбатан 12,9 фоиз бандга жадаллашган.

Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси саноат маҳсулотларини ишлаб чиқаришнинг ўсиш суръати ва динамикасини тармоқда яратилган қўшилган қийматнинг физик ҳажми индекси асосида аниқламоқда. Бундай ҳисоб методологик жиҳатдан тўғрилигини эътироф этишимиз лозим, чунки ишлаб чиқарилган маҳсулотларнинг барчаси иқтисодиётда пировард маҳсулот бўлмайди, бу эса такрорий ҳисоблар ва оралиқ истеъмолнинг мавжудлиги билан изоҳланади. Бироқ алоҳида хўжалик юритувчи субъектлари бўйича маҳсулот ҳажми ва унинг динамикасини аниқлаб, иқтисодий жараённи таҳлил қилиш мақсадга мувофиқ.

Иқтисодиётнинг самарадорлигини оширишда энг муҳим омил бўлиб, маҳсулот ишлаб чиқариш харажатларини пасайтириш ҳисобланади.


4-жадвал

Саноат маҳсулотларини ишлаб чиқаришда таркибий ўзгаришлар ва тармоқлар улуши

Йириклаштирилган секциялар бўйича саноат тармоқлари	Йиллар							
	2010	2015	2016	2017	2018	2019	2020	2021
Саноат маҳсулоти ҳажми (В, С, D, E) – жами, млрд. сўм	38119,0	97598,2	111869,4	148816,0	235340,7	322535,3	368740,2	451633,9
Шу жумладан жамига нисбатан, %:								
В. Тоғ-кон саноати ва очик конларни ишлаш	13,4	9,7	8,1	10,3	12,3	13,5	9,0	9,5
С. Ишлаб чиқарадиган саноат	75,4	80,5	81,8	81,1	80,6	79,0	83,0	83,0
Д. Электр, газ, буғ билан таъминлаш ва ҳавони кондициялаш	10,7	9,2	9,4	7,8	6,2	6,8	7,4	6,8
Е. Сув билан таъминлаш, канализация тизими, чиқиндиларни йиғиш ва утилизация қилиш	0,5	0,6	0,7	0,8	0,9	0,7	0,6	0,7
Саноат ишлаб чиқаришнинг физик ҳажми индекси, %:								
Бутун саноат бўйича	105,9	105,3	105,4	105,2	110,8	105,0	100,9	108,7
В. – секция бўйича	94,8	102,9	100,8	117,6	126,5	99,4	78,0	110,7
С. – секция бўйича	108,9	105,9	106,7	104,2	107,9	106,6	107,9	108,2
Д. – секция бўйича	118,5	105,1	103,6	95,5	103,1	105,1	106,8	113,0
Е. – секция бўйича	118,6	106,8	110,0	108,0	111,3	102,2	99,1	82,3

Манба: Ўзбекистон Давлат статистикаси қўмитаси маълумотлари асосида ҳисобланган.

Шу боис тармоқларда илғор замонавий юқори технологиялардан фойдаланган ҳолда, маҳсулот ва хизматлар ишлаб чиқаришда оралик истеъмолига сарфлар тежамини таъминлаш зарур. Саноат маҳсулотларини ишлаб чиқаришда оралик истеъмолининг ҳиссаси 2010 йилдаги 65,9 фоиздан 2021 йилда 58,0 фоизгача пасайган бўлсада, ҳанузгача юқори салмоқни ташкил этмоқда (2-жадвал, 2-диаграмма).



2-диаграмма. Саноат маҳсулоти ҳажмида кўшилган қийматнинг ва оралиқ истеъмолининг улуши (жамига нисбатан, фоизда).

Иқтисодиётнинг тараққий этишида тармоқ ва соҳаларда илғор юқори технологияларни қўллаш ва кенг жорий этиш муҳим аҳамият касб этади. Бу борада амалга оширилаётган ишларнинг салмоғи ҳали талаб даражасида эмас. Айтайлик, иқтисодиётнинг драйвери ҳисобланган ишлаб чиқарадиган саноат таркибида 2020 йилда юқори технологияли тармоқларнинг улуши 2,0 фоизни, ўрта-юқори технологияли – 22,4%, ўрта-қуйи технологияли – 39,9% ва қуйи технологиялиси 35,7 фоизни, 2021 йилда эса бу кўрсаткичлар тегишли равишда 2,7; 20,1; 39,4 ва 37,7 фоизни ташкил этган.

Демак, шундай вазиятдан келиб чиққан ҳолда, юқори технологияли тармоқларнинг салмоғини ошириш мақсадга мувофиқ.

Саноат ишлаб чиқаришининг секциялар бўйича физик ҳажм индекслари 2021 йилда 2010 йилда нисбатан В секцияда 127,8 фоизни, С секцияда 220,7 фоизни, Д секцияда 133,6 фоизни, Е секцияда 173,8 фоизни ташкил этиб, ўртача йиллик кўшимча ўсиш суръатлари мос ҳолда 2,2; 7,5; 2,7 ва 5,2 фоизга тенг бўлган (4-жадвал).

Хулоса ва таклифлар

Тармоқларнинг ялпи кўшилган қиймати таркибида саноатнинг ҳиссасини ошириш мақсадида таркибий ўзгартириш, маҳаллий минерал хом-ашё ресурсларини янада чуқур қайта ишлаш асосида ишлаб чиқариш ҳамда етакчи тармоқларни фаол диверсификация ва модернизация қилишни амалга оширувчи корхоналарни қўллаб-қувватлаш ва рағбатлантириш бўйича комплекс чора-тадбирларни амалга ошириш зарур.

Кейинги йилларда саноат тармоғида таркибий ўзгаришлар натижасида соҳанинг мамлакат иқтисодиётидаги салоҳияти сезиларли даражада ошган бўлсада, бироқ саноат мажмунига киритилган инвестициялар тармоқ маҳсулотлари экспорти салмоғининг ошишига талаб даражасида ҳисса қўша олмасдан, асосан ички бозор учун маҳсулот етказиб бериш билан чекланмоқда.

Келгусида мамлакат саноати ривожланишини таъминловчи қуйидаги йўналишларни таклиф этамиз:

- инвестицион ишлаб чиқаришни ривожлантириш, кенг қўламли эҳтиёжларни қондиришга қаратилган, илмий асосланган лойиҳалар ишлаб чиқиш;
- корхоналарда инновацион салоҳиятни такомиллаштириш, илм ва юқори технология талаб қиладиган янги корхоналар ташкил этиш ва импорт маҳсулотлари билан рақобатлаша оладиган маҳсулотлар ишлаб чиқариш;
- ривожланган мамлакатларнинг саноат маҳсулотлари ишлаб чиқарувчи замонавий техника-технологияларини импорт қилиш сиёсатини жадаллаштириш;
- саноатда хусусий тармоқ ва кичик тадбиркорлик улушини ошириш ва бошқалар.

Ўзбекистон Республикаси Президентининг “2022-2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистон тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги Фармонининг 3 устувор йўналишида “Миллий иқтисодиёт барқарорлигини таъминлаш ва ялпи ички маҳсулотда саноат улушини оширишга қаратилган саноат сиёсатини давом эттириб, саноат маҳсулотларини ишлаб чиқариш ҳажмини 1,4 бараварга ошириш” [4] вазифалари белгиланган.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш жоизки, республикада амалга оширилаётган ислохотларнинг барчаси мамлакатимизнинг макроиқтисодий барқарорлигини таъминлашга ва оширишга, аҳолининг турмуш фаровонлигини юксалтиришга қаратилгандир.

АДАБИЁТЛАР РУЙХАТИ

1. Ўзбекистон Республикаси Президенти Ш.Мирзиёвнинг 2020 йил 29 декабрда Олий Мажлисга Мурожаатномаси. <https://president.uz/uz/lists/view/4056>.

2. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2019 йил 1 майдаги “Саноат кооперациясини янада ривожлантириш ва талаб юқори бўлган маҳсулотлар ишлаб чиқаришни кенгайтириш чора-тадбирлари тўғрисида”ги ПҚ-4302-сонли Қарори// Lex.uz.

3. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2021 йил 9 июндаги “Худудларнинг саноат салоҳиятини оширишга доир қўшимча чора-тадбирлар тўғрисида”ги ПФ-6244-сонли Фармони // Lex.uz.

4. Ўзбекистон Республикаси Президентининг 2022 йил 28 январдаги “2022 – 2026 йилларга мўлжалланган Янги Ўзбекистоннинг тараққиёт стратегияси тўғрисида”ги ПФ-60-сон Фармони. (Қонунчилик маълумотлари миллий базаси, 29.01.2022 й., 06/22/60/0082-сон)

5. Ортиқов А. Саноат иқтисоди. Дарслик. Т.: ТДИУ, 2009. 236 б.

6. Стратегия дальнейшего повышения конкурентоспособности национальной экономики: материалы 1У-го Форума экономистов / отв. ред. М.П. Нарзикулов. Ташкент. Вақ1паРгез\$, 2012. С. 8.

7. Махмудов Э.Х., Ортиқов А., Каримов Ф. Корхона иқтисодиётнинг асосий бўғини. / Ҳамкор. 2010 йил 7 февраль.

8. Хужакулов Х.Д., Сайфуллаев С.Н. Ўзбекистон саноати тармоғининг таркибий ўзгаришларини халқаро таснифлаш асосида статистик ўрганиш// “Иқтисодиёт ва таълим” журнали, 2017, 6-сон, 129-134-бетлар.

9. Мамаджанов Д.Г. Ўзбекистонда саноат тармоғи ривожланишининг иқтисодий самарадорлигини баҳолаш. “Иқтисодиёт ва инновацион технологиялар” илмий электрон журнали. 2018, 3-сон май-июнь.

10. www.stat.uz. - Ўзбекистон Республикаси Давлат статистика қўмитаси сайти.

DEHQONOBOD TUMANI TOG‘LI HUDUDLAR EKOLOGIYASI

Ashurmahmatov Sarvar Isroil o‘g‘li

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat universiteti
Ekologiya va hayot faoliyati xavfsizligi kafedrası 2-kurs magistranti
ashurmahmatov97@mail.ru

ANNOTATSIYA

Dehqonobod tumani relyefi, janubiy-g‘arbiy Hisor tog‘lari va unga yondosh bo‘lgan hududlarning faunasi va ekologiyasi o‘rganilib tadqiqotlar olib borildi. Shu jumladan mollyuskalar va zuluklarning faunistik tarkibi, ularning tarqalishi va ekologik omillarga moslashishi, xalq xo‘jaligidagi ahamiyati o‘rganilib chiqildi.

Kalit so‘zlar: Iqlim, muammo, ekologik guruh, tog‘lar, o‘rmonlar, mollyuska va zuluklar.

Dehqonobod tumani Qashqadaryo viloyatining janubiy - sharqiy qismida joylashgan tog‘li hududlardan biridir, u 1926 yil 29 sentyabrda tashkil etilgan hamda 1962 yil 24 dekabrda G‘uzor tumani bilan birlashtirilgan. Dehqonobod-1971 yil 31 avgustda qayta tuzildi va tuman maqomini oldi, uning maydoni 4 ming km², aholisi 153,1 mingdan oshiq kishi (2022). Tumanda asosan o‘zbeklar, tojiklar, rus, tatar va boshqa millat vakillari yashaydi. Aholisining o‘rtacha zichligi 1 km²da 38,3 kishi, markazi Qorashina shaharchasi.

Dehqonobod sharqda Boysun tizma tog‘lari orqali Surxondaryo viloyati bilan, janubda Torkopchiqay va unga qo‘shni tog‘lari orqali Turkmaniston Respublikasi bilan, g‘arbda Odamtosh tog‘lari orqali G‘uzor tumani va shimolda Hisor tizma tog‘lari orqali Qamashi tumani bilan chegaradosh. Tuman asosan tog‘lar va past tog‘lar, tog‘ oldi tekisliklaridan iborat. Yerlari asosan lalmikor. Atmosfera havosi esa juda toza va salqin. Bugungi kunda Dehqonobod tumanidan G‘uzor - Boysun - Qumqurg‘on temir yo‘li o‘tgan. Dehqonobod tumani hududi tekislik - cho‘l, adir va tog‘ mintaqalariga bo‘linadi. Tumanning asosiy aholisi tuman markazidan uzoq bo‘lgan joylarda yashaydilar. Tekislik cho‘l mintaqalariga Xujapullast, Qizilcha, Oqirtma. Otqamar, Chuchukquduq, G‘aribota kabi hududlar kiradi. Bu joylarda buloqlar va doimiy oqar suvlar yo‘q, bu yerda aholi ichimlik suvi sifatida va chorvalarini sug‘orishda quduq suvlaridan foydalanadi.

Adir va tog' mintaqalari Dehqonobod tumani hududining asosiy qismini tashkil qiladi. Shimoli - sharqda joylashgan va janubi-g'arbgacha yo'nalgan Chaqchar tizma tog'i Hisor tizmasining janubi-g'arbiy tarmog'i bo'lib, o'tkir qirrali cho'qqilar va juda chuqur, tor qopchigaylar daralarga boydir. Uning eng baland cho'qqisi - Xuroson dengiz sathidan 3700 metrdan balandroqda joylashgan. Chaqchar tizmasining janubi- g'arbidagi davomi Boysuntog', Ketmonchopdi va Suvsiztog' massivlari deyarli meridional yo'nalishga egadir. Ulardan garbdagi Bobosurxak, Qorasirt va Kafantog massivlari o'rtacha balandlikdagi tog'lardir. Ularning eng balandi Bobosurxak bo'lib, ayrim cho'qqilari dengiz sathidan 3000 metrgacha balandlikka yetadi. Bu toglar yura, bo'r va paleogen davrlarida shakllanganligi fanda ma'lum.

Tumanda O'zbekistonda ma'lum bo'lgan Kali tuzi ishlab chiqaradigan "Kaliy zavod" mavjud, Turkmaniston chegaralarigacha bo'lgan joyda qazib olinadi.



Florasi. Asosan archa, yovvoyi bodom, rovoch, kovrak (sassiqlik) kokraklari, kiyik o'ti va suvoqlar hamda "Qizil kitob"ga kiritilgan turlar ancha ko'p tarqalgan yalpiz, ho'kkiz tili (zaboni gav), lolaning bir nechta turi va boshqalar tarqalgan.

Faunasi. Hayvonot olamining ko'p tarqalishiga yaxshi sharoit hisoblanadi, asosan chorvachilik, yirtqich hayvonlardan bo'ri, qong'ir ayiq, tulki, jayra, ilon, echkiemar, qushlardan lochin, kaptar (oq, ko'k kaptar), qirg'iyak, kaklik, qora, ola, ko'k qarga, chumchuqlardan mayna, tipratikon, suvlarida daryo baliqlari (mo'ylovdor baliq),

mollyuskalarning tarqalishini aniqlashda olib boriladigan tadqiqotlarimiz ijobiy natijalarni berdi.

Dastlab ilk marta Dehqonobod tumanini o'rganishni boshladik, tog' va tog' oldi unga yondosh bo'lgan hududlarga turli xildagi metodlar orqali materiallar terdik, material terishda bizlar asosan kuzatish, taqqoslash, tasvirlashning zamonaviy usullaridan foydalanib video, rasm, kartalar va laboratoriyada shug'ullanadigan asboblardan tanishib ma'lumotlarni yig'dik. Qishloq xo'jaligi sharoitlarini ham ekologik jihatdan o'rgandik, ularni tarqatishi, yashash sharoiti, chashma va buloqlardan alohida ekologik muhit sifatida o'rgadik.

Dastlab terishda qorinoyoqli mollyuskalar va ularning tarqalish holatlarini ham kuzatdik mayda va ularni ko'zga ko'rinmaydigan turlarini mikroskop va lupalar bilan aniqladik. Dehqonobod tumanining suv ombor va ikkita daryo kesib o'tgan. Katta O'radaryo va kichik O'radaryo bu ikkala daryo G'uzor daryosining irmoqlari bo'lib Pachkamar suv omboriga borib quyiladi. Olingan va tayyorlangan materiallarimizni hozirgi vaqtda yana davom ettirmoqdamiz, tirik organizmlarning qanday ekologik omillarga moslashishishi, suvning zichligi, sho'rlik darajasi, oqish tezligi, tiniqligi, chuqurligi, loyqaligi, issiq va sovuqligi, chashma va buloq qorlardan to'yinadigan suvlarda qanday ekologik holatlar uchraydi, terilgan materiallarimizni tahlil qilish uchun laboratoriya sharoitida tayyorlaganmiz. Mollyuskalarning ahamiyati va ularning yangi turlarini bo'lishini aniqlashda olib borilmoqda.

O'rganish jarayonida mavzuga aloqador va chambarchas bogliq mavzuga ham qiziqdik ma'lumki O'zbekistonda Zuluklar turlari va ularning xalq xo'jaligidagi ahamiyati ham to'liq o'rganilmagan dolzarb mavzu sifatiga kiradi. Shu munosabat bilan qishloqlarda va turli xil sharoitlarda uchraydigan Ot zulugi va to'liq tur tarkibi aniqlanmagan gidrobiont organizmlar sifatida ham qiziqdik ularning sistematikasi va turlarning tarkibi, mollyuskalar bilar bir xil muhitda tarqalishini ham o'rganishga alohida e'tibor berdik.

Zuluklar (Hirudinea) halqali chuvalchanglar tipining sinfi. (Ot zulugi) tanasining uzunligi bir necha sm dan 15 sm gacha, ba'zan undan ham uzunroq. Tanasi orqa va qorin tomondan yassilashgan, ba'zan silindrsimon, 33 ta tashqi halqadan iborat, rangi suvga maskirovka bo'lgan, qora va ustida chiziq bo'ladi. Og'iz teshigi so'rg'ich yoki Hartum bilan o'ralgan, yirtqich (hartumli) yoki parazit (jag'li) hayot kechiradi. Yirtqich mayda umurtqasiz hayvonlar bilan oziqlanadi, parazit turli umurtqali hayvonlar va odam qonini so'radi. Jag'li ichagining yon tomonidagi juda keng xaltalariga ko'p qon so'rib oladi, so'lagi tarkibidagi girudin qonni ivitmaydi, terisi orqali nafas oladi. Ayirish sistemasi

metanefridiylar. Jagʻli qon aylanish sistemasi qon tomirlari devori epiteliysi boʻlmasligi bilan boshqa halqali chuvalchanglardan farq qiladi, qon tomiri tana boʻshligʻi qoldigʻidan hosil boʻladi, germafrodit, urugʻlangan tuxumlarini pilla ichiga qoʻyadi. Lichinkasi pilla ichida oʻzgarishsiz rivojlanadi. Tibbiyot (*Hiruda medicinalis*) dan tromb hosil boʻlishi bilan bogʻliq qon tomirlari kasalliklarni (gipertoniya, sklerozning boshlangʻich davrlari, insult va b.) davolashda foydalaniladi. Tibbiyot sohasi uchun maxsus koʻpaytiriladi, ayrim baliqlarga jiddiy zarar yetkazadi. Asosan tarqalishi sekin oqadigan va toʻxtab qolgan suvlarda buloqlarda va chashmalarda suvning evtofikatsiya (yashil suv oʻtlar bilan qoplangan), autvelling (suv quyiladigan joylari) da boʻladi shoʻrlik darajasiga qarab ularning tarqalishi hamda koʻpayishi alohida ahamiyat kasb etadi. Oziqlanishi suv muhitida va xalq xoʻjaligida katta ehtimol bilan zarar yetkazishi mumkin suv ichayotgan ot, eshak, sigir, mol, echki va boshqa turdagi hayvonlarining ogʻziga suv bilan kirib, eng qulay boʻlgan sharoitda tushadi, namlik, oziq modda (qon) yetarlicha, koʻpayish yaxshi boʻladi. Zuluklar asosan qishloq sharoitidagi chorva mollariga katta zarar yetkazadi.



Xulosa. Mollyuskalar hozirda alohida tip sifatida oʻrganila boshlangan. Ular hozirda hayvonot olamida koʻplab turlar jihatidan hashoratlardan keyingi oʻrinda turadi. Mollyuskalar tabiatda tarqalishi tabiiy muhitda yashash tarziga koʻra quruqlik qorinoyoqlilar - Gastropoda va suv mollyuskalari ikkipallalilar - Bivalvia ga boʻlinadi. Mollyuskalar tabiatga va inson hayotida juda muhim ahamiyatga ega. Mollyuskalarning maʼlum bir turlari suv muhitida indikator vazifasini oʻtasa, bazi turlari Yevropa mamlakatlarida oziq-ovqat sifatida hamda dur olishda muhim ahamiyatga ega. Dehqonobod tumani geografik oʻrni va landshaftlarnig xilma-xilligiga hayvonot dunyosining shakllanishi va tarqalishiga koʻra oʻz taʼsirini koʻrsatadi. Dehqonobod tumanida tarqalgan mollyuskalarning hayvonot dunyosini oʻrab turgan muhiti va uning faktorlarini hayvonot olamining xilma-xilligini mollyuskalarning tarixiy taraqqiyotida

sharoitlarini takomillashtirishni, anotomik, morfologik, tuzilishidagi turlarning o‘zaro aloqadorligini o‘rgandik. Dehqonobod tumanida tarqalgan mollyuskalarga mansub turlarini O‘zbekistonda foydali tomonlari olimlar prof.Z.Izzatullayev va prof.A.Fozilov rahbarligida ishlar olib borilmoqda.

Dehqonobod tumanida tarqalgan mollyuskalarning faunasi va bioekologiyasini, ularning tarqalishini o‘rgandik. Qorinoyoqli-Gastropoda sinfiga kiruvchi mollyuska turlarining tarqalishi va ularni tabiatda ahamiyatini o‘rganib chiqdik.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Ashurmahmatov S.I. Qashqadaryo viloyati Dehqonobod tumani maydonlarida tarqalgan qorinoyoqli mollyuskalar xususida ilk ma’lumotlar va ularning transchegaraviy hududlarda tarqalishi. Markaziy Osiyo va qo‘shni mintaqalardagi transchegaraviy hududlar: Hamkorlik imkoniyatlari va muammolari. Xalqaro ilmiy-amaliy konferensiya materiallari 1-qism. Samarqand, 5-6 may 2022 yil. B. 51-53.

2. Иззатуллаев З.И. Наземные моллюски Гиссарского хребта и сопредельных ростков. Диссертация на соискании уч.степени к.б.н. Ленинград, 1970.170 с.

3. Пазилов А., Азимов Д.А. Наземные моллюски (Gastropoda, Pulmonata) Узбекистана и сопредельных территорий. Ташкент: Фан, 2003. – 316 с.

4. Pазilov A., Kuchboyev A.E. O‘zbekistonda uy va yovvoyi hayvonlar gelmintlarining oraliq xo‘jayini – quruqlik mollyuskalar (Aniqlagich-Atlas). Toshkent, 2017. 75 bet.

5. Шилейко А.А. Наземные моллюски надсемейства Heliceidea. Фауна СССР. Моллюски. – л.: Наука, 1978. Т.3. Выл. 6. – С.3-138.

6. Шилейко А.А. Наземные моллюски подотряда Pupillina фауны СССР (Gastropoda, Pulmonata, Geophila) // Фауна СССР. Моллюски. - л.: Наука, 1984. Т.3. Выл.3. №130. -С. 3-399.

7. Internet sayti https://uz.wikipedia.org/wiki/Dehqonobod_tumani

MAQOLLARDA ARXAIK VOSITALAR ORQALI KONNOTATSIYANING IFODALANISHI

Muxammedova Sumbul

UrDU magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘zbek xalq maqollarida sodir bo‘luvchi konnotatsiya hodisasining arxaik birliklar asosida yuzaga kelishi haqida fikr yuritiladi.

Kalit s o‘zlar: konnotatsiya, arxaizm, maqol, mo‘ndi, buromad, kift

Folklor manbalarida uchraydigan noyob lingvistik faktlarni, leksik va grammatik elementlarning leksik-semantik, etimologik funksional jihatlarini ochib berish, ularni hozirgi adabiy tilimiz taraqqiyotida tutgan o‘rnini va qo‘shayotgan hissasini aniqlash bugungi tilshunosligimiz uchun dolzarb masalalardan hisoblanadi. Chunki, ijodkor xalqimiz tomonidan yaratilgan manbalar tilini o‘rganish, tilimiz rivojlanishi qonuniyatlarini belgilash, tarixiylik jihatdan o‘zbek tili va shevalarining o‘zaro munosabatlarini ko‘rsatib berishga xizmat qiladi.

Prezidentimiz Sh.Mirziyoyev ham mazkur masalaning yuqori ahamiyatga ega ekanligini nazarda tutib, tilimizning xalqaro mavqeyini oshirish borasidagi muhim vazifalarni tilga olganida shunday degan edi: “...O‘zbek tilining o‘ziga xos xususiyatlari: shevalari, tarixiy taraqqiyoti, uning istiqboli bilan bog‘liq ilmiy tadqiqotlar samarasini oshirish, shu sohada ilmiy kadrlar tayyorlash sifatini tubdan yaxshilashga erishmog‘imiz zarur. Bu ishlar uchun moliyaviy resurslar va mablag‘larni aslo ayamasligimiz kerak” [1.4].

Til xuddi jonli organizm kabi yashaydi, taraqqiy qiladi, rivojlanadi va agar unga turli ta’sirlar bo‘laversa, cheklovlar qo‘yilsa, o‘rganilmasa, sayqallanib turmasa iste’moldan chiqadi va o‘lik tilga aylanadi. Jamiyatda bo‘lib turadigan ijtimoiy-siyosiy jarayonlar, ilmiy-texnikaviy taraqqiyot, iqtisodiy va ma’rifiy sohadagi islohotlar tilning lug‘at boyligida yangi-yangi so‘z va atamalarning yuzaga kelishini, ayni paytda so‘z-leksemalarning eskirib, tarixiy kategoriyaga aylanishini taqozo qiladi [2.204]. Mazkur jarayon natijasida tilda neologizm, arxaizm va istorizmlarning vujudga kelishiga sabab bo‘ladi.

Ushbu izlanish uchun, o‘zbek xalq maqollarida uchraydigan *mo‘ndi, buromad, kift* kabi leksik birliklarni tahlil qilishni maqsad qildik. O‘zbek xalq maqollaridan olingan yuqoridagi arxaik leksemalarning tarixiy-etimologik jihatlariga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak, ularning muayyan qismi tilimizga o‘zga tillardan o‘zlashgan so‘zlar bo‘lib chiqadi. Ana shunday elementlar ishitiyor etgan maqollarga yuzlanamiz:

mo‘ndi [7.669] – *Bo‘zchi belboqqa yolchimas, Kulol mo‘ndiga*. Ushbu maqoldagi *mo‘ndi* so‘zi asl denotativ ma‘nosida “ko‘za” semasini ifodalashga moslashgan. Biroq, mazkur lekasemaga keltirilgan maqol matnida uslubiy jihatdan qo‘shimcha konnotativ ma‘nolarni ifodalash funksiyasi ham yuklanganini sezish qiyin emas, albatta. Ya‘ni, bo‘zchi o‘ziga belbog‘ qilishga, kulol esa o‘zi uchun ko‘za yasashga vaqti bo‘lmaydi, ular nuqul boshqalarga yordam beradi. Birovalarga foydasi tegib yuradigan ba‘zi odamlarning, ko‘pincha o‘zining shaxsiy ishlari orqada qolib ketadi. Ushbu maqol shunday odamlarga nisbatan ishlatilgan. Mazkur o‘rinda gap *mo‘ndi* arxaik elementi haqida emas, yaxshi insonlarning o‘z tashvishlari va yumushlarini bir chtga surib, o‘zgalarning xuddi shunday yumushini osonlashtirishga yordam berishi haqida ketmoqdaki, bunday xususiyat, odatda, o‘zbek millatiga mansub kishilarda kuzatiladi.

Buromad [5.381] – (*Daromadga qarab buromad*). Mazkur maqola tarkibida qo‘llanilgan *buromad* so‘zi ham aslan denotat sifaidagi semasi bilan “chiqim”, “sarf-xarajat” ma‘nosida bo‘lsa, maqoldan anglashiladigan umumiy ma‘noga ko‘ra kirimingga qarab chiqim qil, o‘z holingga yarasha ish ko‘r. Kirimingning mazasi bo‘lmasa-yu, chiqimni katta-katta qilib yuborsang, keyin o‘zingga qiyin bo‘ladi, degan ma‘noda iqtisod va tejamkorlik yuzasidan berildigan maslahat ma‘nosida qo‘llanilgan.

Mazkur maqolga ham uslubiy jihatdan qo‘shimcha konnotatsiya vazifasi yuklangan bo‘lib, unda o‘z holingga yarashadigan ish qil. Bu o‘rinda albatta aromad, moliyaviy ahvol ma‘nosi yetakchi o‘ringa qo‘yilgan bo‘lishi birinchi navbatda ko‘zga tashlanadi. Shunday bo‘lsa ham, maqolning umumiy ma‘nosi juda keng qamrovli bo‘lib, unda boshqa ko‘rinishdagi inson holati va ahvoli ham nazarda tutilishi mumkin. Shu o‘rinda yana bir fakt iyytib o‘tish joyiz deb hisoblaymiz.

G‘arb madaniyatida bunga qarshi qo‘yiluvchi g‘oyalar kuzatiladi. Masalan, slavyanlarda “tavakkal qilish olijanob ish” (ya‘ni, риск благородное дело) kabi g‘oyaviy jihatdan o‘zbek milliy madaniyatiga unchalik ham mos kelmaydigan fikrlar ham mavjud. O‘zbeklarda “*Yetti o‘lchab – bir kes*” yoki yuqorida keltirilgan “*Daromadga qarab – buromad*” kabi maqollarimiz mavjudki, bular g‘arb madaniyati bilan deyarli qarama-qarshi kelib qolgan tushuncha va g‘oyalarni anglatadi. Ya‘ni, bor budini bir ishga tikib

tavakkal qilish qadimdan, ota-boblarimiz tomonidan ma'qul bo'lmagan ish sifatida aytib kelingan.

Keltirgan maqolimizdagi buromad so'zining qo'llanishi haqida birgina xulosa chiqarishimiz mumkin. ushbu maqoldagi barcha so'zlar arxaiklashmaganligiga faqat birgina "*buromad*" so'zi eskirgan ekanligiga e'tibor qilinsa, bu so'zning maqol tarkibiga kirishiga uning fonetik tarkibi, ya'ni "*daromad*" so'zi bilan qofiyadosh bo'lib chiqqani sabab bo'lgan deyish mumkin.

Kift [6.377] – *Onangni kiftingda tutsang, singlingni boshingda tut.* Ushbu maqolda qo'llanilgan *kift* so'zi haqida turli munozaralar ham kuzatiladi. Mazkur *kift* so'zi ham u bilan noto'g'ri ravishda almashtirilib qo'llaniladigan *kaft* so'zi ham etimologik jihatdan arabiy tillarga taalluqli leksemalar hisoblanadi. Buni o'sha so'zlar izohi keltirilgan o'zbek tilining izohli lug'ati hamda Sh.Rahmatullayev tomonidan nashrga tayyorlangan "O'zbek tilining etimologik lug'ati" [3.202] ham tasdiqlab beradi. Ba'zilar bu so'zni arabiy tillarga aloqador bo'lgan *kaft* so'zi bilan almashtirib qo'llaydilar.

Mazkur leksemalarni o'zaro paronimlik hosil qiladi deb hisoblash to'g'ri bo'ladi va ularning tovush kompleksi bir-biriga juda yaqin bo'lgani uchun ham ularni biri ikkinchisining o'rnida qo'llanilish holatlari kuzatiladi. Har ikkala so'z ham aslan arabiy tillarga aloqador *kaff (un)* shaklidan olingan bo'lib, forsiy tillarga o'zak oxiridagi bitta "f" undoshi tushib qolgan holatda "*kaf*" tarzida o'zlashgan. Xuddi shu shakl o'zbek tiliga o'zlashganda uning oxiriga bitta "t" undoshi qo'shib ishlaydigan bo'lgan. Buning ham o'ziga xos sababi mavjud bo'lib, Sh.Rahmatullayevning keltirishicha: "*yelka* ma'nosini bildiruvchi arabcha *kift* so'zining *kaft* shakli sabab bo'lgan, ...*kaft* so'zi ham xuddi *kaf* so'zi kabi qo'lning bilak uchi bilan barmoqlar oralig'idagi yassi qismi ma'nosini anglatadi..." [3.199].

Bizningcha, ushbu so'zlarning almashtirib qo'llanilishiga ham ularning bitta 'zakka aloqadorligi sabab bo'lgan. Semantik jihatdan esa, yuqorida keltirilgan maqolda *yelka* ma'nosidagi *kift* so'zi qo'llanishi lozim. Chunki, o'zbek mentalitetida singilni ulug'lash motivlari anchayin keng taraqqiy qilgan. O'zbek xalq maqollari izohlari bilan nashr etilgan "Hikmatnoma" kitobida yuqoridagi maqolga shundau izoh berildi. "...*Onangni kiftingda tutsang, singlingni boshingda tut.* "Hokimnikidan ham singlimniki zo'r" degan maqol ham bor. Bu maqolari bilan xalq singilni nihoyatda hurmat qilish zarurligini uqtiradi, "onangdan yuqori tut" deb mubolag'a qiladi..." [4.302]. Demak, yuqoridagi maqolda agarchi onagnni yelkangda tutadigan bo'lsang, singlingni undan ham baland tut degan mazmun anglahiladi.

Keltirilgan maqoldagi kift soʻzi ham oʻz asl maʼnosidan maʼlum darajada siljigan boʻlib konnotatsiya hodisasining yuzaga kelganligini sezish qiyin emas. Bu oʻrinda yelka, bosh leksemalari qay darajada hurmat qilish lozimligiga ishora qiluvchi uslubiy konnotasiyaning aynan oʻzi deb hisoblashga barcha asoslar yetarli deb oʻylaymiz. Bu kabi maqollar tarkibidagi konnotativ funktsiya bajaruvchi, shu bilan birga, arxaiklashgan leksemalarning til qatlamlariga eʼtibor qilinsa, ularning aksariyati oʻzlashgan qatlamga xos birliklar ekanligi maʼlum boʻladi. Jumladan, karvon, buromad, kift va boshqa koʻplagan arxaik birliklar arab-fors leksik qatlamiga mansub hisoblandi.

Oʻzbek xalq maqollarida uchraydigan arxaik leksemalarning katta foizi arab yoki fors tillariga taalluqli boʻlishiga sabab, mazkur tillarga oid birliklar tariximizning oldingi davrlariga xos lisoniy koloritni yuzaga keltirish funksiyasiga xoslanishidir. Maqolar aksariyat hollarda axloqiy, tarbiyaviy xarakterga asoslangani uchun, undagi soʻzkarning taʼsirli boʻlishi koʻproq oʻtmishga, ota-bobolar oʻgitlariga yaqinlashtirish uchun tarixiy va eskirgan soʻzlar maqolar matnidan chiqarib tashlanmaydi. Zamonlar osha ham qadimiyligi boʻrtib turishi uchun, bu soʻzlar avvalgi zamonlardan buyon aytilib, amal qilinib kelinayotganligini ifodalashga xizmat qiladi.

Tuychiyeva Xilola Zokirjon qizi
Farg‘ona davlat universiteti o‘qituvchisi
tuychiyevafdu1993@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada Farg‘ona vodiysi sharoitida iqlimlashtirilgan dukkakkoshlar oilasiga mansub manzarali daraxtlar haqida ma’lumotlar berilgan. Jumladan oq akatsiya, shoyi akatsiya, arg‘uvon, yapon saforasining bioekologiyasi haqida ma’lumot berilgan.

Kalit so‘zlar: dendroflora, iqlimlashtirish, flora, ipak akatsiyasi, yasmiqcha, nektar, gledichiya, arg‘uvon, tuxumak, oq akatsiya.

ABSTRACT

This article provides information about ornamental trees of the legume family, which are acclimatized in the conditions of the Fergana valley. Including information on the bioecology of white Albizzia julibrissin Durazz, Gleditsia triacanthos L, Cercis siliquastrum L, Sophora Japonica L.

Keywords: dendroflora, acclimatization, flora, Albizzia julibrissin Durazz, Gleditsia triacanthos L, Cercis siliquastrum L, Sophora Japonica L, lentil, nectar.

Farg‘ona vodiysi dendroflorasida iqlimlashtirilgan daraxt va butalar xilma-xilligi va turlarga g‘oyat boyligi bilan ajralib turadi. Keyingi yillarda ko‘kalamzorlashtirishga alohida e’tibor berilishi bois ularning xilma-xilligi yanada ortib bormoqda. Mazkur o‘simliklar ayni hudud florasini boyitibgina qolmay, hududga o‘ziga xos chiroy baxsh etadi..

Quyida Farg‘ona shahrida iqlimlashtirilgan, shahar ko‘chalari hamda istirohat bog‘larini ko‘kalamzorlashtirishda keng foydalanilayotgan manzarali daraxt va butalarga qisqacha to‘xtalib o‘tamiz.

Shoyi akatsiyasi yoki ipak akatsiyasi (Albizzia julibrissin Durazz.) o‘rta bo‘yli daraxt o‘simlikdir, uning bo‘yi 10—12 m ga, diametri 40 sm ga yetadi. Shox-shabbasi soyabon shaklda bo‘lib, nihoyatda chiroyli. May oyining oxiri — iyunning boshlarida gullaydi. Guli nektarli. Mevasi yassi dukkak. Ipak akatsiyaning xarakterli belgilaridan biri shuki,

kechqurun quyosh botgandan keyin barglari yig'iladi va osilib turadi. Ertalab kun yorigach yana o'z holiga qaytadi. Sovuqqa chidamsiz. Farg'ona vodiysida uchratish mumkin.[1,2,3]

Gledichiya (*Gleditsia triacanthos* L.) bo'yi 25—30 m ga diametri 0,7 m ga yetadigan katta daraxt. Shox-shabbasi katta, yoyiq, siyrak po'stlog'i silliq, qo'ng'ir-kul rangda, yosh novdalari va shoxlarining po'stlogi kul rang. Novda, shoxlaridagi barglar qo'ltig'ida shoxlanib, bu tikanlar o'zgargan novdalardir. Barglari uzun bandli, novdalarining pastki qismidagilari juft patsimon, o'rta qismidagilari qo'sh patsimon tuzilgan. Bargchalari mayda, oval shaklda, cheti tekis. Gledichiya may oyida gullaydi. Gullari kichik shingilsimon to'pgul hosil qiladi. Gledichiya tez o'sadi, 120 yilgacha yashaydi. U har xil yerlarda o'sa oladi. Yorug'sevar, sovuqqa chidamsiz daraxt, Janubiy tumanlarda va Markaziy Osiyo respublikalarida yaxshi o'sadi. U asosan ixota o'rmon qatorlari barpo qilishda muhim rol o'ynaydi.

Arg'uvon daraxt o'simlik bo'lib, balandligi 3—6 metrlar atrofida, novdasi silliq, qo'ng'ir rangda, barglari navbat bilan joylashadi, ular oddiy, yumaloq yoki buyraksimon bo'lib, uchi yumaloq yoki o'yiqlik, tubi yuraksimon, cheti tishchasiz, tuksiz, bo'yi 5—8 sm, eni 7—12 sm. Barg bandi 20—30 mm, 5—7 ta asosiy tomiri bor. Gullari binafsha rangda, to'pguli katta shingilcha hosil qiladi. Daraxti barg yozishdan oldin gullaydi, guli nektarli. Mevasi uzun, yassi dukkak, yuqori choki qanotchali. Yogochi qattiq, og'ir, o'zakli bo'lib, o'zagi yashil-sariq, tevaragi oq-pushti rangda. Bu daraxt urug'dan ko'payadi. Urug'i unib chiqish xususiyatini 2 yilgacha saqlaydi. Manzarali daraxt sifatida Qrimda ko'p ekilgan. Sovuqdan qisman zararlanadi. Issiqqa, qurg'oqchilikka juda chidamli. Bulardan tashqari, oddiy bagryanik (*Cercis siliquastrum* L.) ham ko'klamzorlashtirish maqsadlarida ko'plab ekiladi.[4,5,6]

Yapon saforasi (*Sophora japonica* L.) ning bo'yi 20 m dan ortadL shox-shabbasi yoyiq, sharsimon, nihoyatda xushmanzara. Po'stlog'i katta yoshida bo'yiga yorilgan bo'ladi va qoramtir tusga kiradi, shoxi va novdalarining pustlogl silliq va to'q yashil bo'lib, yasmiqchalari bor. Barglari navbat bilan joylashadi, toq patsimon tuzilgan bo'lib, 7—17 ta tuxumsimon bargchalardan iborat. Tuxumak may oyida gullaydi, gullari oq sariq, kapalaksimon bo'lib, novdasining uchida shingil ro'vak hosil qiladi. U nektar chiqarib turadigan o'simlik. Dukkagi oktabr oyida yetiladi, u daraxtda osilib turadi, seret, sirti cho'tir, pallalarga ajralmaydi, yelimsimon suyuqlik bilan to'la, avval yashil bo'lib, so'ng to'q qizil rangga kiradi. Urug'i qora bo'lib, loviyaga o'xshab ketadi. U bahorda sepilsa, 10—15 kundan so'ng unib chiqadi. O'q va yon ildizlari baquvvat bo'lib rivojlanadi, to'nkasidan ko'karadi. Daraxti tarkibida zaharli modda bor, ammo undan

hayvonlar zararlanmaydi. Tuxumakning yog‘ochi o‘zakli, qattiq. Yorug‘sevar o‘simlik, yer tanlamaydi, sho‘rtob tuproqda ham o‘saveradi, qurg‘oqchilikka chidamli. Tuxumak xushmanzara daraxtlardan biri hisoblanadi. Chunki chiroyli gullaydi. Tuproqni yomg‘ir yuvib ketishidan saqlash uchun uni tog‘larga ekish muhim ahamiyatga ega. Ko‘kalamzorlashtirish ishlarida keng qo‘llash tavsiya yetiladi.[7,8]

Oq akatsiya (*Robinia pseudoacacia* L) bo‘lib, Oq akatsiya toq-patsimon barglarga ega bo‘lib, gullari besh tishli gulkosasiga va kapalaksimon gulbandiga ega. Mevasi ko‘p urug‘li yassi dukkak. Oq akatsiya issiqqa, yorug‘likka talabchan bo‘lib, hayotining dastlabki davrlarida tez o‘sadi, 10-12 yoshidan boshlab o‘shish tezligi pasayib ketadi va hosilga kiradi. Yaxshi aeratsiyaga ega yengil tuproqlarni ma‘qul ko‘radi, tuproq zichlashuvidan zarar ko‘radi. Oq akatsiya daraxti qimmatli o‘rmon meliorativ daraxt sifatida seleksiya obyekti bo‘lib xizmat qilgan, uning shimoliy hududlarda o‘shishga moslashgan sovuqqa bardoshli shakllari yaratilgan. Oq akatsiya Markaziy Osiyoga introduksiya qilinganiga 100 yildan oshib ketgan. Oq akatsiyaning ildiz sistemasi juda moslashuvchan, o‘q ildizidan tashqari gorizontol ipsimon ildizlari ona daraxtdan atrofga tarqalib o‘sadi. Oq akatsiya qurg‘oqchilikka chidamli daraxt sifatida o‘rmon melioratsiyasida keng qo‘llaniladi, ayniqsa ihota o‘rmonlari barpo etish uchun tavsiya etilgan eng muhim daraxt turlaridan biri hisoblanadi. Farg‘ona vodiysidagi manzarali daraxtlarning aksariyat qismi iqlimlashtirilgan daraxtlar hisoblanadi.

Shunday qilib, xalq xo‘jaligida daraxt-butalaming ahamiyati juda katta va turli-tumandir. Daraxt turlarining qimmatli xususiyatlarini to‘g‘ri baholash uchun ushbu turning barcha biologik, ekologik va fiziologik xususiyatlarini bilish zarur.[9,10]

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. kizi Tuychiyeva, X. Z., & Turdibekov, M. (2022). BIOECOLOGICAL CHARACTERISTICS OF SOPHORA JAPONICA. *Educational Research in Universal Sciences*, 1(7), 146-151.
2. qizi Tuychiyeva, X. Z. (2023, January). Biologiya darslarida zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanishning afzalliklari. In *international conferences* (Vol. 1, No. 1, pp. 378-380).
3. qizi Tuychiyeva, X. Z., & Turdibekov, M. (2022, December). THE ECOSYSTEM OF INSECTS. In *INTERNATIONAL CONFERENCES* (Vol. 1, No. 19, pp. 110-113).
4. qizi Tuychiyeva X. Z. O ‘SIMLIKLARNI ZARARKUNANDA HASHAROTLARDAN HIMOYA QILISH USULLARI //Educational Research in Universal Sciences. – 2023. – T. 2. – №. 1. – C. 33-39.

5. Tuychiyeva X. YAPON SAFORASI (SOPHORA JAPONICA L) NING BIOEKOLOGIK XUSUSIYATLARI //Talqin va tadqiqotlar. – 2023. – T. 1. – №. 8.
6. qizi Tuychiyeva X. Z., Turdibekov M. ANTROPOGEN MUHIT OMILLARI VA ULARNING HASHAROTLARGA TA’SIRI //GOLDEN BRAIN. – 2023. – T. 1. – №. 2. – C. 296-273.
7. Qizi X. T. Z. Markaziy Farg‘ona tabiat yodgorligi hududida tarqalgan umurtqasiz hayvonlar asosiy turlarining bioekologiyasi va trofik aloqalari //Ta’lim fidoyilari. – 2022. – T. 8. – C. 154-166.
8. Muhiddinov, A., & qizi Tuychiyeva, X. Z. (2023). JISMONIY RIVOJLANISH SOG ‘LIQNI SALASH HOLATINI BAHOLASHDAGI O ‘RNI. *GOLDEN BRAIN*, 1(4), 83-87.
9. Barnogul K., Khilola T. The essence of the biological education process, teaching printouts and legislation //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2022. – T. 11. – №. 4. – C. 129-133.
10. Kamalova H., Tuychieva H. Improving the spiritual immunological education of academic lyceum students specific issues //Asian Journal of Multidimensional Research. – 2021. – T. 10. – №. 4. – C. 616-620

MADANIY-OMMAVIY TADBIRLARNING JAMIYAT MA'NAVIY HAYOTIDA TUTGAN O'RNI

Samiyev Baxtiyor Norbobo o'g'li,

Ilmiy rahbar: **Xolmo'minov Mo'minmirzo**
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
mominmirzoxolmominov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi globallashuv davrida madaniy-ommaviy tadbirlarning jamiyat ma'naviy hayotidagi o'rni va uning maqsadi haqida atroflicha fikrlar yuritilgan.

Kalit so'zlar: Ma'naviyat, ommaviy - madaniy tushuncha, tadbir, jamiyat, globallashuv, iqtisodiyot, salohiyat, urf-odat.

Annotation: In this article, in the context of current globalization, the role of mass cultural events in the spiritual life of society and its purpose are discussed.

Keywords: Spirituality, a popular cultural concept, event, society, globalization, economic, potential, tradition.

Mamlakatimiz mustaqillikka erishgan davridan boshlab, olib borilayotgan barcha iqtisodiy, siyosiy jarayonlarning asosida ham ma'naviy-marifiy, axloqiy va tarbiyaviy ishlarning hamohangligini kuzatish mumkin. Shu jihatdan olib qaralganda, madaniyat va san'atga aloqador bo'lgan sohalarda yurt tinchligi, vatan ravnaqi, komil inson kabi tushunchalar talqini muhim ijodiy va tashkiliy jarayonlarni qamrab oladiki, unda madaniyat xodimlari, san'at sohasi vakillari zimmasiga katta ma'suliyat yuklanadi. Zero, so'z madaniyat va san'at, milliy mafkura ma'naviy g'oya haqida borar ekan, unda madaniy va ommaviy tadbirlarning jamiyat taraqqiyotidagi muhim ahamiyati beqiyosligini hech kim inkor etolmaydi. Ommaviy san'at asarlari hisoblangan teatr, kino yoki ommaviy tadbirlarni mazmunli, maqsadli niyatga erishishda san'atning barcha turlaridan foydalaniladi va tomoshabinlarga taqdim etiladi. Ammo deyarli tashkil etiladigan barcha tadbirlarning asosida ma'naviy, tarbiyaviy va axloqiy, ma'rifiy jarayonlarning yotganligiga shubha yo'q. O'z o'rnida madaniy-ommaviy tadbirlarning jamiyat ma'naviy hayotida tutgan o'rni beqiyosdir.

Madaniy-ommaviy tadbirlar deganda – eng avvalo milliy g‘oya asosida xalqni birlashtirish, jipslashtirish, yosh avlod ongi va qalbida ezgu g‘oyalarga sadoqat tuyg‘ularini tarbiyalashga, shuningdek, kishilarni ma‘naviy tajovuzlardan ogohlikka, chorlash, ularni mohiyatini anglab yetishga qaratilgan tizimli shakllar, usullar, vositalar va maqsadli amaliy harakatlar majmuidir [1;5]. Shundan bilishimiz mumkinki, madaniyat va san‘at maskanlarida , xususan, madaniyat va istirohat bog‘larida o‘tkaziladigan tadbirlarda ham eng asosiy masala yoshlar ongi va qalbida mustaqillik g‘oyasi, yuqori ma‘naviyat va insonparvarlik an‘analariga sadoqat tuyg‘ularini yanada chuqur ildiz otishi, radikalizm va eksteremizmdek yot g‘oyalarga qarshi immunitetni mustahkamlash kabi vazifalarga yuklatiladi bu tadbirlarning vazifasi hisoblanadi. Yoshlarni milliy va umuminsoniy qadriyatlarga nisbatan hurmat ruhida tarbiyalash, yosh avlodda hayotga qat‘iy ishonch va qarashni, mentalitetimizga yot bo‘lgan zararli ta‘sir va oqimlarga qarshi tura oladigan qobiliyatini rivojlantirish bugungi madaniy - ommaviy tadbirlarini tashkil etish mutasaddilarining asosiy ustuvor vazifalaridan biri hisoblanadi. Shu jihatdan ham madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etish, uning dramaturgiyasini yaratishda ham tarbiyaviy ahamiyatga ega bo‘lgan manbalarni qo‘llay olish, unda odob, axloq, jamiyat taraqqiyoti, insonlarni bilimli, ilimli qilish, ma‘naviyat bilan qurollantirish, komil insonni tarbiyalashga qaratilgan vazifalar dolzarbligini yo‘qotmaydi. Mana shunday ulkan ishlarni amalga oshirishda madaniy tadbirlarni tashkil etish, uni tarbiyaviy jarayonlarga yo‘naltirish-hozirgi kunning asosiy masalasidir. Hozirgi kunda olib borilayotgan, tashkil etilayotgan barcha jarayonlar ta‘lim va tarbiya asosiga qurilgan desak, mubolag‘a bo‘lmaydi. Prezidentimiz tomonidan ishlab chiqarilayotgan dasturlarimizning asosini ham mana shu ikki jarayon asosida tuzilgan deyishimiz mumkin. Sababi, yoshlar tarbiyasi, ma‘naviyat masalalari, ta‘lim berish kabi vazifalar davlatimiz tomonidan ishlab chiqilayotgan qaror, farmon va farmoyishlarida o‘z aksini topganligi barchamizga ayon. Shu bois, ta‘lim va tarbiya masalalari davlatimiz siyosatining ustuvor vazifalaridan ekanligini barchamiz to‘g‘ri anglashimiz zarur. Muhtaram yurtboshimiz "Ma‘naviyatni shakllantirishga bevosita ta‘sir qiladigan muhim hayotiy omil - bu ta‘lim - tarbiya tizimi bilan chambarchas bog‘liqdir", deb aytganlari aynan mana shu sohaning vazifalarini to‘g‘ri anglashga undaydi. Shu jihatdan ham tarbiya masalasi barcha masalalardan yuqori turishliklarini anglash qiyin emas. "Ta‘limni tarbiyadan, tarbiyani esa ta‘limdan ajratib bo‘lmaydi - bu sharqona qarash, sharqona hayot falsafasidir”.

Hozirgi globallashuv davrida madaniy-ommaviy tadbirlarni tashkil etishdan asosiy maqsad – milliy va dunyo madaniyatlarining eng yaxshi namunalarini keng targ‘ib qilish va uni ommalashtirish, o‘sib kelayotgan kelajak avlodni, zamonaviy yoshlarni ma‘naviy

tarbiyalash, milliylikiga, millatiga, tarixiga, o'zligiga ya'ni butun insoniyatga bo'lgan hurmatini uyg'otish va uni asrab avaylash, ma'naviy-ma'rifiy islohotlarda faol ishtirok etishidir[2;20]. Zotan, xalqlarning o'ziga xosligi, betakrorligini saqlash, tarixan shakllangan qadimiy milliy madaniyatlar, san'at va xalq ijodiyoti, yuz yillar davomida tarkib topgan milliy an'ana va urf-odatlarining o'zaro yaqinlashuvi va bir-birini boyitish uchun, dunyoda yashayotgan turli millat va elat vakillari o'rtasida o'zaro hurmat muhitini qaror toptirish uchun madaniy tadbirlarning ahamiyatini alohida ta'kidlash maqsadga muvofiqdir. Bu borada O'zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasining 2014-yil 29-iyuldagi 205-sonli qarori "Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o'tkazish tartibini yanada takomillashtirish chora-tadbirlari" to'g'risidagi qarori ham ommaviy-madaniy tadbirlari tashkilotchilari va xodimlari uchun muhim dasturul amal bo'lib xizmat qilib kelmoqda desak yangilishmagan bo'lamiz.

Madaniy va ommaviy tadbirlarda shaxs o'z insoniy fazilatlarini shakllantira boshlaydi, yashirin, betakror, individual xususiyatlari, qobiliyatlarini kashf etadi, ularni o'stiradi va rivojlantirib boradi, jamiyat, hayot bilan muloqotga kirishadi. Aynan bu murakkab ijtimoiy-siyosiy voqelik paytida bu tadbirlarning o'ziga xosligi shundaki, u insoniyat avlodlarining mehnati va bilimlarini o'ziga singdirib oladi, saqlaydi, doimiy boyitib boradi. Madaniy –ommaviy tadbirlar milliy, o'zbekona qadriyatlar, an'analar, urf-odatlar orqali vujudga kelgan bo'lib, har bir odamni bir-biriga nisbatan mehr-shavqatli, oqibatli bo'lishga da'vat etadi, boyitadi. Undan tashqari tili va dini, millatidan qat'i nazar bo'lgan barcha xalqlarni bir-biriga yaqinlashtiradi. Bunga misol jonajon O'zbekistonimizni keltirishimiz mumkin, hozirgi kunda yurtimizda 130 dan ortiq millat va elat vakillari tinch-totuv yashab, istiqomat qilib kelishmoqda, bu millat vakillari yurtimizda nishonlanadigan barcha bayramlarimizda ko'rishingiz mumkin va bu millat vakillari o'z urf-odatlarini bilan barcha bayramlarimizga qatnashishadi. Shuni uchun ham bu ommaviy-madaniy tadbirlar jamiyatimiz hayotini ajralmas bir qismi hisoblanadi. Madaniy-ma'rifiy ishlarning, jumladan, badiiy-ommaviy tadbirlarning o'ziga xos printsiplari quyidagilardan iborat:[4;22]

1. *Ommaviylik va ixtiyoriylik printsiplari.* Madaniy-ma'rifiy muassasalarda tashkil qilingan tadbirlarga kelish ixtiyoriydir. Tadbirlarga hech kimni majbur qilib qatnashtirib bo'lmaydi. Mehnatkashlar ko'ngliga yoqqan tadbirlarni tanlashlari va ularning qatnashchilari bo'lishi mumkin. Tadbirlar ommabop va hamma uchun qiziqarli bo'lmog'i shart. Bunga erishish uchun tashkil qilinadigan tadbirlar yuqori saviyada hamda aholinning asosiy ma'naviy ehtiyojlari va talablariga javob beradigan bo'lmog'i lozim.

2. *Jamoatchilikning tashabbuskorligi va havaskorligi printsiplari.* Tadbirlar faqat mahalliy aholi uchun va ularning ishtiroki bilan tashkil qilinadi. Professional kollektivlarda tomoshalar professional ijrochilar – aktyorlar, solistlar, raqqosalar bilan tayyorlansa, madaniy-ma’rifiy muassasalarda tadbirlarning qatnashchilari, a’zolari, asosan, jamoatchilik tashabbuskorlari va havaskorlardan tashkil topadi. Shuning uchun ham tadbirni uyushtirishda halq orasidan chiqqan tashabbuskor kishilarni hamda badiiy havaskorlik kollektivlarining a’zolarini keng jalb qilmoq va ularning faoliyatidan samarali foydalanmoq kerak.

3. *SHaxsning ma’naviy qiyofasini boyitish va o’stirish printsiplari.* Ma’lumki, kishi asosiy ish jarayonida va undan tashqari vaqtda o’zining ehtiyojini har tomonlama qondira olmaydi. Bu borada madaniy-ma’rifiy muassasalar, jumladan, ularda o’tkaziladigan rang-barang tadbirlar ham yordam berishi mumkin. Buning uchun aholining asosiy ishdan tashqari bo’sh vaqtlarida qaysi faoliyat bilan shug’ullanishi, qanday sohalarga qiziqishi va nimalarga ehtiyoji borligini aniqlab, maxsus tadbirlar tashkil qilish lozim.

4. *Axborot va badiiylikni (informatsion mantiq va emotsional obrazlilikni) uyg’unlashtirish printsiplari.* Madaniy-ommaviy tadbirlarda ommaga ma’lum darajada axborot va bilim beriladi. Ular aholini ko’proq qiziqitirish uchun tushunarli, badiiy barkamol va ta’sirchan bo’lishi kerak. Buning uchun tadbirda axborotni ko’proq badiiy-emotsional obrazli shaklda, ta’sirchan vositalardan keng foydalangan holda ommaga etkazish lozim.

5. *Dam olish jarayoni mazmunini go’zallashtirish printsiplari.* Tadbirlar, asosan, mehnatkashlarning asosiy ishdan holi vaqtida tashkil qilinadi hamda ularga maxsus dam olish shakllari havola etiladi. Mehnatkashlarning yaxshi hordiq chiqarishi uchun tadbirlarni estetik boyitish, go’zallik qonunlari asosida uyushtirish lozim. Tadbir o’tkaziladigan joyni ham, uyushtirilayotgan tadbir shaklining o’zini ham, undagi mazmun, harakat va so’zlarni ham ko’rkam, go’zal, badiiy-estetik bezash katta samara beradi.

Xulosa qilib shuni aytish joizki, madaniy-ommaviy tadbirlar jamiyatimiz va Yangi O’zbekistonimiz uchun juda muhim sohalardan biri hisoblanadi. Madaniy-ommaviy tadbirlar aholini ma’naviy kamol toptirish, madaniy saviyasini oshirish, bilimni o’stirish, dunyo qarashini kengaytirish, bo’sh vaqtini samarali o’tkazishga qaratilgan ijodiy va tashkiliy jarayonlardir. Ammo, ommaviy-madaniy tadbirlarni tashkil etish va boshqarish funksiyalarini ilmiy asoslanishi muhimdir. Shuning uchun ham yangi intellektual va innovatsion texnologiyalarga tayangan holda ijodiy va tashkilotchilik dunyoqarashimizni

shakllantirishimiz shart. Madaniy-ommaviy tadbirlarning tashkil etishning amaliy jihatlari, uning tarbiyaviy vositasi sifatidagi vazifalarini ko‘ra bilsak va yosh avlod ongiga yetkazsak, shundagina ong va saviya jihatidan yuksaladi va mustahkamlanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2014-yil, 29-iyuldagi 205-sonli “Ommaviy tadbirlarni tashkil etish va o‘tkazish tartibini yana takomillashtirish chora tadbirlari” to‘g‘risidagi qarori.
2. V. K.Rustamov. Ssenariynavislik mahorati. Toshkent. 2017-yil, 5-bet.
3. B.S.Sayfullayev, V.K.Rustamov. Madaniy tadbirlarni tashkil etish mahorati. Toshkent. 2016-yil, 20-bet.
4. <https://kompy.info/madaniy-tadbirlarni-tashkil-etish-maxorati.html>

RAHBARNING ISH USLUBIDA IMIJNING O'RNI

Samiyev Baxtiyor Norbobo o'g'li,

Ilmiy rahbar: **Xolmo'minov Mo'minmirzo**
O'zbekiston davlat san'at va madaniyat instituti
mominmirzoxolmominov@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada hozirgi zamonaviy rahbarlarning ish uslublarida imijning o'rni haqida fikrlar yuritilgan. Undan tashqari rahbarning imijda qaysi xususiyatlar borligi ham aytib o'tilgan.

Kalit so'zlar: rahbar, imij, etika, rahbarning ish uslubi, boshqaruv, xotirjamlik, ishchanchlik, emotsiya, zamonaviy rahbar.

Abstract: This article discusses the role of the image in the working methods of modern leaders. Besides, it is also mentioned what features the leader's image has.

Key words: leader, image, ethics, leader's work style, management, composure, diligence, emotion, modern leader.

Mustaqillik yillaridan buyon har bir muqaddas narsani inson nomi bilan bog'lash, inson omili, inson intellektiga katta e'tibor berib borilmoqda. Davlatning imiji esa insonlarning tinch-totuv, baxtli-saodatli yashashi bilan bog'liqdir.

Imij inglizcha so'z bo'lib, "obraz", "qiyofa" va "tasvir" ma'nolarini anglatadi. Bu muayyan shaxs, tashkilot yoki ijtimoiy obyektga nisbatan kishilar ongida shakllangan qiyofadir. U idrok etilayotgan obyekt to'g'risida hissiy bezalgan axborotning kattagina hajmini saqlaydi va muayyan ijtimoiy xatti-harakatga turtki beradi. Imij o'z egasi haqida axborot beradi, tez o'zgaradi, kishilar ongiga, hissiyotlarga, faoliyatiga hamda xatti-harakatlariga ta'sir ko'rsatadi. Imij insonlarning ruhiyatiga va tashqi qiyofasiga ta'sir ko'rsatadigan birdan-bir omil hisoblanadi. O'z o'rnida to'g'ri tanlangan imij shaxsning o'ziga bo'lgan ishonchini ortiradi. Insonlar imij orqali o'zgalar e'tiborini jalb qilish, xayrixohlik munosabatlarini o'rnatish, mulozamat ko'rsatishlari mumkin.

Zamonaviy rahbar imijini yaratish bu-uning yuzi, kiyinishi, qalbi, sog'lom fikri, muomala madaniyati, boshqaruvchanlik san'atini mukammal egalovchi shaxs, kompetentlik ya'ni, bilimi, tafakkuri, kasbiy mahorati, farosati, kamtar, xushmuomali

kabi insoniy fazilatlar, go‘zallik, axloqiylik, o‘g‘it va ibrat, ustoz va shogird an‘analariga tayangan holda insonning nufuzini ko‘rsatish, obro‘yini oshirish, hurmatga sazovor bo‘lishidir. Imij hozirgi kundagi rahbarlarning ish uslubini eng yaxshi sifatlarini namoyon qilishga yordam beradi. Zamonaviy rahbarning shaxsiy salbiy xususiyatlarini berkitadi. Masalan, pardoz-andoz, libos bezaklari, bichimi, soch turmagi va ish faoliyatiga oid rahbardagi mavjud nuqsonlardan kishilar e‘tiborini chalg‘itishi mumkin. Jozibador imij esa, o‘z o‘rnida kishilar e‘tiborini beixtiyor o‘ziga tortadi, boshqalarda yaxshi taassurot qoldiradi. Bu o‘z o‘rnida rahbar ish uslubining imij yondashuvi deyiladi.

Imijning asosiy vazifalari ham bo‘lib, bular;

Hozirgi zamon odamini tarbiyalash;

-turli soha mutaxassislari kasbiy mahoratini oshirish

-kasbiy faoliyatning piar bo‘yicha mutaxassis, stilist, imijmeyker kabi turlarini farqlash;

-odamlarga xos bo‘lgan jismoniy tortinchoqlikni yengish va ularning ma‘naviy boy dunyosini namoyon etishga yordam berish;

-shaxsda yashirinib yotgan ijobiy fazilatlarni aniqlash va ularni ro‘yobga chiqarishga yordam berish kabi vazifalar. Bu vazifalar rahbarlarning, balki har bir shaxsning asosiy imijining rivojlanishiga yordam beradi.

Rahbarning ish uslubi – bu boshqaruv jarayonida u yoki bu masalalarni hal qilishda uning o‘ziga xos yondashishidir. Rahbar qaror qabul qilganda, uning bajarilishini tashkil etadiganda va qo‘l ostidagi kishilar ishini nazorat qilganda o‘z vazifalariga muvofiq ish ko‘radi. Biroq, har bir rahbar bunda o‘ziga xos ravishda, boshqaruv jarayonida o‘zi uchun mos bo‘lgan, o‘z rahbarlik uslubini belgilaydigan usullar bilan harakat qiladi. Mutlaqo bir xil ikki kishi bo‘lmaganidek, rahbarlikda ham mutlaqo bir xil uslub yo‘q[1:104]. Rahbarlik uslubi rahbarlarning o‘z qo‘l ostidagilari bilan aloqasida, ularning o‘zaro munosabatlarida tarkib topadi. Rahbarning ish uslubi boshqaruv organining individual salohiyati, sifatleri, uning individual xususiyatlari bilan belgilanadi.

Rahbar imijining shakllanishi shaxslararo munosabatlarda, qiyin vaziyatlardan to‘g‘ri xulosa chiqarib olishda, qahr va mehrni o‘rnida ishlata olishda namoyon bo‘ladi. Hamma vaqt, hamma zamonlarda ishdagi hurmat va e‘tibor tamoyili xodimlarni ruhlantirgan va bu ish natijasida yaqqol ko‘zga tashlangan. Rahbarning do‘stona munosabatlari ko‘p holatlarda nizolarni bartaraf qilishga, tarafkashlik, loqaydlik holatlarining oldini olishga sabab bo‘lgan.

Bu borada o‘z navbatida menejerlar, ya‘ni rahbarlar salbiy illatlarning kamroq, ishga doir fazilatlarning ko‘proq bo‘lishida imijmeykerlarga ko‘maklashadilar. Faqat o‘ziga,

irodasiga ishongan ziyolilargina boshqalarning hurmatiga, havasiga loyiq, shuning uchun ham xodimlar e'tibori va hurmati bioenergetik quvvat to'ldirish va tiklash imkonini beradi. Rahbar shaxsining milliy e'tiqodi va ma'naviy qiyofasi, uning rahbarlik odobi ham imijining ijobiyligidan dalolat beradi. Shu o'rinda men bir jumlaning eslashim mumkin. Ya'ni mashhur yozuvchi Djonatan Svift ta'kidlaganidek: "Jamiyatda yorqin ko'rinish ko'pchilikka ham berilavermaydi, ammo ko'pchilik insonlar yoqimtoy bo'lishi mumkin". Bu fikr, men yuqorida takidlagan gapimning isboti desam, adashmagan bo'laman.

Rahbar uchun o'zining imijini shakllantirishda ushbu jihatlar ustundir: birinchi navbatda xotirjamlik, ikkinchi emotsiyani bildirmaslik, uchinchi ishchanlik kayfiyati, to'rtinchi sovuqqon bo'lish kabi jihatlar. Xotirjamlik – qabulga kirgan xodimning muammosini samarali tinglashga, ishchanlik kayfiyati boshqa jamoadoshlarga "yuqtirish"ga, emotsiyani bildirmaslik o'z muammosiga boshqalarning munosabatini yaqinlashtirmaslik, sovuqqon bo'lish esa, muammoning yechilishida odillikka olib keladi. Shuning uchun ham ish kuni tugagandan ertalabki ishdan kayfiyat saqlanib qoladi[2:14]. Ko'rinish turibdiki bu orqali biz rahbarning ish uslubi, imiji va ma'naviy, madaniy salohiyatini ham bilib olishimiz mumkin. Rahbar ish uslubida faqat imij emas, balki milliy madaniyatli bo'lishini ham taqozo etadi. Madaniyatli va muavaffaqiyatli bo'lishni istagan rahbar quyidagilarga rioya qilishi kerak: berilgan va'dani muddatida bajarishi, har qanday sharoitda o'z so'zining ustidan chiqishi, bekorga vaqt sarflashga sabab bo'ladigan foydasiz takliflarga e'tiborsiz va obektiv bo'lish, o'ziga va jamoasiga foydasi bo'lmagan takliflarni odob va muloyimlik bilan rad qilish, har qanday davrada yoki tadbirda o'ziga ishongan bo'lishi, katta ketishdan qochishi, rahbar sifatida qo'l ostidagilarning ko'nglini xira qilib emas, to'g'ri tarbiyalash, ularning unumli mehnati va tashabbusini rag'batlantirish, shaxsiyatparvaslik qilmaslik, o'z fikri ham hamma vaqt to'g'ri emasligini, mutlaqo yomon bo'lmagan boshqa fikrlar va nuqtai nazarlar borligini esdan chiqarmaslik, faoliyatidagi muavaffaqiyatsizlik, uzilish va xatolarni sinchiklab tahlil qilish, xodimlar orasida va ishda jahlni jilovlash, sabr-toqatni yo'qotmaslik kabi fazilatlar[3:44].

Xulosa qilib aytadigan bo'lsam, ba'zi rahbarlar yoki oddiy insonlar ham chiroyli bo'lmazligi mumkin, lekin ularda ma'naviy fazilatlar ko'p bo'lsa, o'zgalarning e'tiborini tortadi. Insonning ichki dunyosini his etish, uni tushunish, oldindan bo'ladigan muzokaralar yechimini his etish yoki o'z hamsuhbatining kayfiyatini bilib, mavzuni o'zgartirish qobiliyatiga ega bo'lgan inson faqat ezgu maqsadni ro'yobga chiqishiga sababchi bo'ladi, yomonlikni oldini oladi. Lekin hozirgi kundagi zamonaviy rahbarning imiji uning dunyoqarashi, ma'naviyatining ko'zgusidir. Ma'naviyat esa, barcha rahbar va

insonlarning madaniy mezonidir. Ma'naviy barkamol shaxs, nima yaxshi-yu nima yomon ekanini ajratib, hayotda oqilona qarorlar qabul qiladi. Ma'naviy-axloqiy sifatlarni qaror toptirish hozirgi zamonaviy rahbarlar imijining ajralmas bo'g'inidir. Zero, ma'naviy salohiyatli barkamol, intellektual rahbar yurt tayanchi va kelajak avlod suyanchi hisoblanadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. A.Haydarov. Ijodiy ishlab chiqarish faoliyatini rejalashtirish,tashkil etish va boshqarish. – T. “Yangi nashr” nashriyoti. 2016-yil, 104-bet.
2. S.To'ychiyeva. Madaniyat va san'at muassasalari faoliyatini tashkil etish va boshqarish. – T. “Fan va ta'lim” nashriyoti. 2020-yil, 114-bet.
3. M.Sharifxo'jayev, Y.Abdullayev.Menejment. – “O'qituvchi” nashriyoti. 2001-yil, 44-bet.
4. Mo'minmirzo Zokir o'g'li Xolmo'minov. 2017-2022-yillar mobaynida madaniyat va san'at sohasida amalga oshirilgan ishlar sarhisobi. “Oriental Art and Culture” jurnali. Qo'qon 2022. <https://scholar.google.com>
5. Ziyodaxon Dilshodjon qizi To'g'onboyeva, Xolmo'minov Zokir o'g'li Mo'minmirzo. Yangi O'zbekistonda madaniyat va san'at sohasiga qaratilayotgan chora-tadbirlar “Oriental Art and Culture” jurnali. Qo'qon 2022. <https://scholar.google.com>
6. Mo'minmirzo Xolmo'minov, Asilbek Qolqanatov. Mufassal mushohadalar me'moridan mufassal mushohadalar meroji. “Oriental Art and Culture” jurnali. Qo'qon 2022. <https://scholar.google.com>
7. Asal Farhod qizi Xayriddinova, Mo'minmirzo Zokir o'g'li Xolmo'minov. Ma'naviyat va kitobxonlik inson qalbini egallash vositasi. “Oriental Art and Culture” jurnali. Qo'qon 2022. <https://scholar.google.com>
8. Mo'minmirzo Zokir o'g'li Xolmo'minov. Professor Azamat Haydarov kitoblarida ma'naviy ma'rifiy islohotlar tahlili. “Oriental Art and Culture” jurnali. Qo'qon 2022. <https://scholar.google.com>
9. Samiyev Baxtiyor Norbobo o'g'li, Ilmiy rahbar: Mo'minmirzo Xolmo'minov. Huquqiy madaniyatning shaxs va davlat bilan uzviy bog'liqligi. “Conference on Universal Science Research 2023”. 2023/2/12. 240-242 b
10. Mo'minmirzo Xolmo'minov, Asilbek Qolqanatov. O'zbekistonda madaniy-ma'rifiy ishlar va kutubxonalar faoliyati (XX asr

tajribalaridan). “Oriental Art and Culture” jurnali. Qo‘qon 2022.
<https://scholar.google.com>

11. Mo‘minmirzo Xolmo‘minov, Asilbek Qolqanatov. Himmat – inson umrining bezagi. Kutubxona uz. Jurnal. 2022/4/56. O‘zbekiston Milliy kutubxonasi matbaa bo‘limi. 12-13-betlar.

12. Samiyev Baxtiyor Norbobo o‘g‘li, Ilmiy rahbar: Mo‘minmirzo Xolmo‘minov. Ma’naviyat – inson va jamiyatning negizi sifatida. “Conference on Universal Science Research 2023”. 2023/2/12. 240-242 b

13. Asal Farhod qizi Xayriddinova, Ilmiy rahbar: Mo‘minmirzo Zokir o‘g‘li Xolmo‘minov. Sifatli ta’lim va ma’naviy tarbiya uyg‘unligi. “Oriental Art and Culture” jurnali. Qo‘qon 2023. <https://scholar.google.com>

14. Mo‘minmirzo Zokir o‘g‘li Xolmo‘minov. Teatr faoliyatida boshqaruv jarayonlarini tashkil etish usullari. “Oriental Art and Culture” jurnali. Qo‘qon 2022. <https://scholar.google.com>

15. Mo‘minmirzo Xolmo‘minov. Madaniyat va san’at sohasida davlat-xususiy sheriklik loyihalarini amalga oshirish. Oriental Art and Culture jurnali. Qo‘qon 2022. <https://scholar.google.com>

16. Mo‘minmirzo Xolmo‘minov. Madaniyat markazlari faoliyatini moliyalashtirishning asosiy omillari. Oriental Art and Culture jurnali. Qo‘qon 2022. <https://scholar.google.com>

ОСОБЕННОСТИ РУССКОГО НАЦИОНАЛЬНОГО СОЗНАНИЯ В ЛИРИЧЕСКОЕ НАСЛЕДИИ Н.А.НЕКРАСОВА

Рахимов Хасан Шокирович

Самаркандский государственный университет

E-mail: hr671118@gmail.com

Аннотация: В статье исследуется многообразие проявлений человеческих отношений и чувств: любовь, дружба, супружество, отношения по принципу «писатель-критик». Исследуется личность самого поэта.

Ключевые слова: поэт, своеобразие лирики, литература, образ, поэмы.

Features of the Russian national consciousness in the lyrical heritage of N.A.Nekrasov

Abstract: The article explores the variety of manifestations of human relationships and feelings: love, friendship, marriage, relationships based on the principle of "writer-critic", the personality of the poet himself is investigated.

Key words: poet, originality of lyrics, literature, image, poems.

ВВЕДЕНИЕ

Поэт, прозаик Родился 1821 года 28 ноября в местечке Немирове Подольской губернии в семье мелкопоместного дворянина. Детские годы прошли в селе Грешневе, в родовом имении отца, человека деспотического характера, угнетавшего не только крепостных, но и свою семью, чему был свидетелем будущий поэт. Ф. Достоевский позднее написал о Некрасове: «Это было раненное в самом начале жизни сердце; и эта-то никогда не заживавшая рана его и была началом и источником всей страстной, страдальческой поэзии его на всю потом жизнь». Мать поэта, женщина образованная, была первым его учителем, она привила любовь к литературе, к русскому языку. В 1832 — 37 Некрасов учился в Ярославской гимназии. Тогда же начал писать стихи. В 1838, против воли отца, будущий поэт уезжает в Петербург поступать в университет. Не выдержав вступительные экзамены, определился вольнослушателем и в течение двух лет посещал лекции на филологическом факультете. Узнав об этом, отец лишил его всякой материальной поддержки. Бедствия, выпавшие на долю Некрасова, нашли

впоследствии отражение в его стихах и незаконченном романе «Жизнь и похождения Тихона Тростникова». С 1841 начал сотрудничать в «Отечественных записках».

В 1843 Некрасов встречается с Белинским, идеи которого находят отклик в его душе. Появляются реалистические стихи, первое из которых — «В дороге»(1845) — получило высокую оценку критика. Благодаря своему острому критическому уму, поэтическому таланту, глубокому знанию жизни и предприимчивости Некрасов становится умелым организатором литературного дела. Он собирает и публикует два альманаха: «Физиология Петербурга» (1845), «Петербургский сборник» (1846), где были напечатаны очерки, рассказы, повести Тургенева, Достоевского, Белинского, Герцена, Даля и др. В 1847 — 66 был издателем и фактическим редактором журнала «Современник», сплотившим лучшие литературные силы своего времени. Журнал становится органом революционно-демократических сил. В эти годы Некрасов создает лирические стихи, посвященные его гражданской жене Панаевой, поэмы и циклы стихов о городских бедняках («На улице», «О погоде»), о судьбе народной («Несжатая полоса», «Железная дорога» и др.), о крестьянской жизни («Крестьянские дети», «Забытая деревня», «Орина, мать солдатская», «Мороз, Красный нос» и др.). В период общественного подъема 1850 — 60-х и крестьянской реформы поэт пишет «Поэт и гражданин», «Песня Еремешке», «Размышления у парадного подъезда», поэму «Коробейники». В 1862, после событий 1861, когда лидеры революционной демократии были арестованы, Некрасов побывал в родных местах, Грешневе и Абакумцеве, итогом чего явилась лирическая поэма «Рыцарь на час» (1862), которую сам поэт выделял и любил. В этот год Некрасов приобретает усадьбу Карабиха, недалеко от Ярославля, куда приезжал каждое лето, проводя время на охоте и в общении с друзьями из народа. После закрытия журнала «Современник» Некрасов приобретает право на издание «Отечественных записок», с которым были связаны последние десять лет его жизни. В эти годы работает над поэмой «Кому на Руси жить хорошо» (1866 — 76), пишет поэмы о декабристах и их женах («Дедушка», 1870; «Русские женщины», 1871 — 72). Кроме того, создает серию сатирических произведений, вершиной которых стала поэма «Современники» (1875). Для поздней лирики Некрасова характерны элегические мотивы: «Три элегии»(1873), «Утро», «Уныние», «Элегия» (1874), связанные с утратой многих друзей, сознанием одиночества, тяжелой болезнью (рак). Но появляются и такие, как «Пророк» (1874), «Сеятелям» (1876). В

1877 — цикл стихов «Последние песни». Умер Н. Некрасов 27 декабря 1877 (8 января 1878 н.с.) в Петербурге

ЗАКЛЮЧЕНИЕ

Он опубликовал здесь главы поэмы “Кому на Руси жить хорошо”, поэмы о декабристах — “Дедушка” (1870) и “Русские женщины” (1872—73), сатиру “Современники” (1875—76). В этих произведениях (они появились в печати с большими цензурными искажениями), а также в лирике Некрасова воплощены важнейшие черты эпохи 70-х гг., когда крепло движение революционного народничества, начиналось “хождение в народ”. Некрасов стремился поддержать дух революционной интеллигенции, преклонялся перед самоотверженностью, звал к подвигу (“Сеятелям”, 1876, опубликовано в 1877). Последние годы жизни Некрасова, проведенные в напряжённом творческом труде, заботах о журнале, в общественной деятельности были омрачены тяжёлой болезнью. Но и в это время он создал “последние песни”, в которых с прежней поэтической силой говорил об итогах прожитой жизни, о своей любви к русскому народу и о своей “музе”: “Сестра народа — и моя”. Похороны Некрасова (на кладбище Новодевичьего монастыря в Петербурге) носили характер народной политической демонстрации. От имени общества “Земля и воля” выступал Г. В. Плеханов. Знаменательной была речь Ф. М. Достоевского, который поставил Некрасова рядом с А. С. Пушкиным. Поэзия Некрасова, подготовленная предшествующим развитием русской литературы, впитавшая традиции Пушкина, М. Ю. Лермонтова и Н. В. Гоголя, отразила громадные сдвиги в жизни русского народа, пробуждавшегося к освободительной борьбе, и это определило особое место Некрасова среди русских писателей-реалистов 19 века. Он не только сочувствовал народу, но отождествил себя с крестьянской Россией, заговорил от её имени и её языком. “Я лиру посвятил народу своему”, — сказал он в конце жизни. Тема народа, крестьянства, воплощённая в бесконечном разнообразии типов и характеров, новых для русской литературы, проходит через всё творчество Некрасова — от ранних стихотворений “Тройка” и “Родина” до больших эпических поэм, до предсмертных лирических обращений к русскому народу. Никто, кроме Некрасова, не создал таких поражающих своей жестокой правдивостью картин деревенской нищеты и горя (“Размышления у парадного подъезда”, “Орина, мать солдатская”, “Пир на весь мир”) и никто не увидел столько светлых сторон в жизни крестьянства, столько крупных мужественных характеров (Дарья, Матрёна, Савелий, Ермил Гирин), не убитых

веками рабства. Некрасов был далёк от ложной народнической идеализации деревни и осуждал долготерпение, пассивность большей частью крестьянства (“Чем хуже был бы твой удел, когда б ты менее терпел?”). Образ России, сильной и страдающей, стоит за широкими картинами некрасовской деревни: “Ты и убогая, Ты и обильная, Ты и могучая, Ты и бессильная, Матушка-Русь!”. Мысль о народе, о его судьбе пронизывает всё, о чём бы ни писал Некрасов.

ЛИТЕРАТУРЫ:

- 1 Некрасов Н.А. Полное собрание сочинений. Т.1. Советский писатель, 1976, с. 307
2. Некрасов Н.А. Русские женщины: Поэмы, стихотворения. М.: ООО «Издательство АСТ»,
3. Некрасов Н.А. Избранная лирика. М.: «Детская литература», 1985, с.52; с.150; с.46
4. Лебедев Ю.В. Некрасов // Русские писатели XIX века: Библиогр. словарь: В 2 ч. — М.: Просвещение, Учеб. лит., 1996. - Ч. 2: М-Я. - С. 64-75.
5. Максидонова Л.Г. Народ в лирике Некрасова // Русская литература XIX века. Вторая половина. 10 класс. — М.: Олма-Пресс, 2002. - Вып. 2. Н.А.Некрасов. - С. 116

BASLAWISH KLASLARDA OQITIWDA JAÑA PEDAGOGIKALIQ TEXNOLOGIYALARDAN PAYDALANIW

Gúljahan Reymova

Nókis rayonu 2 - sanlı mektep oqıtıwshısı

Eldesova Aygerim

Nókis rayonu 2- sanlı mektep oqıtıwshısı

ANNOTATCIYA

Maqalada baslawish klaslarda oqıtıwdıń jaña texnologiyalari, bilim beriwdiń rawajlandırıw jolları haqqında sóz etiledi.

Tayanish túsinikler : texnologiya, pedagogikalıq texnika , isskustvo.

Bilimlendiriw haqqında Nızam hám kadrlar tayarlawdıń milliy baǵdarlamasında házirgi zaman miynet bazarı jáne básekilik ortalıǵında xızmet isley alatuǵın milliy kadrlardı jetilistiriw baslı wazıypa etip qoyılǵan. Bul wazıypanı turmısqa tabıslı asırıw ushın milliy tálim tárbiya processine túpkilikli ózgeris jasawdı hám jaña pedagogikalıq texnologiyanı engiziwdi talap etedi. Sebebi jaña zaman talabına say hám kadrlar tayarlawdıń milliy modeline ılayıq jaña milliy kadrlardı burınǵı pedagogikalıq texnologiya menen tayarlaw múmkin emesligi búgingi kúni hámmege belgili.

Sol sebepli búgingi kúnde oqıtıwshılardan ásirese, baslawish klass oqıtıwshılarına, sabaq ótiw barısında jaña pedagogikalıq texnologiyalardan paydalanıp sabaq ótiwi talap etilmekte. Al, texnologiya sózine toqtalatuǵın bolsaq, «Texnologiya» sózi basqa tillerge grek tilinen kirgen bolıp, bizińshe “iskusstvo, sheberlik, kásip óner haqqında ilim” degen mánisti ańlatadı. «Texnologiya» túsinigi jaqın jıllarǵa shekem tek óndiriske baylanıslı «óndiris texnologiyası» dep qollanılıp kelindi. Óndiris processlerin ótkeriwdiń usılları menen quralları haqqındaǵı bilimler jıyındısı óndiris texnologiyası dep ataladı. Soǵan baylanıslı ıssıxanada tamshılap suwǵarıp kartoshka egiwdiń Izrail texnologiyası, paxtanı plenka astında kógeriwdiń Andijan texnologiyası degen atamalar kelip shıqtı.

Pedagogikaǵa «pedagogikalıq texnika» hám «pedagogikalıq texnologiya» túsinikleri kirip keldi. Dáslepki waqıtları «pedagogikalıq texnika»nı oqıwshılardıǵa pedagogikalıq tásir jasawda zárúr bolǵan eplilik hám kónlikpeler jıyındısı, al «pedagogikalıq texnologiya»nı tálim tárbiya islerin ótkeriwde qollanılatuǵın usıllar, metodlar hám qurallar jıyındısı dep túsiniledi. Sonnan beri «pedagogikalıq texnologiya» túsiniginiń mánisi keńeydi, mazmunı bayıdı hám qatar quramlı bilimleri

qálipsesti. Ilimpazlar pedagogikalıq texnologiya ataması hám sol taraw boyınsha sabaqlıqlar AQSH da XX ásirdeń 50-jıllarında payda bolǵanlıǵı haqqında aytıp ótedi. [1:8-b]

Házirgi waqıtta dúnya júzi pedagogikasında túrli - túrli pedagogikalıq texnologiyalar qollanılmaqta. Máselen, oqıwshını, talabanı, qánigeni adamzat jámaáti tárepinen toplanılǵan bilim, tájiriye menen qurallandıraw hám olardı óziniń keleshektegi xızmetinde qollawǵa úyretiwdi maqset etetuǵın kognitivlik pedagogikalıq texnologiya. Lekciya, seminar, laboratoriyalıq hám ámeliy sabaqlardı mashqalalı bayan etiw, izlep taptıraw hám izertlew metodların qollanıw arqalı oqıtıwdı kózde tutatuǵın evristikalıq pedagogikalıq texnologiya. Dóretiwshilik oylaw menen dóretiwshilik uqıplılıq, ózbetinshe erkin pikirlewdi rawajlandırıw hám qalıplestiriwge qaratilǵan kreativlik pedagogikalıq texnologiya. Dóretiwshilik (kreativlik) pedagogikalıq texnologiyada oqıwshını, talabanı oqıtıw oqıw dóretiwshilik xızmet negizinde alıp barıladı. Talabalardı tańlawda, olardıń bilimi hám uqıplılıǵı tiykarǵı ólshem etip alınadı, ózlestirgen bilimlerdi teksergende reyting dárejesine qaraladı. Oqıw biliw hám oqıw dóretiwshilik xızmet negizinde qurılǵan integrallıq pedagogikalıq texnologiya t.b.

Pedagogikalıq texnologiyalardı tańlaw hám qollaw bilimlendiriw túrleri menen basqıshlarına, qánige modeli menen oqıwshılar jámaátiniń ózgesheliklerine, pán menen ótiletuǵın temaniń maqseti, wazıypaları hám mazmunına baylanıslı boladı.

Hár bir pedagogikalıq texnologiyaniń ózine tán ózgesheligi bolıwı menen bir qatarda olardıń dúzilislerinde, quramlı bólimlerinde, qollanıw sistemasında ulıwma uqsaslıqlar bar. Olarǵa mınalar kiredi, talabangá talap, tárbiyalanıwshı modeli, pitiriwshı modeli, oqıtıw sisteması, pedagog modeli, kerı baylanıs sisteması, tekseriw sisteması, pitkeriwshini attestaciyalaw sisteması, diagnostika sisteması, tálim tárbiya jumısların texnologiyalıq jaqtan táminlew sisteması t.b.

Usı joqarıda aytilǵanlarǵa negizlenip pedagogikalıq texnologiyaǵa mınanday táriyp beriw múmkin.

Pedagogikalıq texnologiya oǵada quramalı process. Onı jaratıw, qollanıw, jetilistiriw úlken dóretiwshilik miyneti, óz ústinde úzliksiz islewdi, baraqulla úyreniw menen izleniwdi talap etedi. Pedagogikalıq texnologiyalar boyınsha birqansha ilimpazlarımız ózleriniń bahalı pikirlerin bildirip ótken. Máselen;

Pedagogikalıq texnologiya – aldınnan joybarlastırılǵan oqıw – tájiriye processin ámeliyatqa sistemali hám izbe – izlikte usınıw. - degen pikirdi aytıp ótedi. (V.P.Bespalko) [2:17-b]

Jańa pedagogikalıq texnologiyaniń ózlestiriw aldınǵı pedagogikalıq tájiriyelerdi, innovaciyalardı úyreniwden, olardı ilimiy metodikalıq tárepten tallap hám ulıwmalastırıp juwmaq shıǵarıp ámelde qollanıwdan baslanadı. Al onı qollanıwda

pedagogikalıq texnologiyadan paydalanıw tálim tárbiya isleriniń sapasın jaqsılaydı, nátiyesin asıradı. Tálim tárbiya dóretiwshilik xızmet bolǵanlıqtan pedagogikalıq texnologiyanı jaratıwda ilimiy dóretiwshilik penen ámeliy dóretiwshilik ekewi birdey júdá áhmiyetli boladı.

Joqarıda bayan etilgen talaplar tiykarında jaratılǵan pedagogikalıq texnologiya sınavdan ótkeriledi hám tolıqtırıladı, lazım dep tabılsa ózgerisler kiritilip jáne de jetilistiriledi.

ÁDEBIYATLAR

1. N.H.Avliyakov, N.N.Musaeva. Pedagogik texnologiya. O'quv qo'llanma Tafakkur bo'stoni.:Toshkent 2012-yil 8-b, 12-b

RUS TILINI CHET TILI SIFATIDA O‘RGANISHDA YUZAGA KELADIGAN MUAMMOLAR VA QIYINCHIKLAR

Atamirzayeva Kamila Alisherovna

NamDU oqituvchi,

Mirzarahimova Muxlisa Ilhomjon qizi

Namangan davlat universiteti Filologiya fakulteti

O‘zga tili guruhlarda rus tili yo‘nalishi talabasi

Anotatsiya: Ushbu maqolada rus tiliga chet tili sifatida qarash, uni o‘rganishda yuzaga keladigan muammolarni bartaraf etish va qiyinchiliklarga duch kelganda qanday yechish yo‘llari bayon etilgan.

Kalit so‘zlar: Ta’lim, texnologiya, rus tili, muammo, talaffuz, maktab, oliygoh, e’tibor.

Anotation: This article describes ways to treat Russian as a foreign language, address problems that arise in studying it, and solve it when faced with difficulties.

Keywords: Education, technology, Russian, problem, pronunciation, school, school, attention.

Аннотация: В данной статье описываются способы обращения с русским языком как иностранным, решения проблем, возникающих при его изучении, и их решения при возникновении трудностей.

Ключевые слова: Образование, Технология, Русский язык, Проблема, Произношение, Школа, Школа, Внимание.

Bugungi hayotimizda, bugungi ta’lim standartida eng ko‘p e’tibor chet tillarini o‘rganishga qaratilmoqda. Birinchi Prezidentimiz I.Karimov ham "Agar bolalar erkin fikrlashni o‘rganmasa, berilgan ta’lim samara uchuni past bo‘lishi muqarrar" degan fikrni bildirgan edilar. Shuning uchun bolalarni erkin fikrlashga undashimiz, ularning dunyoqarashini boyitib borishimiz kerak.

O‘Z-O‘ZINI TARBIYALASH metodi bu - o‘quvchilarning o‘zini o‘zi idora qilish va o‘quvchilarning turli organlari faoliyatida faol ishtirok etishni ta’minlash, ijtimoiy mavqeyini oshirishning ta’sirchan vositasidir.

O‘Z-O‘ZINI BAHOLASH metodi bunda xatti-harakatlari, fazilatlarini, xulq-atvorini tahlil qilish, asosida o‘z shaxsiga baho berishga yo‘naltirilgan faoliyat turi

hisoblanadi. O'quvchi o'z-o'zini baholash qiyin, lekin ularni bunga yetarlicha tayyorlash mumkin. Buning uchun o'quvchi o'z burchini tushunishi, tahsil va tarbiya olish uchun sababli asos bo'lishi, ya'ni tarbiyalanishni xohlashi, o'z - o'zini takomillashtirishga intilishi lozim. Bu usul ularga o'zlariga chetdan turib, xolisona baho berishga yordam beradi.

RAG'BATLANTIRISH metodi bu - o'quvchilarning faoliyatiga, xatti harakatiga ijobiy baho berish, asosida unga ishonch bildirish, ko'nglini ko'tarish va ularni qo'llab-quvvatlash usuli hisoblanadi.

O'qituvchi doimiy ravishda o'quvchilaridagi o'zgarishlarni kuzatib borishi, ularga nisbatan e'tiborli bo'lishi kerak bo'ladi. Shundagina, o'quvchilar o'zlarini e'tiborsiz qolodik deb bilmaydilar. Doimo e'tibordaman deb o'ylab, rivojlanishga, oldinga intilishga harakat qilib boradilar. O'qituvchi hamma o'quvchilariga nisbatan jamoada adolatli bo'lishi kerak. Shunda o'quvchilari ustozini hurmat qilishadi, bilimlarni to'g'ri baholashlariga ishonishadi. Ustozlar shu tariqa, o'z jamoasida o'z o'rinlarini topishadi [1].

Bundan ko'zlangan maqsad o'quvchilar uchun yana ham ko'p bilimlarni egallashga va ko'plab yangi bilimlarni zabt etishga yo'l ochadi. Bu borada ta'lim sohasida ham turli xil zamonaviy texnologiyalar orqali o'quvchilarga axborot yetkazib berish usullari tashkil etilmoqda. Albatta, buning natijasini erishilayotgan natijalardan ko'rishimiz mumkin.

Xususan, mamlakatimizda rus tiliga chet tili sifatida qaralamydi, unga ikkinchi ona tili sifatida qaraladi Bunga sabab Ikkinchi jahon urushi davrida ko'plab ruslar bizning yurtga evakuvatsiya qilingan va shu bilan bizning yurtni ona xalq sifatida ko'rishgan albatta, ular bilan birga tillari ham kirib kelgan shuning uchun rusiyazonlar ko'p. besh qo'l barovar bo'lmaganidek chekka-chekka hududlarda rus tiliga e'tibor juda past, buning oldini olish uchun eng yaxshi yechim ,hozirda yetishib chiqayotgan yosh mutahassislarni jalb etish kerak.

Rus tilini chet tili sifatida o'rganishda yuzaga keladigan muammolar:

1. Talaffuzda yuzaga keladigan xatolar;
2. Kam vaqtni til o'rganishga sarflash;
3. Maktab va ba'zi oliygohlarda rus tiliga kam e'tibor qaratish ;

Rus tilini chet tili sifatida o'rganishda yuzaga keladigan muammolarga yechimlar:

1. Talaffuz vaqtidagi aksentni yo'qotish uchun qilinadigan yechimlar;
2. Til o'rganishga ko'roq vaqt sarflash va undan unumli foydalanish;
3. Maktablarda va oliygohlarda chet tillariga yetarlicha e'tibor qaratish va malakali mutahassislarni jalb etish.

Talaffuzda yuzaga keladigan xatolar. Ma'lumki, rus tili bizga begona til bo'lganligi sababli doimiy so'zlashib yurgan tilga nisbatan gapirayotgan paytda talaffuzda ko'plab xatolar bo'ladi.

Kam vaqtni til o'rganishga sarflash. Hozirda eng og'riqli bo'layotgan vaziyatlardan biri yosh avlodning O'rgimchak to'riga o'ralib olib ko'plab vaqtlarini behuda sarflayotganlari bo'lmoqda.

Maktab va ba'zi oliygohlarda rus tiliga qaratilayotgan kam e'tibor. E'tibor berilsa shahar va qishloqlardagi maktablarda chet tillariga berilayotgan e'tibor va yaratilayotgan sharoitlar farq qiladi. Bu kabi holatlar o'zidan kelib chiqib yana ham ko'proq izlanishlarni talab etadi.

Talaffuz vaqtidagi aksentni yo'qotish uchun qilinadigan yechimlar chet tili (rus tili) - nega rus tili o'rganish kerak? Degan savolga men shunday javob beraman: "Rus tili "muloqot tilidir" uni o'rganish ham kerak, ham muhim". Nega? Chunki menga dunyodagi barcha insonlarning bir-birlari bilan qanday muloqotda bo'lishlari yoqadi. Sizda ham rus tili dunyodagi eng mashxur til degan savol tug'ilganmi? Axir xalqaro til murakkab bo'lmasligi kerakda. Talaffuzda aksentni yo'qotish uchun ko'proq shu tildagi ovozli va audio darslarni tinglash va ushbu tilda mukammal suhbatlasha oladigan insonlar bilan ko'proq muloqot qilish kerak.

Til o'rganishga ko'proq vaqt saflash va undan unumli foydalanish. Til o'rganayotgan inson o'zining bekorchi narsalarga ketayotgan vaqtini va fikrini bir joyga jamlab butun e'tiborini til o'rganishga qaratishi kerak.

3. Ergasheva, B. G. O. (2023). Reklamanning ijtimoiy ahamiyati. *Oriental renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences*, 3(1), 793-799.
4. Gʻolibjonovna, E. B. (2023). Bolalar va yoshlar hayotida reklamanning oʻrni. *Taʼlim fidoyilari*, 10, 220-224.
5. Abdumutaljonovna, P. S., & Bahromjon qizi, B. X. (2023). Reklamada inson ongiga taʼsir qiluvchi omillar. *Образование наука и инновационные идеи в мире*, 15(1), 84-88.

MIQDOR KONSEPTINING KOGNITIV VA LINGVOKULTUROLOGIK JIHATLARI

Egamberdiyeva Nilufar Latibjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti magistranti

egamberdiyevaN96@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada miqdor tushunchasi, izohlari, kognitiv tilshunoslik va miqdor konseptining kognitiv xususiyatlari, lingvokulturologiya yo'nalishida konsept, miqdor lingvomadaniy konsept sifatida namoyon etuvchi jihatlari xususida mulohaza yuritilgan.

Kalit so'zlar: kognitiv tilshunoslik, kognitiv konsept, miqdor, lingvokulturologiya, lingvomadaniy konsept.

Zamonaviy tilshunoslik yo'nalishlari ichida kognitiv lingvistika va lingvokulturologiya ham ilgari odimlab bormoqda. Ushbu sohalar rivojini esa ularning tadqiqiga bag'ishlangan qator ilmiy ishlar va e'lon qilinayotgan maqolalar orqali ko'rishimiz mumkin. Bizning ham bu maqolamiz shu ikki sohaning o'zaro kesishish nuqtasiga oid deb hisoblasak to'g'ri bo'ladi. Konsept kognitiv tilshunoslik va lingvomadaniyatshunoslikning markaziy tushunchalaridan biri hisoblanadi va ikkala yo'nalishda ikki xil xususiyatlarni namoyon etadi. Biz ham miqdor konseptining kognitiv va lingvokulturologik jihatlarni yoritishni maqsad qildik.

Avvalo, miqdor tushunchasi va uning qo'llanish sohalari to'g'risida to'xtalsak. Miqdor falsafiy, mantiqiy, lingvistik tushuncha sifatida keng qamrovni o'z ichiga oladi. Izohli lug'atlarda ham miqdorga uch xil ta'rif beriladi.

1. O'lchash, sanash mumkin bo'lgan narsalarning oz-ko'pligi, soni, chamasi. Ko'p miqdordagi suv.
2. Kesma uzunligi sirt yuzi, jism hajmi va massasi kabi tushunchalarning umumlashma nomi; kattalik(matematik)
3. Obyektning tashqi ko'rsatkichlari(kattaligi, soni, hajmi), hodisalarning rivojlanishini ifodalovchi tushuncha.(falsafiy)[1]

Bizni qurshab turgan olamdagi har bir narsa o'zida miqdor xususiyatlarini aks ettiradi. Miqdorning yuzaga kelishi haqida gapiriladigan bo'lsa, son-miqdor insoniyat rivojining ilk bosqichlarida borliqning hisobini olish va undagi narsa-hodisalarni o'lchash zarurati tufayli yuzaga kelganini ko'rishimiz mumkin. Son va shakl tushunchalari qandaydir noma'lum mavhumiyatning mahsuli emas, ular faqat mavjud borliqdan olingan. insonning sanashni o'rgangan, ya'ni ilk arifmetik hisoblash

amaliyotini o'zlashtirgan o'nta barmog'i buni yaqqol ko'rsatib turibdi, faqat bu erkin ijodiyzakovat mahsuli emas.[2]

Biz uchun esa miqdorning til birliklari orqali ifodalanadigan jihatlari muhimdir. O'zbek tilida miqdor ko'p qirrali hodisadir va u tilning barcha sathlarida namoyon bo'ladi.

Til va tafakkur munosabatining uzviyligi, olamni bilishda tilning ahamiyati kabi masalalar mavjudligi sabab kognitiv tilshunoslik vujudga keldi [Safarov, 2013:283]. Kognitiv so'zi inglizcha so'zdan olingan bo'lib, "tushunmoq", "bilmoq" ma'nolarini anglatadi. Kognitiv tilshunoslikning birlamchi funksiyalaridan biri til va ong munosabati, borliq jarayonlarini umumlashtirishda tilning ahamiyatini o'rganish hisoblanadi.

Kognitiv lingvistikaning asosiy tushunchalaridan biri bu konseptdir. Ushbu atamaning kelib chiqishi tilshunoslikning psixologiya, sotsiologiya, falsafa kabi fanlar bilan yaqinlashuvi, genetik bog'liqligi natijasidir. Konsept atamasi lotin tilidagi "concupere" to'plamoq, ilib ketmoq, o'ylab qolmoq, boshlab yubormoq ma'nolarini bildiradi [Safarov, 2013:12]. Kognitiv lingvistikada konsept til birliklarining ma'nosi bilan bog'liq holda o'rganiladi va shunga binoan tafakkur birligi sifatida qaralayotgan konseptni qoliplashtirishda til birliklariga xos xususiyatlarga tayaniladi. Demak, lingvokognitiv konsept tilshunoslikdagi u yoki bu lug'aviy birlik, uning o'ziga xos xususiyatlari va uning atrofida birlashuvchi ma'nolar yig'indisidir.

Miqdorning kognitiv jihatlardan biri sifatida, avvalo, uning konsept sifatida tadqiq etilishini ko'rsatishimiz mumkin. Sh.Safarovning fikricha, kognitiv tilshunoslikning vazifasi til yordamida bilim olish, saqlash, tilni amalda qo'llash hamda uzatish, umuman, til tizimi va tarkibini inson miyasidagi in'ikos sifatida tafakkur bilan bog'lab, chuqur ilmiy tadqiq etishdir.[3] Demak, miqdor tushunchasining ham til vositalari, birliklari orqali inson tafakkuridan joy olishi kognitiv hodisa hisoblanadi. Kognitiv lingvistikada konsept til birliklarining ma'nosi bilan bog'liq holda o'rganiladi va shunga binoan tafakkur birligi sifatida qaralayotgan konseptni qoliplashtirishda til birliklariga xos xususiyatlarga tayaniladi.[Safarov:285] Demak, lingvokognitiv konsept tilshunoslikdagi u yoki bu lug'aviy birlik, uning o'ziga xos xususiyatlari va uning atrofida birlashuvchi ma'nolar yig'indisidir.

Shu kunga qadar kvantitativlik bo'yicha bir qancha olimlar izlanishlar olib borgan. Dastlab bu hodisa o'zbek tilshunosligida otlardagi ko'plik kategoriyalari, fe'llardagi shaxs-son kategoriyalari nomi ostida A.G'ulomov, Sh.Rahmatullayev, A.Hojiyev, I.Rasulovlar tomonidan o'rganilgan. Keyinchalik F.Safarov miqdoriy belgini o'zbek tilida son-miqdor mikromaydoni sifatida tadqiq etgan. Miqdor ma'nosi tilning har bir sathida ko'zga tashlanuvchi, turli vositalar, rang-barang shakllarda namoyon bo'luvchi, alohida tahlil talab etuvchi murakkab tizimga egadir. Miqdorni

kategoriya sifatida o'rganish to'g'ri bo'lmaydi, chunki miqdor ifodalovchi birliklar lug'aviy, sintaktik, so'z yasovchi, fonetik, lisoniy va nolisoniy vositalar orqali namoyon bo'ladiki, bu sistemaning birliklari tilning turli sathiga mansubligini ko'rsatadi. Biz o'z tadqiqimizda miqdor bildiruvchi vositalarni to'la qamrab olish uchun konsept tushunchasi ostida birlashtirishga harakat qildik.

Miqdor konseptini ifodalashda fonetik vositalar(ohang, tovush takrori, urg'u), leksik vositalar(miqdor semasiga ega bo'lgan leksemalar, frazeologik birliklar, noadabiy so'zlar, atamalar), morfologik vositalar(so'z turkumlari, morfemik birliklar), sintaktik vositalar(gap bo'laklari, undalma, kirish so'zlar, so'z birikma, soda va qo'shma gaplar) ishtirok etadi.

O'zbek tilida miqdor ma'nosining yuzaga chiqishini ta'minlovchi fonetik, leksik, grammatik vositalar ko'pligini, ayniqsa, morfologik sathda so'z turkumlari yordamida miqdor ma'nosining ifodalanishi o'ziga xos xususiyatlarga ega ekanligini ko'rish mumkin.

Antroposentrik nazariya asosida tilshunoslikda ko'plab yangi sohalar vujudga kela boshladi. Lingvokulturologiya ham ana shunday yangi tug'ilgan soha sifatida jadal rivojlana boshladi. Uning paydo bo'lishiga so'ngi asrlarda "til madaniyat bilan bog'liq bo'lib qolmasdan, balki uning o'zi madaniyatdan o'sib chiqqan va uni ifodalaydigan vositadir" degan nazariya ham sabab bo'lgan.

N.Alefrenko lingvokulturologiyani quyidagicha ta'riflaydi:

-lingvokulturologiya tilshunoslik va madaniyatshunoslik bilan chambarchas bog'langan bo'lib, u sintezlovchi xususiyatga ega;

-lingvokulturologiya tilshunoslik fanlariga kiradi, shuning uchun uning tadqiqot natijalaridan ona tili va chet tiini o'qitish jarayonida amaliy foydalanish mumkin.;

-lingvokulturologiya tadqiqotlarining asosiy yo'nalishlari: a) lisoniy shaxs; b) til madaniy qadriyatlarining semiotik gavdalantirish tizimi hisoblanadi.[4]

Lingvokulturologiya va kognitiv tilshunoslikdagi konsept atamasi, ularning izohi va vazifasi bir-biridan farq qiadi. Lingvokulturologik birlik sifatida konsept ikki xususiyatga egadir. Bir tomondan, madaniyat konsept ko'rinishida insonning mental dunyosiga kirs, boshqa tomondan, inson konsept yordamida madaniyatga kiradi va ba'zan unga ta'sir ko'rsatadi. Inson o'zining individual, betakror madaniyatini saqlagan holda, konsept orqali xalqlarning madaniyatiga, turli milat vakillarining mental dunyosiga murojaat qiladi.[5] Demak, konsept lingvokulturologiya sohasida xalqlar madaniyatining alohida jihatlarini o'zida aks ettiruvchi, til egalari dunyoqarashi modelini ko'rsatuvchi, millat milliy xarakterinig shakllanishiga ta'sir etuvchi lingvomadaniy vositadir.

Miqdor konseptiga munosabat, uning qabul qilinishi turli til egalarida turlicha bo'ladi. Chunki konsept ham xalq ijtimoiy ongi, qadriyatlari asosida shakllanadi.

Miqdor vositalari xalq diniy qarashlari, urf-odatlari ta'sirida alohida baholanishi mumkin. Miqdor konseptining bu jihatlari esa yangi izlanishlarga yo'l ochadi. "Miqdor, sanoq" konseptining umummadaniy mazmuni, madaniyatning boshqa hamma konseptlari singari matematikadagi sanoq ilmiy tushunchasidan tubdan farq qiladi. Hatto ilmiy nuqtayi nazardan xato hisoblanishi ham mumkin. Tilga xos belgi nafaqat lingvistik, balki ekstralingvistik ta'sirlarga ham uchraydi va qo'llanishda qo'shimcha ma'nolarga ega bo'ladi. Shuning uchun barcha tillarda miqdor semantikasi uchun xos bo'lgan umumiy, haqiqiy ma'no nutqiy ifodalanishda madaniyat bilan bog'liq ravishda sifatli hamda baholovchi ma'nolar ham kasb etadi.[6]

Madaniyat konseptlarini A.Ya.Gurevich ikki guruhga : fazoviy va universal kategoriyalarga bo'ladi. Biz e'tibor markaziga tortgan miqdor konsepti ham universal kategoriyalarga kirgan holda, o'zbek xalqiga xos bo'lgan xususiyatlarni ham o'zida aks ettiradi.

Miqdor konsepti o'zbek xalqida uning "o'sib borishi, ko'pligi" sifatida shakllangan. Ya'ni to'y va boshqa marosimlarda ham mehmonlar sonining ko'pligi, dasturxon, mazar, sarpolar sonining ko'pligi kabi. Shuningdek, raqamlarga ham alohida yondashuv mavjud. Masalan, bir soni diniy jihatdan yagonalik, tanholik konseptini aks ettiradi. Ikki soni bir tomondan yomon baho taassurotini uyg'otsa, bir tomondan juftlik, do'stlik, sheriklik ma'nolarini anglatadi. Ikki yorti - bir butun. Shu kabi ba'zi raqamlar o'zbek xalqi ongida "sehrli raqamlar" sifatida joy olgan. Uch, yetti, to'qqiz, qirq kabi. Bu raqamlar folklor, ertaklar, xalq marosimlarida baravar qo'llaniladi. Sehrli raqamlar tushunchasi ibtidoiy davrda insonlarni yovuz kuchlardan pano beradi degan g'ayriilmiy tasavvurlar asosida shakllangan va hozirga kelib ko'p ishlatilish odat tusiga kirgan. Yetti soni dunyoning yetti mo'jizasi, xalq kundalik turmushidagi yetti xazina kabilarni ifodalaydi. So'zlashuv nutqida millionta, trillionta, yuz minglab kabi sonlarni uchratamiz, ular aniq matematik miqdorni emas, balki mublag'ali ifodalash usuli bo'lib "ko'p", "judayam ko'p" ma'nolarini anglatadi.

Miqdor ma'nosini ifodalashda o'zbek xalqiga xos bo'lgan shunday so'zlar mavjudki, bu ham ularning lingvokulturologik xususiyatlariga ishora beradi. Masalan:

1. Do'ppidek inda uchta bolasining boshi ko'rinyapti.(O'.Hoshimov)

2. Har ko'zi piyoladek oyna taqib yuradi.

3. U qozondek do'ppisini boshidan yechib tutqazdi.

Ushbu gaplarda qo'llangan do'ppidek, piyoladek, qozondek so'zlari o'zbek xalqiga xos kundalik-turmushida ishlatiladigan vositalar bo'lib, ko'p miqdor ma'nosini ifodalashga xizmat qilgan. Birinchi gapdagi do'ppi so'zi asl ma'nosiga ko'ra o'zbek xalqining milliy bosh kiyimi hisoblanib, keltirilgan misolda do'ppidek kichkina uy ma'nosida qo'llanilgan. Do'ppi so'zining kichik, ozgina ma'nosida qo'llanilishi o'zbek millati vakillariga tushunarli bo'lishi, lekin tarjima qilinganda boshqa millat

vakili uchun tushunarsiz bo'lishi mumkin. Buning uchun esa alohida izoh yoki millat madaniyati, turmushiga alohida e'tibor qaratish kerak bo'ladi. Keyingi gaplardagi piyola, qozon so'zlari shakliga oid miqdor ma'nosini ifodalashga xizmat qilgan lingvokulturologik birliklardir. Millatning ko'zgusi til va adabiyoti deyilganidek, xalq etnomadaniyati folklor asarlar, paremiologik birliklarda ko'proq namoyon bo'ladi. Maqol, topishmoq matnlarida qo'llanilgan son-miqdor bildiruvchi birliklar shu xalqning boshqa xalqlardan farqlanuvchi madaniy hayotini aks ettirib beradi. Masalan:

Bir palak,
Bir palakda
O'n ikki handalak,
Bu handalakning o'n birini yeb,
Bittasini yeya olmadik.
(Yil, o'n ikki oy, bir oy ro'za).

Bu o'rinda berilgan topishmoqda o'zbek xalqining urf-odatlarini, diniy e'tiqodiga moslik bor. Islomiy e'tiqodlarga asosan bir yil davomida bir oy ro'za bo'lishi nazarda tutilgan: palak – yil – bitta; handalak – oy - o'n ikkita; ro'za oyi – bitta. Ko'rinadiki, bu topishmoqda xalq etnomadaniyati bilan bog'liq belgi differensial sema sifatida topishmoqning javobi uchun asos bo'lgan, aynan son-miqdor bildiruvchi o'n bir va bir so'zlari ramazon oyini aniqlashda vosita bo'lgan.

Xulosa qiladigan bo'lsak, tilshunoslikning yangi sohalari rivojlanishi tildagi birliklarga yangi yondashuv bilan qarashga yordam beradi. Bu esa o'ziga xos jihatlarni kashf etadi. Miqdor konseptiga nisbatan kognitiv va lingvokulturologik yondashuv ham son-miqdorga oid yangi konseptchalarni kashf etgani holda, miqdor konsepti va konseptosferasini tashkil qilishga yo'l ochadi.

Foydalanilgan adabiyotlar

1. O'zbek tilining izohli lug'ati 5 tom
2. N.Otaqulov. Fransuz, o'zbek va rus tillarida subkollokvial mezurativ frazeologizmlar xususiyatlari. O'zmu-2021, 3-bo'lim. 263-266 b.
3. Sh.Safarov. Semantika. "O'zbekiston milliy ensiklopediyasi" davlat ilmiy nashriyoti. T. 2013. 283-b.
4. Алефиренко Н.Ф. Лингвокультурология. Ценностно смысловое пространство языка. Учебное пособие. – М; Флинта, Наука, 2010. –с 21.
5. Usmanova Sh. Lingvokulturologiya. Toshkent-2019. 40-46 b.
6. Mamajonova M. Borliqni miqdoriy bilish. Zamonaviy tilshunoslikdagi muammo va yechimlar. Andijon-2021.

O'ZBEKISTONDA IQLIM O'ZGARISHLARI

Normamatova Kamola Sherdil qizi

Sharof Rashidov nomidagi Samarqand davlat
universiteti 2 bosqich talabasi

E-mail: normamatovakamola51@gmail.com

Annotatsiya: O'zbekistonda iqlim o'zgarishlarini ijobiy va salbiy tamonlari orqali ko'rib chiqish mumkin. Hamda bu iqlim o'zgarishlari biosferada barcha hayot qatlamlari gidrosfera, litosfera va ayniqsa atmosfera bilan bog'liq holda o'rganishimiz mumkin bo'ladi. Iqlim o'zgarishlarini ekologik jihatdan qanchalik ahamiyatga ega ekanligini ko'rishimiz mumkin.

Kalit so'zlar: O'zbekiston, iqlim, harorat, tendensiya, litosfera, atmosfera gidrosfera, suv omborlari, transchegaraviy.

Abstract: Climate change in Uzbekistan can be considered from its positive and negative sides. And we will be able to study these climate changes in relation to all life layers in the biosphere, hydrosphere, lithosphere, and especially the atmosphere. We can see how important climate change is ecologically.

Key words: Uzbekistan, climate, temperature, trend, lithosphere, atmosphere hydrosphere, reservoirs, transboundary.

O'zbekistonda o'rtacha yillik havo haroratining oshishi yuqori tabiiy o'zgaruvchanlik ta'sirida sodir bo'ladi, bu esa yillararo sezilarli tebranishlarni keltirib chiqaradi. O'rtacha yillik havo haroratining eng sezilarli o'sishi Toshkent va Farg'ona meteorologiya stansiyalarida (mos ravishda $1,8^{\circ}$ va $1,6^{\circ}$) qayd etildi. O'zbekistonda o'rtacha 10 yil davomida havo haroratining ko'tarilish tezligi $0,27^{\circ}\text{S}$ ni tashkil qiladi.

1950-2017 yillar davomida O'zbekistonning turli hududlari bo'yicha o'rtacha yillik yog'ingarchilik dinamikasi tahlili pasayish tendentsiyasini ko'rsatadi. Yog'ingarchilik kamayishining eng aniq tendentsiyalari O'zbekistonning janubiy tekisliklarida hamda Buxoro va Qashqadaryo viloyatlari cho'llarida qayd etilgan. Iqlim o'zgarishi bo'yicha uchinchi milliy xabar O'zbekistonda havo haroratining ko'tarilishi kuzatilgan tendentsiyalar bo'yicha davom etishini va 2030-yillarga borib $1,0-1,4^{\circ}\text{S}$ bo'lishini ko'rsatadi. Kelajakda iqlimning umumiy isishi bilan, ehtimol kuchli "issiqlik to'lqinlari" va sovuq to'lqinlar ehtimoli saqlanib qoladi. Sirdaryo havzasining oqim hosil bo'lish zonasida yillik yog'ingarchilik miqdori vaqt o'tishi bilan sezilarli darajada o'zgaradi va issiqxona gazlari chiqindilari

senariylariga ko'ra, Amudaryo havzasida issiqxona gazlari chiqindilarining ekstremal senariysi bo'lsa, yog'ingarchilikning 13% ga kamayishi mumkin. amalga oshirildi. Umuman olganda, barcha senariylar bo'yicha mintaqada namlik darajasining pasayish tendentsiyasi mavjud. Orol dengizi drenaj havzasining tog'li muzlashishi O'zbekiston suv resurslari uchun katta ahamiyatga ega. Muzliklarning qisqarish tezligi hudud bo'ylab va vaqt oralig'ida yiliga 0,1 dan 1,65% gacha o'zgarib turadi. Kelajakdagi suvga bo'lgan talabni baholash shuni ko'rsatdiki, hozirgi vaqtda sug'orish va ekologik maqsadlar uchun suvga bo'lgan talab qondirilmayapti. Iqlim o'zgarishi sharoitida suv resurslarining tanqisligi sezilarli darajada oshadi. 2040-yilga borib, hattoki Amudaryo va Sirdaryo havzalaridagi daryolar oqimi oshgan taqdirda ham O'zbekistonda sug'orish uchun suvning umumiy tanqisligi 8,0 foizni, doimiy oqim bilan 15,4 foizni tashkil qilishi mumkin. Iqlim o'zgarishi bo'yicha milliy xabarda qayd etilganidek, iqlim o'zgarishi natijasida o'simliklar oqimining qisqarishi va iqtisodiyotning barcha tarmoqlarida suv iste'molining ortishi hamda O'zbekistonda aholining jadal o'sishi munosabati bilan aholining o'ta past bo'lish xavfi suv va qurg'oqchilik, ayniqsa quyi oqimida sezilarli darajada oshib bormoqda. Amudaryo havzasi daryolari (Qoraqalpog'iston Respublikasi, Xorazm va Buxoro viloyatlari). Suv ta'minoti kichik daryolar oqimiga bog'liq bo'lgan hududlar ham eng zaif bo'ladi. Ekin maydonlari, o'tloqlar va yaylovlar uchun atmosfera qurg'oqchilik xavfi ko'rib chiqildi. Issiqxona gazlari emissiyasining mo'tadil senariysiga ko'ra, atmosfera qurg'oqchilik xavfi yuqori bo'lgan o'tloqlar va yaylovlarning ulushi (havoning namligi 50 hPa dan ortiq taqchilik bilan yiliga 40 yoki undan ortiq kun) 28% ga yetishi mumkin,

O'zbekistonning suv resurslari Sirdaryo va Amudaryoning er usti oqimi (55%), kichik daryolar oqimi (33%), yer osti suvlari (10%ga yaqin), kollektor-drenaj oqimi (2%) bilan belgilanadi. O'zbekiston hududida jami 17 mingdan ortiq tabiiy suv oqimlari mavjud bo'lib, ularning aksariyatini uzunligi 10 km dan kam bo'lgan daryolar tashkil qiladi. Quruq yillarda ko'plab kichik daryolarning kanallari quriydi.

Amudaryo va Sirdaryoning oqimi Tojikiston va Qirg'iziston hududida hosil bo'ladi. Sirdaryo havzalarining suv havzalarida o'rtacha ko'p yillik suv oqimi 38 km³ bo'lib, shundan 10% O'zbekiston hududida, Amudaryo 79 km³, ularning 8% O'zbekistonda hosil bo'ladi. Stok daryosi Amudaryo suv omborlari bilan tartibga solinadi. Sug'orish tizimi majmuasi ko'p sonli kanallar, nasos stansiyalari, kollektorlar, sug'orish oqizmalarini o'z ichiga oladi. Yirik kanallarga Qoraqum kanali, 6 nasos stansiyasi kaskadi bo'lgan Qarshi magistral kanali, Amu-Buxoro kanali kiradi.

Stok daryosi Sirdaryoni yirik suv omborlari tartibga soladi: Tojikistondagi Qayroqqum (loyihaviy hajmi 3,4 km³), Qozog'istondagi Shardara (loyihaviy hajmi 5,2 km³). Bundan tashqari, komponentlardan birida -Norin — eng yirik To'qto'g'ul suv

ombori bo'lib, uning umumiy sig'imi 19,5 km³, foydalisi 14 km³. 1993 yildan boshlab To'qto'g'ul suv omboridan foydalanish tartibi sug'orish rejimidan energetik rejimga o'zgartirildi, bu esa shunga mos ravishda suv oqimining yillik taqsimotiga ta'sir ko'rsatdi va suv toshqinining eng yuqori cho'qqisi kuz-qish oylarida tusha boshladi. vegetatsiya davrida suv tanqisligiga olib keladi.

Sug'oriladigan dehqonchilikning rivojlanishi va kollektor-drenaj oqimining sug'oriladigan maydonlardan tashqariga yo'naltirilishi bilan sug'orish zonalari chekkasi bo'ylab rel'efning tabiiy chuqurliklarida suv havzalari shakllana boshladi, ular alohida tur - sug'orish-tashuv sifatida ajralib turadi. ko'llar. Turli suv iste'molchilari va suv iste'molchilaridan qaytib keladigan suvning umumiy hajmi yiliga 28-33 km³ orasida o'zgarib turadi. Orol dengizi havzasida ISning umumiy hajmi allaqachon barcha suv omborlari hajmidan oshib ketgan. Eng yiriklariga daryo havzasidagi Saraqamish, Dengizko'l, Su-qizi kiradi. Daryoning o'rta oqimida Amudaryo va Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi. Sirdaryo. Suvda suzuvchi qushlarning mavsumiy ko'chish yo'lida joylashgan bo'lib, sug'orish-tashuv ko'llari ularning dam olish va oziqlanish joyi hisoblanadi. Shunday qilib, Dengizko'l ko'li va Aydar-Arnasoy ko'llar tizimi Ramsar qo'riqlanadigan botqoq erlar ro'yxatiga kiritilgan O'zbekiston suv omborlari oqimni mavsumiy tartibga solishni amalga oshiradi va ekspluatatsiya qilinadigan suv resurslari turiga ko'ra sug'orish va kompleks maqsadlar uchun mo'ljallangan suv omborlariga bo'linadi. Kompleks maqsadlardagi suv omborlari sug'orish, energetika va baliqchilik muammolarini hal qilish uchun ishlatiladi.

Tadqiqotlar shuni ko'rsatadiki, hozirgi vaqtda sodir bo'layotgan iqlim o'zgarishlari ijtimoiy-iqtisodiy rivojlanishga salbiy ta'sir ko'rsatmoqda/ O'zbekistonning iqlim o'zgarishiga yuqori darajada zaifligi Jahon bankining uchta ko'rsatkichni hisobga olgan kompleks indeks asosidagi baholashi bilan tasdiqlanadi:

- Iqlim o'zgarishi darajasini tavsiflovchi omillar;
- iqlim o'zgarishining ta'sirini kuchaytiruvchi omillarni hisobga oladigan iqlim o'zgarishiga sezgirlik va quyidagilarni o'z ichiga oladi: aholi jon boshiga suv resurslarining mavjudligi, iqtisodiy ko'rsatkichlar, infratuzilma holati, atrof-muhitning ifloslanish darajasi;
- havo harorati va yog'ingarchilikning uzoq muddatli o'zgarishi. O'zbekistonda o'rtacha yillik havo haroratining oshishi yuqori tabiiy o'zgaruvchanlik fonida sodir

bo'lad, bu esa yillararo sezilarli tebranishlarni keltirib chiqaradi. Issiqlik darajasi global miqyosda kuzatilgan o'rtacha ko'rsatkichdan yuqori.

Issiqlik tendentsiyalari uzoq kuzatuvlar seriyali barcha stantsiyalarda namoyon bo'lad. O'rtacha yillik havo haroratining eng sezilarli o'sishi Toshkent va Farg'ona meteorologiya stantsiyalarida qayd etilgan bo'lib, ular uchun yigirma yillik o'rtacha ko'rsatkichlardagi farq (1900-1919 va 1994-2013 yillar) mos ravishda 1,8 va 1,6° ni tashkil qilgan. O'zbekiston janubida isish tendentsiyasi zaifroq, Jizzax stantsiyasi esa Och dashtni keng ko'lamli sug'orish bilan bog'liq eng past ko'rsatkichlarga ega. O'rtacha yillik havo harorati. O'zbekistondagi aksariyat stantsiyalarda 1950-yildan buyon o'rtacha yillik havo haroratining oshishi statistik ahamiyatga ega, isish tendentsiyasi tabiiy o'zgaruvchanlikdan deyarli 2 barobar yuqori. Issiqlikning eng yuqori sur'atlari respublika shimolida va yirik shaharlarda (10 yil davomida 0,30-0,43°S), eng pasti tog'li zonada (10 yil davomida 0,10-0,14°S) kuzatiladi. Ko'rib chiqilayotgan davrda sug'oriladigan maydonlar yaratilgan hududlarda o'rtacha issiqlik sur'atlari qayd etilgan. O'zbekistonda 10 yil davomida o'rtacha isish darajasi 0,27°C ni tashkil qildi. Haqiqiy foydalanish uchun mavjud suv resurslari Amudaryo va Sirdaryo havzalari daryolarining ma'lum bir yildagi suvliligi bilan to'liq aniqlanadi. Transchegaraviy daryolar suvlarini mamlakatlar o'rtasida taqsimlash va boshqarishga oid qator xalqaro shartnomalar va hujjatlar mavjud. O'zbekiston tegishli ravishda davlatlararo ega bo'lishi mumkin bo'lgan suv resurslari hajmi suv taqsimoti, 90% xavfsizlik yil uchun 59,2 km miqdorida belgilangan. Yuqorida ta'kidlab o'tilganidek, er usti oqimlaridan haqiqiy suv olish suv resurslarining mavjudligiga bog'liq, ya'ni. yilning suv tarkibidan. Katta va kichik daryolarning er usti suvlari bilan bir qatorda, suv iste'molchilarining ehtiyojlari er osti suvlarining ekspluatatsion zaxiralari va kollektor-drenaj oqimidan qayta foydalanish hisobiga qoplanadi. Zamonaviy sharoitda O'zbekiston ixtiyorida o'rtacha 11,5 km³ ichki daryolarning yer usti oqimi, 42,0 km³ transchegaraviy daryolar va 9,43 km³ qaytib va yer osti suvlari mavjud. Suv resurslarining taqchilligi tufayli 1993 yildan boshlab respublikada barcha iste'molchilar uchun suvdan foydalanishning cheklangan (cheklangan) tartibi qabul qilingan bo'lib, u teng suv ta'minoti va suv ta'minotining ustuvorligi asosida o'rnatiladi. Suv iste'molining umumiy hajmida 1996-2017 yillar davrida o'rtacha sug'orish ulushi. 86%, energiya ulushi - 8%, ichimlik va kommunal suv ta'minoti ulushi - taxminan 4% ni tashkil etdi. Sug'orishning sarflanishi bevosita joriy yilning suv tarkibiga bog'liq. G'alla maydonlarini ko'paytirish va texnik ekinlar, jumladan, suvni ko'p talab qiladigan paxta ekinlarini qisqartirish, shuningdek, suvni tejoychi texnologiyalarni faol joriy etish natijasida sug'orish uchun foydalanishning ma'lum darajada pasayish tendentsiyasi kuzatilmoqda. Zamonaviy sharoitda qariyb 4,2

million gektar yerni sug'orish uchun o'rtacha 48,17 milliard m³ suv olinmoqda. Prognoz qilinayotgan iqlim o'zgarishi sug'oriladigan dehqonchilikka asoslangan qishloq xo'jaligi ishlab chiqarishining rivojlanishi va barqarorligiga sezilarli ta'sir ko'rsatishi mumkin. Yangilangan iqlim senariylariga ko'ra, qurg'oqchil zonada kutilayotgan havo haroratining oshishi qishloq xo'jaligi ekinlaridan bug'lanishning ko'payishiga va sug'orish uchun suvga bo'lgan talabning oshishiga olib keladi. Suv resurslarining mumkin bo'lgan qisqarishi qishloq xo'jaligi va aholining suvga bo'lgan talabini qondirish bilan bog'liq qator muammolarga olib keladi, ayniqsa qurg'oqchil yillarda keskinlashadi. Iqlim o'zgarishi sharoitida qishloq xo'jaligi ekinlarining sug'orishga bo'lgan ehtiyoji qishloq xo'jaligi ekinlarining tuproq xossalari va biologik xususiyatlarini hisobga olgan holda evapotranspiratsiya hisob-kitoblari asosida baholanadi. Agroiklim zonalari uchun sug'orish normalari qiymatining o'zgarishi geografik joylashuv xususiyatlariga va kutilayotgan iqlim sharoitlariga bog'liq bo'ladi. Hisob-kitoblarga ko'ra, ko'pchilik ekinlar (paxta, beda, sabzavot, daraxt plantatsiyalari) uchun sug'orish normalari 2030 yilgacha 5,8-7,3 foizga, 2050 yilgacha 9,7-15,0 foizga oshadi. Intensiv suv iste'moli zonasidagi hozirgi vaziyat daryo oqimining yuqori darajada tartibga solinishi, suvlar va landshaftlarning sho'rlanishi va ifloslanishi bilan tavsiflanadi. Uzoq muddatli nuqtai nazardan, ushbu zonaning daryo suvlarida kimyoviy tarkibiy qismlarning miqdoriy xususiyatlarining o'zgarishida ham ijobiy, ham salbiy tendentsiyalarni ko'rish mumkin. So'nggi 15-20 yil ichida yangi sug'oriladigan erlar deyarli o'zlashtirilmadi va KDW oqimining sezilarli darajada o'sishi kuzatilmadi, mos ravishda daryolar suvining minerallashuvida keng tarqalgan o'sish kuzatilmadi, shu bilan birga quyi oqimda uning yuqori darajasini saqlab qoldi. asosiy daryolardan. So'nggi yillarda mineralizatsiya qiymatlarining o'zgarishi asosan iqlim omillari, ya'ni suv oqimining uzoq muddatli o'zgarishi bilan bog'liq. Ularning quyi oqimidagi suv oqimlarida sho'rlanish va suv oqimi o'rtasidagi teskari proportsional bog'liqlik yaxshi ifodalangan: o'rtacha yillik qiymatlarning korrelyatsiya koeffitsienti (r) 0,68-0,83 oralig'ida o'zgarib turadi. Shu bilan birga, suv kam bo'lgan yillarda (1986, 1989, 1997, 2000, 2001, 2011) ZIPSda daryolarning yopilgan uchastkalarida minerallashuvning o'rtacha yillik ko'rsatkichlari o'rtacha ko'p qirralli bilan solishtirganda oshishi mumkin. -yil qiymatlari 1,1-1,6 marta, alohida oylarda esa 2-5 barobar. Bu iqlimning isishi daryolardagi suv sifatining pasayishiga olib kelishi mumkinligini ko'rsatadi. Progressiv kontekstda. Iqlimning hukm surayotgan qurg'oqchillashuvi va er usti oqimlarini boshqarishda o'zgarmagan vaziyatni saqlab qolish, ehtimol, oqimlarni iste'mol qilish zonasida daryo suvlarining sho'rlanishining oshishini kutish kerak. Shunday qilib, iqlim o'zgarishi suv resurslariga antropogen bosimning oshishiga olib keladi. O'zbekiston boshqa davlatlar singari iqlim o'zgarishini turli qiyinchiliklar bilan yengib o'tishi mumkin.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati:

1. Sultonov P. Ekologiya va atrof muhit muhofaza qilish asoslari. "Musiqqa" nashriyoti 2007, 61 bet.
2. L.A. Alibekov. Inson va tabiat Samarqand 2020. 51 bet.
3. Z. Abdalova. D. Yormatova Ekologiya Toshkent 2013.
4. Wikipedia.uz.
5. Arxiv.uz.
6. Andreeva E.V. Atmosfera va hayot. -: Gidrometeorologiya nashriyoti. 1999. -268 bet.
7. Budyko M.I. Global ekologiya. 1985 yil.
8. O'zbekiston Respublikasida gidrometeorologiyaning rivojlanishiga bag'ishlangan ocherklar / Tahririyat xodimlari: Chub V.E., Qodirov B. Sh., Myagkov S.V., Inogamova S.I. va boshqalar – Toshkent: o'zgidromet, NIGMI, 2013. – 330 b
9. Tuchin A.I., Gromyko K.V., Ro'ziev I.B. Janubiy va Shimoliy Prearaliyaning ekologik muammolari va ularni qayta tiklash va faoliyatini barqarorlashtirish bo'yicha takliflar // Orol dengizi havzasida ekologik barqarorlik va suv resurslarini boshqarishga ilg'or yondashuvlar: Markaziy Osiyo xalqaro ilmiy-amaliy konferentsiyasi materiallari. - Olmaota-Toshkent, 2003. - b. 341-351.

TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ ASARI HAQIDA

G‘aniyeva E‘zozabonu

Nizomiy nomikdagi TDPU

Tabiiy fanlar fakulteti 3-bosqich talabasi

Annotation: Ushbu maqolada Abdulla avloniyning Turkiy Guliston yoxud axloq asari o‘rganildi va ilm mavzusi tahlil qilindi

Key words: Abdulla Avloniy, axloq, xulq, tarbiya, ilm, ilmli inson

O‘zbek adabiyotining klassik yozuvchisi Abdulla Avloniy 1878-yil 12-iyul Toshkent shaxrining Mergancha mahallasida tugildi. Abdulla Avloniyga birinchi ustoz deb nom bersak mubolag‘a bo‘lmaydi.

Uning ta‘lim va tarbiya haqida yozib qoldirgan asarlari juda ko‘p, ulardan biri va eng mashxuri Turkiy guliston yoxud axloq asaridir. Bu asarni olimlar ko‘proq endi maktab ostonasiga qadam qo‘yayotgan bolalar uchun deb hisoblashadi. Aslida bu asarni barcha uchun kerakli asar desak adashmagan bo‘lamiz. Turkiy guliston yoxud axloq asarida ma‘naviy ijodiy va tarbiyaviy qarashlar keng yoritilgan.

Asarning mavzulariga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak Axloq, Xulq, Yaxshi xulq, yomon xulq, Tarbiya, Tarbiyaning zamoni, Badan tarbiyasi, Fikr tarbiyasi, Axloq tarbiyasi, Yaxshi xulqlar, Fatonat Diyonat, Islomiyat, Nazofat, Sa‘y va g‘ayrat, Riyozat, Qanoat, Ilm, Aqsomi ilm, Sabr, Intizom, Miqyosi nafs, Vijdon, Vatanni suymak va hokazolar kiradi

Ilm mavzusiga e‘tibor qaratadigan bo‘lsak Abdulla avloniy ilmga juda go‘zal ta‘rif berganlar “ Ilm deb o‘qimak, yozmakni yaxshi bilmak, har bir kerakli narsalarni o‘rganmakni aytilur. Ilm dunyoning izzati, oxiratning sharofatidur. Ilm inson uchun g‘oyat oliy va muqaddas bir fazilatdur. Zeroki, ilm bizga o‘z ahvolimizni, harakatimizni oyina kabi ko‘rsatur. Zehnimizni, fikrimizni qilich kabi o‘tkur qilur.

Savobni gunohdan, halolni haromdan, tozani murdordan ayurub berur, to‘g‘ri yo‘lga rahnamolik qilub, dunyo va oxiratda mas‘ud bo‘lishimizga sabab bo‘lur. Ilmsiz inson mevasiz daraxt kabidur” deb aytganlar. Darxaqiqat ilm insonni ezgulikka chorlaydi, to‘g‘ri yo‘ldan adashtirmaydi. Ilmli inson hechqachon xoru-zor bo‘lmaydi, pul va boylik tugashi mumkin lekin ilm ko‘paysa ko‘payadiki lekin hech qachon tugamaydi. Aslida ilm so‘zini tariflasak manashu maqoladagi varaqlarlar ham yetmaydi, lekin biz eng kerakli so‘zlarni gaplarni ishlatapmiz. Ilm hech qachon hor bo‘lmaydi.

Abdulla avloniy o‘zining asarida yana bir jumlani keltirib o‘tganlar:

Ilm bir daryo ichi to‘lmish dur-u gavhar bilon,

Qiymat-u qadrin qachon bilg‘ayoni johil yilon.

Avloniy o‘z asarida ilmni ikkiga bo‘lgan diniy hamda fanniy. U inson yetuklikka erishish uchun diniy ilmlar bilan birgalikda hisob(matemarika), tarix, kimyo, handasa va tib ya‘ni fanniy ilmlarni o‘rganishni tavsiya etgan.

Avloniyning she‘riy baytida ham ilmni targ‘ib qilgan:

Topar ilm ila odam o‘g‘li kamol,

Yeturmas kamola jamol ila mol.

Kerak o‘rtanur ilm uchun sham‘dek,

Tanumoq xudoni ilmsiz mahol.

Talabgor o‘lur ilma oqil kishi,

Sotar ilm bozori moli halol.

Talab aylamak farzdur bizga ilm,

Bu amr uzradur er-xotun, yosh, chol.

Ya‘ni biz ilm olsak bizni amalimiz halol, bilim olish esa bizlarga farz qilib berilgan deyilgan ushbu baytda.

Avloniyning “Ikkinchi muallim” asaruda ilmsizlik balosigaham ta‘rif berib o‘tgan.

O‘qumoq , yozmoqi bilsaydi otang, ey o‘g‘lon,

Balki boshiga qazo kelmas edi ushbu zamon.

Quvvatning borida xat bilmoq uchun qil harakat,

San jadal qilsang o‘zi, bergusi Alloh barakat.

Ibrat ol, o‘g‘lim , otangdin, bo‘lmag‘il san yaramas,

Qilmag‘il umringni zoye, dema qish-yoz, o‘qu, yoz!

Bu yerda Avloniy yosh avlodga ko‘proq e‘tiborini qaratgan. Agar ota-onalarida ko‘proq ilmliroq bo‘lganlarida edi, turli qiyinchiliklar kechirmagan bo‘lar edilar va yana yoshlik quvvati boride o‘qib o‘rganmasang qarilikda o‘qish uchun qiynalasan deb aytganlar.

Avvalgi davrdaham, hozrham va kelajakdaham ilmli kishilar doim kerak bo‘ladi. Shunday ekan inson doim ilm olishdan hechqachon charchamaslik kerak.

REFERENCES

1. <https://forum.ziyouz.com/index.php?topic=6664.0>
2. https://uz.wikipedia.org/wiki/Turkiy_guliston
3. ABDULLA AVLONIY TURKIY GULISTON YOXUD AXLOQ Pandlar, ibratlar, hiqoyatlar. “ O‘zbekiston milliy ensiklopediyasi” avlat ilmiy nashriyoti Toshkent 700129, Navoiy ko‘chasi, 30.

UMUMIY O‘RTA TA‘LIM MAKTABLARI O‘QUVCHILARINI TASVIRIY SA‘NAT DARSLARIDA PEDAGOGIK TEHNOLOGIYALAR VA KETMA – KETLIK PRINTSIPI ASOSIDA O‘QITISH

Mamitaliyev Ahmadjon G‘aniyevich

Andijon davlat Pedagogika instituti

“Tasviriy san‘at va musiqa ta‘limi”

kafedra o‘qituvchisi

Annotasiya: Ushbu maqola umumiy o‘rta ta‘lim maktablari o‘quvchilarini tasviriy san‘at darslarida pedagogik texnologiyalar, ketma-ketlik printsiplari, ko‘rgazmali qurollar va didaktik printsiplar asosida o‘qitish bo‘yicha bir qator masalalarni bayon etadi va bo‘lajak tasviriy san‘at fani o‘qituvchilari uchun kerakli bo‘lgan metodik tavsiyalar beradi.

Kalit so‘zlar: Tasviriy san‘at, tasvir, o‘qituvchi, o‘quvchi, maktab, natyurmort, ko‘nikma, ko‘rgazma, ta‘lim-tarbiya, didaktika.

Tariximiz va madaniyatimizni ifoda etadigan moddiy va madaniy boyliklarimiz muhim tarbiya vositasi bo‘lib hisoblanadi. Ajdodlarimiz tomonidan yaratilgan moddiy-ma‘naviy boyliklar bitmas-tuganmas xazina, yoshlar ongiga singdiriladigan, ularni barkamol avlod qilib tarbiyalaydigan bebaho omillardir. Prezidentimiz I.A. Karimov ta‘kidlaganlaridek “Har qaysi xalq yoki millatning ma‘naviyatini uning tarixi, o‘ziga xos urf-odat va an‘analari, hayotiy qadriyatlaridan ayro holda tasavvur etib bo‘lmaydi. Bu borada, tabiiyki, ma‘naviy meros, madaniy boyliklar, ko‘hna tarixiy yodgorliklar eng muhim omillardan biri bo‘lib xizmat qiladi” degan so‘zlari boy merosimizga qanday munosabatda bo‘lish kerakligini ko‘rsatib beradi. Kelgusida farzandlarimiz, ozod va obod vatanimizning yuksak ma‘naviyatli, moddiy va ma‘naviy qadriyatlarini avaylaydigan, tariximizni ulug‘laydigan, barkamol shaxslar bo‘lib yetishishlari darkor. Shu bilan bir qatorda kelajak avlodimiz ma‘naviyati va tafakkurini yuksaltirishda tasviriy san‘at fanining o‘rni beqiyosdir.

Maktab tasviriy san‘ati birinchi sinfdan boshlab o‘qitiladi. Birinchi-uchinchi sinflarda o‘quvchilar rasm chizishda o‘quv qurollaridan foydalanish va qo‘l-ko‘zni rasm chizishga o‘rgatish, ya‘ni qo‘l bilan ko‘zni rasm chizishni qonun-qoidalar bilan mashqlar vositasida ko‘nikmalar hosil qilish maqsadida va vazifalar yo‘lida faoliyat yuritadi. 4-sinfdan boshlab, rasm chizishni o‘rganish va o‘rgatishni asosiy bosqichi, ya‘ni realist rasm chizish qonun-qoidalarini o‘rgatiladi. Shuning uchun 4-sinfdan boshlab “Narsani o‘ziga qarab rasm chizish” darslarining maqsadi vazifasi, uni tashkil

etish va o'qitish texnologiyasi, didaktikasi va ta'lim metodlari ham mutloq yangicha shakl va mazmunda olib boriladi. Ma'lumki, pedagogik texnologiya, bu - o'qituvchini darsga kirishi, ya'ni darsni boshlashidan boshlab, uni darsni yakunlashigacha bo'lgan pedagogik jarayonni o'z ichiga oladi.

Maktab tasviriy san'atini o'qitishning pedagogik texnologiyasi - dars jarayonida o'qitish, o'rgatish va rivojlantirish qonun-qoidalarini ishga solib, ta'lim-tarbiya vositalaridan unumli foydalangan holda belgilangan maqsadga erishishni kafolatlay oladigan pedagogik jarayon mazmunida ifodalanadi. Shunga ko'ra "Narsani o'ziga qarab rasm chizish" darslarida g'oyat kuchli, qiziqarli, rang-barang didaktik va ko'rgazma materiallaridan foydalanilgan holda darsning o'quv materiallarini o'quvchilarga yetkazib, darsda shu mazmundagi vazifalarni ko'rsatib-tushuntirib, mustaqil-ijodiy chizishga kiritish, dars davomida o'quvchilar bilim-malakalarini nazoratdan o'tkazish, o'quvchilarni bilim-malakalarini va grafik ishlarini tekshirish va baholash, uyga vazifa berish va uning mazmunini, bajarish yo'llarini o'rgatish va dars tugaganini e'lon qilish - kabilardan iborat bo'lgan pedagogik texnologiyaga amal qilinadi. Maktab tasviriy san'ati darslari o'ziga xos yagona pedagogik texnologiyaga egadir. Lekin tasviriy san'atning dars-mashg'ulotlarining turlariga ko'ra dars mashg'ulotlarining pedagogik texnologiyalari ham bir-biridan qisman farq qiladi. Masalan, narsani o'ziga qarab rasm chizish darsida o'quvchilar asosan natura bo'yicha ishlaydi. "Tematik kompozitsiya ishlash" mashg'ulotlarida o'quvchilar hayol, tasavvur, fantaziya bo'yicha ishlaydilar. Haykaltaroshlik darslarida esa ham natura bo'yicha, ham tasavvur, fantaziya, tafakkur asosida ishlaydilar. Bulardan ko'rinib turibdiki, tasviriy san'atning dars-mashg'ulotlari mazmunini o'zgarishi bilan, ularni o'qitish texnologiyalari ham qisman o'zgarib turadi. Ma'lumki, 4-sinfdan boshlab narsani o'ziga qarab rasm chizish dars mashg'ulotlari o'quvchilarga rasm chizishni yangicha texnologiyasi hajm asosida narsa-predmetlar tasvirini yaratishning o'ziga xos qonun-qoidalari o'rgatiladi. Bu texnologiyada predmetning shakli, tuzilishi, turish holati, rangi, uning asosiy va ikkinchi darajali elementlari, predmet ko'rinishidagi perspektiva hodisasi, yorug'-soylar asosida hajmni ifodalash, predmetni qonun-qoidalari ko'rinishini tasvirga tushirish qoidalari, qonunlari, vositalari o'rgatiladi va ulardan foydalanish yo'llari, metodlari, uslublari, didaktik printsiplari bo'yicha bilim, malaka va ko'nikmalar oladilar. Shuning uchun bu sinfda dars beradigan tasviriy san'at o'qituvchisi rasm chizish bo'yicha yuksak bilim-malakaga ega bo'lishi bilan birga, u ijodiy iste'dodga va darsning pedagogik texnologiyasini, o'quv uslubiy uslublarini ham juda yaxshi bilishi kerak. Chunki, agar o'qituvchi rasmni juda oson, tez chizib, o'zi chizayotgan har bir chiziq, shtrix va tasvirni qayerdan, qanday holatda boshlab, qayerda, qanday holatda tugaganini aniq ko'rsatib, o'quvchilarda ishonchli tasavvur hosil qila olsa, u albatta hamma o'quvchiga rasm chizishni o'rgata oladi. Bu to'la

isbotlangan va asoslangan haqiqatdir. O'qituvchi dars jarayonida har bir so'zini ishonch bilan aytib, uni harakat holatida - ko'rgazmalar va sinf doskasida chizgan tasvirlar asosida ko'rsata olishi kerak, o'quvchi buni isbotini berilayotgan ma'lumotlar va amaliyotlar vositachiligida anglab olishlari lozim. Bu faoliyat narsani o'ziga qarab rasm chizish darslarida o'qituvchining og'zaki bayoni bilan, uning sinf doskasiga chizib ko'rsatayotgan rasmtasvirlarining o'zaro, so'zma-so'z bog'lanishi jarayoni bilan amalga oshiriladi. Bularning barchasi o'qituvchini darsga tayyorgarligi saviyasiga bog'liq bo'lib, bu tayyorgarlikda o'qituvchini darsni «motivatsiya» jarayoni bilan boshlashidan boshlab, darsda ta'lim-tarbiyaning barcha vositalaridan unumli foydalanish asosida rejalashtirilgan ta'limiy va tarbiyaviy vazifalarni bajarilishida namoyon bo'ladi. Demak, o'qituvchi darsga tayyorgarlik davrida darsni tashkil etish va o'tkazishning eng samarali pedagogik texnologiyasini, didaktik printsiplarini va ta'lim metodlarini tanlab olishi va uni dars jarayonida qo'llash imkoniyatlarini ishlab chiqadi. Bu jarayon ko'proq o'rinlarda «Motivatsiya» bilan boshlanadi. Narsani o'ziga qarab rasm chizish darslarida pedagogik texnologiyani samarali bo'lishi ko'proq didaktik materiallarni yetarli, saviyali va sifatli bo'lishi bilan birga, dars materialini, unda bajariladigan vazifalarni o'quvchilarning yoshiga, bilim malakasiga, dunyoqarashi va hayotiy faoliyatlar tajribasiga ham juda bog'liq bo'ladi. Bunga o'quv fanning dasturida alohida e'tibor beriladi. Lekin o'qituvchi ixtiyorida qoldirilgan rasmini chizish uchun narsa (natura), predmet va ob'ekt tanlashda juda e'tiborli bo'lishni talab qiladi.

Narsani o'ziga qarab rasm chizish darslarida maktab tasviriy san'atini o'qitishning pedagogik texnologiyasiga asoslangan holda, yana bir qator ta'limiy va tarbiyaviy vositalardan foydalanish zaruriyati namoyon bo'ladi. Bular eng avvalo darsda rasmi chiziladigan natura, ob'ektlarni to'g'ri tanlash, ularning taxlilini imiy asosda tashkil etish, darsda o'quvchilar tomonidan bajariladigan vazifalarni nazariy va amaliy jihatdan ko'rsatib, tushuntirib berish, darsni ko'proq qismini amaliy faoliyatga ajratilishi, amaliyotdan so'ng darsda bajariladigan ishlar taxlilini o'tkazish va o'quvchilarning bilim-malakalarini baholab borish, uyga beriladigan vazifalarni mazmun-mohiyatini, ularni bajarish yo'llarini tushuntirib berishda namoyon bo'ladi.

4-sinfidan boshlab rasmi chiziladigan natura va natyumortlarni o'quvchiga aniq, ravshan holatda, uchta tomoni ko'rinadigan, ularni o'quvchilar tez anglab oladigan holatda, maxsus taglik (podstavka) ustiga, xonani 2-3 joyiga qo'yish kerak. Buni narsani o'ziga qarab rasm chizish darslarining pedagogik texnologiyasi va didaktik printsiplari talab qiladi. Shuning uchun o'qituvchi eng avval rasmini chizish uchun qo'yiladigan natura va natyumortlarni o'quvchilarni ko'rish gorizontidan yuqorilab ketmasligini ham ta'minlashi zarur. Yana natyumort elementlari bir-biridan ajralib qolmasligini ham, qo'shib ketmasligi ham e'tiborga olishi kerak.

Chiziladigan natyurmortning har bir predmetini alohida-alohida taxlil qilib, ularni turish holatini va ularga tushayotgan yorug'-soyalar qayta-qayta ko'rsatilib, ularni tasvirlash yo'llari sinf doskasida va ko'rgazmalar vositasida tushuntirib beriladi. Agar natura yoki natyurmort predmetlarini bir yoki ikki tomonigina ko'rinadigan bo'lsa, o'quvchilar bu predmetlarni shakli va tuzilishini yaxshi idrok etolmaydilar. Ularni tasvirini yaxshi chiza olmaydilar. Shuning uchun 4-sinfdagi narsani o'ziga qarab rasm chizish darslaridagi asosiy vazifa - o'quvchilarga natura yoki natyurmortlarni shakli, tuzilishi, rangi, turish holatlari, yorug'-soyalarini ko'rish, kuzatish, idrok etish va ular haqida ilmiy-amaliy tasavvurlar hosil qilishga o'rgatgan holda, ularni rasmini hajmli holatda tasvirlashdan iborat bo'ladi. Yana 4-sinfdagi narsani o'ziga qarab rasm chizish darslarida o'quvchilarga realistik rasm chizishning asosiy printsiplari - narsalar tasvirini hajm asosida, perspektiva va yorug'-soyalar nazariyasiga, qonun-qoidalariga amal qilingan holda, naturalizm metodlari bo'yicha tasvirlar yaratish, rasm ishlashga o'rgatish, narsani o'ziga qarab rasm chizishning emas, balki butun tasviriy san'at o'quv fanining, o'quv predmetining bosh, asosiy va texnologiya yoki didaktik vazifasi qilib Davlat ta'lim standartida va dasturida belgilab qo'yilgan. Bu talab o'quvchilarga beriladigan tasviriy faoliyat bo'yicha bilim, malakalarni ilmiy, izchil, asosli, sistemali, amaliy faoliyatga bog'lagan holda va ko'nikmaga aylangan darajada bo'lishini ta'minlaydi. Bularni amalga oshirish har qanday rassom yoki pedagog-rassomni ham qo'lidan kelavermaydi. Chunki, buning uchun o'qituvchi rasm chizish bo'yicha yetuk mutaxassis bo'lishi bilan birga, u bolalar bilan ishlay olish, rasm chizishni boshqalarga o'rgata olish, tasviriy faoliyat darslariga ijodkorlik, tashabbuskorlik va mustaqillik faoliyati ruxini olib kira olish kabi haqiqiy pedagogik mahoratga ham ega bo'lishlari kerak. U dars materialini, darsda o'quvchilar bajara oladigan vazifalarni juda «osonlik» bilan «ilmiy asosda» va «qisqagina» qilib o'quvchilarga yetkazishni buyuk chex pedagogi Ya.A.Komenskiy (1592-1670) ko'rsatib o'tganidek amalga oshirishi zarur.

Atoqli rus pedagogi K.D.Ushinskiy (1824-1871) ta'kidlaganidek, - «Rasm o'qituvchisi rasm chizishni bilishi zarur, lekin uni o'rgata olishi, uni eng muhim vazifasidir», - degan iborani ko'p marotaba ta'kidlagan edi.

Shuning uchun maktab tasviriy san'at o'qituvchisi rasm chizishni ustasi bo'lishi kerak, shu bilan birga u realistik rasm chizishga o'rgatish darslarini pedagogik texnologiyasini, darsda o'qitish didaktikasini va ta'lim berish - rasm chizishga o'rgatish o'quv uslubi - uslublarini juda kuchli bilishlari va ular o'qituvchi faoliyati mazmuniga singib ketgan bo'lishi kerak. Tasviriy san'at o'qituvchisi o'zining har bir darsi uchun darsning maqsadi va vazifasiga ko'ra dars texnologiyasini ishlab chiqadi. Bularning hammasi uchun eng avvalo maktabda mutaxassis pedagog-rassom bo'lishi, u maktabni 1-7 sinflaridagi barcha tasviriy san'at darslarini o'zi olib borishi zarur. Ikkinchidan maktabda yangi ish boshlagan tasviriy san'at o'qituvchisi eng avval

maktabda tasviriy san'at kabinetini tashkil etish va uni eng zaruriy didaktik asboblar, materiallar va ko'rgazmali qurollar bilan ta'minlashga kirishishi kerak. Maktabda tasviriy san'at kabinetini tashkil etishga maktab ma'muriyati tuman va viloyat xalq ta'limi boshqarmalari bilan hamkorlikda rasm chizish partalari, malbertlar, maxsus sinf doskasi, podstavka, natura uchun fon materiallari va chelak kabi inventarlar bilan ta'minlashga yordam berishi zarur.

Maktab tasviriy san'ati ayniqsa, uning narsani o'ziga qarab rasm ishlash dars-mashg'ulotlarida predmet-narsalarning shakli, tuzilishi, rang-tuslari, yorug'-soylari, ularning elementlari, ulardagi perspektiva va uning qonuniga ko'ra shakl va rang o'zgarishlari, ularning yaratilishi, odamlar hayoti va turmushidagi tutgan o'mi kabilar haqida o'quvchilarga aniq-to'g'ri ma'lumotlar berilishi kerak, bularning hammasi o'qitishning ilmiylik printsiplari asosida bo'lishini ta'minlaydi. Narsani o'ziga qarab rasm chizish darslarida rasmi chiziladigan narsalar tasvirini yaratishda narsalami ko'rinishi, undagi perspektiva qonunlari, soyalar nazariyasi, ufq-gorizonti, predmetlarning ichki mazmun-mohiyati bo'yicha ma'lumotlar berilishi zarurki, bularning hammasi ilmiy asosda va o'quv fanlarining ma'lumot-manbalariga tayangan holda bo'lishi lozim. Chunki darsda berilayotgan ma'lumotlar shu darsni o'zidagi amaliy ishlarda qo'llab ko'riladi. Shuning uchun tasviriy san'at va uning narsani o'ziga qarab rasm chizish darslarida didaktikaning ilmiylik printsiplari dars mashg'ulotida to'la hukmronlik qiladi. Narsani o'ziga qarab rasm chizish darslari 4-sinfidagi o'quvchilarga beriladigan bilim-malakalar asosan predmetning shakli, tuzilishini chiziq, shtrix va yorug'-soylar asosida tasvirini yaratish mazmunida bo'lib, bu o'rinda geometrik shakllarni naturaga tanlash yaxshi natija beradi va o'quvchilarni darsga bo'lgan qiziqishlarini yanada oshiradi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak, tasviriy san'at ta'limidagi ilmiylik - o'rganilayotgan yoki rasmi chizilayotgan narsa, predmet, voqea-hodisa va ob'ektni tashqi ko'rinishi, shakli, tuzilishi, rang-tusi va ularning ichki mazmun-mohiyatini, ulami o'zaro aloqalarini, bir-biriga bog'liqligini ilmiy jihatdan, fan malumotlari asosida ko'rsatib, tushuntirib berishni darsning maqsadi va vazifalarining o'zi qat'iy talab qiladi. Tasviriy san'at ta'limidagi ilmiylik - rasmi chizilayotgan va o'rganilayotgan narsa, predmet, voqea va ob'ektlarni o'rganib chiqish va ular rasmini chizish uchun zarur bo'ladigan qonun-qoidalarni ilmiy asoslaridan boshlab o'rgatish va ularni amalda qo'llash mazmunidagi pedagogik faoliyatda namoyon bo'ladi. Chunki, har qanday ta'limdagi ilmiylik-ta'lim mazmunini to'g'ri, ob'ektiv, haqqoniy ma'lumotlar bilan ta'minlagan holda, ta'lim mazmunini sistemali, ma'lum bir tartibda, ketma-ketlik qoidalari asosida o'rganadi, o'rgatadi, takomillashtiradi va rivojlantiradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Xasanov R, Maktabda tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. -T.: Fan, 2004.
2. Egamov A. Kompozitsiya asoslari. -T.: “San’at” jurnali nashriyoti,2005.
3. Abdirasilov S.F. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. -T.: 2012.
4. Muratov X.X, Qalamtasvir. -T.: Ijod –print, 2020.
5. Boymetov B, Qalamtasvir.Pedagogika institutlari va universitetlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. -T.: Iqtisod-Moliya, 2010-yil.
6. Turdaliyev A. Qalamtasvir asoslari. –N.: Faxrizoda, 1999.
7. Oripov B.N. Predmetlar aro bog‘lanish. -T.: O‘qituvchi,1985.
8. Hasanov R. Narsani o‘ziga qarab rasm chizish. -T.: O‘qituvchi, 1969.
9. Saidaxmedov N. Yangi pedagogik texnologiyalar. -T.: Moliya, 2003.
10. Oripov B. Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi. -T.: Ilm-ziyo, 2005.

AYRIM IRRATSIONAL KO'RINISHDAGI INTEGRALLARNI EYLER ALMASHTIRISHLARI YORDAMIDA RATSIONALLASHTIRISH

Javohir Ibrohimov Bahrom o'g'li

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali o'qituvchisi

Muxammadiyev G'iyosiddin Jamshid o'g'li

O'zbekiston Milliy universiteti Jizzax filiali talabasi

Annotatsiya : $\int R(x, \sqrt{ax^2 + bx + c}) dx$ ko'rinishidagi integrallarni hisoblashda biz avvalo bu integral ostidagi ifodani ratsional funksiyaga keltirib olishimiz zarur. Buning uchun Eylerning 3 ta almashtirishi bizga yordam beradi. Quyida biz shu almashtirishlarni misollarda ko'rib chiqamiz.

Kalit so'zlar: Irratsional integral, ratsional funksiya, Eyler almashtirishlari, kvadrat uchhad.

Bizga irratsional ko'rinishdagi

$$\int R(x, \sqrt{ax^2 + bx + c}) dx \quad (1)$$

integral berilgan bo'lsin. Ushbu integralni quyidagi uchta almashtirish yordamida ratsional funksiya integraliga keladi. Odatda bu almashtirishlarni Eyler almashtirishlari deyimiz. (1) integralda a, b, c -haqiqiy sonlar bo'lib, $ax^2 + bx + c$ kvadrat uchhad teng ildizlarga ega emas.

1-holat $a > 0$ bo'lsin.

(1) integralda ushbu

$$t = \sqrt{ax} + \sqrt{ax^2 + bx + c} \quad (\text{yoki } t = -\sqrt{ax} + \sqrt{ax^2 + bx + c})$$

almashtirishni bajaramiz. U holda

$$ax^2 + bx + c = t^2 - 2\sqrt{a}xt + ax^2,$$

$$x = \frac{t^2 - c}{2\sqrt{at} + b}, \quad dx = \frac{2(\sqrt{at^2 + bt + c\sqrt{a}})}{(2\sqrt{at} + b)^2} dt,$$

$$\sqrt{ax^2 + bx + c} = \frac{\sqrt{at^2 + bt + c\sqrt{a}}}{2\sqrt{at} + b}$$

Tijorat banki Markaziy bankka taqdim qiladigan investitsiya siyosati va bankning emissiya siyosati to'g'risidagi nizomlari odatda bank Kengashi tomonidan tasdiqlangan bo'ladi. Tijorat bankining investitsiya siyosatida investitsiya strategiyasi va maqsadi, bank mablag'lariga sotib olish rejalashtirilayotgan qimmatli qog'ozlar turlari, investitsiyalarni amalga oshirish, muddatlari;

–emitentning moliyaviy ahvoli, qimmatli qog'oz qo'yilmala-rining risk darajasi, diversifi katsiyalanganligi, qimmatli qog'ozlarning sifati va barqarorligini kafolatlovchi rejalar majmuasi ko'satiladi.

Bankning emissiya qimmatli qog'ozlar chiqarish siyosatida emissiya faoliyatining maqsadi (masalan, ustav fondini shakllantirish, likvidlikni saqlash, qarz mablag'larini jalb qilish va boshqalar) va strategiyasi, bank chiqaradigan qimmatli qog'ozlar turlari va muddatlari, ularning likvidliligi, qarz majburiyatlarining o'z vaqtida qoplanishi va boshqalar ko'satiladi.

Rivojlangan mamlakatlar, masalan, AQSH tajribasidan ma'lumki, yaqin vaqtlargacha tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi bevosita faoliyat ko'rsatishi cheklangan yoki taqiqlab qo'yilgan edi. Biroq hozirgi paytda bunday cheklanishlarga barham berilgan va natijada, jahon moliya bozorida tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bozoridagi salmog'i, ahamiyati va roli oshib bormoqda.

Ta'kidlash joizki, Respublikamizda banklar faoliyati bank ning nazorati ostida Xalqaro Bazel qo'mitasi qoidalariga asoslangan jahon bank qonunchiligi va iqtisodiy me'yorlarga muvofiq amalga oshirilmoqda. Yuqorida keltirilgan Nizomga asosan banklar tomonidan qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalar olib borishda quyidagi cheklolar, yoki shartlarga rioya qilish zarur.

TADQIQOT NATIJASI

Avvalambor bankning bir korxonaga ustav kapitaliga, yoki uning boshqa qimmatli qog'ozlarga qo'yilmasining miqdori birinchi darajali bank kapitalining 15 foizidan oshmasligi kerak. Bankning moliyaviy institutlardan tashqari korxonalar ustav kapitalining 20 foizidan ortig'iga ega bo'lmasligi: bankning oldi-sotdi uchun nodavlat qimmatli qog'ozlarga qo'yilmasi hajmi birinchi darajali bank kapitalining 25 foizidan oshmaslik shartlari qo'yilgan. Ushbu cheklanishlar banklar faoliyatida riskni kamaytirishga, bank aktivlarini diversifikatsiyalashga, moliyaviy va likvidlik holati belgilangan me'yorlar doirasidan chiqib ketmasligiga, pirovard natijada esa bank omonatchilari va kreditorlarining mol-mulkini himoya qilishga qaratilgan.

O'zbekiston Respublikasi tijorat banklarining qimmatli qog'ozlar bilan bog'liq operatsiyalariga nisbatan belgilangan muhim cheklashlardan biri bir bank tomonidan boshqa banklarning aksiyalarini sotib olish huquqining bekor qilinganligi hisoblanadi.

Ushbu cheklovning joriy qilinishidan ko'zlangan maqsad banklarning ishlab chiqarish korxonalarining kapitalidagi ishtirokini kuchaytirish hisoblanadi.

Banklarning qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiradigan operatsiyalari uchun qimmatli qog'ozlar bozorini nazorat etuvchi organning maxsus ruxsati talab qilinmaydi, shu sababli, banklar bu operatsiyalarni banklar faoliyatini amalga oshirish uchun Markaziy bank tomonidan berilgan umumiy litsenziya asosida bajaradilar. Qonunlarda tijorat banklariga aksiyalar, obligatsiyalar, depo ziti, sertifikatli va jamg'arma sertifikatli, veksellari kabi qimmatli qog'oz turlarini chiqarishga ruxsat beriladi. Banklar ustav fondlarini shakllantirish maqsadida aksiyalar chiqaradi.

Banklar qarz mablag'larini jalb etish uchun o'zining qarz majburiyatlari – obligatsiyalar, depozit va depozit sertifikatli, veksellar chiqaradilar. Bundan tashqari, ular qimmatbaho qog'ozlar hosilalari chiqarishi ham mumkin. Faqat yirik sanoat korxonalarining aksiyalarigina bank qimmatli qog'ozlari bilan raqobatlasha oladi.

Bank qimmatli qog'ozlari uzoq muddatli manfaatlarni ko'zlaydigan investorlar uchun ham, vaqtincha bo'sh turgan mablag'larini jamlovchilar uchun ham ancha manfaatli qo'yilma obyektidir. Uzoq muddatga mo'ljallangan maqsadlarni amalga oshirish ko'zlanganda yirik va o'rtacha tijorat banklarining aksiyalariga mablag' investitsiyalash eng yuqori samara berishi mumkin.

Hozirgi vaqtda mavjud qoidalarga binoan, banklarning depozit sertifi katlari va veksellari, Markaziy bank tomonidan aksiyalar, obligatsiyalar, qimmatli qog'ozlar hosilalari Davlat mulki qo'mitasi tomonidan muvofi qlashtiriladi. Undan tashqari Respublikada qimmatli qog'ozlar bozori faoliyatini muvofi qlashtirish va nazorat qilish markazi, Korporativ qimmatli qog'ozlar markazi tashkil qilingan.

MUHOKAMA

Qimmatli qog'ozlar bozorida moliyaviy broker sifatida banklar komission shartnoma yoki topshiriq shartnomasi asosida mijozning hisobidan amalga oshiriladigan qimmatli qog'ozlar oldi-sotdisida vositachilik vazifasini bajaradi.

Brokerlik operatsiyalari – banklar o'z mijozlarining topshiriqlariga binoan komission operatsiyalarni amalga oshirishi, ya'ni o'z nomidan mijozning hisobidan qimmatli qog'ozlar oldisotdisiga oid bitimlarni tuzishi mumkin. Bunda, bank mijozning hamma ko'rsatmalarini bajarishi lozim hamda komission haq olishga, mijozning topshirig'ini bajarishda qilingan qo'shimcha sarf-xarajatlar kompensatsiyasini olishga haqlidir. Komission bitim quyidagi 2 shartnomaga asoslanadi:

- bank (komission) bilan mijoz (komitent) o'rtasidagi shartnoma;
- komissioner bilan uchinchi shaxs o'rtasidagi shartnoma.

Odatda, qimmatli qog'ozlar sotib olishga doir komission shartnoma tuzishdan oldin xaridor-komitentlar vositachi bankning tasarrufi ga berish uchun o'z hisob-kitob varag'iga zaruriy qimmatli qog'ozlar sotib olishga yetarli pul summasini o'tkazadi. Qimmatli qog'ozlar sotishga oid komission shartnoma tuzishda sotuvchi-komitent o'zi sotmoqchi bo'lgan qimmatli qog'ozni vositachi bankka oldindan deponentlab qo'yadi.

Bank kreditidan foydalanib qimmatli qog'ozlar sotib olingan taqdirda (agar kredit boshqa bankdan olingan bo'lsa), mijoz uning uchun qimmatli qog'ozlar sotib olish operatsiyasini bajaradigan vositachi bankni bundan xabardor qilishi lozim.

Bank ishtirokidagi qimmatli qog'ozlar komissiyasi deganda qimmatli qog'ozlarni mijozdan o'z mablag'lari hisobiga sotib olish yoki o'z portfelidan qimmatli qog'ozlarni sotish nazarda tutiladi. Bu bitimlarni amalga oshirishda bank o'z nomidan va o'z hisobidan harakat qiladi. Bank tartibga solinadigan fond bozorida rasmiy savdoga yoki fond birjalarining tartibga solinadigan bozorida ruxsat etilgan qimmatli qog'ozlar bilangina komission operatsiyalarni amalga oshiradi. Bunday operatsiya bajarilganda bank operatsiyasi to'g'risida mijozga taqdim etadigan hisobotida bank yoki olgan narx rasmiy birja kursiga to'g'ri kelishini tasdiqlaydigan ma'lumotlarni keltirish lozim.

XULOSA

Tijorat banklari investitsiya kompaniyalari sifatida faoliyat yuritganida emitent bilan kelishuv asosida qimmatli qog'ozlar chiqarishining tashkilotchisi sifatida harakat qilishi mumkin. Bank emitentning qimmatli qog'ozlarini chiqarishni tashkil etib, aslida

qimmatli qog'ozlar emissiyasini amalga oshiradi, ya'ni vositachi sifatida harakat qiladi. Emitentlar va investorlar o'rtasida harakat qilganda bank imkon qadar olishni ko'zlab harakat qiladi. Emissiyani tayyorlash jarayonida tijorat banklari emissiyasining turi, hajmi va shart-sharoitlari to'g'risida emitent bilan muzokaralar yuritib, bitim tuzadi.

Tijorat banklari asosan qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarni Respublika Fond bozorida yuqorida aytib o'tilgan qonunlardan tashqari „Banklar va bank faoliyati to'g'risida“gi Qonun hamda O'zbekiston Respublikasi Markaziy bankining me'yoriy hujjatlari asosida olib boradilar.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Abdullaeva Sh.Z., «Bank ishi». O'quv qo'llanma. –T.: Moliya.2003
2. Abdullaeva Sh.Z., «Pul kredit va banklar» O'zbekiston Respublikasi Bank-moliya akademiyasi, «Moliya» nashriyoti,2000 y.
3. Balabanova I.T., “Banki i bankovskoe delo”, Ucheb posob. Piter, 2003.
4. Kolesnikov V.I., «Bankovskoe delo» Moskva, 4-izd. «Finansi i statistika», 2002g.
5. Jarkovskaya E.P. «Bankovskoe delo» Uchebnik.-M.: Omega-L.2004.
6. Lavrushina O.I., «Den'gi, Kredit, Banki» Moskva, izd. «Finansi i statistika» 2003g.
7. Lavrushina O.I., «Bankovskoe delo» Moskva, izd. «Finansi i statistika» 2003g.
8. Korobkova G.G. «Bankovskoe delo» Uchebnik. -M.: Economist-2004.

TIJORAT BANKLARINING QIMMATLI QOG‘OZLAR BOZORIDAGI FAOLIYATINI RIVOJLANTIRISH

G‘ofurov Azizbek

Toshkent moliya institutlari iqtisodiyot
(tarmoqlar va sohalar bo‘yicha) yo‘nalishi magistri

Annotatsiya. Mazkur maqolada tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi faoliyatini rivojlantirish va uning samaradorligini oshirish chora-tadbirlariga alohida to‘xtalib o‘tilgan. Maqola so‘nggida muallif fikr-mulohazalkari va xulosalari berib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: tijorat banklari, bank xizmatlari, aktivlar, qimmatli qog‘ozlar.

РАЗВИТИЕ ДЕЯТЕЛЬНОСТИ КОММЕРЧЕСКИХ БАНКОВ НА РЫНКЕ ЦЕННЫХ БУМАГ

Аннотация. В данной статье основное внимание уделяется мерам по развитию деятельности коммерческих банков на рынке ценных бумаг и повышению ее эффективности. В конце статьи даны авторские комментарии и выводы.

Ключевые слова: коммерческие банки, банковские услуги, активы, ценные бумаги.

DEVELOPMENT OF ACTIVITIES OF COMMERCIAL BANKS IN THE SECURITIES MARKET

Abstract. This article focuses on measures to develop the activity of commercial banks in the securities market and increase its effectiveness. At the end of the article, the author's comments and conclusions are given.

Keywords: commercial banks, banking services, assets, securities.

KIRISH

Butun dunyoda yuz berayotgan hozirgi iqtisodiy inqiroz davrida O‘zbekiston bank tizimi taqdim etilayotgan bank xizmatlarini takomillashtiryapti hamda iqtisodiyot real sektori korxonalarini qo‘llab-quvvatlash bilan bog‘liq turli tuman bank operatsiyalariga yo‘naltirilgan aktivlarni restrukturizatsiyalash borasida faol ish yuritmoqda. Hozirgi kunda tijorat banklari o‘z aktiv operatsiyalari orqali barqaror

yuqori daromad olgan holda xatarlarni minimallashtirish masalasiga alohida e'tibor qaratayaptilar. Mamlakat fond bozori mavjudligi zamonaviy moliya bozorini rivojlantirishning ustuvor yo'nalishlaridan biridir.

Banklar fond bozori ishida faol qatnashishlariga ular qimmatli qog'ozlar bozorida faoliyat yuritishlari uchun bir qancha qulay shart-sharoit mavjudligi sabab bo'lmoqda. Masalan, banklar faoliyatini tartibga soluvchi qonunlar hamda normativ hujjatlarda qimmatli qog'ozlar bozorida har qanday funksiyalarni bajarish uchun biron-bir cheklashlar yo'q.

TADQIQOT METODI VA METODOLOGIYASI

Demak, banklar emitent, investor, investitsiya muassasasi sifatida ham ish olib borishlari mumkin. Banklarning barqaror moliyaviy ahvoli va bank operatsiyalarining yuksak darajadagi daromadliligi banklarga katta hajmdagi resurslarni qimmatli qog'ozlar bilan operatsiyalarga yo'naltirish imkonini beradi. An'anaviy bank operatsiyalari bo'yicha daromadlilik darajasi pasayishi banklarni boshqa muqobil daromad manbalari ustida yanada faolroq ishlashga majbur qilmoqda. Mijozlarning moliyaviy-xo'jalik faoliyati to'g'risida keng ko'lamli axborotga ega bo'lgan banklar yirik emitentlar sifatidagina emas, ayni paytda yirik investorlar sifatida ham faoliyat yuritmoqda. Banklar o'z salohiyatidan faol tarzda foydalanib, qimmatli qog'ozlar bozorida bevosita ishtirokchi va shu bilan birga umuman qimmatli qog'ozlar bilan savdo-sotiqni rivojlantirish uchun qulay shart-sharoitni yuzaga keltiradigan fond bozori infratuzilmasining muhim yordamchi muassasasi sifatida ham tobora kattaroq ahamiyatga ega bo'lib bormoqda. Banklarda o'z qimmatli qog'ozlarini chiqarish asosida o'zlarining ustav va aylanma jamg'armalariga qo'shimcha resurslarni jalb etish ehtiyoji borligi qimmatli qog'ozlar bozorida banklarni faollashtirishning eng muhim omillaridan biridir.

O'zbekiston Respublikasi fond bozori faoliyat yuritib kelayotgan davr mobaynida mamlakat tijorat banklari uning faol ishtirokchilari bo'libgina qolmasdan, bozor infratuzilmasini shakllantirishga doir vazifalarning bir qismini ham o'z zimmlariga oldilar.

TADQIQOT NATIJASI VA MUHOKAMA

Xalqaro tajribaga ko'ra, qimmatli qog'ozlar bozori iqtisodiyotning turli tarmoqlari uchun zarur investitsiyalarni jalb qilishning muhim manbai bo'lib, bank krediti orqali moliyalashtirishning muqobili sanaladi. Shu bois ham har qanday davlat iqtisodiy tizimining holati fond bozorida faollikda namoyon bo'ladi. Mazkur bozorda yuridik yoki jismoniy shaxslar o'z mablag'ini kelgusida foyda olish maqsadida aksiya hamda boshqa qimmatli qog'ozlarga yo'naltiradi. Qimmatli qog'ozlardan foyda olish dividend yoki foiz ko'rinishida yoxud ularni ikkilamchi

ravishda yuqoriroq bahoga sotish evaziga amalga oshiriladi. Moliyaviy fond birjalari bir nechta subyektlarning ishtirokida ishlaydi:

Emitentlar. Fond bozorida ishtirok etuvchi subyektlarning bunday turi yuridik shaxs, davlat organlari yoki mahalliy hokimiyat organi bo'lishi mumkin.

Investorlar. Ushbu subyekt turiga jismoniy va yuridik shaxslar - kompaniyalar, korxonalar, davlat idoralari kirishi mumkin. Yuqorida qayd etilgan shaxslar o'z kapitallaridan keyinchalik foyda olish maqsadida qimmatli qog'ozlarni sotib olish uchun foydalanadilar.

Professional a'zolar. Ular fond bozorida ishtirok etuvchi uchinchi shaxslardir. Ular asosan treyderlar, brokerlar, dilerlar kiradi. Bir so'z bilan aytganda ular vositachilar bo'lib, tomonlardan birining vakili. Bu guruh vakillari muvaffaqiyatli bitimning foizlarini olishadi, shuning uchun bunday savdo shartnomalarini bajarishda imkon qadar ishtirok etish ularning manfaatlariga mos keladi.

XULOSA

Hozirgi zamon iqtisodiyotining rivojlanish darajasiga qarab, mamlakat iqtisodiyotning "ahvoli" haqida fikr yuritish mumkin, chunki moliya bozoriga ta'sir ko'rsatib, jamiyatning iqtisodiy faoliyatini boshqarish mumkin. Shuning uchun bozorini rivojlantirish bugungi kunda iqtisodiyotimizdagi muhim vazifalardan biridir. Shuningdek, mamlakatimiz fond bozorini yanada rivojlantirish va barqarorlashtirishda tijorat bank investitsiyalaridan foydalanish maqsadga muvofiqdir: - fond bozorida banklar tomonidan qimmatli qog'ozlar bilan amalga oshiriladigan operatsiyalar bo'yicha soliq mexanizmida birmuncha yengilliklar va imtiyozlar joriy etilishi lozim; - birja savdolarida sotiladigan moliyaviy instrumentlar sonini ko'paytirish, ya'ni moliyaviy fyuchers, opsiya, depozitar tilxatlar va ipoteka obligatsiyalarini joriy etish. Bu holat qimmatli qog'ozlar bozorida banklarning faollashuviga va fond bozori aylanmasining oshishiga olib keladi; - Respublika tijorat banklarining qimmatli qog'ozlarini xalqaro fond birjalarida sotishni ta'minlash mexanizmini ishlab chiqish lozim. Yuqorida sanab o'tilgan chora-tadbirlarning o'z vaqtida amalga oshirilishi respublika banklari raqobatbardoshligini oshirishga xizmat qilib, ularning nafaqat milliy fond bozorida investitsion faolligi oshishiga, i xalqaro kapital bozorida ham faol ishtirokchiga aylanishiga imkon beradi, O'zbekistonda investitsiya muhitining yanada qulayroq bo'lishiga olib keladi.

Foydalanilgan adabiyotlar:

1. Sh.M.Mirziyoyev. “O‘zbekiston Respublikasini yanada rivojlantirish bo‘yicha harakatlar strategiyasi to‘g‘risida”gi farmoni.07.02.2017 PF-494
2. Sh.M.Mirziyoyev. O‘zbekiston Respublikasi Xususiylashtirilgan korxonalariga ko‘maklashish va raqobatni rivojlantirish davlat qo‘mitasi tashkil etish to‘g‘risida"gi Farmoni 18.04.2017.
3. X.Sh.Tillayev. Tijorat banklarining qimmatli qog‘ozlar bozoridagi investitsiyalar faoliyati takomillashtirish.2018.www.wc.tseu.uz
4. <https://dutyfree58.ru/uz/kak-rabotaet-fondovyi-rynok-mehanizm-rabotyrynka-akcii>
5. <https://www.spot.uz/oz/2018/08/08/stock/>

ОСНОВНЫЕ ЭТАПЫ АУДИТОРСКОЙ ПРОВЕРКИ ПО МЕЖДУНАРОДНЫМ СТАНДАРТАМ

Атаханова Дилнозахон Искандар кизи

магистрант 2-го курса

Факультета “Банковское дело и аудит”, ТФИ

Аннотация: В данной работе рассматривается понятие и основные этапы планирование аудиторских процессов. В частности, влияние планирование на качество контрольных процедур аудита.

Ключевые слова: планирование, аудитор, задачи, аудиторские риски, существенность, план, оценка, этап, меморандум.

Annotation: This paper discusses the concept and main stages of planning audit processes. In particular, the impact of planning on the quality of audit control procedures.

Key words: planning, auditor, tasks, audit risks, materiality, plan, assessment, stage, memorandum.

В рамках аудита контрольные мероприятия осуществляются независимыми квалифицированными лицами, прямо или косвенно не зависящими от зоны ответственности процесса. Эта задача обычно выполняется внешними аудиторами или отделом внутреннего аудита. В целом у внутреннего контроля все операции должны осуществляться по установленным правилам в заранее определенной организационной системе.

Качество рабочих процессов достигается за счет интеграции в процессы контрольных процедур и оборудования. Здесь необходимо обратить внимание на разделение функций, чтобы лица, работающие над проектом, контролировали друг друга по принципу четырех глаз. Кроме того, должны быть установлены контрольные устройства и оборудование для предотвращения обхода средств контроля. В основном это делается путем соответствующего программирования в ИТ-технологиях. Департамент аудита имеет четыре основные сферы ответственности. Он должен оценить все инструкции, процедуры и методы критического анализа. Это означает, что, по сути, система внутреннего контроля должна постоянно пересматриваться и оцениваться и, при необходимости, должны быть реализованы предложения по улучшению.

Процедура планирования аудита имеет первостепенное значение в отношении аудиторского риска, существенности и последствий аудита. На этапе планирования аудитор должен определить объем работы и допустимую ошибку. Недостатки планирования повышают вероятность упущенного мошенничества и ошибок. Результатом может стать неправильное аудиторское заключение, штрафы и потеря доверия клиентов.

Планирование аудита – это обязательный этап, который направлен на определение стратегии, тактики и объема аудита, составление, разработку программы аудита, определение графика проведения конкретных аудиторских процедур. К общим принципам планирования аудита относятся следующие: комплексный подход, непрерывность, оптимальность планирования. Процедуру планирования аудита можно разделить на следующие этапы:

- предварительное планирование аудита;
- общее планирование аудита;
- рутина аудита.

При планировании аудиторская фирма должна выполнить следующие задачи: проверка деятельности фирмы; оценка эффективности системы внутреннего контроля и оценка риска контроля; оценка приемлемого уровня существенности; определение внутреннего риска; оценка общего аудиторского риска; планирование объема и характера аудиторских процедур; определение методов аудита.

Всю процедуру планирования можно разделить на следующие взаимосвязанные этапы:

Этап 1. Подготовительный этап планирования аудита.

- Преддоговорные соглашения об условиях и ограничениях аудита;

Этап 2. Предварительное планирование.

Осуществляется предварительное планирование по оценке возможности аудита, подписанию договора и составлению общего плана аудита.

- Понимание специфики бизнеса заказчика;
- Допущение непрерывности деятельности фирмы-клиента;
- Проверка бухгалтерского учета (предварительная оценка достаточности информации для целей аудита);
- Проверка внутреннего аудита, оценка надежности системы внутреннего аудита;
- Определение оказания сопутствующих услуг;
- Оценка возможности проведения аудита;

Этап 3. Постановка принятия решения о дополнительных целях.

Этап 4. Согласование с предприятием: организационные вопросы, сопутствующие услуги, сроки и условия договора.

Этап 5. Подписание договора.

- Оценка рисков;
- Определение объема аудита и графика его проведения;
- Аудит бюджетирования проекта;

Этап 7. Рассмотрение и утверждение общего плана аудита.

Этап 8. Разработка вариантов плана аудита.

Этап 9. Разработка программы аудита.

Этап 10. Подготовка меморандума планирования.

Итоговым документом планирования аудита является «Меморандум о планировании», в который включаются основные результаты и решения по всем этапам. Меморандум является руководством для аудиторов в их деятельности и может быть полезен для координации работы аудиторской группы.

Положительные результаты опыта, полученного при рассмотренном подходе к планированию отдельной аудиторской фирмой, побуждают оценить возможности применения указанного метода в более широком масштабе. Такие возможности в настоящее время исследуются и включают оценку возможностей и ограничений метода в связи с такими особенностями, как требования законодательства и пожелания заказчика.

Список использованной литературы:

1. Фонд МСФО. (н. д.). Применение МСФО по всему миру. Юрисдикционный профиль: Украина. Получено с <https://cdn.ifrs.org/-/media/feature/around-the-world/jurisdiction-profiles/ukraine-ifrs-profile.pdf>.

2. Бычкова С.М. (1996) «Правила бухгалтерского учета и аудита в России». Британская ассоциация бухгалтеров, Международная группа по бухгалтерскому учету и финансам. Новостная рассылка. - 1996. - С.3-10.

3. Пелленс Б., Фюльбир Р.У., Гассен Дж. и Селлхорн Т. (2017). Международный бухгалтерский учет. Штутгарт.

TO THE PROBLEM OF TYPOLOGY OF THE QUANTITY MODELS IN THE ENGLISH AND UZBEK LANGUAGES

Akhmedov Shokhrul Hamza ugli

Master student of SamSIFL

Аннотация. Мазкур тадқиқот иши инглиз ва ўзбек тилларида миқдор категориясини ифодалаш воситаларининг чоғиштирма таҳлилига ва миқдорни ифодаловчи сўз туркумларининг таснифига бағишланган. Бундан ташқари, икки турли тизимли тилларида миқдор моделлари чуқур тадқиқ қилиниб, уларнинг ўхшаш ва фарқли томонлари аниқланди.

Калит сўзлар: семантика, от, миқдор моделлари, миқдор категорияси.

Abstract. The present research work compares and analyzes ways of expressing the category of quantity in the English and Uzbek languages and classifies parts of speech which express quantity. Moreover, quantity models are deeply investigated in two different language systems, similarities and differences have been revealed.

Key words: semantics, noun, model of quantity, category of quantity.

Аннотация. В настоящей исследовательской работе сравниваются и анализируются способы выражения категории количества в английском и узбекском языках и проводится классификация частей речи, выражающих количество. Более того, глубоко исследованы модели количества в двух разносистемных языках, выявлены сходства и различия.

Ключевые слова: семантика, существительное, модель количества, категория количества.

The relevance of the research topic is determined by a systemic approach in the study of the category of quantity in English and Uzbek, comparative-comparative analysis, the identification of similarities and differences in terms of the category of number and quantity. The relevance of the research is also conditioned by its connection with the modern direction of studying the language by cognitive linguistics, which makes it possible to reveal the specificity of the formation of man's knowledge of the world, including knowledge of the quantitative aspects of reality, through analysis of the semantics of linguistic units. The need for a cognitive approach in the study of the processes of linguistic conceptualization of quantity is explained by the fact that it makes it possible to evaluate the role of man in perception and the formation

of quantitative values, taking into account the interaction of cognitive and linguistic mechanisms.

Some semantic and grammatical questions connected with the problem of the quantitative field were considered in the articles of L.L. Arustamyan, L.S. Barhudarov, M.A. Belyaeva, I.M. Berman, V.I. Bolotov, M.Yu. Ponamareva, L.D. Chesnokova and others. A brief review of the literature of the problem under study indicates that many aspects of the quantity field are only outlined in a number of works and on a number of parameters have not received a complete system description and a comprehensive holistic analysis. L.S. Barhudarov paid attention to general features of quantity expressions in the English language. M.A. Belyaeva described countable and uncountable nouns. I.M. Berman paid attention to plural form of abstract nouns. V.I. Bolotov investigated plural form of proper nouns and appellative. L.L. Arustamyan investigated morphological features of quantity models in the English and Russian languages. The subject of consideration in the article is L.D. Chesnokova "The category of quantity and syntactic structure" is the category of quantity in its present state. The analysis is subjected to the problem of qualification of quantity in its relation to quality and ways of representing this relationship through syntactic forms of the modern Russian language. Among Uzbek prominent scientists in the sphere of investigation we can name A.A. Abduazizov, M.I. Rasulova, U.K. Yusupov, J. Buronov, A. Muminov. Thus, J. Buronov, A. Muminov investigated quantity models in the Uzbek language.

The aim of the article is to identify the semantic features of the category of the number and number of different parts of speech, including lexico-grammatical groups of nouns, to determine their models in English and Uzbek languages using the method of component analysis, and to identify, study and describe by what means the quantity in modern English and Uzbek languages.

The expression of the opposite of uniqueness and multiplicity is the main content of the category of numbers. However, this difference does not exhaust the difference between the singular and the plural.

Speaking of the morphological opposition, we have in mind a system of case flexions, semantically expressed in a clear idea of the number - singularity or plurality.

The delineation of one or more objects is the main feature of specific nouns that allow for account: house-houses, table-tables, pen-pens, etc. They are associated with various kinds of concepts, also amenable to: country-countries, rule-rules, etc.

The category of the number of nouns is a lexical-grammatical category. The singular form can express the collective multiplicity of homogeneous objects (he was catching fish in the river), and the plural form, on the contrary, may be in the equivalent

form of the heel (at the skies), but also with the forms of the number can be associated with different meanings [2, p. 93].

The basic group of nouns having the forms of both numbers is words denoting objects that are amenable to calculation and, as a rule, in ordinary usage, are the correlative forms of designation of one object in a series of homogeneous objects and their separate set [3, p. 114].

However, in this series there is an incomplete semantic correlation of plural forms in comparison with less developed semantics of the singular.

The category of the plural in the noun order is a strong, multi-valued category. In relation to it, the category of the singular is to some extent a negative category, sometimes even as if it is a zero category.

We are of the opinion that "the incomplete semantic correlation of the singular and the plural destroys the concept of the number of the noun only as a quantitative opposition of the named objects, but at the same time it cannot be denied that the quantitative relations expressed by the noun form retain the significance of the relationship, specific for this category "[5, p. 45].

These discrepancies, contradictions and singularity of the category of numbers make it difficult to study and describe it, create some sort of difficulty in determining the boundaries of the opposition of singularity-plurality.

Certain difficulties also arise in the descriptive grammars forced to violate the canons of the actual grammatical illumination of the material, where the definition of the category of a number is interpreted as indicating the number of items called nouns and immediately follows the construction of a subsequent classification, taking into account the lexical meanings of the number forms that prevent the expression of quantitative relations.

The concept of the field helps us understand the "miracle of the language": it consists in the fact that the minimum of elementary fields is the skeleton on which all other layers of the tongue are layered, all its refinements and additions. "Field" is considered as a collection of words of different parts of speech, united by the commonality of the expression of one concept. Analyzing the category of quantity from the point of view of the field, we, as is customary in linguistics, distinguish both the core of it and the periphery.

The main semantic feature that underlies the category of quantity is the sign of discreteness. But the concept of "discretion" is one - more than one does not contradict each other. The most common abstract sign is the sign of discreteness, since it has a great explanatory power, and it is one-time relatively more than one, i.e. the latter acts as a species concept. But "one / more than one" can be a generic concept with respect

to such concepts as: a) a concrete set, b) an infinite set, c) an indefinite set, d) a homogeneous set, and e) an inhomogeneous set [1, p. 73].

The main language means of expressing the category of quantity in languages is the numeral - the part of speech that denotes the number.

The content of the quantity category allows us to draw the following conclusions. The fundamental characteristics of the quantity category are:

1) a certain amount (expressed by positive specific absolute values) - 20, 40, 1000, etc. ;

2) an indefinite set (number) - is expressed by relative values (small, many, many, few, few, many, many). In the language, these signs are expressed in numerals.

Logically, the plural of nouns is redundant and often expresses a "rational" vision of the division of the world, a "rational" discreteness of environmental objects.

At a lower level of abstraction, the number category of nouns takes the following form:

1) Specific common nouns - homogeneous, indefinite, unlimited number (number) at the level of the norm.

2) Continuum nouns - real, abstract - the category of a number at the level of the norm is irrelevant.

3) Collective nouns (army-армия, family-семья). In the singular - a limited, potentially heterogeneous set (difference in gender, generation, age, etc.)

4) Proper names - a heterogeneous, limited set (sex, generation)

5) The category of quantity is expressed in languages with the help of most parts of speech: numerals, special formants of nouns, adverbs, adjectives, verbs, particles, etc.

Consequently, this or that quantity is a set if it can be counted, and a value, if it can be measured. The quantity expresses the external, formal relationships of objects, their parts, properties, connections: number, size, volume, set, class, degree of manifestation of a property.

Quantitative characteristics are learned by calculation or measurement. Items can be discrete, homogeneous, and accountable. Along with this, there are phenomena and substances, amorphousness, continuity, the heterogeneity of which does not allow them to be counted. Only discrete items are directly counted, the substances can be counted only if they are pre-sampled using units of measure (compare: two apples, but two liters of milk). Calculus, therefore, is direct and indirect.

The category of quantity is a philosophical category, which is the result of knowing the properties of the objective world. In the explanatory dictionaries of the Russian language, the number of reference books is determined as follows: Quantity is a measure of something, counting, weight, size or volume.

Quantity - a category that characterizes objects and phenomena of the external world from the side of size, volume, number [4, p. 276].

In linguistic thinking, the concept of numerical quantification encompasses the definition of the number of constituent parts, or elements, in complex linguistic formations-the study of mutual relations between elements of linguistic thinking determined by the statistical method; the importance of repetition and reinforcement of impressions and memories associated with the reproduction of linguistic thinking during training between people using language; the concept of accumulation of impressions, the concept of habituation, the concept of autonomy of language functions. The quantitative spatial and temporal, the quantitative size and direction is also reflected in linguistic thinking.

As already mentioned above, the content of the category of quantity is elucidated on the basis of an analysis of the facts of a number of sciences, including linguistics. The study of the conditions conducive to the realization of the meaning of quantity in languages is of undoubted gnoseological and linguistic interest, since it helps to study the ways of knowing quantity, to better understand nature and to reveal the structure and semantic content of the language category.

Literature:

1. Бондаренко А.В. Вид и время русского глагола (значение и употребление). – Москва: Наука, 1971. – 176 с.
2. Вейхман Г. А. Новое в английской грамматике. - Москва: Высшая школа, 1990. – 128 с.
3. Ворно Е.Ф., Кащеева М.А., Малишевская Е.В., Потапова И.А.. Лексикология английского языка. – Ленинград: ЛГУ, 1975. – 289 с.
4. Ожегов С.И., Шведова Н.Ю. Толковый словарь русского языка. – Москва: Русский язык, 1993. – 3348 с .
5. Чельцова Л.К. Форма множественного числа имен существительных как исходная форма в лексикографии. // Грамматика и норма. – Москва: Наука, 1973. – 230 с.

QORAQOLPOG‘ISTON SHAROITIDA YETISHTIRILGAN BAHORGI BUG‘DOY NAMUNALARI AYRIM QIMMATLI XO‘JALIK BELGILARINING TAHLILI

Erjigitov D.Sh.^{1,2}, Turaev O.S.^{1,2,3}, Ziyayev Z.M.^{1,2}, Dolimov A.A.¹,
Tursunmurodova B.T.¹, Kushanov F.N.^{1,2,3}

¹ O‘zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Orolbo‘yi xalqaro innovatsiya
markazi, Nukus

² Genetika va o‘simliklar eksperimental biologiyasi instituti, Toshkent

³ O‘zbekiston Milliy universiteti, Biologiya fakulteti, Toshkent

dostonerjigitov68@gmail.com

ANNOTATSIYA

Bug‘doy (*Triticum aestivum* L.) dunyo bo‘yicha eng asosiy oziq-ovqat ekinlaridan biri hisoblanadi. Bugdoyning qimmatli xo‘jalik belgilarini o‘rganish, markerlarga asoslangan seleksiya (MAS) texnologiyasidan foydalanish orqali yangi navlar olishda muhim ahamiyatga ega. Ushbu maqolada, bahorgi bug‘doy ko‘chatzorlaridagi ayrim qimmatli xo‘jalik belgilarining statistik tahlillari natijalari keltirilgan. Tadqiqot natijalari kelgusida DNK markerlari asosida MAS texnologiyasini amalga oshirishda foydalaniladi.

Kalit so‘zlar: Bahorgi bug‘doy, CIMMYT ko‘chatzorlari, qimmatli xo‘jalik belgilar, boshqoq uzunligi, don vazni, boshqoq vazni.

ANNOTATION

Wheat (*Triticum aestivum* L.) is one of the most important food crops in the world. The study of economically important traits of wheat is of the great importance in obtaining new varieties through marker-assisted selection (MAS). In this article, we reported the results of statistical analysis of some economically valuable traits in spring wheat. The research results will be used in the implementation of DNA markers based MAS technology.

Key words: Spring wheat, CIMMYT nursery, economically important traits, spike length, grain weight, spike weight.

KIRISH

Bug‘doy muhim donli ekinlaridan biri bo‘lib, butun dunyoda 220 million gektarga ekiladi hamda qishloq xo‘jaligi ekinlari yetishtiriladigan maydonlarning o‘rtacha 26

foizini tashkil qiladi [1]. Hozirgi paytda, insoniyatning o'sishi oshib borayotgani, bug'doyga bo'lgan talabning har yili taxminan 2% ga oshib borishini hisobga olib, seleksionerlar bug'doydan mo'l hosil olish uchun bor bilim va imkoniyatlarini ishga solishmoqda [2]. Bug'doy donining hosildorligi murakkab poligen belgi bo'lib, unga ko'p omillar ta'sir qiladi. Hosil komponentlarini bilvosita seleksiya orqali yaxshilash mumkin. Bitta komponentdagi belgilarning o'sishi boshqa komponentlarga ijobiy yoki salbiy ta'sir ko'rsatishi mumkin [3]. Seleksion ishlarda boshlang'ich manbani ta'riflaydigan asosiy ko'rsatkichlar hosildorlik va mahsuldorlik bo'lib; tezpusharlik, qurg'oqchilikka va issiqlikka, sovuqqa, kasallik va zararkunandalarga chidamlilik hamda mahsulot sifati asosiy omil hisoblanadi [4].

Mahsuldorlik - bu bitta o'simlikdan olinadigan hosildir. Mahsuldorlik boshqali poyalar soni, bitta boshqadagi donlar soni va 1000 ta don vazni bilan uzviy bog'liq bo'lib, tashqi muhitning noqulay sharoitlarida o'zgarishi mumkin [5]. Yumshoq bug'doyda boshqoq uzunligi va zichligi o'simlikning navdorlik xususiyati bo'lib, boshqoqning shakllanishi tashqi omillarga bog'liq bo'ladi. Tuproqda namlik yetishmasa boshqoq uzunligi va zichligiga salbiy, ko'p bo'lganda esa ijobiy ta'sir etishi mumkin [6]. Ko'p hollarda, boshqoq uzunligi bilan boshqoqchalar soni o'rtasida ijobiy bog'liqlik bo'lib, o'z navbatida boshqoq zichligi bilan chambarchas bog'liqdir [7]. Yumshoq bug'doy hosildorligining ortishi ko'p jihatdan boshqadagi don og'irligiga va undagi donlar soniga bog'liq. Boshqadagi don soni zamonoviy navlarning hosildorligiga yuqori darajada ta'sir etuvchi komponent hisoblanadi. Bu belgi seleksiya uchun katta qiziqishga ega, chunki bug'doy hosildorligini oshirishda katta ahamiyatga ega. Boshqadagi don soni boshqoq uzunligi, undagi boshqoqchalar soni va boshqoqchalardagi donlar soniga bog'liq bo'lib, bunday ma'lumotlarning mavjudligi qaysi hosildorlik elementlarining o'zgarishi hosildorlikni u yoki bu tomonga o'zgartirishini aniqlash imkoniyatini beradi [8].

MATERIALLAR VA USLUBLAR

Tadqiqotlar O'zbekiston Respublikasi Prezidenti huzuridagi Orolbo'yi xalqaro innovatsiya markazi tajriba dalasida amalga oshirildi.

O'simlik materiallari. Tadqiqotda bahorgi bug'doyning (*Triticum aestivum* L.) Xalqaro makkajo'xori va bug'doyni rivojlantirish markazi (CIMMYT) seleksion ko'chatzorlariga mansub 34 ta namunalardan foydalanildi (1-jadval).

1-jadval

Tadqiqotga jalb etilgan bahorgi bug'doy namunalari


№	Namunalar nomi	Shartli nomi
1	BAJ #1/KISKADEE #1/3/WBLL1*2/BRAMBLING*2//BAVIS/4/BAJ #1/KISKADEE #1	L01
2	BORL14*2/3/BAVIS*2//ATTLA*2/PBW65	L02
3	BORL14*2/8/REH/HARE//2*BCN/3/CROC_1/AE.SQUARROSA (213)//PGO/4/HUITES /5/T.DICOCCON PI94624/AE.SQUARROSA (409)//BCN/6/REH/HARE//2*BCN/3 /CROC_1/AE.SQUARROSA (213)//PGO/4/HUITES/7/MUTUS	L03
4	CI7260//2*KACHU*2/FRNCLN	L04
5	DANPHE/3/ROLF07/YANAC//TACUPETO F2001/BRAMBLING/4/ROBINK	L05
6	FRNCLN/3/KIRITATI//HUW234+LR34/PRINIA/4/FRANCOLIN #1*2/5/FRNCLN/3 /ND643//2*PRL/2*PASTOR/4/FRANCOLIN #1	L06
7	FRNCLN/3/KIRITATI//HUW234+LR34/PRINIA/4/FRANCOLIN #1*2/5/FRNCLN/3 /ND643//2*PRL/2*PASTOR/4/FRANCOLIN #1	L07
8	FRNCLN/3/KIRITATI//HUW234+LR34/PRINIA/4/FRANCOLIN #1*2/5/FRNCLN/3 /ND643//2*PRL/2*PASTOR/4/FRANCOLIN #1	L08
9	KACHU*2/SUP152/3/WBLL1*2/BRAMBLING*2//BAVIS	L09
10	KACHU/BECARD//WBLL1*2/BRAMBLING*2/3/ABLEU	L10
11	KS940935.7.1.2/2*PASTOR/4/FRAME//MILAN/KAUZ/3/PASTOR/5/KUTZ	L11
12	Local check (Семурґ нави)	L12
13	MALBEC/7/2*ALTAR 84/AE.SQUARROSA (221)//3*BORL95/3/URES/JUN//KAUZ /4/WBLL1/5/KACHU/6/KIRITATI//PBW65/2*SERI.1B	L13
14	MUNAL #1*2/4/HUW234+LR34/PRINIA//PBW343*2/KUKUNA/3/ROLF07*2/5 /WBLL1*2/BRAMBLING*2//BAVIS	L14
15	MUTUS*2//TAM200/TURACO/3/KFA/2*KACHU/4/MUNAL*2/WESTONIA	L15
16	NADI*2//MUTUS*2/MUU	L16
17	NADI/COPIO//NADI#2	L17
18	PASTOR//HXL7573/2*BAU/3/WBLL1/4/SOKOLL/3/PASTOR//HXL7573/2*BAU/5 /2*BORL14	L18
19	PFAU/MILAN/3/BABAX/LR42//BABAX*2/4/NIINI #1/7/W15.92/4/PASTOR//HXL7573 /2*BAU/3/WBLL1/6/VEE/MJI//2*TUI/3/2*PASTOR/4/BERKUT/5/PFAU/MILAN	L19
20	PFAU/MILAN/3/BABAX/LR42//BABAX/11/CROC_1/AE.SQUARROSA (213)//PGO /10/ATTLA*2/9/KT/BAGE//FN/U/3/BZA/4/TRM/5/ALDAN/6/SERI/7/VEE#10/8 /OPATA/12/2*KUTZ	L20
21	PFAU/MILAN/5/CHEN/AEGILOPS SQUARROSA (TAUS)//BCN/3/VEE#7/BOW/4 /PASTOR/6/2*BAVIS #1/7/BORL14	L21
22	PFAU/WEAVER*2//TRANSFER#12,P88.272.2/3/WHEAR//2*PRL/2*PASTOR/4 /2*WBLL1*2/BRAMBLING*2//BAVIS	L22
23	PRL/2*PASTOR/3/WBLL1*2/SHAMA//KACHU/4/BORL14	L23
24	ROLF07*2/SHORTENED SR26 TRANSLOCATION/3/2*WBLL1*2/BRAMBLING*2/ /BAVIS	L24
25	SOKOLL/3/PASTOR//HXL7573/2*BAU/4/PASTOR//MILAN/KAUZ/3/BAV92 /5/ROBINK	L25
26	SOKOLL/3/PASTOR//HXL7573/2*BAU/4/SOKOLL/WBLL1/5/MUCUY	L26
27	SOKOLL/WBLL1//NAVJ07*2/3/ONIX/KBIRD	L27
28	SUP152/BAJ #1//KFA/2*KACHU	L28
29	SUP152/VILLA JUAREZ F2009/3/WBLL1*2/BRAMBLING*2//BAVIS	L29
30	TOH #1//KFA/2*KACHU	L30
31	W15.92/4/PASTOR//HXL7573/2*BAU/3/WBLL1/6/VEE/MJI//2*TUI/3/2*PASTOR /4/BERKUT/5/PFAU/MILAN/7/ROBINK	L31
32	WBLL1*2/BRAMBLING*2//BAVIS*2/3/BORL14	L32
33	WBLL1*2/BRAMBLING*2//BAVIS/3/BORL14	L33
34	WORRAKATTA/2*PASTOR/4/MUTUS//KIRITATI/2*TRCH/3/WHEAR /KRONSTAD F2004	L34

Uslublar. Tadqiqot namunalarida dala sharoitida fenologik kuzatuvlar olib borildi. Bahorgi bug‘doy o‘simliklarida boshqoq uzunligi, 10 ta boshqoq vazni, 1000 ta don vazni kabi belgilar kuzatuv va o‘lchashlar asosida o‘rganildi.

Olingan raqamli ma‘lumotlar NCSS12 kompyuter dasturi, chiziqli regressiya va korrelyatsiya hamda umumiy chiziqli model (GLM)dan foydalanib statistik qayta ishlandi.


NATIJALAR VA ULARNING TAHLILI

Qoraqolpog‘iston sharoitida yetishtirilgan bahorgi bug‘doy namunalari ayrim qimmatli xo‘jalik belgilari o‘rtasida statistik tahlillar olib borildi. Tajriba natijalariga ko‘ra, tanlab olingan namunalarning boshqoq uzunligi L06, L07 va L33 namunalarda boshqa namunalarga nisbatan yuqoriroq natijani qayt etganligi ya‘ni 7-8 smni tashkil qilganini ko‘rishimiz mumkin (1-rasm).




1-rasm. Bahorgi bug‘doy namunalarining boshqoq uzunligi bo‘yicha statistik tahlili

Qoraqolpog‘iston sharoitida yetishtirilgan bahorgi bug‘doy namunalari boshqoq vazni bo‘yicha statistik tahlillar olib borildi. Tajriba natijalariga ko‘ra, tanlab olingan namunalarning boshqoq uzunligi, 10 ta boshqoq vazni grammda o‘lchanganda esa L13, L29 va L33 namunalari 9-10 gramm bo‘gan bo‘lsa, aksariyat namunalari 5-6 grammni tashkil qilganini ko‘rish mumkin (2-rasm).




2-rasm. Bahorgi bug‘doy namunalarning 10 ta boshqoq vazni bo‘yicha statistik tahlili

Undan tashqari, Qoraqolpog‘iston sharoitida yetishtirilgan bahorgi bug‘doy namunalari 1000 ta don vazni bo‘yicha statistik tahlillar olib borildi. Tajriba natijalariga ko‘ra, tanlab olingan namunalarning 1000 ta don vazni o‘lchanganda, L12 namunasi boshqa namunalarga nisbatan eng yuqori natijani, ya’ni 39-40 gramm bo‘lganligi kuzatildi, qolgan namunalarning aksaryati 33-38 gramm atrofida bo‘lgan. Ammo, L21 namunasi boshqa namunalarga nisbatan juda past, ya’ni 25 gramm natija statistik tahlillar orqali aniqlandi (3-rasm).



3-rasm. Bahorgi bug‘doy namunalarining 1000 ta don vazni bo‘yicha statistik tahlili

Qoraqolpog‘iston sharoitida yetishtirilgan bahorgi bug‘doy namunalari qimmatli xo‘jalik belgilari bo‘yicha statistik tahlillar olib borildi. Tajriba natijalariga ko‘ra, tanlab olingan namunalarning o‘zaro korrelyatsion bog‘liqligi tahlil qilindi (4-rasm).



4-rasm. Bahorgi bug‘doy namunalari qimmatli xo‘jalik belgilarining korrelyatsion bog‘liqligi

Bahorgi bug‘doy namunalari boshqoq uzunligi belgisining 10 ta boshqoq vazni va 1000 ta don vazni belgilari bilan korrelyatsion bog‘liqligi o‘rganildi. Natijalarga ko‘ra, boshqoq uzunligi belgisi 10 ta boshqoq vazni belgisi bilan kuchli ijobiy korrelyatsiyani ($r^2=0.4979$; korrelyatsiya=0.7056) namoyon etdi. Boshqoq uzunligi belgisining 1000 ta don vazni belgisiga korrelyatsiyasi kuchsiz ijobiy bo‘lib ($r^2=0.0024$; korrelyatsiya=0.0488), ahamiyatsiz korrelyatsiyani namoyon qildi.

XULOSA

Qoraqolpog‘iston sharoitida yetishtirilgan bahorgi bug‘doy namunalari ayrim qimmatli xo‘jalik belgilari o‘rtasida statistik tahlillar olib borildi. Tadqiqot natijalaridan shularni xulosa qilish mumkinki, boshqoq uzunligi bo‘yicha L06, L07 va L33 namunalari eng yuqori ko‘rsatkichni namoyon etgan bo‘lsa, 10 ta boshqoq vazni bo‘yicha L13, L29 va L33 namunalari hamda 1000 ta don vazni bo‘yicha L12 namunasi yuqori natijani ko‘rsatgan. Bu esa o‘z navbatida, ushbu namunalarda o‘rganilayotgan belgilar bo‘yicha DNK markerlar tahlilini amalga oshirish uchun yuqori samarani taqdim etadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. USDA. World Agricultural Production. Foreign Agricultural Service, Office of Global Analysis, United States Department of Agriculture. 2015, – P. 1-10
2. Reynolds M.P. and et. al. Application of Physiology in Wheat Breeding. Mexico, D.F.: CIMMYT. 2001
3. Chandra D. et al. Variability and interrelationship of nine quantitative characters in F₅ bulks of five wheat crosses. //Pak. J. Bio. Sci. 2004. V.7. № 6, – P.1040
4. Абдукаримов Д.Т., Сафаров Т., Останакулов Т.Э. Дала экинлари селекцияси, уруғчилиги ва генетика асослари. Тошкент, 1989.-305 б
5. Sinha S.K. Drought resistance in crop plants: A critical physiological and biochemical assessment. Drought tolerance in winter cereals // Proceeding of International Workshop 27-31 October. 1985. Capri. Italy, – P. 349-351.
6. Аманов А.А., М.Н. Клинецвич. Изменчивость и корреляция элементов структуры растений физиологических признаков пшеницы, учитываемых при селекции на солеустойчивость и продуктивность. // Вестник региональной сети по улучшению озимой пшеницы в центральной Азии и Закавказье.– Алматы, 2001, №2, – С.6-8
7. Ковтун В.И., Ковтун Л.Н. Озерненность масса зерна с колоса и масса 1000 зерен в повышении урожайности озимой мягкой пшеницы // Известия Оренбургского государственного аграрного университета. 2015. № 3, – С. 27
8. Некрасова О.А., П.И. Костылев. Типы наследования длины колоса, числа зерен в колосе и массы 1000 зерен у гибридов F1 мягкой озимой пшеницы. // Сборник статей: Генетика и селекция на Дону. – Ростов-на-Дону: Изд-во ЮФУ, 2015, Вып. 4, – С. 166-171

TASVIRIY SAN'AT DARSLARIDA TASVIRLASH JARAYONINING ASOSIY QOIDALARI

Adxamova Oltinoy Rafiqjon qizi

Andijon davlat pedagogika instituti "Tasviriy san'at va muhandislik grafikasi"
yo'nalishi 2 bosqich talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqola tasviriy san'at darslaridagi, tasvirlash jarayonining asosiy qoidalari haqida so'z yuritib, tasvirlash jarayonida kerak bo'ladigan eng zaruriy bilim va ko'nikmalarni beradi hamda tasvirlash jarayonida yo'l qo'yiladigan xatolar yuzasidan fikr mulohazalar bayon etadi.

Kalit so'zlar: Tasviriy san'at, tasvir, natura, o'quvchi, rasm, o'lcham, tuzilish, shakl, hajm, tasavvur, qobilyat.

O'zbekiston hududida eramizdan avval ham tasviriy san'atning rangtasvir, haykaltaroshlik, me'morchilik turlari nihoyatda rivojlangan bo'lib, ulaming namunalari Varaxsha, Afrasiyob, Qalchayon, Tuproq qal'a, Bolalik tepa, Dalvarzin tepa, Fayoz tepa, Qo'yqirilgan qal'a, Teshik qal'a va boshqa bir qator joylardan topilgan. Bu asarlar eramizdan avvalgi IV-I asrlarda yaratilgan bo'lib, ularning yoshi 5-6 ming yilga to'g'ri keladi. Bu asarlarning badiiyligi hozirgi zamon rassomlari va haykaltaroshlarining asarlaridan qolishmaydi desak mubolag'a bo'lmaydi. Bunday yuksak badiiy saviyadagi asarlarni o'sha davrda to'plangan ilg'or tajriba, tasviriy san'at maktablarisiz yaratish, mumkin emas. Ma'lumki, san'at bir necha avlodning ko'p yillar davomida shakllangan an'analari, ustaning shogirdga o'tkazgan bilimlari asosidagina taraqqiy topadi. Bu esa so'zsiz umumiy badiiy ta'lim yo'nalishida bo'lmasa ham, kasbiy badiiy ta'lim shaklida rivojlanganligidan dalolat beradi. Tasviriy san'at darslari madaniyatning tarkibiy qismlaridan biri bo'lgan badiiy madaniyatni uyg'un rivojlanishga xizmat va rivojlantirishga yordam beradi. Bu esa o'quvchilarni milliy merosni o'zlashtirish hamda umuminsoniy qadriyatlar bilan tanishishlari uchun imkoniyat eshigini ochadi.

«Tasviriy san'at» fanining asosiy vazifalari quyidagilar:

- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilarida tasviriy san'at metodikasi bo'yicha bilim va malakalami hosil qilish va o'stirish;


- bo'lajak boshlang'ich sinf o'qituvchilariga tasviriy san'atning nazariy va amaliy asoslari (yorug', soya, perspektiva, kompozitsiya) haqidagi bilimlarni puxta egallashga yordam berish;

- bo'lajak boshlang'ich sinfo'qituvchilarida rasm ishlash va badiiy ijod bo'yicha ko'nikma va malaka hosil qilish;
- o'zbek va jahon xalqlari tasviriy, amaliy va me'morchilik san'ati bilan yaqindan tanishtirish va chuqur o'rgatish;
- tasviriy san'at o'qitish metodikasining o'ziga xos rivojlanishi tarixi, maqsad va vazifalari, nazariy asoslari haqida ma'lumot berish;
- talabalarni zamonaviy pedagogik texnologiyalardan foydalanish yo'llari bilan tanishtirish.

Rasm chiza bilish va barcha masalalarga ijodiy yondashish barcha sohalarda zarurdir. Ijodiy yondashish butunlay yangi g'oyalar va tasavvurlarni vujudga keltiradi, shaxsni badiiy rivojlantirishda muhim o'rinni egallaydi. Rasm chizishdan avval narsani yaxshilab kuzatish va tahlil qilish zarur. Rasm chizishda birinchi qoida - umumiydan xususiyga. Shuning uchun rasm chizishga kirishilganda narsaning fazoviy holati, o'lchami va xarakterli tomonlarining umumiy ko'rinishini qog'ozga joylashtirishdan boshlash zarur.


Tasviriy san'atda asosiy 4 qonun - qoida bolib, bu qoidalar nafaqat natyurmort chizish jarayonida balki portret, manzara, naqsh ishlash jarayonlarida ham birdek kerak boladi. Bu qonun-qoidalar quyidagilardir:

1) Joylashuv; 2) Ufq chizigi; 3) Ptrspektiva; 4) Nisbatlar.



Narsalarning umumiy ko'rinishi eniga nisbatan bo'yi katta bo'lsa, qog'ozni tik holatda, eni katta bo'lsa, qog'ozni gorizontol holatda qo'yiladi. Narsalarning umumiy ko'rinishi yengil chiziqlar bilan qog'ozda belgilangandan so'ng, qo'yilmadagi mayda bo'laklarning shakli, tuzilishi va o'lchamlari aniqlanadi. Ikkinchi qoida xususiydan

umumiylikka. Tasvirlovchi asosiy e'tibomi shaklning mayda bo'laklariga ishlovlar berishga yo'naltiriladi. Natijada har bir bo'lak alohida ahamyatga ega bo'ladi. So'nggida tasvirlanayotgan shaklni mayda bo'laklarini umumiyashtirib bir butun yaxlit holatga keltiriladi. Ma'lumki, kuzatish bu narsaga qarab uning shakli, rangi, tuzilishi, o'lchami va bo'laklarning nisbati, ularning fazoviy holati va hokazolarni aniqlay olish tushuniladi. Narsaning mazmunli obrazi ongimizda his qilish asosida shakllanadi. Bu obrazning negizida kuzatilayotgan narsaning tashqi belgi asoslari bilan ifodalash imkoniyatlari mavjud. Kuzatishning o'ziga xos xususiyatlaridan biri - o'rganish, bilish va tushunishdir. Kuzatish bevosita kishilarning ko'rish qobiliyatiga bog'liq. Rasm chizishda chizuvchi naturani sinchiklab o'rganadi va tahlil qiladi. Uning tuzilishining xarakterli belgilarini aniqlashga harakat qiladi va fikrni tasviriy holda tasvirlanadigan narsalarning tuzilishi, bo'laklarning o'zaro bog'liqligi, fazoviy holatini ko'z oldiga yaxlit keltiradi. Demak, narsani chizish jarayoni kuzatish, uni atroflicha tahlil qilish va tasvirlashdan iboratdir. Narsa rasmini to'g'ri va ishonarli tarzda tasvirlash uchun uni kuzata bilishni o'rganish zarur. Yozish va o'qishni o'rgatgandek, qunt va chidam bilan muntazam mashq qilgan kishi to'g'ri rasm chizishni ham o'rgana oladi. Kuzatish, borliqni turlicha o'rganish jarayoni va uch o'lchamli hajmli buyumlarni, ikki o'lchamli qog'oz betida tasvirlashning murakkabligi fazoviy holat haqidagi tushuncha va tasavvurlarni shakllantiradi. Tasvirlash jarayonini 4 bosqichga ajratish mumkin.



Birinchi bosqichda, narsani tashqi ko‘rinishida joylashgan umumiy belgilari - ko‘rsatiladi. Narsalar shakli ba’zi bir chiziqlari yoki geometrik shakllar tarzida belgilanadi. Ikkinchi bosqichda, narsani va unga yaqin bo‘lgan obyektlarini ta’riflovchi belgilari ko‘rsatiladi, ya’ni o‘ziga xos belgilar. Uchinchi bosqichda, faqatgina narsaning o‘ziga shaxsan tegishli belgilari ko‘rsatiladi. To‘rtinchi bosqichda, tasvirlarning yaxlitligi va bo‘laklarining o‘zaro bog‘liqligini umumlashtirishiga qaratiladi. Shunday qilib, narsaning asosiy mazmunini ko‘rsatish uchun, umumiy, o‘ziga xosligi va o‘ziga xos xususiyatli belgilarini va tomonlarini topish zarur. Borliqni har tomonlama o‘rganib, chizuvchi barchaga tushunarli tarzda uning obrazini yaratadi.

Rasm chizishda qog‘oz asosiy material hisoblanadi. Qog‘oz, albatta, oppoq, yetarli darajada qalin va pishiq bo‘lishi kerak. Ulardan eng yaxshisi «vatman» deb ataluvchi qog‘ozdir. Akvarel bo‘yog‘ida ishlash uchun vatman qalin va yuzasi g‘adirbudur bo‘lishi kerak, agarda yupqa va bo‘sh qog‘oz bo‘lsa, u suvni tez shimib olib, ivib ketadi, natijada bo‘yoq yoyilib ketadi. «Yarim vatman» nomli qog‘ozni ham qo‘llash mumkin. Hozirgi kunda foydalanayotgan ko‘plab qog‘oz turlari mavjud. Lekin, qog‘oz paydo bo‘lgunga qadar odamlar yog‘och yaproqlariga, sopol g‘ishtlarga va g‘orlarning devor toshlariga ham yozishgan. Masalan, Misrda papirus yaproqlariga ham yozishgan. Qadimgi Pergam davlatida hayvonlar terisi qog‘oz vazifasini bajargan. Uni pergament deb atashgan. Lekin bunday qog‘ozlar juda ham qimmat bo‘lgan, chunki bitta kitob uchun kamida bir necha yuz mol terisi ishlatilgan. Qog‘oz II asrda xiltoyliklar tomonidan kashf etilgan. Hozirgi qog‘ozlar esa maxsus qog‘oz fabrikalarida ishlab chiqariladi.

Hozirgi kunda oddiy qora qalamning juda ko‘p turlari mavjud. O‘rtacha yumshoq qalamlardan tortib juda ham i qattiq qalam turlari mavjud. Bular; «T», «2T», «N», «2N», «M», «2M», «3M» yoki V, T, 2T, M, 2M, N, 2N, NV, V, 2V va boshqalar. Tariximizga nazar tashlaydigan bo‘lsak, ibtidoiy davrda odamlar g‘orlarda, tog‘u - toshlarga turli xil tasvirlarni ishlab qoldirishgan. Ular biron-bir qattiqroq narsalar bilan g‘orlar devorlarini timab, turli xil shakllarni yasashgan. Ammo rivojlanish jarayonida tasvirlashda turli xil asbob-uskunalar takomillashib bordi. Oddiy qora qalamlar ham shular jumlasidan. XVI asrda Angliyada gratit konida topilgan tayoqchalar rasm chizishda . qo‘llanilganda, ular qog‘oz yuzasida juda ham natis va chiroyli chiziqlar tushira olish xususiyatiga ega ekanligi aniqlangan. Shu kundagi qora oddiy qalamlar XVII asrning oxirida fransuz olimi N.Kante tomonidan kashf etilgan bo‘lib, ularni yog‘och moslamaga yopishtirib ishlatish taklif etilgan.

Rasm chizishda yordamchi va ortiqcha chiziq hamda shtrixlarni o‘chirish uchun yumshoq o‘chirg‘ichlar ishlatiladi. Yumshoq o‘chirg‘ichning sifati qog‘oz yuzasidagi qalam izlarini ohista o‘chirish bilan aniqlanadi. Hozirgi kunda chiqarilayotgan o‘chirg‘ichlarning turlari ko‘p. Tasvir chizganda ko‘proq ko‘kimsiz va oq tusdagi

o'chirg'ichlar ishlatiladi. Qizg'ish tusdagi o'chirg'ichning tarkibida «qum oyna» parchalari bo'lib qog'ozni titib yuboradi. Keraksiz chiziqlarni o'chirishda o'chirg'ichni qattiq bosmaslik, iloji boricha o'chirg'ichdan kamroq foydalanishga odatlanish lozim. Oq tusdagi o'chirg'ich qattiq bo'lsa, yumshatish uchun uni 2-3 kun mobaynida kerosin yoki benzin ichiga solib qo'yish kerak. So'ng qaynagan issiq suvga solinsa, o'chirg'ich yumshoq holatga ega bo'ladi. Ish jarayonida o'chirg'ichni doim qo'lda saqlash noto'g'ri, chunki qo'l terlashi oqibatida o'chirg'ich namlanadi va rasrni o'chirishda qog'oz titiladi. Chiziqlarni o'chirishda qog'ozga qattiq bosmaslik va akvarel bo'yoq bilan ishlashga tayyorlashda iloji boricha o'chirg'ichdan kamroq foydalanish maqsadga muvofiq.

Maktabda tasviriy darslarida mashg'ulotlari quyidagi bo'yicha olib boriladi:

- Borliqni idrok etish;
- San'atni idrok etish;
- Naturaga qarab tasvirlash:

Boshlang'ich sinflarda asosiy vazifaa o'quvchilarda narsalarning nisbati, tuzilishi, shakli, rang jihatdan tahlil qilish va tasvirlash malakasini hosil qilishdan iborat. Shuningdek, o'quvchilar avval tasvirlanayotgan narsaning umumiy va estetik jihatdan ahamiyatli tomonlarini aniqlab oladilar, keyin esa narsaning qismlari va detallarini aks ettirishni o'rganadilar. Naturaga qarab rasm chizish vazifalari 1-2 dars davomida va qisqa muddatli ya'ni 5-15 daqiqa davomida bajaradigan lavha va chizgilar bo'lishi mumkin. Xomaki ish va chizgilar darsning muayyan mavzusidan kelib chiqib, darsning boshlanish qismi, o'rtasi yoki oxirida bajarilishi mumkin. O'quvchilarning ko'rib, eslab qolish qobiliyatini, makon haqidagi tasavvurlarini rivojlantirish uchun, eslab va tasavvur qilib rasm chizish bo'yicha ko'proq vazifa berish kerak bo'ladi. Naturaga qarab chizilgan rasmlarni bo'yash o'quvchilarda ranglar uyg'unligini idrok qilishni rivojlantirishga hamda tasavvur qilib rasm chizishga qaratilgan. Rangtasvir mashg'ulotlari o'quvchilarga idrok qilish orqali atrof-murutning ranglarda ifodalangan go'zalligini bilish imkoniyatini beradi va bolalarning estetik didini o'stiradi. San'atkor o'z asarida voqea, hodisa, holatning ma'lum bir zumdagi ko'rinishini ifodalab, u tasvir orqali rivojini, mohiyatini ochib berishga intiladi, kishilarning ma'naviy qiyofasi, psixologik holati va boshqa fikrlarni ilgari suradi va tasavvur qiladi. Rassom biror shaxsni rasmini ishlar ekan, u hech vaqt uni faqat o'ziga o'xshatishga ishtilish bilan chegaralanmaydi. Rassom shu ishlayotgan tasvir orqali avvalo o'zining fikr va tuyg'ularini tomoshabinga yetkazishga harakat qiladi. Ishlamoqchi bo'lgan tasvirida avvalombor g'oyasiga mos mavzu, syujet tanlaydi, voqea kompozitsiyasini quradi, shu yo'ida izlanadi, dastlab hayotni o'rganib, naturani kuzatib, eskizlar chizadi, etyudlar yaratadi. Rassomlik san'atida predmetlaming shakli, hajrni, rangi, ulaming o'zaro muvozanatini to'g'ri ko'rsatishda rasrni aniq va to'g'ri ishlashning juda muhim

ahamiyati bor. Naturaning o'ziga qarab rasm ishlashni maktab misolida oladigan bo'lsak, maktablarda narsaning o'ziga qarab rasm chizishdan boshlanadi. Maktablarda narsaning o'ziga qarab rasm ishlashda daraxtlarning shoxlari, gullar, barglar va asbob uskunalardan kam foydalanadilar. Ko'p mashg'ulotlarda geometrik shakllar (shar, sharsimon shakllar, kub, konus, piramida), bayroqcha va shu kabi predmetlarni ishlatish bilan chegaralanib qoladilar. Umumiy qilib aytadigan bo'lsak narsa chizdirish jarayonida qiyinchilikga duch kelib 1 va 2 narsalar bilan chegaralanib qoladilar bu esa bolalarni zerikib qolishga va dars jarayoni unumsiz bolishini keltirib chiqaradi. Bunda bolalarni o'zlariga tanish bo'lgan naturalarni chizdirish maqsadga muvofiq bo'ladi. Chizish uchun tanlangan vositalar haqida yana shuni ham aytib o'tish joizki ular qanchalik mavzu vazifasiga mos bo'lsa, bilim va malakalarni hosil qilish shunchalik oson bo'ladi. Ba'zi bir o'qituvchilari tasviriy san'at darslaridagi ko'rgazmalilikka yetarlicha e'tibor bermaydilar. Masalan narsaning o'ziga qarab rasm chizish jarayonida chiziladigan narsa o'rniga, doskaga osha narsaning tasvirini osib qo'yib, o'quvchi yoshlarga chizishni buyuradi. Eng achinarlisi o'sha narsani hayoldan chizishga undashi ham hozirgi kunning dolzarb muammosidir. Bunga sabab o'qituvchining darsga bolgan e'tiborsizligi va masuliyatsizligidan yoki bolmasa maktablarda yetarlicha o'quv anjomlari yo'qligidan dalolat beradi!

Fasllarga oid rasm ishlash darslarida, tasviriy sanat asarlarining nusxalari o'rniga tabiat manzaralariga oid bolgan rasmlarni o'quvchilarga ko'rsatib hattoki osha rasm nushasini ishlashni talab etadilar. Yana bir bazi darsga masuliyatsizlik bilan yondashuvchi o'qituvchilar esa mavzu doirasidagi rasmni doskaga chizib beradi va o'quvchilar esa doskadan kochirib chizadilar. Bunda narsaning o'zi bolmasa, uning tahlili qanday tashkil etiladi degan savol barchani qiynaydi. Narsaning o'ziga qarab rasm chizish darslarining bunday tashkil etish o'quvchilarni narsalarning obrazini passiv idrok qilishga o'rgatib qo'yadi.

Xulosa qilib aytadigan bo'lsak san'atkor o'z asarida real borliqda uchraydigan, balki inson fantaziyasi mahsuloti bo'lgan voqea va predmetlar ham aks ettirilishi, hayotda mavjud bo'lgan hodisalarning ayrim jihatlarini o'zgartirib, bo'rttirib ko'rsatishi ham mumkin. Bundan ko'rinib turibdiki, tasviriy san'at asarlari - insondagi ajoyib fazilat - borliqni bilish, uni o'rganish va sirlarini ochishga bo'lgan ehtiyojlarini qondirishga ta'sir ko'rsatadi. Tasviriy san'at inson ongiga tezda ta'sir etib, unda ezgu hislar uyg'otadigan, kishini ruhlantirib, ma'naviy olamini boyitadigan san'at turlaridan biridir. Shu bilan birga, tasviriy san'at inson shaxsining shakllanishiga va kamolatiga yordam beradigan tarbiyachi hamdir.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YHATI

1. Xasanov R, Maktabda tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. -T.: Fan, 2004.
2. Egamov A. Kompozitsiya asoslari. -T.: “San’at” jurnali nashriyoti, 2005.
3. Abdirasilov S.F. Tasviriy san’at o‘qitish metodikasi. -T.: 2012.
4. Muratov X.X, Qalamtasvir. -T.: Ijod –print, 2020.
5. Boymetov B, Qalamtasvir. Pedagogika institutlari va universitetlari talabalari uchun o‘quv qo‘llanma. -T.: Iqtisod-Moliya, 2010-yil.
6. Turdaliyev A. Qalamtasvir asoslari. –N. Faxrizoda, 1999.
7. Hakimova G.A, Natyurmort chizmatasviri. -Buxoro. Kamolot, 2022.
8. Kadrlar tayyorlash milliy dasturi. Barkamol avlod O‘zbekiston taraqqiyotining poydevori. -T.: Sharq, 1997.
9. Azimova B.Z. Natyurmort tuzish va tasvirlash. -T.: O‘qituvchi, 1984.
10. Abdirasilov S. Tasviriy san’at atamalari. -T.: Nizomiy nomli TDPU. 2003.
11. Boymetov B. Qalamtasvir. -T.: “Musiqqa” nashriyoti, 2006.
12. Oripov B. Tasviriy san’at va uni o‘qitish metodikasi. -T.: Ilm-ziyo, 2005.

KOLORADO QO'NG'IZLAR BIOEKOLOGIYASI

Mardiyeva Sevinch Xusanxon qizi

Jizzax Davlat Pedagogika Universiteti talabasi

ANNOTATSIYA

Ituzumdoshlar oilasi o'simliklarining juda xavfli zararkunandasi bu kolorado qo'ng'izi (*Leptinotarsa decemlineata*). Bu hasharotning vatani Meksikaning shimoli-sharqiy qismidir, u yerdan asta-sekin qo'shni hududlarga, shu jumladan AQShga kirib, u yerda iqlim sharoitiga tezda moslashgan. Bir yarim asr davomida Kolorado qo'ng'izi butun dunyo bo'ylab tarqaldi va barcha kartoshka yetishtiruvchilarning ofatiga aylandi.

Kalit so'zlar: Kolorado qo'ng'izi (*Leptinotarsa decemlineata*), kolorado qo'ng'izining lichinkasi

ABSTRACT

The Colorado beetle (*Leptinotarsa decemlineata*) is a very dangerous pest of plants of the Ituzum family. The homeland of this insect is the northeastern part of Mexico, from where it gradually entered the neighboring regions, including the United States, where it quickly adapted to the climatic conditions. For a century and a half, the Colorado potato beetle has spread throughout the world and has become the bane of all potato growers.

Key words: Colorado beetle (*Leptinotarsa decemlineata*), the larva of the Colorado beetle

АННОТАЦИЯ

Колорадский жук (*Leptinotarsa decemlineata*) — очень опасный вредитель растений семейства Итузумовые. Родиной этого насекомого является северо-восточная часть Мексики, откуда оно постепенно проникло в соседние регионы, в том числе в США, где быстро адаптировалось к климатическим условиям. За полтора века колорадский жук распространился по всему миру и стал бичом всех картофелеводов.

Ключевые слова: Колорадский жук (*Leptinotarsa decemlineata*), личинка колорадского жука

Kolorado qo'ng'izini birinchi marta Amerikadan kelgan entomolog Tomas Sayem kashf etdi va batafsil tavsifladi. Bu 1824 yilda edi. Olim Qo'shma Shtatlarning janubi-g'arbiy qismida shu paytgacha fanga noma'lum bo'lgan qo'ng'izning bir nechta

nusxalarini to'pladi. "Kolorado kartoshka qo'ng'izi" nomi keyinchalik paydo bo'ldi 1859-yilda Kolorado shtatida kartoshka ekilgan maydonlarda topilgan va juda xavfli hasharot ekanligi tasdiqlangan. Bu zararkunanda birinchi jahon urushi oldidan Fransiyada borligi ma'lum bo'ldi. 1950-yillarda bu zararkunanda Germaniyada ko'plab kartoshka ekilgan maydonlarga zarar yetkazdi. Keyinchalik Polsha, Belorussiya va Ukrainada paydo bo'ldi. 1972-yili O'zbekistonda O'shkent viloyatining Bo'stonliq tumanida kartoshka ekilgan maydonlarda uchragani qayd qilingan. Hozir bu qo'ng'iz respublikamizning deyarli barcha viloyatlarida uchraydi. 1876 yilda u Leypsigda topilgan va yana 30 yildan so'ng Kolorado kartoshka qo'ng'izini Buyuk Britaniyadan tashqari butun G'arbiy Yevropada topish mumkin edi. Qo'ng'iz SSSR hududiga 1940 yilda kirib kelgan va yana 15 yildan so'ng u Ukraina Belorusiyaning g'arbiy qismida tarqalgan. 1975 yilda Kolorado qo'ng'izi Uralsga yetib bordi. Buning sababi uzoq davom etgan g'ayritabiiy qurg'oqchilik edi, shu sababli Ukrainadan Uralsga chorva uchun ozuqa (pichan, somon) olib kelindi. Aftidan, bu yerga somon bilan birga zararkunanda qo'ng'izi ham kelgan.

Kolorado qo'ng'izi tuzilishining o'ziga xos xususiyatlariga ko'ra suvga cho'kib ketolmaydi, shuning uchun hatto katta suv havzalari ham unga oziq-ovqat qidirishda jiddiy to'siq bo'lmaydi. Koloradodagi kartoshka qo'ng'izlari juda tez uchishi mumkin - soatiga taxminan 8 km tezlikda, shuningdek, balandlikka ko'tariladi. Entomologlarning fikriga ko'ra, Kolorado qo'ng'izining o'rtacha umri taxminan bir yil.

Voyaga yetganlarining uzunligi 8 - 12 mm gacha va kengligi 7 mm gacha o'sishi mumkin. Qo'ng'izlar tanasining shakli ma'lum darajada suv tomchisini eslatadi: cho'zinchoq, pastki tomoni tekis, yuqori tomoni esa qavariq. Voyaga etgan qo'ng'iz 140-160 mggacha vaznga ega bo'lishi mumkin. Qo'ng'iz tanasining yuzasi qattiq va biroz yaltiroq. Bunday holda, orqa tomon bo'ylama chiziqlari sarg'ish-qora, qorin tomoni esa to'q sariq rangga ega. Qo'ng'izning ko'zlari keng boshining yon tomonida joylashgan. Qo'ng'izning boshida uchburchakka o'xshash qora nuqta, shuningdek 11 qismdan iborat harakatlanuvchi, segmentlangan antennalar mavjud. Kartoshka qo'ng'izining qattiq va juda kuchli elitrasi tanaga mahkam yopishadi va odatda bo'ylama chiziqlar bilan sarg'ish-to'q sariq, biroz sariq rangga ega bo'ladi. Kolorado qanotlari to'rlangan, yaxshi rivojlangan va juda kuchli, bu xususiyat unga oziq-ovqat manbalarini izlash uchun uzoq masofalarga borish imkoniyatini beradi. Qo'ng'izlarning urg'ochilari odatda erkaklarnikiga qaraganda bir oz kichikroq va ulardan hech qanday farq qilmaydi. Entomologlarning fikriga ko'ra, Kolorado qo'ng'izining o'rtacha umri taxminan bir yil. Kolorado qo'ng'izlari kuz va qishni kutib, yarim metr gacha tuproqqa singib ketadi va u erda minus 10 darajagacha sovuqqa chidamli. Bahor kelganda va tuproq yaxshi isinganda - plyus 13 darajadan yuqori

bo'lsa, qo'ng'izlar erdan chiqib ketishadi va darhol oziq-ovqat va nasl berish uchun juftlik izlay boshlaydilar. Bu jarayonga unchalik ko'p vaqt ketmaydi odatda 2-2,5 oy davom etadi. Kolorado qo'ng'izlari 1,5-2 oy ochlikka chiday olishadi. Voyaga etgan urg'ochi hasharot mintaqaning ob-havosi va iqlimiga qarab, yoz mavsumida taxminan 500-1000 tuxum qo'yishga qodir. Kolorada tuxumlari odatda to'q sariq rangga ega, hajmi 1,8 mm, cho'zinchoq oval, 20-50 donadan iborat guruhlarda joylashgan. 17-18 kunlarda tuxumlardan lichinkalar chiqadi.

Kolorado kartoshka qo'ng'izi lichinkalarining rivojlanish bosqichlari:^[1]1) Birinchi bosqichda Kolorado qo'ng'izining lichinkasi to'q kulrang, uzunligi 2,5 mm gacha yetadi va ustki tomoni mayda tukchalar bilan qoplangan bo'ladi. U juda yumshoq yosh barglar bilan oziqlanadi.^[2]2) Ikkinchi bosqichda lichinkalar qizil rangga ega bo'lishadi va uzunkigi 4-4,5 mm gacha tashkil etishi mumkin. Ular faqat bitta markaziy tomirni qoldirib, butun bargni yeyishlari mumkin.^[3]3) Uchinchi bosqichda lichinkalar rangini qizil-sariq rangga o'zgartiradi va uzunligi 7-9 mm gacha ko'payadi. Endi bu bosqichdagi lichinkaning tanasi yuzasida tuklar bo'lmaydi.^[4]4) To'rtinchi bosqichda qo'ng'iz lichinkasi yana rangini sarg'ish-to'q sariq ranggacha o'zgartiradi va 16 mm gacha o'sadi.

Uchinchi bosqichdan boshlab, lichinkalar o'simlikdan o'simlik ustiga o'rmalay boshlaydi va shu bilan birga nafaqat barglarning pulpasini, balki yosh kurtaklarga ham katta zarar yetkazadilar.

Xulosa qilib aytganda, qishloq xo'jaligi ekinlariga zarar beruvchi hasharotlarning tuzilishi va ko'payishini o'rganib ularga qarshi kurashish choralarini yanada kuchli ishlab chiqish lozim.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO'YHATI: (REFERENCES)

1. Бей-Бейнко Т.Я. Общая энтомология. Изд.2. Издюз. М.: Высшая школаб 1996г
2. Н.К. Кимсанбойев, С.Ф. Эргашев, Р.Ш. О'лмасбойева, В.А. Сулаймонов. "Entomologiya".
3. О. Мавлонов, Ш. Хуррамов, Х. Эшова "Umurtqasizlar zoologiyasi"
4. Dadayev S.D., Dadayeva G.S. Umurtqasizlar zoologiyasidan o'quv-uslubiy qo'llanma.
5. uz.petmynet.ru internet sayti
6. wikipedia.org internet sayti

ТРИЛОГИЯ «ДЕТСТВО. ОТРОЧЕСТВО. ЮНОСТЬ» В ТВОРЧЕСКОМ НАСЛЕДИИ ПИСАТЕЛЯ

Даминова Бахора

Магистрантка второго курса факультета русского языка и литературы

Ходжиметова Д.Д

Научный руководитель доц.

кафедры русской литературы и методики ее преподавания

Аннотация: Данная статья посвящена одной из важнейших особенностей творчества Льва Николаевича Толстого – проникновение в души своих героев, сопереживание с ними на протяжении всего их развития в произведении.

Ключевые слова: Творчество, диалектика души, образ, тематика детства, цикл произведений, новаторство.

Annotatsion: This article is devoted to one of the most important features of Leo Tolstoy's creativity – penetration into the souls of his heroes, empathy with them throughout their development in the work.

Keywords: Creativity, dialectic of the soul, image, themes of childhood, cycle of works, innovation

Annotatsiya: ushbu maqola Lev Nikolaevich Tolstoy ijodining eng muhim xususiyatlaridan biri – qahramonlarining qalbiga kirib borishi, asardagi butun rivojlanishi davomida ular bilan hamdard bo'lishiga bag'ishlangan.

Kalit so'zlar: ijodkorlik, ruhning dialektikasi, tasvir, bolalik mavzusi, asarlar tsikli, yangilik.

Наследие великого русского писателя второй половины XIX века Льва Николаевича Толстого – это одна из ярчайших страниц в истории не только русской, но и всей мировой культуры. Каждое произведение выдающего писателя вызывало настоящий восторг читателей, критиков, современников внимательно следивших за творчеством писателя. Каждое произведение, вышедшее из под пера писателя, и в наше время остаются актуальными и интересными для уже нового поколения его читателей.

Интересная картина сложилась в период вступления писателя в литературу: первое же художественное произведение принесло ему не только необычайно

широкую известность среди читающей публики, но и совершенное признание известных писателей того времени.

Автобиографическая трилогия писателя «Детство. Отрочество. Юность» посвящена извечной теме взросления человека. Главный герой трилогии, воспроизведенный писателем, Николенька Иртеньев – это отнюдь не образец совершенства. Он так же как все ошибается, запутывается в своих отношениях с близкими, друзьями и родными, очень часто делает неверный выбор. Но именно поэтому его история становления и взросления – это история искренней детской дружбы и любви, первого большого горя и первых неудач вступления во взрослую жизнь - интересна и нашим современникам, узнающим очень часто в этом мальчике из далекого XIX века себя.

Автобиографическая линия повествования, избранная автором, тонко и уместно соединяется здесь с постановкой глубоких нравственных проблем. Эпизоды из жизни главного героя: детские шаловливые игры, первая охота и первая робкая влюбленность, непростые и по-детски наивные отношения с друзьями, серьезные переживания, какие-то сомнения и откровенная борьба со своим внутренним «я» - постепенно складываются в историю не только взросления, но и формирования и становления личности.

Главной целью самого писателя в каждой части этой автобиографической трилогии было глубокое исследование внутреннего мира человека, поиски смысла существования, нравственного идеала, скрытых закономерностей бытия. Современник Льва Толстого литературный критик Н.Г. Чернышевский в своей работе «Детство и отрочество. Сочинения графа Л. Н. Толстого» назвал это умение писателя проникнуть в самую суть психологии «диалектикой души».

Очень часто трилогия «Детство. Отрочество. Юность» литературные критики и просто читатели называют автобиографией самого Льва Николаевича Толстого. Действительно, многие события из жизни автора, его родных и близких нашли отражение в содержании произведения. Однако замысел писателя состоял вовсе не в том, чтобы с исторической точностью рассказать о своем детстве и отроческих годах, а в том, чтобы через призму жизни главного героя воплотить черты «эпох жизни» всех людей в общем и каждого человека в частности. Это подтверждают и слова самого писателя: когда в журнале «Современнике» напечатали первую часть трилогии под названием «История моего детства», Толстой написал, что заглавие это «противоречит с мыслью сочинения»: «Кому какое дело до истории моего детства...»

Николенька Иртеньев, главный герой трилогии — это человек из любого времени. Конечно, исторические особенности того времени, в которое он жил, накладывают на его душу и характер определенный отпечаток. Но в целом, на

мой взгляд, Толстой показывает взросление, становление человеческой личности. Поэтому такой герой, как Николенька, мог бы жить и в античной Греции, и в Средние века, и в далеком будущем. Вот почему трилогия «Детство. Отрочество. Юность» актуальна и в наши времена.

Человек рождается, растет, взрослеет, становится личностью. И в целом этот процесс ничем не отличается от того, который описал в своей трилогии писатель. Абсолютно так, как и прежде, в детстве для всех нас самые близкие и любимые люди — это родные. В отрочестве или в подростковый период любовь и доверие к близким начинают вытесняться такими качествами, как самонадеянность, тщеславие, жажда самостоятельности; а в юности начинается настоящее развитие личности, так, как это описано у писателя. В произведении с необыкновенной искренностью, глубиной, трепетом и нежностью передает нравственные искания, осознание своего «я», мечты, чувства и душевные переживания главного героя.

ИСПОЛЬЗОВАННАЯ ЛИТЕРАТУРА

1. Романова Н.И. Маленький и взрослый Иртеньев в повести Л.Н. Толстого «Детство» // Русская речь. - М.: Наука, 2008. - № 1. - С. 19-22.
2. Романова Н.И. Две повести о детстве: Николай М. (П. Кулиш) и Л.Н. Толстой // Филологическая наука в XXI веке: Взгляд молодых. Материалы VI всероссийской конференции молодых ученых. - Москва - Ярославль, 2009. - С. 170-179.
3. Романова Н.И. Художественные особенности повестей о детстве // Л.Н. Толстой - писатель, мыслитель, философ (к 180-летию со дня рождения). Материалы Международной научно-практической конференции. - Белгород, 2009. -С. 126-133.
4. Дергунова Н. Г. Проблема нравственного формирования личности в повести Л. Н. Толстого «Детство» // Проблемы взаимодействия духовного и светского образования: История и современность. - Н. Новгород: Нижегород. гуманит. центр, 2004.
5. Романова Н.И. Маленький и взрослый Иртеньев в повести Л.Н. Толстого «Детство» // Русская речь. - М.: Наука, 2008. -- № 1.

KORXONALARNING MOLIYAVIY BARQARORLIGINI TA'MINLASHDA ICHKI AUDIT TESHIRUVI VA TAHLILINI SAMARALI TASHKIL ETISH ISTIQBOLLARI

Sobirjonova Nodira Rustamjon qizi

Namangan muhandislik-texnologiya instituti magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu tadqiqotning maqsadi korxonalarining moliyaviy barqarorligini ta'minlashda ichki auditdan foydalanishdan iborat. Natijalar ichki audit sifati va moliyaviy barqarorlik o'rtasidagi ijobiy munosabatni baholaydi va taklif qiladi.

Kalit so'zlar: Ichki audit, ichki audit funksiyasi, audit sifati, moliyaviy barqarorlik, samaradorlik

ПЕРСПЕКТИВЫ ЭФФЕКТИВНОЙ ОРГАНИЗАЦИИ ВНУТРЕННЕЙ РЕВИЗИОННОЙ ПРОВЕРКИ И АНАЛИЗА В ОБЕСПЕЧЕНИИ ФИНАНСОВОЙ УСТОЙЧИВОСТИ ПРЕДПРИЯТИЙ

АННОТАЦИЯ

Целью данного исследования является использование внутреннего аудита для обеспечения финансовой устойчивости предприятий. Результаты оценивают и предполагают наличие положительной связи между качеством внутреннего аудита и финансовой стабильностью.

Ключевые слова: внутренний аудит, функция внутреннего аудита, качество аудита, финансовая устойчивость, эффективность.

PROSPECTS OF EFFECTIVE ORGANIZATION OF INTERNAL AUDIT INSPECTION AND ANALYSIS IN ENSURING THE FINANCIAL STABILITY OF ENTERPRISES

ANNOTATION

The purpose of this study is to use internal audit to ensure the financial stability of enterprises. The results estimate and suggest a positive relationship between internal audit quality and financial stability.

Key words: Internal audit, internal audit function, audit quality, financial stability, efficiency

KIRISH

Iqtisodiyotni modernizatsiyalash va diversifikatsiyalash sharoitida har qanday korxonalar va tashkilotning asosiy maqsadi biznes cheklovlarini yengib o'tish va moliyaviy jihatdan barqaror bo'lishdir. Shu sababli mamlakatimizda korxonaning har tomonlama samarali faoliyat yuritishi, moliyaviy barqarorlikka erishishi uchun ichki auditorlar xizmatidan foydalanishi zarurati paydo bo'ladi.

Bozor infratuzilmasining unsurlari, avvalambor, auditorlik tashkilotlari faoliyatining o'zimizga xos, milliy standart asosida faoliyat yuritishni talab qiladi. Shu bilan birgalikda bozor munosabatlarini jadallashtirishda respublikamizning jahon bozoriga chuqurroq integratsiyalashuvi iqtisodiy islohotlarni rivojlantirishni, iqtisodiy munosabatlarni yanada kengroq amalga oshirish uchun auditorlik faoliyatini xalqaro andozalarga moslashtirishni ham taqozo qilmoqda.

Ichki audit har bir tashkilotda muhim ahamiyatga ega, chunki rahbariyat tashkilotning manfaatdor tomonlariga tashkilotning moliyaviy holati yoki holati to'g'risida hisobot berish uchun javobgardir. Har qanday tashkilotning aktivlarini boshqarishni takomillashtirishda ichki audit muhim ahamiyatga ega va bu bunday tashkilot faoliyatini yaxshilashga yordam beradi. Xo'jalik yurituvchi sub'ektlar samaradorligini oshirish vositalarini yanada mukammalroq ishlab chiqish maqsadida ularning moliyaviy barqarorligini tahlil qilish va tekshirish metodologiyasini chuqur o'rganish zarurligi va maqsadga muvofiqligi quyidagi holatlar bilan belgilanadi.

Birinchi, texnologik bazani modernizatsiya qilish va innovatsion rivojlanish modeliga o'tish bo'yicha mamlakatimiz korxonalarida oldida turgan keng ko'lamli vazifalarni to'laqonli amalga oshirish.

Ikkinchi, korxonalar va tashkilotlarda o'tazilayotgan tashqi tekshiruvlar sifatiga qo'yiladigan talablarni kuchaytirish va ichki auditorlik faoliyatini tashqi auditorlik faoliyati hamda soliq auditi bilan integratsiyalash.

Uchinchi, xo'jalik yurituvchi sub'ektlar rivojlanishining jadallashishi ularning moliyaviy barqarorligining o'zgarishiga olib keladi, bu nafaqat tashqi bozor kon'yunkturasi parametrlarining, balki ichki omillarning ham faoliyatiga ta'sirining mohiyatini o'rganishni talab qiladi. Korxonalar ularning namoyon bo'lish mexanizmlarini baholash va faoliyatning barqaror va inqirozli sharoitlariga xos bo'lgan moliyaviy barqarorlikni saqlash manbalarini aniqlash usullarini ishlab chiqish.

To'rtinchi, auditorlik faoliyatining milliy standartlari umume'tirof etilgan xalqaro audit standartlariga to'liq mos emas, bu esa xorijiy investorlarda mahalliy korxonalar moliyaviy hisobotlarining haqqoniyligini tushunish ko'nikmasining shakllanishini ta'minlamayapti. Xalqaro, shu jumladan O'zbekiston iqtisodiyoti rivojlanishining jadallashuvi hozirgi vaqtda korxonalar va tashkilotlarning moliyaviy

barqarorligini baholash masalalarini yanada chuqurroq o'rganish bilan uning tahlili va doimiy audit nazoratini olib borishni talab qiladi.

Beshinchidan, korxonalarining rasmiy hisobotlarining buxgalteriya hisobi to'g'risidagi qonun hujjatlariga muvofiqligini aniqlash, ishonchligi va to'g'riligini nazorat qilish kelgusi 12 oy ichida ularning moliyaviy barqarorligini to'g'ri baholash imkonini beradi, bu esa korxonalarining moliyaviy hisobotlari auditi doirasidagi barcha o'zgarishlarni prognozlashda moliyaviy barqarorlikni tahlil qilishni tegishli ravishda tizimli ishlab chiqishni talab qiladi.

ADABIYOTLAR TAHLILI VA METODLAR

Iqtisodchi olim Y.N. Makarenko korxonalar va tashkilotlarda ichki audit xizmatining tashkil qilinishining zarurati sifatida quyidagi omillarni keltirgan:

- tashkilot tashkiliy-boshqaruv tizimining ko'p tabaqaliligi;
- korxonalar faoliyati miqyosi kengayishi va uning turi o'zgarishi;
- mutaxassislar maslahatiga talab;
- xorijiy investitsiyalarni jalb etish ehtiyoji;
- aksionerlik jamiyatlari mulkdorlarining menejerlar ishini baholashga talab va

x.k

Tadqiqotning maqsadi korxonalarining moliyaviy barqarorligini tahlil qilish va tekshirishning uslubiy vositalarini ishlab chiqishdan iborat bo'lib, ular oqilona mehnat xarajatlari bo'yicha audit sifatini oshiradi. Ushbu maqsadga erishish quyidagi vazifalarni belgilash va hal qilishni o'z ichiga oladi:

sanoat korxonasining moliyaviy barqarorligi modelini ishlab chiqish, bu auditorlarga tekshirilayotgan korxonalar barqarorligi yoki beqarorligining haqiqatda erishilgan va bashorat qilingan darajasini baholash imkonini beradi;

korxonalarining moliyaviy barqarorligini tekshirish usullarini ishlab chiqishda riskologiya usullarining o'rni va rolini aniqlash, shuningdek, tekshirilayotgan tashkilotning ish sharoitlaridan kelib chiqqan holda moliyaviy barqarorlikni tekshirish bo'yicha tahliliy protseduralar mazmunini o'rganish;

hisobotning aniq ob'ektlari auditi mazmuniga operatsion sharoitlarning (tashqi muhit) ta'sirini aniqlashtirish va kompaniyaning o'z faoliyatini uzluksiz amalga oshirish qobiliyatini baholashni umumlashtirish.

Tadqiqot shuni ko'rsatadiki, auditorlarning respublika jamoat birlashmalarini Xalqaro buxgalterlar federatsiyasi bilan o'zaro hamkorligini kuchaytirish, shu jumladan auditorlik tashkilotlarini XAS hujjatlarini qo'llash, ushbu standartlarni qo'llash bo'yicha jahonning ilg'or tajribasini ommalashtirishni tashkil etish masalalarida faol uslubiy jihatdan qo'llab-quvvatlash choralarini ko'rish lozim. Buxgalteriya hisobi va audit sohasida mutaxassislarni tayyorlash hamda auditorlar malakasini oshirishning ilg'or usullarini joriy etish, korxonalar va tashkilotlar barqaror

operatsion samaradorligi, tashkiliy samaradorligi va tashkiliy ko'rsatkichlariga ega bo'lishi uchun korxonada rahbariyati tajriba va malakali auditorlar bilan to'ldirilgan funktsional ichki audit bo'limi mavjudligini ta'minlashi kerak. Shuningdek, korxonada xodimlarning ish samaradorligini oshirish uchun korxonada rahbariyati ichki audit bo'limi o'z faoliyatida to'liq mustaqil bo'lishini ta'minlashi kerak. Tashkilot ichidagi auditorlik vazifalari tashkilot ehtiyojlari va afzalliklariga qarab doimiy ravishda ortib borayotganligi sababli, auditorlar ichki audit funksiyasining kuchi har bir tashkilotda, ayniqsa tashkilot faoliyatini yaxshilashda qanchalik kuchli ekanligini bilishlari kerak. Shunday qilib, tadqiqot ichki audit funksiyasi tashkilot faoliyatini qanday yaxshilashi mumkinligini ko'rsatadi.

Korxonada va tashkilotda ichki audit xizmatining tashkil qilinishi quyidagi imkoniyatlarni yaratadi:

- material hamda mehnat resurslaridan samaraliroq foydalanish;
- moliyaviy hisobot sifatini oshirish yo'li bilan samarali shartlarda investisiyalarni jalb etish;
- xarajatlarni qisqartirish;
- korxonada tavakkalchiligini pasaytirish.

Ichki auditning xizmatining samarali faoliyat yuritishida uning boshqa bo'limlardan mustaqilligi katta rol o'ynaydi, bunda ichki audit xizmati to'g'ridan-to'g'ri korxonada boshqaruviga bo'ysunadi. Ichki audit xizmati o'z vazifalari va funksiyalarini bajarishi uchun esa unda tajribali mutaxassislar faoliyat yuritishlari talab qilinadi. Bu bo'yicha talablar O'zbekiston Respublikasi "Ichki audit xizmati xodimlarini sertifikatlash tartibi to'g'risida"gi nizomda ham keltirilgan. Ushbu nizomga asosan ichki audit xizmati asosan quyidagi uch element birgalikda ishlatilganda tashkilotning moliyaviy faoliyatida, shuningdek, buxgalteriya hisobida tavakkalchilikning pasayishini ta'minlaydi:

- nazorat muhiti;
- hisob tizimi;
- nazorat jarayonlari;

Chunonchi, moliyaviy hisobot e'lon qilinganidan keyin auditorlik tashkiloti tekshirilgan hisobot davriga taalluqli hodisa haqida xabar topsa va moliyaviy hisobotga tuzatishlar kiritilishini yoki unda axborot ochib berilishini talab qilsa, auditorlik tashkiloti:

- moliyaviy hisobotni qayta ko'rib chiqish zarurati haqidagi masalani ko'rib chiqishi;
- uni xo'jalik yurituvchi sub'ekt rahbariyati bilan muhokama qilishi;
- bunday vaziyatlarda maqsadga muvofiq bo'lgan choralarni ko'rish lozim.

NATIJALAR VA MUHOKAMA

Fikrimizcha, mamlakatimiz korxonalarida ichki audit xizmati bo‘limini tashkil qilish rus iqtisodchi olimi Y.N. Makarenko tomonidan ishlab chiqilgan ichki audit xizmatini tashkil qilishning bosqichlari asosida amalga oshirilsa maqsadga muvofiq bo‘ladi(1-jadval).

1-jadval

Ichki audit xizmatini tashkil qilish bosqichlari №	Bosqichning nomi	Bajariladigan ishlar
1.	“Ichki audit bo‘limi to‘g‘risi”da nizomning ishlab chiqilishi	Bo‘lim huquq va majburiyatlari, maqsadi, vazifalari, tizimi va boshqalarni ishlab chiqish
2.	Strategik rejaning ishlab chiqilishi	Ichki nazoratning barcha elementlari benuqson faoliyat yuritishi va hokazo
3.	Dastlabki rejaning ishlab chiqilishi.	Faoliyat sohaslarining aniqlanishi, riskni baholash modeli va yuzaga kelishi mumkin bo‘lgan xarajatlar tahlilini ishlab chiqish
4.	Ichki audit bo‘limi tizimi(shtat)ni aniqlash	Xodimlarning professional kompetentligi, bilimi darajasi, stajini baholash, shtat jadvalini tasdiqlash va x.k.
5	Ichki audit standartlarini ishlab chiqish.	Audit maqsadi va asosiy prinsiplarini ishlab chiqish, auditni rejalashtirish, ichki audit tavakkalchiligini baholash
6	Professional standartlarni qabul qilish.	Asosiy yo‘nalish va qoidalari, ichki audit ish hajmi va qo‘llaydigan metodlari, shuningdek, ichki audit bo‘limini boshqarish prinsiplarini ishlab chiqish
7	Mustaqil auditorlar(tashqi audit) bilan hamkorlik.	Mustaqil auditorlar bilan hamkorlik darajasini tayinlash, joriy va kelgusi ish rejalarini muhokama qilish va tasdiqlash.
8	Hisobot tizimini ishlab chiqish.	Ma‘lumotdan foydalanuvchilar talablarini hisobga olish, hujjat aylanish grafigi va sxemasi, ishchi hujjatlar tarkibi va ularni saqlash tartibi, tekshiruv natijalari bo‘yicha hisobot tizimini ishlab chiqish

Ushbu jadvalga ko‘ra, ichki audit bo‘limining samarali faoliyat yuritishida ichki audit xodimlarining ish yuritish qoidalari, prinsiplari, metodlari, ish hajmi va ishchi hujjatlar tarkibi belgilanishi muhim ahamiyat kasb etadi. Bundan kelib chiqib,

fikrimizcha, quyidagi takliflar mamlakatimizda korxonalarda ichki auditni samarali tashkil qilinishida katta ahamiyat kasb etadi:

1. Ichki audit xizmati xodimlarining malakasini xalqaro standartlar talablaridan kelib chiqqan holda muntazam oshirib borish hamda audit standartlariga qat'iy rioya etilishini talab qilish.

2. Ichki auditorlarning mustaqilligi, ob'ektivligi va javobgarligini ifodalovchi ichki audit professional standartlarini qabul qilish zarur.

3. Ichki auditorlarning ichki auditni amalga oshirish va rasmiylashtirish bo'yicha korxonada boshqaruv kengashi tomonidan tasdiqlanadigan korxonada ichki standartlarning qabul qilinishi zarur.

Ichki audit bo'limining korxonada ichki standartlariga asosan ish yuritishi auditorlik tekshiruvlari ish jarayonlarini qisman kamaytirish, tekshiruv sifatini oshishi, audit bo'yicha bajariladigan ishlar samarasini oshishi, auditni tashkil qilish va o'tkazish texnologiyasi zamonaviylashishi va ratsionallashtirishga olib keladi. Natijalarga asoslanib, auditorlar muammolar va moliyaviy barqarorlikka ta'sirini tushunishlari uchun xodimlar va rahbariyatning xabardorligini maksimal darajada oshirish kerak. Hujjat ichki audit sifati va moliyaviy barqarorlikka oid muhim dalillarni taqdim etish orqali muhim hissa bo'lib qoladi. Tadqiqot ichki audit sifatining moliyaviy jihatdan muhim rolini ochib beradi; yuqori audit sifati kompaniyaning moliyaviy barqarorligi darajasiga bevosita ta'sir qiladi. Ushbu tadqiqot shuni ko'rsatadiki, ichki audit funktsiyasi va samaradorligi korxonaning moliyaviy natijalariga hissa qo'shadi.

XULOSA

Xulosa sifatida aytib o'tish kerakki, audit amaliyotida ichki audit xizmati tashkil qilingan va samarali faoliyat yuritayotgan korxonalarda resurslardan samarali foydalanish, buxgalteriya hisobini tashkil qilinishi va moliyaviy hisobotlarning ishonchlilik darajasi ancha yuqori. Chunki ichki auditning samarali tashkil qilinganidagina xo'jalik sub'ektlari unumdor faoliyat yuritadi, bu esa butun jamoat ishlab chiqarish samaradorligining shartlaridan biridir. Albatta ichki audit xizmatining tashkil qilinishi korxonaning ichki audit xizmati tashkil qilinmaganligiga nisbatan sarf-xarajatlarning kamayishi, qo'yilishi mumkin bo'lgan xato va kamchiliklarning hamda bularning natijasida yuzaga kelishi mumkin bo'lgan turli xil jarimalar, ko'zda tutilmagan xarajatlarning oldi olinadi.

Shundagina korxonada ichki auditning tashkil qilinganligi samarasi yaqqol ko'rinadi.

ADABIYOTLAR RO‘YXATI (REFERENCES)

1. O‘zbekiston Respublikasining 2020 yil 10 noyabrdagi “Auditorlik faoliyati to‘g‘risida” Qonuni
2. O‘zbekiston Respublikasi Vazirlar Mahkamasi 2021 yil 5 maydagi 280-sonli “Ichki audit xizmati xodimlarini tayyorlash tizimini takomillashtirish chora-tadbirlari to‘g‘risida” qarori
3. O‘zbekiston Respublikasi Prezidentining 2018-yil 19-sentabrdagi O‘zbekiston Respublikasida Auditorlik faoliyatini yanada rivojlantirish chora-tadbirlari to‘g‘risida PQ-3946-son [qarori](#)
4. Abbott, L. J., Daugherty, B., Parker, S., & Peters, G. F. (2016). Internal Audit Quality and Financial Reporting Quality: The Joint Importance of Independence and Competence. *Journal of Accounting Research*, 54(1), 3–40.
5. Макаренко Е.Н. Внутренний аудит в системе управления предприятием. - М.: Управленческий учет, №2, 2011 г.
6. Hutchinson, M., & Zain, M. (2009). Internal audit quality, audit committee independence, growth opportunities and firm performance. *Corporate Ownership & Control*, 7(2), 50-65. Available at: <https://doi.org/10.22495/cocv7i2p4>.
7. Sayar, H. (2018). The effect of audit quality on firm performance: Evidence from Malaysia. *European Accounting Review*, 16(4), 72-88.

FRANSUZ TILIDAGI MAQOLLARNING ETIMOLOGIK XUSUSIYATLARI

Mirzayeva Shohsanam Ahror qizi
SamDCHTI magistranti

ANNOTATSIYA

Maqola “Fransuz tilidagi maqollarda frazeologizmlarning kelib chiqish tarixi va tarjima tahlili” to‘g‘risida bo‘lib, bu mavzu tilshunoslik bo‘limi sifatidagi frazeologiyaning asosiy diqqat e‘tibori frazeologizmlarni o‘rganishga qaratilgan. Frazeologizm- ikki yoki undan ortiq so‘zdan tashkil topgan, manoviy jihatdan o‘zaro bog‘liq so‘z birikmasidir. Frazeologizm so‘z kabi lug‘aviy birlik hisoblanib, tilda tayyor holda mavjud bo‘lganligi uchun nutq hodisasi emas, balki til hodisasi hisoblanadi. Biz ushbu maqolada frazeologizmlarning kelib chiqish tarixi, shakllanishi hamda ularning asosiy tarjima xususiyatlari tahlilini ko‘rib chiqamiz.

Kalit so‘zlar : frazeologiya, frazeologik birliklar, ibora, frazeologizmlar tarixi.

АННОТАЦИЯ

Статья посвящена теме «История возникновения и переводческий анализ фразеологизмов во французских пословицах», данная тема посвящена изучению фразеологии как отрасли языкознания. Фразеологизм - это словосочетание, состоящее из двух и более слов, которые духовно связаны между собой. Фразеологизм считается лексической единицей наподобие слова и является не речевым явлением, а языком, поскольку существует в языке в готовом виде, является событием. В данной статье мы рассматриваем историю происхождения фразеологизмов, их формирование, анализ их основных переводческих особенностей.

Ключевые слова: фразеология, фразеологизмы, словосочетание, история фразеологизмов.

ANNOTATION

The article is about "The history of the origin and translation analysis of phraseologisms in French proverbs", this topic focuses on the study of phraseology as a branch of linguistics. Phraseologism is a word combination consisting of two or more words that are spiritually interrelated. Phraseologism is considered a lexical unit like a word and is not a speech phenomenon, but a language because it exists ready-made in

the language. is an event. In this article, we consider the history of the origin of phraseologisms, their formation, and the analysis of their main translation features.

Key words: phraseology, phraseological units, phrase, history of phraseologisms.

KIRISH. Ushbu maqolada fransuzcha maqollardagi frazeologik birliklarning kelib chiqish tarixi xususidagi ma'noviy mutanosiblik holati yoritilgan bo'lib, etimologiya hamda frazeologiyani bir-biriga bog'liq holda o'rganishning muhimligi, hamda bu tilda keng qo'llaniladigan qiziqarli iboralar haqida so'z yuritilgan. Ya'ni biz bilamizki fransuzcha frazeologik birliklarning kelib chiqish tarixi xususidagi ishlar bir necha arslardan buyon tilshunoslar diqqat markazida bo'lib kelmoqda. Etimologik izlanishlar, avvalo fransuzcha frazeologik birliklarni nazariy jihatdan o'rganishni taqazo qilyapti. Shuningdek fransuz tilshunoslari aynan shu masala yuzasidan ko'plab izlanishlar olib bormoqdalar va bu tadqiqotlar o'z samarasini berib kelmoqda.

ASOSIY QISM. Fransuzcha maqollardagi frazeologik birliklarni etimologik nuqtai nazardan tahlil qilish natijasida shunday holatlarni ko'rishimiz mumkinki, iboralar ijtimoiy kelib chiqishi yoki tarixiy voqealarga borib taqaladi bularni quyidagi misollarda ham ko'rishimiz mumkin.

“ Il faut tourner sept fois sa langue dans sa bouche avant de parler ” -ushbu maqol o'zbek tilida *avval o'ylab keyin so'yla* maqoliga to'g'ri keladi. Ya'ni Ushbu maqolning paydo bo'lgan sanasi aniq ma'lum emas, lekin u faqat Fransiya akademiyasining lug'ati 1832 yil nashridan keltirilgan. Ya'ni, biz Injilda Sulaymonga tegishli bo'lgan quyidagi so'zlarni ko'rishimiz mumkin: "Dono odam gapirishdan oldin tilini og'ziga etti marta aylantiradi". Shuningdek, o'ylamay gapirish boshni kundaga qo'yish bilan barobar degan manoda keladiki, o'ylamasdan gapirib kimgadir ozor berib qiynalgandan ko'ra o'ylab gapirish haqidagi pand nasihatli maqol hisoblanadi.

il faut laver son linge sale en famille - bu maqol o'zbek tilida *oilaviy sir tashqariga chiqmaydi* maqoliga to'g'ri kelib, bu maqolning telib chiqish tarixi qadim tarixga borib taqaladi, ya'ni qadimda qirol saroylari yoki oddiy aholining turar joylarida kir yuviladigan xona bo'lmaganligi sababli ayollar chekka joylardagi daryo yoki buloqlarga borib kir yuvishga majbur bo'lishgan. Kir yuvishxonada, mahalladagi boshqa ayollar bilan birga yuvilib, g'iybat ko'paygan. Ijtimoiy roli nihoyatda muhim bo'lgan bu joy mintaqaga kelganda mahalliy g'iybatlardan va hatto dunyo yangiliklaridan xabardor bo'lish uchun juda mos kelgan. U, shuningdek, hozir bo'lgan ayollarga oilaviy nizolar haqida gapirishga va shu tariqa ularni juda keng ommaga

e'lon qilishga yaxshigina imoniyat yaratib bergan va ushbu maqol ya'ni oilaviy sir ko'chaga chiqmaydi maqoli vujudga kelgan.

il fait faire vie qui dure- ushbu maqol o'zbek tilida *dunyoni suv bossa o'rdakka ne g'am* maqoliga to'g'ri kelib bu maqolning tarixi ko'pincha o'zining har qanday injiqligiga ergashadigan va haddan tashqari beparvo bo'lgan odam uzoq umr ko'rishi haqida aytiladi.

Butun dunyo miqyosida turli xalqlarning o'zaro siyosiy, iqtisodiy, ilmiy, madaniy hamkorligi borgan sari kuchayib bormoqdaki, bu aloqalarni tarjimasiz tasavvur ham qilib bo'lmaydi. Bugungi kunda tarjimaning ahamiyati haqida gapirish quyoshning ahamiyatini tushuntirishday gap bo'lib qoldi. Ya'ni quyoshsiz yer yuzida hayot bo'lmagani kabi, tarjimasiz turli xalqlarning o'zaro aloqasi, o'zaro aloqasiz esa taraqqiyot bo'lmaydi. "Boshqa xalqlar hayotidan voqif bo'lmaslik, g'ofillik, milliy mahdudlikka olib keladi". Shuning uchun ham tarjimaga xalqlarni bir-biriga bog'lovchi halqa, fan va madaniyatni rivojlantiruvchi va boyituvchi vosita, o'zaro hamkorlik va hamjihatlikka asos soluvchi ko'pri deb qaraladi. Demak, tarjima:

- xalqlar o'rtasida do'stlik va hamkorlik o'rnatilishi;
- ilmiy-texnik taraqqiyotning jadallashuvchi;
- madaniyat, san'at va adabiyotlarning bir-biriga ta'siri;
- tillarning boyishida muhim ro'l o'ynaydi.

Tarjima nazariyasining fan sifatida shakllanishi

Tarjimashunoslik nisbatan yangi fan bo'lib, XX asrning o'rtalarida paydo bo'ldi. Dastlab 40-yillarda tarjimashunoslikda lisoniy yo'nalish paydo bo'lgan. "Bu yo'nalishning mohiyati shundan iborat ediki, tarjimaga, asosan, hamma hollarda va barcha janrlarda lisoniy faoliyatdan iborat deb qaralgan. Tarjima muammosi predmetini bunday talqin qilganda, umumiy tarjima nazariyasini tilshunoslikka mansub deb qarashni, tarjima muammolarini tadqiq qilishga yondashish esa lisoniy asnoda bo'lishini taqozo etadi. Mazkur yo'nalishni tanqid qilish asnosida adabiyotshunoslik yo'nalishi atalmish yangi bir qarash paydo bo'ldi. Bu yo'nalish namoyandalarining da'vosicha, badiiy va nobadiiy tarjima o'rtasida jiddiy tafovut bor: badiiy tarjima – adabiyot sohasidagi ijodiy faoliyat, nobadiiy tarjima esa til sohasidagi noijodiy faoliyatdan iborat. Muammoni bu tarzda talqin etish o'z-o'zidan shunga olib keladiki, bunda tarjimashunoslik go'yo ikki "tarjima nazariyasi"dan iborat bo'lib qoladi: biri – badiiy tarjima nazariyasi bo'lib, u adabiyotshunoslik sohasi hisoblanmog'i darkor, ikkinchisi esa nobadiiy tarjima nazariyasi bo'lib, tilshunoslik sohasiga mansub bo'lmog'i lozim".

Adekvat tarjima – lotinchada tenglashtirilgan muvofiq manolarini berib, har jihatdan mos, aynan teng, asl nusxaga mazmun va shakl jihatdan muvofiq tarjima hisoblanadi.

Erkin tarjima-bu asl nusxaning g‘oyaviy mazmuni va badiiy xususiyatlarini o‘zgartiruvchi, uni har jihatdan boshqa izga solib yuboruvchi tarjima prinsipidir. Bunda tarjimalarda muallif uslubi emas, balki tarjimon uslubi ustun turadi.

Ijodiy tarjima esa asar g‘oyasi va badiiy o‘ziga xosligini o‘zgartirishni emas, balki unga ijodiy munosabatda bo‘lish orqali mazmuni, intonatsiyasi, uslubini yangi tilda tiklash demakdir. Ijodiy tarjima so‘zma-so‘z tarjimaga ham, o‘zgartiruvchi erkin tarjimaga ham zid tushunchadir. Ijodiy tarjima orqali kitobxonga manzur bo‘ladigan so‘z san‘ati namunasi hosil qilinadi. Shuning uchun badiiy adekvat tarjima ijodiy tarjima hisoblanib, bu asl nusxaga sodiq qolishni” taqozo etadi.

Frzeologizmlar tarjimasining o‘ziga xos xususiyatlari frazeologizmlar – maqol, matal va iboralar hisoblanadi. Turmushda sinalgan, ma‘lum ezgu, tugal umumiy ma‘no anglatuvchi, ixcham, jarangdor shaklga kirib qolgan xalq hikmatiga maqol deyiladi. Masalan: Bir yigitga yetmish hunar oz. Aql yoshda emas, boshda. Matal esa narsa va hodisalarni obrazli ifodalovchi, tilda keng ishlatiladigan nutqiy tarkibdir. Masalan: Burgaga achchiq qilib, ko‘rpani kuydirmoq. “Matal aytilmoqchi bo‘lgan fikrni biror vosita orqali ifodalovchi ko‘chma ma‘noli sodda jumla bo‘lib, unda xulosa bo‘lmaydi, balki uning o‘zi biron xulosa chiqarish uchun xizmat qiladi.

“Idioma – ma‘nosi o‘z tarkibidagi so‘zlarning ma‘nolariga bog‘liq bo‘lmagan, yaxlit holda bir ma‘no beruvchi ixcham ibora hisoblanadi. Masalan: tomdan tarasha tushganday, og‘zingga qarab gapir”

Maqollarni etimologik jihatdan o‘rganish ularni boshqa tillarga tarjima qilish yoki talqin qilish jarayonida muhim ahamiyat kasb etadi. Etimologik xususiyatlar har bir millat va xalqning o‘ziga xosligini ifodalashga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Rey A., Chantreau S, Dictionnaires des expressions et locutions. Paris, Le Robert, 1989.
2. Larousse, Dictionnaire des locutions françaises, Paris, 1957.

3. Французско-русский фразеологический словарь / В.Г.Гак и др. /Под ред. Я.И.Рескера. – М.: ГИИНС, 1963. –1112 с.

Maktabda ona tilini o'rgatishning mazmuni jamiyat rivojlanishining hozirgi bosqichida davlatimizning maktab oldiga qo'ygan vazifalaridan kelib chiqadi. Bu vazifalar ko'p qirrali bo'lib, ularni bajarish o'quvchilar ongini o'stirishga, ularga g'oyaviy-siyosiy, axloqiy, estetik va mehnat tarbiyasini berishga yo'naltirilgan.

Ona tilini o'rganish natijasida o'quvchilarda o'z fikrini grammatik to'g'ri, uslubiy aniq, mazmunli, ohangga rioya qilib ifodalay olish va uni imloviy to'g'ri yoza olish ko'nikmalari shakllantiriladi. Bu vazifalarni muvaffaqiyatli hal etishda boshlang'ich sinflarda o'tkaziladigan lisoniy tahlilning ahamiyati katta. Lisoniy tahlilga boshlang'ich sinf ona tili dasturida ham alohida ahamiyat berilgan. Boshlang'ich sinflar "Ona tili" darsliklarida, o'qituvchilar uchun yaratilgan metodik qo'llanmalarda o'quvchilarni lisoniy tahlilga o'rgatish yuzasidan yo'l-yo'riqlar berilmagan. Nutq o'stirish ishlarini muvaffaqiyatli amalga oshirishda til hodisalarini puxta o'zlashtirish, ularning o'xshash va farqli tomonlarini bilishning ahamiyati katta.

Ona tili ta'limi jarayonida o'quvchilarni lisoniy tahlilga o'rgatish muammosi til o'qitish nazariyasi va metodikasida yangilik emas. O'quvchilarni lisoniy tahlilga o'rgatish rus olimi A.V.Tekuchev, o'zbek olimlari Y.Abdullaev, X. G'ulomova, M.Mirmahmudovalar tomonidan chuqur va atroflicha o'rganilgan. Ammo ularning ishlarida boshlang'ich sinf o'quvchilarini lisoniy tahlilga o'rgatish tadqiqot ob'ekti qilib olinmagan.

T.Ashrapova, M.Odilovalar o'z darsliklarida "Grammatik tahlil va uning turlari" mavzusini o'rganishga alohida to'xtaladilar. Ular grammatik tahlilning ahamiyati haqida: "O'quvchilar grammatika va imlodan olgan bilimlarini qay darajada

o‘zlashtirganini hisobga olish maqsadida o‘tkaziladi”, - deb grammatik tahlilning ahamiyatiga e‘tibor qaratadilar va grammatik tahlilni 1) mazmuniga ko‘ra: **fonetik, morfologik, sintaktik, aralash** tahlil; 2) hajmiga ko‘ra: **to‘liq tahlil, to‘liq bo‘lmagan tahlil**; 3) shakliga ko‘ra: **og‘zaki** va **yozma** kabi turlarga ajratadilar. Bu darslikda ham boshlang‘ich sinflarda grammatik tahlilni o‘tkazish izchilligi, tahlil o‘tkazishda didaktik vositalardan foydalanish haqida fikr bildirilmagan.

Boshlang‘ich sinf "Ona tili" darsliklarida ham lisoniy tahlilga yetarlicha e‘tibor qaratilmagan. 1-2 -sinf "Ona tili" darsligida lisoniy tahlilning biron turi haqida nazariy ma‘lumot berish, amaliy malakalar hosil qilish yuzasidan topshiriqlar berilmagan. 3-sinf darsligida "So‘z tarkibi"ni o‘rganishda so‘zning tarkibi, qanday qismlardan iboratligini shartli chiziqlar yordamida ko‘rsatish o‘rgatiladi. SHuningdek, 4-sinf darsligidagi 104-mashqda "qaldirg‘och" so‘zini tovush-harf tomondan tahlil qilish so‘ralgan va quyidagi namuna berilgan:

Tovush-harf tahlili tartibi.

Zag‘cha (zag‘cha) – 5 ta tovush, 4 - ta harf, 1 - harf birikmasi.

Unli tovushlar: a, a.

Undosh tovushlar: z, g‘, ch.

Jarangli undoshlar: z, g‘.

Jarangsiz undosh: ch.6

Lisoniy tahlil bajarish shakliga ko‘ra ikki xil bo‘ladi.

1. Og‘zaki tahlil.

2. Yozma tahlil.

Og‘zaki tahlil o‘quvchilarning bilimlarini qisqa vaqt ichida aniqlash imkonini beradi. Bundan tashqari, o‘quvchi xatoga yo‘l qo‘ysa, unga o‘z vaqtida yordamlashish imkoni bor.

Boshlang‘ich sinflarda dars jarayonida lisoniy tahlilning yuqorida ko‘rsatilgan barcha turlaridan foydalaniladi. Tahlil namunasi sinfda o‘rganilgach, uy vazifasi ham qilib berish mumkin. 1-4-sinflarda tahlil uchun tanlanadigan til materillarini tanlashga alohida e‘tibor qaratish lozim. Bu sinflarda tahlil materiallari sifatida so‘z, gap, matnlar berilishi mumkin. Tahlil materiallari o‘quvchilarning bilimini, tafakkurini, nutqini o‘stirishga yordam berishi bilan bir qatorda ularni barkamol insonlar qilib tarbiyalashga ham xizmat qilmog‘i lozim.

Boshlang'ich sinflarning dastlabki yillari, 1-2-sinflar lisoniy tahlilga tayyorlov davri hisoblanadi. 3-sinf dan boshlab tahlil ishlarini tashkil etish mumkin.

O'quvchilar savod o'rgatish davrida tovush, harf haqida amaliy ko'nikmalarni egallaydilar. 1-2-sinflarda tovushlar va harflarga oid asosiy bilimlar o'quvchilarning savod o'rgatish jarayonida o'rgangan amaliy bilimlariga asoslangan holda olib boriladi. 3-4-sinflarda esa tovushlar va harflarga oid bilimlar chuqurlashtiriladi, mustahkamlanadi. So'zlarni tovush-harf tomonidan tahlil qilish takomillashtiriladi.

1-4 -sinflarda tovush-harf tahlilining vazifasi so'z tovushlarining tartibini, ularning xususiyatlarini, tovushlar va harflar o'rtasidagi munosabatni aniqlash hisoblanadi. Boshlang'ich sinflarda tovush-harf tahlili quyidagi tartibda o'tkaziladi:

1. So'zda nechta bo'g'in bor?

2. So'zda nechta tovush va harf bor? (Tovushlar soni harflar sonidan kam yoki ko'p bo'lsa, sababini aytish).

3. Unli tovush nechta?

4. Undosh tovush-chi?

5. Har bir tovushni tavsiflash. Tovush so'zda qaysi harf bilan ifodalanadi?

Tahlil namunasi: "*Sahifa*" so'zi.

So'zda uchta bo'g'in bor: *sa-hi-fa*

So'zda oltita tovush, oltita harf bor.

So'z uch unli tovush, uch undosh tovushdan iborat.

s - undosh tovush, jarangsiz, s harfi bilan ifodalangan.

a - unli tovush, a harfi bilan ifodalangan, h - undosh tovush, jarangsiz, yozuvda h - harfi bilan ifodalangan. i-unli tovush, i harfi bilan ifodalangan. f-undosh tovush, jarangsiz, f harfi bilan ifodalangan.

Shamol so'zi:

So'zda 2 ta bo'g'in bor: *sha-mol*. So'z beshta tovush, oltita harfdan iborat. So'z ikki unli va uch undosh tovushdan iborat.

sh –undosh tovush, jarangsiz, harf birikmasi (s+h) bilan ifodalangan, a – unli tovush, a harfi bilan ifodalangan, m – undosh tovush, jarangli, m harfi bilan ifodalangan, o – unli tovush, o harfi bilan ifodalangan, l – undosh tovush, jarangli, l harfi bilan ifodalangan

Tovush-harf tahlili ona tili darslarida imlosi va talaffuzi qiyin so'zlarni o'rgatishda, yozma ishlar tahlili darslarida ham uyushtiriladi.

3-4-sinfda yozma ishlar tahlili darslarida o'quvchilar imloviy xatoga yo'l qo'ygan so'zlar ustida ishlashda tovush-harf tahlilini mustaqil ish qilib berish mumkin. Masalan, o'quvchi diktant yozish jarayonida "Hajm" so'zida imloviy xatoga yo'l qo'ygan bo'lsa, shu so'zni tovush-harf tomonidan tahlil qilish mustaqil ish qilib beriladi.

Adabiyotlar

1. Almamatov T. Yadgorov Q, Pochchayeva G. “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” metodik qo‘llanma. Jizzax 2016 y.
2. G.Negmatova “Ona tili ta’limining yangi texnologiyasi va o‘quvchilarining faoliyati turlari. Til va adabiyoti jurnali. T. 2009 y. 5-6-son.
3. S.Mirzayeva “O‘zbek tili o‘qitish metodikasi” Toshkent” “O‘qituvchi” 2012 y
4. U.Tursunov, B.O‘rinboyev “O‘zbek adabiy tili tarixi”, Toshkent. “O‘qituvchi”. 2012.

МІРЖАҚЫП ДҰЛАТУЛЫНЫҢ ҚАЗАҚ ӘДЕБИЕТІНДЕГІ КӨРКЕМ ПРОЗА ҮЛГІСІНДЕ ТҰҢҒЫШ ЖАЗЫЛҒАН БАҚЫТСЫЗ ЖАМАЛ РОМАНЫ

Миралиева Диана Нұрмұханқызы

Шыршық мемлекеттік педагогикалық университеті
Қазақ тілі және әдебиеті бағытының 1-курс студенті

Ғылыми жетекшісі: **Байзаков Жандос Абдазимович**

E-mail: diananurmuxan2@gmail.com

АННОТАЦИЯ

Қазақтың аса көрнекті тұлғасы, ағартушысы, қоғам қайраткері, ақын, жазушы, жалынды көсем сөздің шебері, Алаш партиясының бас мүшелерінің бірі, қазақтың біртуар азаматы Міржақып Дұлатұлының өмірі, өскен ортасы, жанұясы, шығармашылығы жайында қысқаша мәлімет сонымен қатар, саяси бағыттағы, реализм жанрдағы ақынның көркем туындысы, сол кезеңдегі келеңсіз оқиғаларды, хат бетінен көрсететін, қазақ әдебиетіндегі алғашқы роман Бақытсыз Жамал романы жайында мәліметтер ұсынылады.

Кілт сөздер: Алаш партия, көркем проза, көсем сөз шебері, роман, саяси бағыт, қоғам қайраткері, ағартушы, әлеуметтік мәселе.

MIRZHAKYP DULATUL'S UNHAPPY PAPER WRITTEN IN THE MODEL OF KAZAKH LITERATURE PNDER KÖRKEM PROSE FOR THE FIRST TIME NOVEL


ABSTRACT

Brief information about the life, family and works of Mirzhakyp Dulatulyn, a prominent Kazakh figure, educator, social activist, poet, writer, ardent leader, one of the main members of the Alash party, Kazakh citizen Mirzhakyp Dulatulyn, as well as the work of a political poet in the genre of realism information about Bakysiz Jamal, the first novel in Kazakh literature, which depicts the unfortunate events of that time, from the pages of letters, is presented.

Key words: Alash party, beautiful prose, beautiful wordsmith, novel, political direction, courageous educator, social problem.

*Алыстан Алаш десе аттанамын,
Қазақты қазақ десе мақтанамын.
Болғанда әкем қазақ шешем қазақ-
Мен неге қазақтықтан сақтанамын?!*

(М. Дұлатұлы)



Кіріспе бөлім: «Мен өзімді тым ерте танып білдім, әкемнің өне бойы түрмеде отыруы, үйде болмауы, шешем екеуміздің қасірет шегіп, Семей, Атбасар, Көкшетауда апвларының үйінде тұруымыз бала болсам да жаныма бататын-ды. Әкем бас бостандығынан пайдаланып, халқының жайы үшін, жанталасып, тыным таппай Ташкент, Түркістан, Семей, Омбы, Қызылжар, Петербург қалаларын кезіп жүретін. Әкем басына түскен қауіпті елең етпей, аса сабырлы, байсалды қалпымен, мұнайып тұрған шешем екеумізге жыламандар, тағдырдың тәлкегі адамды әлі талай белестерден өткізеді, шыдап бекем болыңдар. Сендер әлі-ақ ержетерсіңдер, сонда бәрін түсінерсіңдер, оқуларыңды тастамандар, ең бастысы аналарыңды регжітпесендер болғаны деп қоштасатын»- Гүлнәр Міржақыпқызы Дұлатова

Негізгі бөлім: Міржақып Дұлатұлы шын есімі Мир Якуб, Арғын тайпасының Мадияр руынан шығып, Торғай уезінің, Сарықопа облысының бірінші ауылында қазіргі Қостанай облысының Жанкелді ауданыны, Қызбел ауылында 1885 жыл 25 қарашада дүниеге келген. Әкесі Дұлат аты шыққан, атақты шебер кісі болған. Ер тұрман, етік, мәсі тігіп күн көрген. Анасы Дәмеш ойын тойдың адамы болыпты, әрі әнші. Соған қарағанда, Міржақыптың бойындағы қасиеті анасынан дарыған болуы керек. Әкесі ілім білім дейтін адам болған екен, сол себепті, балаларын жастай білімге баулып, молда қолына тапсырған. Міржақыпта алғаш ауыл молдасынан хат таниды. Кейіннен 1897-

1902 жылдары, ауыл мектебінде орысша қазақша білім беретін Мұқан мұғалімнен дәріс алады. Бұл мектептің бала ақын үшін ықпалы аса зор болады. Өйткенің мұғалім Мұқан ұлы ағартушы Ыбырай Алтынсарин ашқан мектептің түлегі болатын. Болашақ ақын 2 жасында анасынан 12 жасында әкесінен айырылып, ағасы Асқардың қолында қалады. Ағасы Асқар әкесінің оқыту жайлы тілегін орындамақ болып Міржақыптың әрі қарай білім алуына көмек береді. Осылайша ұлтының зиялы адамынан айналады.

Ал енді ақынның қаламынан туған аса көркем мұрасы Бақытсыз Жамал романына тоқталсақ.



Бұл туынды 1910 жылы жарық көріп сол кезеңдегі қазақ халқында болып жатқан жағдайларды, әлеуметтік мәселелерді, әйелдердің теңсіздігін баяндайтын басқада көптеген өзінен кейін туған әдеби туындыларға жол ашты. Романда ескі әдет-ғұрыптың қыспағына түскен қазақ қызының тағдыры, Сүйгеніне қосылып бақытты өмірді аңсаған, мал дүниенің құрбанына айналған қыздың трагедиялық өмір жолы баяндалады. Ал романның басты кейіпкері Жамал атты 15 жаста ақылына көркі сай, ай десе аузы, күн десе көзі бар, өте ибалы инабатты сол елдің қыздарының алды, оның үстіне сөзге бек, өзі өлең шығаратын, салтанат иесі бойжеткен шашағында, ескі әдет-ғұрыптың, сауатсыздықтың құрбаны болады. Шығармада Жамалды бір байдың жаман Жұман баласына беруге әкесі мал дүние үшін разы болады, Жамал бұл жайтқа өте қапаланып, өзінің көңілі қалаған Ғали деген жігітпен қашып кетеді, бұларды құдалау басталып кетеді, сүйтіп жүргенде Ғали сырқаттанып, қайтыс болады, Жамалды жаман Жұманға әкеп қосады, ақыр соңында, бұл қорлығына шыдамаған Жамал да суықта үсіп қайтыс болады.

Қорытынды бөлім: Қазақтың аса көрнекті тұлғасы Міржақып Дулатұлы аумалы төкпелі заманда өмір сүріп, 30 жыл бойы қызыл үкіметтің көрсеткен ешбір жағымсыз жайтына беріліп қана қоймай, алға қойған мақсатына жету жолында, халық бас-бостандығы үшін құрбан болсада, өз оқырмандарына өте

тәрбиелік мәні аса зор туындыларды тарту етті. Халықтың көзін ашып көкірегін ояу ету үшін барын салды. Еш артқа шегінген емес.

ПАЙДАЛАНЫЛҒАН ӘДЕБИЕТТЕР ТІЗІМІ(REFERENCES)

1. Тарихи тұлғалар «Алматы кітап баспасы» 2009 жыл
2. Қазақ әдебиеті, Энциклопедиялық анықтамалық Алматы «Аруна» баспасы 2010 жыл

GIALURON KISLOTASINI OLISH UCHUN OPTIMAL, QULAY, USULNI TANLASH

Xolboboyev B.F.

O'zbekiston Milliy universiteti magistranti

Xaitbaev.A.X

O'zbekiston Milliy universiteti professori

Axmedova N.N

Chirchiq davlat pedagogika instituti katta o'qituvchisi

Maxkamov B.G'

O'zbekiston Milliy universiteti katta o'qituvchisi

ANNOTATSIYA

Ushbu izlanishimizda gialuron kislotasini turli muhitda, turli sharoitda va turli cho'ktiruvchilar yordamida gialuron kislotasini ajratib olish, ularni farqini kuzatish, toza gialuron kislotasini olish uchun optimal, qulay usulni tanlash natijalari keltirilgan.

Kalit so'z: Gialuron kislota, IK-Spektrometr, cho'ktiruvchilar, pH muhit, issiqlikka tasirchanlik,

Kirish

Xozirgi kunda butun dunyo bo'yicha ajoyib biologik xususiyatlarga ega bo'lgan gialuron kislotasidan foydalanish ommaviy tus olgan. Sababi, gialuron kislotasi ham tibbiyotda ham formasevtikada keng ishlatilib kelinmoqda. Masalan dori vositalarni tashuvchisi sifatida, oftalmologiyada, ko'z qorachiqclarini o'rnini bosuvchi vosita sifatida, terini namlantiruvchi sifatida va koptgina boshqa maqsadlarda foydalaniladi[1-2] Tibbiyotda ommoviy foydalanish bo'yicha dunyodagi birinchi tajriba 1943-yida, N.F. Gamaliya gialuronanni 1321-sonli harbiy-dala kasalxonasida muzlab qolgan qizil armiyachilarga kompleks bog'ich sifatida ishlatgan[3-4].

Olingan natijalar tahlili.

Gialuron kislota issiqlikka juda tasirchan bo'lib, yuqori issiqlik ta'sirida uning rangi va strukturaviy o'zgarishlarga olib keladi. Bu esa o'z-o'zidan polisaxaridning tabiiy xususiyatini yuqolishiga olib keladi. Shuning uchun ishqoriy va kislotali muhit uchun 20-25°C da, neytral muhit uchun 30-35°C da reaksiya olib borish tavsiya


etiladi. Cho'ktiruvchi sifatida etil spirt, va sirka kislota, qo'llanildi. Ajratib olingan gialuron kislotaga turli darajada issiqlik berib suvda eritildi Ph darajalari netral va netralga yaqin darajaga olib kelindi. Shu tartibda ko'plab reaksiya ketma-ketliklar amalga oshirildi, ularni farqi kuzatildi va gialuron kislotani ajratib olishning optimal usulli tanlandi. Har bir tajriba natijalari quyidagi jadvallarda keltirilgan. (1- jadval)

(1- jadval):

Xo'roz tojlaridan gialuron ajratib olishda o'tkazilgan bir necha reaksiya partiyalari.

O'tkazilgan reaksiya partiyalar	Cho'ktiruvchilar	Cho'kmaga erituvchi ta'sir etgandan keyingi pH qiymat.	T°	Eritmaga ishlov berilgandan keying pH qiymat.
1-quyi	C2H5OH+limon k	5.45	30>t	6.93
1-tepa	C2H5OH+limon k	5.63	80<<>35	7.39
2-quyi	C2H5OH	7.45	80<<>35	7.45
2-tepa	C2H5OH	7.73	35>t	7.73
3	CH3COOH	3.24	80<<>40	7
4	CH3COOH	3.55	35>t	7.11
5-quyi	C2H5OH	7.45	30>t	7.45
5-tepa	C2H5OH	7.62	30>t	7.62

1-rasm.



C:\Users\BRUKER\Documents\Bruker\OPUS_8.7.10\DATA\MEAS\V-partiya.0 V-partiya Instrument type and / or accessory 4/1/2022

Xo'roz tojlaridan ajratib olingan gialuron kislotasini IQ-spektri.

Xo'roz tojlaridan ajratib olingan moddaning spektrida 3292.92 sm^{-1} , 2924.5 sm^{-1} , 1635.7 sm^{-1} , 1742.1 sm^{-1} , 1540.3 sm^{-1} , 1047.5 sm^{-1} sohalarda intinsiv nur yutish signallari xosil bo'lgan. Unga ko'ra 3292.92 sm^{-1} soha -OH guruhning valent tebranishiga, 2924.5 sm^{-1} metilen guruhlar valent tabranishi, 1635.7 sm^{-1} soxa amid II

bog'iga, 1540.3 sm^{-1} amid I bog'iga tegishli, 1047.5 sm^{-1} –C-O-C bog'iga tegishli, 1742.1 sm^{-1} soxa C=O bog'iga tegishli bo'lib, birikmamiz tarkibida shu guruhlar mavjud ekanligi to'g'risida xulosa qilishimiz mumkin.

Tajriba qism

Etil spirit ishtirokida Xo'roz tojlaridan gialuron kislota olish. (1-partiya)

Xo'roz tojlaridan gialuron kislota ajratib olish uchun maydalangan 250 gr xo'roz tojlari o'lchab olindi, tubi yumaloq kolbaga solib, 0.9% li fizrazvor solib vadimnoy banyaga qo'yildi. Ekstrakt filtrdan o'tkazildi.. Filtrdan o'tgan umumiy filtrat 200 ml ni tashkil qildi va 300ml 96%li C₂H₅OH quyilganda quyi va yuqori qatlam cho'kma hosil bo'ldi. Quyi va yuqori qatlam alohida ajratib olindi. Sentrafugadan o'tkazildi. Quyi cho'kma o'lchanganda 85ml ni tashkil etdi. Quyi cho'kmaga 170ml distillangan suv solib meshalkaga 35 gradusda eritildi,. Muhit o'lchab ko'rilganda pH=5.45 ni tashkil etdi.

NaOHning 0.1% li eritmasi bilan muhit pH=6.93 ga yetkazildi.

250ml namuna liofilniyga berib quritildi.

Xulosa

O'tkazilgn reaksiyalarda turli muhitda, turli sharoitda va turli cho'ktiruvchilar qo'llanildi. Sintez qilingan moddalarni IQ-spektiri olindi. Bu reaksiyalar ichida 1-quyi, 2-yuqori, 4-partiya, 5-quyi va 5-yuqori partiyalar ko'zda tutilgan yaxshi natijani berdi. Gialuron kislotasi olish uchun eng optimal usull $T^{\circ}=30^{\circ}$ PH=7.39 darajada, C₂H₅OH, CH₃COOH lar eng yaxshi cho'ktiruvchi ekanligi va C₂H₅OH da cho'kmalar yuqori pag'a-pag'a va quyi qatlam cho'kmalar tushishi kuzatildi. Yuqori qatlam oppoq, qovushqoq holatda, quyi qismi esa oq, kukunsimon holatda ekanligi aniqlandi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro'yxati.

1. (Республика фармацевтика саноатини жадал ривожлантириш учун қулай шарт-шароитлар яратиш чора-тадбирлари тўғрисида, Тошкент ш.,2017 йил 20 апрель, ПҚ-2911-сон);
2. (Тошкент ш.,2018 йил 5 июль,1820-III-сон-Ўзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш вазирининг «Соғлиқни сақлаш соҳасига оид ислоҳотларнинг амалга оширилиши ҳолати тўғрисида»ги ахбороти ҳақида);
3. (Тошкент ш., 2018 йил 7 декабрь,ПФ-5590-сонЎзбекистон Республикаси соғлиқни сақлаш тизимини тубдан такомиллаштириш бўйича комплекс чора-тадбирлар тўғрисида);
4. Сигаева Н. Н., Колесов С. В., Назаров П. В., Вильданова Р. Р. Химическая модификация гиалуроновой кислоты и ее применение в медицине. Вестник Башкирского университета. 2012;17(3):1220–1241.

TEACHING ENGLISH GRAMMAR THROUGH PERSON BASED ASPECTS: APPLYING NEW TECHNOLOGIES WHILE TEACHING ENGLISH TO INDIVIDUALS

Guljahon Xoliyeva

2nd year student at Master Degree,
Samarkand State Institute of Foreign Languages.

ABSTRACT

This article discusses the effectiveness of a person-oriented approach in teaching English grammar to students. The traditional way of teaching grammar focused on rules and structures, which often caused students to lose interest and motivation in learning the language. In contrast, a person-oriented approach emphasizes the use of grammar structures in context and personalizes the language learning experience to suit the individual learner's needs, interests, and learning style. This article explores the theoretical foundations of the person-oriented approach and discusses practical strategies that teachers can use to implement this approach.

Keywords: teaching English grammar, ESL, person-based approaches, strategies, authentic materials

Introduction:

English grammar is an essential component of language learning, and its mastery is crucial for effective communication. English grammar plays a vital role in developing proficiency in the English language, and its mastery is essential for effectively communicating ideas, thoughts, and emotions. However, many students struggle with learning grammar, as it has often been taught in a boring, abstract, and rule-oriented way. Indeed, many students find grammar lessons uninspiring, as they are often presented in a tedious, abstract, and rule-oriented manner that lacks relevance to their everyday lives. This approach to teaching grammar can lead to disinterest, disengagement, and a lack of motivation in learners. This approach to teaching grammar undermines students' motivation and enthusiasm for learning, leading them to view grammar as a tedious and irrelevant task that they must endure to pass exams, rather than a tool for communication. Thus, there is a growing demand for innovative, student-centered approaches to teaching grammar that recognize learners' diverse needs, interests, and learning styles.

Person-Oriented Approach to Teaching Grammar:

A person-oriented approach to teaching grammar recognizes that each learner is unique; thus, the learning experience must be personalized, engaging, and meaningful to the individual learner. A person-oriented approach to teaching grammar focuses on the individual needs and interests of the learner, acknowledging that everyone has different learning styles and preferences. This approach seeks to make grammar lessons relevant, engaging, and meaningful by using authentic materials, such as articles, videos, and songs, that connect with the learner's interests and experiences.

In a person-oriented approach, grammar instruction is presented in a communicative and interactive way, with a focus on using language in real-life situations. This may involve role-playing, storytelling, and group discussions, as well as providing opportunities for learners to practice and apply grammar rules in writing and speaking.

By tailoring grammar instruction to the learner's individual needs and interests, a person-oriented approach can create a more positive learning experience, leading to increased motivation, engagement, and ultimately, better retention of the material. This approach emphasizes the use of grammar in context, connecting it to students' real-life experiences and interests, rather than teaching grammar as a set of abstract rules that students have to memorize. It recognizes that, in learning a language, the most crucial aspect is the communication with other people, and, therefore, offers more opportunities to practice and express oneself orally, with a graded approach suitable for the level of the learner. Communication is a critical aspect of language learning as it allows learners to practice and develop their skills in a real-life context. A person-oriented approach to teaching grammar recognizes this and places a strong emphasis on providing opportunities for learners to communicate with others in meaningful and purposeful ways.

A graded approach is also an essential component of a person-oriented approach to teaching grammar. This means that lessons are designed to build on learners' existing knowledge and skills, gradually introducing more complex grammar concepts as they progress. By starting with simpler grammar rules and gradually building on them, learners can feel more confident and motivated to continue learning.

In this approach, oral communication skills are emphasized through activities such as role-playing, conversations, and interviews. The teacher also plays a crucial role in facilitating interaction, providing feedback, and identifying areas of improvement.

Overall, a person-oriented approach that emphasizes communication and a graded approach can help learners develop not only their grammar skills but also their confidence in using the language in real-life situations.

Practical Strategies for Implementing the Person-Oriented Approach:

Implementing a person-oriented approach to teaching grammar involves several practical strategies to create a supportive, engaging, and effective learning environment. Here are some practical strategies that can be used:

1. Use authentic materials: Incorporate authentic materials such as articles, videos, and songs that connect with the learners' interests and experiences. This approach will help create relevance, motivation and meaningfulness. Incorporating authentic materials in language teaching is an effective way to connect learners to the target language's culture and real-life contexts.

Here are some examples of authentic materials that can be used in language teaching:

Teachers can use articles from newspapers, magazines, and websites as authentic materials. Learners can read articles and identify the grammar rules in use, learn new vocabulary, and summarize or discuss the main topic. Videos are an excellent resource for language teaching. Teachers can use videos to introduce new grammar concepts and vocabulary, and learners can practice their listening and speaking skills by watching and discussing videos. Music is a powerful tool in language teaching as it helps learners improve their listening comprehension and pronunciation. Teachers can use song lyrics to teach grammar structures and new vocabulary, and learners can practice their listening, speaking, and even writing skills by singing and analyzing the lyrics. Social media platforms such as Facebook, Twitter, and Instagram are a rich source of authentic materials. Teachers can use posts, comments, and tweets to teach grammar rules, expressions, and vocabulary while also promoting learner engagement and cultural awareness. Authentic texts such as menus, advertisements, and brochures can be used for teaching specific grammar structures and vocabulary. Learners can identify the use of grammar and vocabulary in context and practice using them in meaningful tasks such as ordering food or making a reservation. Incorporating authentic materials in language teaching helps to motivate learners and promote cultural awareness, making the learning process more meaningful and relevant.

2. Create a communicative and interactive environment: Design lessons that invite learners to interact with each other and the teacher. Encourage learners to participate by engaging them in group discussions, role-playing, storytelling, and debates. Or encourage everyone to participate by asking open-ended questions and soliciting feedback. Make sure that everyone has an opportunity to share their thoughts and ideas. Remember, the goal of creating a communicative and interactive environment is to ensure that everyone feels valued and heard. By encouraging participation, active listening, respectful communication, and creative methods of engagement, you can create a positive and productive environment for everyone involved.

2. Active listening: Listen actively to what others are saying and respond thoughtfully. Show that you value their input by asking follow-up questions and engaging in a meaningful dialogue. Active listening is a key component of effective communication. When you listen actively, you are fully engaged in the conversation and trying to understand the speaker's point of view. By actively listening to others, you can build stronger relationships, prevent misunderstandings, and promote more effective communication.

3. Use a variety of teaching techniques: Use a variety of techniques such as games, quizzes, audio and video recordings, and structured conversations to make the learning process fun and diverse. Using a variety of teaching techniques can help engage learners and promote deeper understanding. A traditional lecture format can be effective for presenting new content or introducing a topic. However, it's important to break up longer lectures with interactive activities to keep learners engaged. Encourage learners to participate in class discussions by asking thought-provoking questions and inviting them to share their perspectives. This technique can help learners to process information and enhance their critical thinking skills. By utilizing a variety of teaching techniques, you can help to create a more dynamic, engaging and effective learning experience for your learners.

4. Provide personalized feedback: Provide individualized feedback to learners to ensure that they understand grammar rules and can apply them effectively in oral and written communication. When providing feedback, be as specific as possible. Refer to specific examples of student work or performance, and explain what was done well and what could be improved. Avoid generalities or vague statements. Provide feedback in a timely manner, when learners can still remember the work they have done. This can help learners to recognize where they have made progress and identify areas where they need to improve. Provide feedback throughout the learning process, not just at the end of a project or assignment. This can help learners to understand how they are progressing and encourage them to continue to improve.

By providing personalized feedback, teachers can help learners to achieve their goals, improve their skills and build their confidence. Effective feedback can also help to create a more positive and supportive learning environment.

5. Encourage creative expression: Encourage learners to express their ideas creatively by providing opportunities for them to write stories, create videos, role-play dialogues, and share their projects with the class. Encouraging creative expression can help to foster a love of learning and encourage learners to express themselves in new and innovative ways. Assignments that have room for interpretation and creativity can allow learners to demonstrate their understanding in unique ways. Providing clear

guidelines while leaving room for imagination can be motivating and encourage risk-taking. Provide support during the creative process by offering feedback, scaffolded exercises, and individualized instruction. In addition, ensure that learners get ample time to work on projects.

By providing opportunities for creative expression, learners can develop a sense of ownership and can produce work that is not only academic but also innovative and distinctive. Such an approach can be rewarding, empowering, and provide rich learning experiences.

6. Use a graded approach: Provide a systematic and graded approach to language instruction to ensure that learners build on their current knowledge and skills gradually. Using a graded approach involves breaking down complex concepts or tasks into smaller, achievable steps to support learners to build up their skills and knowledge. Have a clear understanding of the required prior knowledge, and present information and tasks that are relevant to the current learning. Establish an appropriate foundation and build on it. Provide learners with proper support during their learning journey. This can be achieved through the provision of clear instructions, appropriate examples, guided practice or feedback. Once learners have mastered the foundational concepts of the course, provide some tasks or activities that are more challenging. Such tasks should stretch the learners' newly acquired skills and invite them to build on their knowledge.

By using a graded approach and following these guidelines, learners can learn to master complex concepts one step at a time. This approach will not only make the learning process more manageable but also increase learners' confidence and interest towards their learning.

7. Use technology: Use technology to provide supplementary resources such as websites, videos, and interactive exercises that allow learners to practice and review grammar rules independently outside of class. Using technology to provide supplementary resources can be a powerful tool to empower learners to take charge of their own learning. There are several grammar tools, such as grammar checkers, online dictionaries, and thesauruses, that can assist learners to identify grammar errors, learn new words or phrases, and improve their writing: Incorporate multimedia resources, such as videos, animations, interactive simulations, and games that provide learners with a more engaging and interactive experience. Create an online forum or discussion board where learners can pose questions, get feedback on assignments, and engage with their peers. By using technology to provide supplementary resources, learners will have access to a range of resources that can support their learning and allow them to practice their skills independently. This approach will not only increase learners'

motivation and engagement but also make the learning experience more flexible and convenient.

By implementing these practical strategies, teachers can create a person-oriented learning environment that takes into account the individual needs and interests of learners, creating a supportive, engaging, and effective learning experience.

Apart from that, several practical strategies can be used to implement the person-oriented approach to teaching grammar. One such strategy is to begin by assessing students' learning styles, interests, and abilities, then integrating these factors into the lesson planning. This can help to create a more personalized and meaningful learning experience for the student.

Another strategy is to use authentic material that focuses on topics of interests to students, such as articles, stories, videos or podcasts that relate to the student's everyday life, instead of pedantic or boring material that is not relevant to the learner's context. A contextualized approach to teaching grammar can be more effective in enabling students to transfer their knowledge of the rules to real-life situations.

Finally, teachers can use various innovative teaching materials and technology to engage students in the learning process, such as the use of games, quizzes, interactive websites, and online forums. These materials can be used to provide students with opportunities to practice using grammar structures in real-life scenarios, promoting a more spontaneous and natural conversation.

Conclusion:

The person-oriented approach to teaching grammar represents a shift from the traditional rule-based approach and provides a more personalized, engaging, and meaningful learning experience that responds to the learner's specific needs, interests, and learning styles. This approach can help to increase students' motivation and improve their performance in English grammar while promoting the use of grammar as a tool for effective communication. To make grammar learning more meaningful, approachable, and even fun in the classroom, grammar teaching should be oriented to the learner, explore the creativity and personal experiences of the students, and focus on real-life communication.

LIST OF REFERENCES

1. Brown, H. D. (2007). Teaching by principles: An interactive approach to language pedagogy. Pearson Education.
2. Burns, A. (2010). Doing action research in English language teaching: A guide for practitioners. Routledge.
3. Hubbard, P. (1991). Evaluating computer games for language learning. *Simulation & Gaming: An Interdisciplinary Journal of Theory, Practice and Research*, 22(2), 220-223;
4. Richards, J. y Rodgers, T. S. (2001). *Approaches and Methods in Language Teaching*. New York: Cambridge University Press.
5. Skyes, J., Oskoz, A., & Thorne, S. L. (2008). Second language use, socialization, and learning in Internet interest communities and online gaming. Retrieved September 15, 2009;

MULOQOT – PSIXOLOGIK FAOLIYAT SIFATIDA

Yo‘ldasheva Maftuna Jura qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Kaldibayeva Fariza Muhamad qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Rayimboyeva Kumushoy O‘ktambov qizi

Chirchiq davlat pedagogika universiteti talabasi

Annotatsiya: Ushbu maqolada muloqot – psixologik faoliyat haqida nazariy tadqiq, qarashlar va ma’lumotlar keltirilgan.

Tayanch so‘zlar: Muloqot, verbal ta’sir, noverbal, paralingvistik, ta’sir, tinglash texnikasi, aktiv xolat, o‘ychan jimlik, IPT.

Muloqot odamlar amalga oshiradigan faoliyatlar ichida etakchi o‘rinni egallab, u insondagi eng muhim ehtiyojni- jamiyatda yashash va o‘zini shaxs deb hisoblash bilan bog‘liq ehtiyojini qondiradi, shuningdek har bir inson uchun uning ahamiyati kattadir. Psixologik ta’limotga muvofiq odamning shaxs sifatida rivojlanib, taraqqiy etishi uzoq muddatli va murakkab jarayon hisoblanadi. Odamning shaxs sifatida kamolga etishida nasl (biologik omil), ijtimoiy muhit (odam yashab turgan sharoit), aniq maqsadga yo‘naltirilgan tarbiya bilan birga uning boshqa shaxslar bilan muloqotlarining ham muhim ahamiyati bor. Tabiiyki, shaxs o‘zi yashab turgan jamiyat odob-axloq normalari qurshovida hayot kechiradi. SHunday ekan, uning ma’naviy olami mazmuni ijtimoiy muloqotlari mohiyati bilan izohlanadi. Shaxsning ijtimoiy muloqotlari qanchalik boy va mazmundor bo‘lsa, uning ma’naviy olami shu qadar yuksak bo‘ladi. Mustaqillik tufayli respublikamizda yangi mazmundagi ijtimoiy muhit yuzaga keladi. Buning natijasida inson shaxsi oldiga qo‘yiladigan talablar ham o‘zgardi, uning muloqotlari mazmuni va doirasi ham o‘zgacha bo‘lib qoldi. Inson shaxsi yosh jihatdan o‘sgan sari uning muloqot doirasi ham kengaya boradi. U o‘zining barcha orzu va istaklarini aloqa orqali ro‘yobga chiqaradi. Shuni ham hisobga olish kerakki, shaxs muloqotlarining mazmuni uning yoshi ulg‘ayishi bilan bog‘liq holda o‘zgaruvchan bo‘ladi. Agar yosh bilan bog‘liq holda olib qaraladigan bo‘lsa, shaxs muloqotlarining eng murakkab va mazmunli davri uning mehnat faoliyati bilan bog‘liq davridir. Bu davr muloqotlarida shaxsning insonparvarlik, vatanparvarlik, mehnatsevarlik, baynalminalchilik, jamoatchilik kabi yuqori tuyg‘ulari namoyon bo‘ladi. Bu kabi

axloqiy tuyg'ularda ifodalangan mazmun shaxs muloqotlariga sayqal beradi, uning emotsional ta'sirini kuchaytiradi, muloqot jarayonini mazmundor qiladi va undan tomonlar ko'zlagan maqsadni amalga oshiradi.¹ Yana bir muhim tomoni shundaki, faqat muloqot yordami bilangina shaxs o'zining ishlab chiqaruvchilik faoliyatini ro'yobga chiqaradi, boshqalarning bu muhim faoliyati mahsuldorligini ta'minlashga o'z hissasini qo'shadi. Istagan jamoadagi singari oliy ta'lim tizimida ham shaxslararo muloqotlarning g'oyat murakkab ko'rinishlari bor. Bu g'oyat muhim muloqotlarni umuminsoniy axloq talablari nuqtai nazaridan davr axloqiy sifatlariga mos tushadigan va mazmunan unga zid bo'lgan yo'nalishlarga ajratish mumkin. Agar muloqotlar o'zaro ishonch, odillik, do'stlik, g'amxo'rlik, hurmat va e'zoz-e'tiborga asoslansa, ijobiy hissiyotlar manbai sifatida xizmat ko'rsatadi. Beodoblik, qalloblik, g'araz, hurmatsizlik va ishonchsizlik kabi yo'nalishda bo'lsa, salbiy hissiyotlar manbai mazmuniga ega bo'ladi. Muloqotlar mazmuni shaxslararo munosabatlar mohiyatini ifodalaydi. Shaxslararo muloqotlar guruhdagi talabalarning bir-biri bilan (guruh muhitida), boshqa guruhlar va kurslar talabalar bilan o'qituvchilar, fakultet yoki bo'lim rahbarlari, o'qimaydigan do'stlari, oila a'zolari, qarindosh va og'a-inilar bilan bo'ladigan muloqotlarni o'z ichiga oladi. Bu muloqotlar jarayonida talaba shaxsining qobiliyatlari, qiziqishlari, diqqati, xotirasi, xayoli va tafakkuri kabilar o'z aksini topadi. Muloqotlar tizimida o'qituvchi va talabalararo muloqotlarning roli kattadir. Bunday muloqotlar ularning jonli nutqi orqali amalga oshiriladi. Bu jarayon birining bilim berish (o'qituvchi), ikkinchisining shu bilimlarning idrok etishini (talaba) ta'minlashni amalga oshirish funksiyasini ado etish vazifasini bajaradi. Shuning uchun ham har bir shaxsning jamiyatda tutgan o'rni, ishlarining muvaffaqiyati, obro'si, uning muloqotga kirisha olish qobiliyati bilan bevosita bog'liqdir.

Muloqotning turi turlichadir. Masalan, bu faoliyat bevosita "yuzma - yuz" bo'lishi yoki u yoki bu texnik vositalar (telefon, internet, faks va shunga o'xshash) orqali amalga oshiriladigan; biror professional faoliyat jarayonidagi amaliy yoki do'stona bo'lishi; sub'ekt - sub'ekt tipli (diologik, sheriklik) yoki sub'ekt - ob'ektlilik (monologik) bo'lishi mumkin. Biz ko'z oldimizga birinchi darsni keltira olsak, o'sha paytdagi hayajonni, quvonchni, ijodiylik hissini tuyamiz. Bolalar bilan bo'lgan damlarimiz esda holsa, iz holsa, demak, bu muloqot uslubiga bog'liq. Pedagog kommunikativ muloqotini mahsuldor bo'lishi uchun u pedagogik ta'sir kuchining tizimlarini, uning har bir qismini bilishi zarur. Dars jarayonida o'qituvchi qaysi usulni qo'llaëtgani doimo eslab turishi kerak. Buning uchun pedagog ikkita muhim muammoni hisobga olishi: - o'zining hatti-harakatini to'g'ri tashkillashtirishi; - kommunikativ ta'sir samaradorligini ta'minlashi zarur. Pedagogik faoliyat jaraënidagi

¹ Andreeva G.M. Sotsialnaya psixologiya. M., Aspekt press 1999 g.

muloqotning quyidagicha tavsiflash mumkin: 1) o'quvchi-talaba va pedagog muloqoti tizimining umumiy tuzilishi (muloqotning aniq usuli); 2) pedagogik faoliyatning aniq bosqichi uchun xos bo'lgan muloqot tizimi; 3) aniq pedagogik va kommunikativ masalalarni echishda namoèn bo'ladigan muloqotning vaziyatli tizimi. Pedagog va ta'lim oluvchilarning ijtimoiy-psixologik ta'sir xususiyatlarini muloqot uslublari orqali quyidagicha tushunish mumkin: a) pedagogning kommunikativ imkoniyatlari; b) pedagog va tarbiyalanuvchilar o'rtasidagi munosabatlar tabiati; v) pedagogning ijodiy individualligi; g) o'quvchi-talabalar jaoasining xususiyatlari.¹ SHuningdek, muloqotning rasmiy va norasmiy turlari mavjud. Agar rasmiy muloqot odamlarning jamiyatda bajaradigan rasmiy vazifalari va xulq atvor normalaridan kelib chiqsa, masalan, rahbarning qo'l ostida ishlayotgan xodimlari bilan muloqoti, o'qituvchining talaba bilan muloqoti va x.k. Norasmiy muloqot - bu odamning shaxsiy munosabatlariga tayanadi va uning mazmuni o'sha suhbatdoshlarning fikr-o'ylari, maqsadlari, emotsional munosabatlari bilan begilanadi. Masalan, do'stlar suhbat, uzoq safarga chiqqan yo'lovchilar suhbat, oiladagi suhbat va x.k. Har qanday faoliyatdan zerikish, charchash mumkin, faqat odam muloqotdan, ayniqsa, uning norasmiy samimiy, bevosita shaklidan charchamaydi, yaxshi suhbatdoshlar doimo ma'naviy jihatdan rag'batlantiriladilar. Insoniy munosabatlar shunday o'zaro ta'sir jarayonlariki, unda shaxslaro munosabatlar shakllanadi va namoyon bo'ladi. Odamlar muloqotda bo'lishgani sari, ular o'rtasidagi munosabatlar tajribasi ortgan sari ular orasida umumiylik, o'xshashlik va uyg'unlik kabi sifatlar paydo bo'ladi, ular bir-birlarini bir qarashda tushunadigan yoki "yarimta jumladan" ham fikr ayon bo'ladigan bo'lib qoladi, ayrim xollarda esa ana shunday muloqotning tig'izligi teskari reaksiyalarni - bir-biridan charchash, gapiradigan gapning qolmasligi kabi vaziyatni keltirib chiqaradi. Masalan, oila muhiti va undagi munosabatlar ana shunday tig'iz munosabatlarga kiradi. Faqat bunday tig'izlik oilaning barcha a'zolari o'rtasida emas, uning ayrim a'zolari o'rtasida bo'lishi mumkin (ona-bola, qaynona-kelin va x.k.). O'zaro munosabatlarga kirishayotgan tomonlar munosabatdan ko'zlaydigan asosiy maqsadlari - o'zaro til topishish, bir-birini tushunishdir. Bu jarayonning murakkabligi, kerak bo'lsa, "jozibasi", betakrorligi shundaki, o'zaro bir xil til topishish yoki tomonlarning aynan bir xil o'ylashlari va gapirishlari mumkin emas. Agar ana shunday vaziyatni tasavvur qiladigan bo'lsak, bunday muloqot eng samarasiz, eng beta'sir bo'lgan bo'lar edi. Masalan, tasavvur qiling, uzoq vaqt ko'rishmay qolgan do'stingizni ko'rib qoldingiz. Siz undan xol - ahvol so'radingiz, lekin u tashabbusni sizga berib, nimaiki demang, sizni ma'qullab, gapingizni qaytarib turibdi. Bunday muloqot juda bemaza bo'lgan va siz ikkinchi marta o'sha odam bilan iloji boricha rasman salom-

¹ Кан-Калик. Учителю о педагогическом общении. 97-бет

alikni bajo keltirib o‘tib ketavergan bo‘lardingiz. Ya’ni, muloqot faoliyati shunday shart-sharoitki, unda har bir shaxsning individualligi, betakrorligi, bilimlar va tasavvurlarning xilma - xilligi namoyon bo‘ladi va shunisi bilan u insoniyatni asrlar davomida o‘ziga jalb etadi. Shuning uchun ham muloqot, uning tabiati, texnikasi va strategiyasi, muloqotga o‘rgatish (sotsial psixologik trening) masalalari bilan shug‘ullanuvchi fanlarning ham jamiyatdagi o‘rni va salohiyati keskin oshdi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Klimov E.A. Psixologiya professionala. - M., 1997g.
2. Andreeva G.M. Sotsialnaya psixologiya. M., Aspekt press 1999 g.
3. Boymurodov N. Amaliy psixologiya. Toshkent “Yangi asr avlodi”2008y.
4. Karimova V., Akromova F. Psixologiya. T.: 2000y.
5. www.uzedu.uz - Vazirlik sayti
6. www.ziyonet.uz - Vazirlik sayti

UMUMTA'LIM MAKTAB O'QUVCHI QIZLARNI JISMONIY TARBIYA DARSLARIGA QIZIQTIRISHNI OSHIRISH YO'LLARI

Mamatqulova Zuxra Safaraliyevna

Toshkent viloyati Bekobod tuman
57-maktab jismoniy tarbiya o'qituvchisi
mamatqulova@gmail.com

ANNOTATSIYA

Ushbu maqola, avvalo, umumta'lim maktab jismoniy tarbiya darslarida o'quvchi qizlarning faolligini oshirishdagi muammolar va yechimlar haqida so'z yuritiladi. Shuningdek maqolada jismoniy tarbiya darslarida qanday qilib etnopedagogika va boshqa usul va vositalardan foydalanib o'quvchi qizlarni faolligini oshirish.

Kalit so'zlar: an'anaviy jismoniy tarbiya, etnopedagogika, milliy o'yinlar

WAYS TO INCREASE THE INTEREST OF SCHOOLGIRLS IN PHYSICAL EDUCATION CLASSES

Mamatkulova Zuhra Safaraliyevna

Teacher of physical education at school 57,
Bekobod district, Tashkent region
mamatqulova@gmail.com

Abstract. This article, first of all, talks about the problems and solutions in checking the activity of female students in physical education of general education schools.

Key words: traditional physical education, ethnopedagogy, national games

Bugungi kunda Umumta'lim maktabining an'anaviy jismoniy tarbiya tizimida sog'lom turmush tarzining mazmuni bo'lgan ayol qizlarda ularning jismoniy holati faolligini oshirish, qiziqish va bilimlarni shakllantirish va uni yaxshilash yo'llari kabi muhim vazifalar bugunning dolzarb muammosi bo'lib qolmoqda. Bu holat maktab o'quvchilarining jismoniy tarbiya faoliyatiga integral-gumanistik yondashuvning yetarli darajada rivojlanmaganligi, etnopedagogika yordamida qizlarning jismoniy madaniyatga qiziqishini shakllantirishga bir tomonlama yo'naltirilganligi hamda ularning intellektual va ma'naviy salohiyatini yetarlicha baholamaslik natijasidir. Shu

bilan birga, ayniqsa, qizlar o'rtasida jismoniy tarbiya darslariga qiziqishning pasayishi fonida ularning faolligi sezilarli darajada pasaymoqda. Qizlarning jismoniy tarbiyasining dolzarb muammosi bizga sog'lom turmush tarzining yetakchi qadriyatlari va ko'pchilik o'quvchi qizlarda ularni amalga oshirish uchun asosli ehtiyojning yo'qligi o'rtasidagi asosiy qarama-qarshiliklarni shakllantirishga imkon beradi.

O'yin juda ko'p uslubiy imkoniyatlarga ega bo'lib, uni qizlarning jismoniy madaniyatga qiziqishini shakllantirishning eng samarali vositalaridan biriga aylantiradi. Qizlarda jismoniy fazilatlarni tarbiyalash tananing rivojlanishi bilan bog'liq xususiyatlar bilan bog'liq. Birinchidan, erta yoshda jismoniy rivojlanish boshqa fazilatlar ko'rsatkichlarining o'sishiga ijobiy ta'sir ko'rsatadi, bu qizlarni tarbiyalashda kompleks yondashuv zarurligi bilan bog'liq. Ikkinchidan, tananing turli funktsiyalarini rivojlantirish jarayonida sifatlarning o'sishi ayniqsa intensiv ravishda sodir bo'ladigan tanqidiy davrlar mavjud. "Besh tosh", "Oq terakmi? Ko'k terak", "Oq suyak" "Chillak", "Tortishmachoq", "Lanka" bunday o'yinlarga misol bo'la oladi.

O'quvchilarda qiziqishni shakllantirish jarayonining umumiy tarbiyaviy jihati jismoniy tarbiya o'qituvchilaridan maxsus tayyorgarlikni talab qiladi:

- ✓ Dunyoqarash (axloqiy va ma'naviy fazilatlar);
- ✓ Madaniyatga oid (umumiy kasbiy madaniyatni rivojlantirish, an'analarga qadriyat munosabati);
- ✓ Psixologik-pedagogik (psixologik-pedagogik tayyorgarlikni takomillashtirish);
- ✓ Maxsus (an'anaviy o'yin madaniyatini bilish, jismoniy tarbiya, maktabda jismoniy madaniyatni o'qitish usullarini takomillashtirish);

An'anaviy usullar qiziqish uyg'otishga qaratilgan nazariy va amaliy harakatlar usuli sifatida shaxsning rivojlanish qonuniyatlarini bilishga asoslanadi. Ko'rgazmali vositalardan amaliyotda foydalanish xalq o'yinlari va milliy sport turlariga qizlar o'rtasida qiziqishni shakllantirish samaradorligini oshirishga xizmat qiladi hamda ushbu yo'nalishdagi ilmiy izlanishlar va ishlanmalar istiqbolini ochib beradi. quyidagicha: birinchidan, tajriba-sinov ishlari asosida uchta yo'nalish ajratiladi: birinchisi, qiziqishni shakllantirishning samarali jihati bo'lgan jismoniy madaniyatning o'yinga yo'naltirilganligining pedagogik modelini yaratish; ikkinchisi – o'zbek xalqlarining etnopedagogik o'yin an'analari asosida jismoniy madaniyatga qiziqishni shakllantirish jarayonini insonparvarlashtirish qizlarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishga qaratilgan; uchinchi yo'nalish – shaxsga yo'naltirilgan yondashuvni takomillashtirishning tashkiliy-pedagogik modeli xalq o'yinlari vositasida jismoniy madaniyatga qiziqishni shakllantirish jarayonida o'quvchilarning individual ijodiy qobiliyatlarini ochib beradi; ikkinchidan, qizlarning jismoniy madaniyatga qiziqishini

shakllantirishning tashkiliy-pedagogik modeli an'anaviy ta'limdan ijodiy rivojlanishga uchinchi, integrativ-gumanistik yondashuv sog'lom shaxsni ma'naviy barkamol tarbiyalashning samarali pedagogik shartidir.

Umumta'lim tizimida maktab sharoitida jismoniy tarbiya darslarida milliy o'yin turlaridan foydalanish bo'yicha mavjud qarashlarimiz shuni ko'rsatadiki, qizlarning jismoniy madaniyatga qiziqishini shakllantirish uchta asosiy yo'nalishda amalga oshirilmoqda.

- Birinchisi, jismoniy madaniyatning o'yin yo'nalishining pedagogik modelini yaratish;

- ikkinchisi - qizlarning jismoniy qobiliyatlarini rivojlantirishga yordam beradigan kichik Yoqutiston xalqlarining etnopedagogik o'yin an'analari asosida jismoniy madaniyatga qiziqishni shakllantirish jarayonini insonparvarlashtirish;

Xiyonat qilish Jinsiy qoniqish hissini tuymaslik. Dinda, shariatda taqiqlangan jinsiy munosabatlardan foydalanish istagi hamda qo'shxotinlik. Oilaviy kelishmovchilik bor oilalarni kuzatganimizda ulardan birining yoki har ikkisinin jinsiy qoniqish hosil qilmayotgani haqida bildirishadi. Jinsiy qoniqishni his qilmasligi natijasida er yoki xotin bu hisni qondirish uchun boshqa sherik qidira boshlaydi. Natijada xiyonat qiladi. Xiyonat natijasida bu hisni his qilgan bo'lsa yana qayta-qayta buning lazzatini totgisi keladi. Erining yoki ayolining harakatlari, munosabatlarida o'zgarishni sezadi va buning tag zamiriga yetish istagi bilan xiyonat qilayotganini isbotlaydi. Aksariyat oilalarda esa jinsiy qoniqishni his qilmagani uchun Islom dinida ta'qiqlangan, ammo ijtimoiy tarmoqlarda ochiq-oydin namoyon qilinayotgan, g'arbda urfga kirgan jinsiy munosabatlardan foydalanishga urinishadi. Kimdur buni amalga oshirsa, oz bo'lsada diniy bilimi borlari buni rad etishadi. Natijada esa erkak tomonidan jismoniy zo'ravonlik yetkazib bo'lsada bunga erishish hollari uchraydi. Yana bir hozirgi kunda urfga kirib borayotgan muammolardan biri bu-qo'shxotinlikdur. Kimdur jinsiy qoniqishni hosil qilish maqsadida, kimdur atrofdagilarga "2 ta xotini bor maqomi"ga ega bo'lish

uchun, kimdur erkagidan ajragan, vafot etgan bolalarini boqishga qiynalayotgan ayolni ta'minotiga yordam berish maqsadida bu usuldan foydalanmoqda.

Farzandsizlik. (tezda farzand ko'rishga intilish, uzoq muddatli befarzandlik, o'g'il yoki qiz farzandning yo'qligi). Har bir davlatning yoki jamiyatning rivoji undagi o'sib kelayotgan farzandlarga bog'liq, xususan, oilada ham. O'zbeklar qadimdan serfarzandligi va bolajonligi bilan boshqa millatlardan ajralib turadi. Shuning uchun ham turmush qurilganidan keyinyoq farzand kutish boshlanadi. Oilaning kattalari, yaqinlar va boshqalar tomonidan "Yangilik bormi" deb so'raladi. Natija yo'q bo'lsa siqilish, havotir olish yuzaga keladi. Davolanishlar natija bermasa oilaning kattalari, aksariyat hollarda erkaklarning bu muammoga sabab ayol kishi sifatida qaraladi. Boshqaga uylantirish istagi paydo bo'lib kelinning ishidan va o'zidan ayb topishlar namoyon bo'ladi. Kimdur sabr qilib yashab farzandli bo'lgunicha bunga chidaydi. Boshqalarida esa ajrimlar kuzatiladi. 3 yildan ortiq farzand kutayotgan oilada esa erkak kishining ko'chadagilar oldida o'zidan uyalashi, shaxslararo munosabatlardan o'zini chetga olishiga olib keladi. Ayol Kishida esa o'zidan qoniqmaslik va o'zini ayblash ustunlik qilishni boshlaydi. Bunday muammo oilada qiz farzandlar bor, ammo o'g'il farzandi yo'q bo'lsa ham kuzatiladi. Mazkur holatda ham ayb ko'pinch ayol kishiga qaratiladi.

Ajrimlar, ajrimdan keyingi holat, qizning o'zi yoki bolalari bilan qaytib kelishi). O'zbek oilalarida qiz ajrashib uyiga qaytib keladigan bo'lsa ko'pincha farzandlari bilan qaytadi. Bu holat esa tabiiyki o'z ota-onasi va boshqalarga yoqmaydi. Shu boisdan har qanday og'ir holat bo'lsa ham qizini majburlab yashatishga uriniladi. Ayol ham o'zining va bolalarining, ham boshqalarning ham unga qiladigan munosabatiga ko'tarishiga to'g'ri keladi. Qo'lida kasbi yoki hunari bo'lsa ishlab muammolarini hal qilishga urinadi. Ammo shunday bo'lsada oiladagilarga o'zi va bolalari bir yuk sifatida qaraladi. Kelin tushirilmoqchi bo'lsa sovchilikka borilgan xonadonlar qaytib kelgani uchun qizlarini berishni istashmasa muammo yanada kattalashadi. Qiz qaytib kelgani uchun oilada qanday muammo chiqmasin faqat shu qizning qaytib kelgani sabab qilinadi. O'sib kelayotgan yosh avlod esa kamsitilish, ajratilish, ayblash, xo'rlash, nafrat xis-tuyg'ulari bilan voyaga yetadi.

Oilada betob insonning mavjudligi. Og'ir, tuzalmas dard, uzoq muddatli kasallik, baxtsiz hodisa, xavfli kasallik yoki tug'ma nuqsonli insonning borligi, Mazkur holatlar bor oilada avvalo moddiy qiyinchiliklar kuzatiladi. Bemor insonning ehtiyojlarini qondirish uchun kimnidur bo'lishi, doimiy qarov oila a'zolarida ruhiy charchoqni yuzaga keltiradi. Barchada stress, bemorda esa uzoq muddatli depressiya holatlarini namoyon qiladi. Natijada ijtimoiy rollarni bajarishda munosabatlarda konfliktlar, faoliyatida samarasizlik kuzatiladi.

Er yoki xotinning o'z vazifa va burchlarini bilmasligi yoki bajarmasligi. O'zbek millatining ko'pchilik musulmonlar tashkil qilsada, ammo ularda diniy va shar'iy bilimlar yetishmaydi. Dinimizda mukammal qilib erkak va ayolning vazifa, burchlari yoritib berilgan bo'lsada bu bilimlar o'rgatilmay qolib ketadi. O'rgatilsada batafsil yoritib berilmaydi. Oilalardagi yetishmayotgan shu bilimlar erkaklarning dangasaligiga, uyda qolishiga, ayolning erkaklik roliga o'tishga olib kelmoqda. Ayrim oilalarda ayollar ham erkaklar kabi ishlaydi, topganini uy-ro'zg'orga ishlatishi, maoshini berishi kerak degan an'ana bor. Ayol ham ishlab pul topadi, ham uy-ro'zg'or, bolalariga qaraydi. Bunday muhit ayolda barchaga nisbatan nafrat xissini uyg'otadi, o'zini esa ayol bo'lib tug'ilganidan pushaymonlikni keltirib chiqaradi. Islom dinida esa ayolni ezozlash, unga uy ishlarida va farzand tarbiyasida yordam berish, doimiy hadyalar ulashish, kayfiyatini ko'tarish lozimligi keltirilgan.

Oilaviy dam olish, birga vaqt o'tkazishning tashkillanmaganligi. Turmush qurganiga qancha vaqt bo'lsa ham birga vaqt o'tkazmaydigan oilalar yetarlicha topiladi. Bunda er-xotin faqatgina ijtimoiy hayot bilan ovora bo'lib hayot kechirib yurishadi, ya'ni uy-joy qilish kerak, bolalarni ta'minlash kerak, uyni ta'mirlash, to'y qilish kerak va hokazo. O'zbeklarga xos bo'lgan xususiyat bu o'zi uchun yashamaslik. Ayniqsa ota-ona bo'lgach bu xususiyat namoyon bo'ladi. Zo'riqishlarni, xissiy charchoqni chiqarish uchun birga sayoxatlar, dam olishlar deyarli amalga oshirilmaydi.

Munosabatlarga o'zgalarning aralashuvi. (qaynona, qaynota, qaynisingil, qayni aka-uka, qizning ota-onasi, yaqinlari) O'zbek oilalarida er-xotin, farzandlar tarbiyasiga o'zgalarning aralashuvi an'anaga aylanib qolgan. Har ikki tomonning ota-onalarida "Bular hali yosh, hayotiy tajribasi yo'q", degan fikr bilan o'z farzandlariga, xattoki kelin va kuyovga ham doimiy o'z tajribalarini o'rgatib kelishadi. Yoki qanisingil, qayni akakalar ham kelinga va akasiga erkak qanday bo'lishi kerakligini uqtirish bilan band bo'lishadi. Er-xotin o'rtasida nizo chiqadigan bo'lsa unga ham aralashib, kim aybdor, kim xaq ekanligini sibotlashadi. Yoshlarni o'z hayot yo'lini o'zi qurishiga yo'l qo'yishmaydi. Kattalarning tajribasi yoshlar uchun o'rnak bo'ladi. Bundan o'rganish kerak, ammo o'zbekchilikdagi aralashuvlar nizolarni va ajrimlarni keltirib chiqaradi.

Har bir oilaning umumiy maqsadlari bo'lishi lozim. Er va xotin o'zlarining ehtiyoj va orzu-maqsadlaridan kelib chiqib umumiy maqsadlarni ham belgilab olishlari, bunda kim qanday vazifani bajarishi kerakligini aniqlashtirishlari lozim. Shunda er va xotinning gaplashadigan umumiy mavzusi bo'ladi. Bunda bir-birining maqsadlari tomon bajarayotgan vazifasidan ko'ngli to'lib boradi.

Bir-birini yaxshi bilmaslik va umumiy maqsadlarning yo'qligi. Bu holat asosan yosh oilalarda kuzatiladi. Kelin va kuyov bir-birlarining temperamentini, xarakteri, qiziqishlarini, kelajakdagi rejalarini, nimalarni

yoqtiradiyu, nimalarni yoqtirmaydi, qanday holatlar uning g'zabini qo'zg'ashini bilmaydi, o'z juftidan nimalarni kutadi kabi savollarga javobni egallashmaganidan kelishmovchilik va nizolar kelib chiqadi. Oila ajrimga kelmay yashashda davom etsa va bir-birlari o'rganishadi. Natijada nizolar bartaraf etila boshlaydi.

Oila a'zolaridan birining jinoyatchi ekanligi yoki jazoni ijro etish joyidaligi. Turli-tuman yuzaga keladigan oiladagi holatlar o'sib kelayotgan yosh avlodni yoki voyaga yetgan shaxsni ham jinoyat qilishiga sabab bo'lishi mumkin. Jinoyat sodir etilib, jazoni ijro etish joyiga yuboriladigan bo'lsa oilaning boshqa a'zolariga bu stressni yuzaga keltiradi. Jamiyatdan chetlanishi, atrofdagilarning ularga nisbatan munosabati ruhiy zo'riqlashlarni, uning natijasida salomatligida muammolarni, iqtisodiy yetishmovchiliklarni paydo qiladi. Agarda jinoyatchining farzandlari bo'lsa va uning turmush o'rtog'i bo'lmasa ularning qaromog'i kimning zimmasiga tushishi ham muammoni keltirib chiqaradi.

Er-xotinning bir-biriga mos emasligi (o'qimishli, o'qimishli emasligi, boy oila va o'rtahol yoki kambag'al oiladan bo'lishi, oilaviy qadriyatlarining farq qilishi. Ba'zan oilalarda kelin tomonning kuyov tomonga qaraganda ta'minlanganlik darajasi yuqoriligini uchratamiz. Aksariyat hollarda o'qimishli qizning o'qimagan yigitga turmushga chiqqanligini ham kuzatamiz. Mazkur ikki holatda ham fikrlarning qarama-qarshiligi munosabatlarda muammolarni yuzaga keltiradi. Kelin turli bilimlarni egallagan uchun dunyoqarashi boshqacha, kuyovniki esa bundan mustasno. Kuyov o'zining yoki oilasining ayoligidan pastroq ekanligidan ruhiy sinadi, jaxli chiqadi, o'zini undan yuqori qo'ygisi keladi. Kelinda esa bu holat sabab o'zini yuqoriligini his qilib shunga yarasha munosabat ko'rsatishiga olib keladi.

Farzand tarbiyasi bilimlarning yetishmasligi natijasida farzandlar bilan bog'liq muammolar. Kelin-kuyov turmush qurganliklaridan keyin oila, er-xotin, farzand borasida hech qanday bilimlarni o'zlashtirmay qo'yadilar. Farzandlarni qanday tarbiya qilish kerak, ularning yosh va individual xususiyatlari nimalardan iborat, yosh inqirozlarida qanday harakat va munosabat ko'rsatish kerakligi haqida bilimlari mavjud emas. Natijada esa farzand va ota-ona munosabatlarida ota-ona va farzand konflikti yuzaga keladi.

Bir uyda ko'pchilik oilalarning yashashi, alohida uyga muhtojlik. O'zbek oilalarida qadimdan bir xonadonda ko'plab oilalar yashashi odatga aylanib qolgan. Oila qurganiga 15, 20, xatto undan ko'p ham bo'lgan oilalar ham boshqa aka-ukalarining oilalari bilan birga yashab kelishgan. Ularning farzandlari voyaga yetib, kelin tushiriladigan bo'lsa ham ana shu xonadonga tushiriladi. Mazkur muammo uy-joyga muhtojlik sabab yuzaga keladi.

Ichkilik, giyohvand moddalar iste'mol qilish va zo'ravonlik. Mazkur muammo dunyo miqyosida ham global muammo sifatida haligacha dolzarbligini

yo‘qotmagan. Giyohvand moddalar va ichkilik ichish natijasida zo‘ravonlikning barcha ko‘rinishlari namoyon bo‘ladi. Ichkilik ichish va giyohvand moddalarga nisbatan ruhiy qaramlik hamda abstinent sindromning yuzaga kelishi uning xulq-atvorida agressivlik, qanday qilib bo‘lsada qaram bo‘lgan narsasini topish ehtiyojining balandligi uni mazkur holat yuzasidan o‘z yaqinlariga, atrofdagilarga nisbatan turli darajadagi tan jaroxatlari, xattoki jinoyatlarni sodir etishgacha sabab bo‘ladi.

Xulosa qilib shuni aytish mumkinki, ijtimoiy-psixologik muammolar har bir shaxs, davlat va jamiyat uchun rivoji uchun hamisha muammo hisoblanadi. Sababi mazkur muammolar atroflicha o‘rganilmas ekan. Ularning yechimlari mutaxassislar tomonidan ishlab chiqilmas ekan jamiyatda turli jinoyatlarni sodir etilishiga ham zamin yaratadi. O‘rganiladigan muammoga yechim shaxsning, oilaning, hududning individual xususiyatlari, qadriyat va e‘tiqodlarini hisobga olgan holda ishlab chiqilishi, amaliyotda sinab ko‘rilishi, natija bergan variantlari aholi orasida o‘rgatilishi, o‘qitilishi, ijtimoiy, iqtisodiy, huquqiy va tibbiy yordam ko‘rsatilishi kerak. Buning uchun esa mazkur muammoga tegishli soha egalaridan kuchli bilim, amaliy tajriba va yuksak salohiyat talab etildi. Shundagina muammolarning xavflilik darajasi pasayadi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR RO‘YXATI

1. Shoumarov G‘.B. tahriri ostida “Oila psixologiyasi”. -T.: “Sharq”. 2009
2. Karimova V. “Oila psixologiyasi”. -T.: 2007
3. Ibodullayev Z. -Toshkent.: “Iqtisod-moliya”. 2008

INVESTMENT ATTRACTIVENESS OF THE ECONOMY FACTORS AFFECTING INCREASE

Soibova Madinabonu G'anisher qizi

Student of Tashkent University of Architecture and Civil Engineering

ABSTRACT

This article analyzes the importance of investment attractiveness in the economy and the factors affecting it. In this analysis, in the process of assessing the investment environment, investment levels, investors' views and BERI index were considered in general.

Key words: Investment, investment attractiveness, "Beri" index, risk, investor.

The attractiveness of investments in the economy is one of the types of attractiveness aimed at attracting a businessman to a special place. Investment attraction of a region is related to the availability of resources, the ability to manage regions and attract investments to them, which can benefit from other regions and ensure the development of the region. This definition of attractiveness interprets it as a cyclical process because an attractive city can attract and retain specific target groups (tourists, investors and new residents) where attractiveness contributes, which in turn in turn, it affects the result. Materials and methods According to the experience of developed foreign countries, the investment environment in capital importing countries was analyzed using the "BERI" index. the risk level of investments is determined. The ICOR (incremental capital-output ratio) indicator, which is used to evaluate the efficiency of investments mobilized into the economy, helps to determine the efficiency of investments directed to the real sector in the country. Foreign investors widely use rating information to save time. The high or low rating of the country is of course of great importance. But the entry into this rating itself gives investors confidence in this country to one degree or another. "It is necessary to develop the concept of "Economic development in the regions" aimed at increasing the effectiveness of regional programs of attracting foreign investments to the national economy, its constant monitoring, and increasing investment attractiveness." The ICOR (incremental capital-output ratio) indicator, which is used to evaluate the efficiency of investments mobilized into the economy, helps to determine the efficiency of investments directed to the real sector in the country. Foreign investors widely use rating information to save time. The high or low rating of the country is of course of great importance. But the entry into this rating itself gives investors

confidence in this country to one degree or another. "It is necessary to develop the concept of "Economic development in the regions" aimed at increasing the effectiveness of regional programs of attracting foreign investments to the national economy, its constant monitoring, and increasing investment attractiveness." The ICOR (incremental capital-output ratio) indicator, which is used to evaluate the efficiency of investments mobilized into the economy, helps to determine the efficiency of investments directed to the real sector in the country. Foreign investors widely use rating information to save time. The high or low rating of the country is of course of great importance. But the entry into this rating itself gives investors confidence in this country to one degree or another. "It is necessary to develop the concept of "Economic development in the regions" aimed at increasing the effectiveness of regional programs of attracting foreign investments to the national economy, its constant monitoring, and increasing investment attractiveness." Foreign investors widely use rating information to save time. The high or low rating of the country is of course of great importance. But the entry into this rating itself gives investors confidence in this country to one degree or another. "It is necessary to develop the concept of "Economic development in the regions" aimed at increasing the effectiveness of regional programs of attracting foreign investments to the national economy, its constant monitoring, and increasing investment attractiveness." Foreign investors widely use rating information to save time. The high or low rating of the country is of course of great importance. But the entry into this rating itself gives investors confidence in this country to one degree or another. "It is necessary to develop the concept of "Economic development in the regions" aimed at increasing the effectiveness of regional programs of attracting foreign investments to the national economy, its constant monitoring, and increasing investment attractiveness."

"In order to further improve the formation of a favorable investment environment in the Republic of Uzbekistan and further increase the investment attractiveness of the country's economy, wide use of market mechanisms of financing investment projects, that is, investments through the stock market, venture financing, leasing, syndicated loans." The "BERI" index is based on 15 evaluation criteria, the number of countries of which is different. Each criterion is rated from 0 (does not apply) to 4 (extremely suitable). A higher score indicates a "stable country". The lower the country's score, the higher the intended return on investment must be, otherwise the investment will be ineffective.

Results

As a result of research, we show the following groups according to the characteristics of the regions:

–the growth potential of the economy, highly skilled workforce, external influences and economic downturns;

–reliable urban and intercity (national and international) transportation links, as well as transportation systems that support economic expansion;

–prioritizing urban investment and pursuing more coherent policies to support investment;

–focusing on delivery that meets the investment planning system is divided into a group of areas with investment expertise.

In Uzbekistan, consistent measures are being developed to create a favorable investment environment for construction and financing of investment projects. We can see the main indicators of the use of innovative opportunities based on investments in the example of a scientific research object. In particular, the territory itself consists of administrative regions and districts. For example, the object of our article is the Bukhara region, which, in turn, is divided into administrative districts. In this regard, we offer separate indicators characterizing investment attractiveness for district statistical units, taking into account the various characteristics of districts. Indicators of investment attractiveness of regional districts:

–number of employees in district enterprises and organizations;

–wage fund of employees of district organizations;

–basic fund value and residual value of district branches;

–the number of district enterprises and organizations;

–investments in the fixed capital of the district;

–the balanced financial result of the activities of district enterprises and organizations;

–economically active population of the district;

–wage fund by district;

–the ratio of the sum of the main fund (main and residual amounts) to the number of enterprises and organizations;

–the ratio of the number of employees to the number of enterprises and organizations;

–the ratio of investments in fixed capital to the population;

–the ratio of changes in the volume of production and the wage bill;

–the ratio of investment in fixed capital to the sum of fixed assets;

–the ratio of the amount of investment in the fixed capital to the number of organizations and enterprises;

–the level of economic activity of the district population;

- rate of profitability (the ratio of profit to the number of employees);
- employment rate in the district;
- fund return of district economy;
- profitability of the main fund;
- the level of validity of the main fund
- production volume per organization;
- amount of profit (loss) to one organization;
- the share of profit (loss) in the volume of product production;
- real fund return of district economy (ratio of profit to residual value);
- real profitability of district funds;

Analysis

The main goal of investment activities in the economy is to create optimal conditions for the development and acceleration of the use of innovative opportunities based on investments. When making investments in various sectors of the economy, it is necessary to take into account the nature and forms of organizational and economic mechanisms. The effectiveness of investment activity is ensured in the investment complex system, which includes leasing, insurance, research institutes, banks and other organizations. In state support for the development and promotion of investment activity, attention should be paid to the following:

- activation of leasing activities, which, in turn, alleviates the lack of financial resources, makes it possible to make lease payments on the basis of a fixed schedule and according to simplified contracts and schemes, brings together the mutual interests of the state and leasing companies, and ultimately in the network creates optimal economic and legal conditions to reduce risk and increase economic efficiency;

- providing budget loans, investment tax credits, subsidizing interest rates on loans;

- introduction of preferential tax payments;

- formation of state programs for the development of various sectors of the economy. In Uzbekistan, the system of receiving capital for production is improving year by year. Currently, based on the rules of modern international economic relations, the law and, in particular, foreign investors' incomes made through legal activities in foreign currency, in unlimited amounts, are guaranteed by the state. As can be seen from the above world experience, there are a lot of measures being taken on investment projects in our country. They are based on two main factors:

- economic stability;

- macroeconomic policy aimed at regulating inflationary processes and increasing the solvency of the national currency, the soum. In the process of assessing the

investment environment, it is necessary to pay attention to the risk level of investing. The worse the level of the investment climate, the higher the investor determines his business risk.

Summary

Fully agreeing with the opinion that it is necessary to use the system of economic and social indicators for the investment attractiveness of the region, the system of statistical indicators can fully characterize the socio-economic development of the studied and analyzed region and reveal its internal features, and We believe that it should evaluate foreign relations and, most importantly, express the increase in the standard of living and quality of life of the population based on its innovative and strategic development.

REFERENCES

1. Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated February 7, 2017 No. PF-4947 "On the Strategy of Actions for the Further Development of the Republic of Uzbekistan"
2. PF-3594 No. PF-3594 of the President of the Republic of Uzbekistan dated April 11, 2005 "On additional measures to encourage direct private foreign investment" Decree
3. Tendency of developing digital economy in Uzbekistan - AUSherov, MYErgashev. AUQurbonov
4. Econometric analysis of the investment attractiveness of our republic - Ergashuv Mirjon Yorkin oglu
5. System of statistical indicators representing the investment attractiveness of the region - Ergashuv Mirjon Yorkin oglu

DUAL TÁLIM

Maulenova Sahibjamal

Muhammed al-Xorezmiy atındađı TITU Nókis filialı
Telekommunikaciya texnologiyaları hám Kásiplik tálim fakulteti
IKT tarawındađı kásiplik tálim bađdarı 2-kurs studentı

Jalgasova Shahsanem

Muhammed al-Xorezmiy atındađı TITU Nókis filialı
Telekommunikaciya texnologiyaları hám Kásiplik tálim fakulteti
IKT tarawındađı kásiplik tálim bađdarı 2-kurs studentı

ANNOTACIYA

Ózbekstan Respublikası joqarı tálim sistemasın 2030 -jılğa shekem rawajlandırıw konsepsiyasın tastıyıqlaw tuwrısında Ózbekstan Respblikasi Prezidentiniń 08. 10. 2019-jıl PF5847-sanlı pármanında : “Ózbekstan Respublikasında joqarı tálimdi sistemalı reformalawdıń ústin turatuđın bađdarların belgilew, zamanagóy bilim hám joqarı ruwxıy -etikalıq pazıyletlerge iye, gárezsiz pikir júritetuđın joqarı maman kadrlar tayarlaw procesin sapa tárepinen jańa basqıshqa kóteriw, joqarı tálimdi modernizaciyalaw, aldınğı tálim texnologiyalarına tiykarlangan halda social tarawdıń hám ekonomika tarmaqların rawajlandırıw" dıń ústin turatuđın wazıypaları belgilengen. Bul maqalada, dual tálimdi ámeliyatda qóllaw haqqında oy-pikirler júritiledi.

Gilt sózler: *dual tálim, ámeliyat, qóllaw, sistema, modernizaciya, dualizm.*

ANNOTATSIYA

V Ukaze Prezidenta Respubliki Uzbekistan at 08. 10. 2019 g. PF-5847 ob utverjdenii Kontseptsii razvitiya sistemi visshego obrazovaniya Respubliki Uzbekistan do 2030 goda: modernizirovat' visshee obrazovanie, modernizirovat' visshee obrazovanie, sotsial'nuyu sferu i ekonomika na osnove peredovix obrazovatel'nix texnologiy V dannoy stat'e rassmatrivaetsya primeneniye dual'nogo obrazovaniya na praktike.

Klyuchevie slova: *dual'noe obrazovanie, praktika, primeneniye, sistema, modernizaciya, dualizm.*

ABSTRACT

Ín the Decree of the President of the Republic of Uzbekistan dated 08. 10. 2019 PF-5847 az waqit the approval of the Concept for the development of the higher education system of the Republic of Uzbekistan until 2030 : modernize higher education, modernize higher education, the social sphere and the economy based az waqit advanced educational technologies. This article discusses the use of dual education in practice.

Key words: *dual education, practice, application, system, modernization, dualism.*

Bul wazıypalardı ámelge asırıwdıń tiykarǵı shárti retinde ilim-pándi ekonomikanıń tiykarǵı drayverine aylandırıw hám bazar talapları tiykarında básekige shıdamlı qániygeler tayarlaw sol kúnniń aktual wazıypalarınan esaplanadi. Mámleketimiz basshısınıń tálim sistemasın mámleket, menshikli, sheriklik tiykarında rawajlandırıw ideyası tiykarında áne sol maqset jatıptı. Tálimdegi sheriklik principi mámleketimiz joqarı tálim sistemasında birinshilerden bolıp Tashkent toqımashılıq hám jeńil sanaat institutı tárepinen ámeliyatda qollandı. Buǵan baylanıslı jaqın sherik retinde " Qániygelerdi maqsetli tayarlaw, oqıw -ilimiy hám marketiń tarawları boyınsha óz-ara sheriklik" tuwrısındaǵı shártnamalar qalıplestirilip, sol tiykarında teoriya iyelengani bilimlerdi ámeliyatqa engiziwde xızmet etedi. Nátiyjede táreplerdiń sheriklik tiykarındaǵı sherikligine bekkem jay jaratıladı.

Dualizm haqqında toqtalatuǵın bolsaq, dualizm (lot. dualis — eki jaqlama) — bir-biri menen birlestirib bolmaytuǵın jaǵdaylar, principler, pikirlew tárizi, dúnyaǵa kózqaras, umtılıw hám gnoseologik principler qasında bar ekenligin "targ‘ib" etiwshi táliymat. Dualizm plyuralizm kórinislerinen biri. Dualizm terminin nemis filosofi X.Volf (1679— 1754) kirgizgen. Dualizm tómendegi jup túsiniqlerdi ańlatadı : ideyalar dúnyası hám waqıyalıw dúnya. Dualizm filosofıyalıq, diniy, antropologıyalıq, etikalıq sırtqı kórinislerde kórinetuǵın bolıwı múmkin. Áyyemgi dáwirde diniy-etikalıq dualizm Avestoda ushraydı. Dualizm filosofiyada eki gárezsiz zat — ruxlanıw hám materiya ámeldegi dep biliwinde kórinedi. Bul ásirese R. Dekart hám I. Kant qarawlarında kózge ayqın taslanıp turadı.

Ózbekstan Respublikası " Tálim tuwrısında" gi Nızamına muwapıq, sonıń menen birge jaslardıń kásipler hám qanıgeliklerdi iyelewge bolǵan qızıǵıwshılıqların qollap-quwatlaw ushın keń múmkinshilikler jaratıw maqsetinde 2021/2022 oqıw jılınan professional tálim sistemasında dual tálim shólkemlestiriledi. Tálim tuwrısındaǵı Nızamnıń 17-statyasında dual tálim tuwrısında pikir júrgizilip, " Dual tálim tálim alıwshılar tárepinen zárúr bilim, ilmiy tájriybe hám kónlikpelerdi alıwǵa qaratilǵan bolıp, olardıń teoriyalıq bólegi tálim shólkemi negizinde, ámeliy bólegi bolsa tálim

alishiniń jumis jayında ámelge asırıladı. Dual tálimdi shólkemlestiriw tártibi Ózbekstan Respublikası ministrler Mákemesi tárepinen belgilenedi" dep aytıp ótken. Ózbekstan Respublikası ministrler Mákemesiniń 2021-jıl 29-martdağı " Professional tálim sistemasında dual tálimdi shólkemlestiriw ilajları haqqında" gi 163-san Sheshiminiń qabil etiliwi Respublikamızda dual tálimdi shólkemlestiriw boyınsha ámeliy jumislar baslanǵanlıǵınan dárek beredi.

Dual tálim - bul qánigelerdi oqıwshılardıń tálim infratuzilmasini hám oqıw processinde jumis beretuǵınǵa tartqan halda, óz-ara tálim sheńberindegi qánigeler tayarlaw ushın tiykar bolıp tabıladı. Kásiplik munasábetler tájiriyesi retinde óz-ara tálimdi túsiniw, islew boyınsha islep shıǵarıw kónlikpelerin ótkeriw, tema boyınsha óz-ara munasábetlerdiń ulıwma principi menen tıǵız baylanıslı esaplanadı. Dual tálim processinde oqıwshı alǵan teoriyalıq bilimlerin bir waqtınıń ózinde kárxana yamasa shólkemde ámelde qollap, qánigelik boyınsha kónlikpe hám ilmiy tájriyelerin bekkemleydi. Bunda studentlerde haqıyqıy, málim bir islep shıǵarıw procesin túsiniwge qaratılǵan teoriyalıq bilim hám túsiniqlerdi tarqalıw qábiletin rawajlantıradı. Ílim processinde ámeliy iskerlikti anıqlawdıń Principi bilimlerdiń tiykarǵı maqsetine tiykarlanadı. Dual tálim procesi bilim alıw kúshi bolǵan ámeliy iskerlik menen bilimleriniń qalıslıǵın aqlaydı, haqıyqatın tekseriw quralı esaplanadı. Bul teoriya menen ámeliyat ortasındaǵı dialektik munasábetlerde óz hákisin tabadı.

Tálim shólkemi hám kárxananiń bul sherikligi menen joqarı sapalı hám muǵdarlıq tárep degi joqarı tálim sistemasına social buyırtpa anıqlawtırıladı. Múmkinshiliktiń stilistik principi tiykarında kásip-óner tálimi sistemasın úyrengen ilimpazlardıń pikirine kóre, óz-ara tálimdiń tiykarǵı formaları Social seriklik institutı esaplanadı. Hár bir seriktiń mápleri hám minnetlemelerin anıq parıqlaw menen jumis beretuǵınǵa beriledi. Óz-ara oqıw shınıǵıwları, tekǵana qánigeler tayarlaw nátiyjelerine, bálki oqıw procesi jáne onı shólkemlestiriw mazmunına da qızıǵatuǵın arnawlı bir kárxanalar oqıw procesine tartılǵanlıǵın támiyinleydi. Bul dual tálimdiń áhmiyeti menen belgilenedi, bul bolsa qánigeni tayarlawda boslıqtı hám bilimlendiriw tarawların toltırıwǵa múmkinshilik beredi. Teoriyalıq hám stilistik, psixologiyalıq hám filosofiyalıq tiykardı esapqa alǵan halda, óz-ara oqıtıw sharayatında qánigelerdiń kásiplik tayınlıǵı kórip shıǵıladı.

Ol jaǵdayda tórt tiykarǵı komponentke itibardı qaratıw maqsetke muwapıq bolıp tabıladı:

1. Motivatsion (tabısqa erisiw; oqıwdı úyreniwdiń motivatsiyası ; kásipti qandırıw dárejesi, ilimiy jumisqa ratsionalizatorlik usınısları arqalı qızıqtırıw
2. Shólkemlestirilgen hám basqarıw komponenti (etakchilik potencialınıń kórinetuǵın bolıwı ; kommunikativ pazıyletler; shólkemlestirilgen ayırıqshalıqlar

3. Kognitiv (professional iskerlikte bilimlardi ózlestiriwi; bilim alıwda gárezsizlik beriw).

4. Ilimiy komponent (ilimiy maqsetlerde qatnasıw dárejesi; kárxana máselelerin sheshiw boyınsha ámeliy innovciyalıq joybarları baǵdarı).

Dual tálim málim bir kárxana mútajliklerine muwapıq málim bir dárejedegi qánigelerdi tayarlawda oqıw hám islep shıǵarıw tarawlarınıń kelisim óz-ara tásin óz ishine alǵan kásiplik tayarlıqtı shólkemlestiriwdiń innovciyalıq forması túsiniledi. Bunda oqıw shólkemi hám islep shıǵarıw kárxanaları maqsetleriniń ulıwmalığı social strukturalıq ayırıqshalıqlarǵa iye bolǵan arawlı bir ilmiy tájriybelerdin kepillikli qánigelerin tayarlaw procesi integraciyası esaplanadı. Bul integraciya tiykarları óz-ara tayarlıq sharayatında ámelge asırılıp atırǵan maqsetler, qádiriyatlar mazmunı, ilajlar jámiyetshiligin sáwlelendiredi.

PAYDALANILǴAN ÁDEBIYATLAR

1. Jonmatova O. Yusuf Hos Hojib. "Tálim - tarbiya haqıda". T.: " Oqıtıwshı", 1980.
2. Niyozev G, Axmedova. M Pedagogika tariyxınan seminar. " Noshir", Tashkent, 2011.
3. Mutalipova M. J. Xalıq pedagogikası.- T.: " Pán hám texnologiya", 2015.
4. Mullaboyeva N. Kásiplik pedagogika. Namangan, 2019.

O‘SMIRLIK DAVRIDA PSIXOLOGIK XUSUSIYATLARNING TARKIB TOPISHI

Yorboboyeva Iroda Baxriddinovna

Termiz Davlat Pedagogika instituti
Pedagogika va psixologiya mutaxassisligi
2-bosqich magistranti

ANNOTATSIYA

Ushbu maqolada o‘smir yoshdagi o‘quvchilarda kuzatiladigan psixologik xususiyatlar, ahamiyati va uning tarkibi yoritilib o‘tilgan.

Kalit so‘zlar: o‘smir, yoshlar, oila, ta’lim, avlodlar, hayot, psixologiya, imkoniyat.

O‘smirlar bilan ishlash eng dolzarb muammolardan biri bo‘lib kelgan. Bu muammoning yuzaga kelish sabablarini chuqur tahlil qilar ekanmiz, eng avvalo, tug‘ilgan bolaning uni dunyoga keltirgan shaxslarning kimligi, ikkinchi u qanday ijtimoiy muhitda tug‘ilib voyaga yetib ulg‘ayotganligiga e’tibor qaratishimiz kerak. O‘smir o‘zini asta-sekin katta shaxs deb his qila boshlaydi, lekin ko‘p odat va xususiyatlari bolalarcha bo‘lib qoladi. O‘smirlik davri insonni ulg‘ayishi bilan bog‘liq bo‘lib, bolalikdan kattalikka o‘tish davri bo‘lib hisoblanadi. Boshqa yosh davrlariga nisbatan o‘zining keskin kechishi, jadalligi va murakkabligi bilan ajralib turadi. O‘smirlikda “O‘tish davri” taxminan 5-8-sinflarga, 11-12 yoshdan 14-15 yoshgacha oralig‘iga to‘g‘ri keladi. O‘smirlik davrining boshlanishi qiz bolalarda o‘g‘il bolalarga nisbatan 1-2 yil avvalroq boshlanadi. Bu davrda rivojlanishning barcha jihatlari: jismoniy, aqliy, axloqiy, ijtimoiy va shu kabilarning mazmun mohiyati ham o‘zgaradi. O‘smirning hayotida, ruhiyatida, tanasida fiziologik hamda ijtimoiy holatida o‘zgarishlar sodir bo‘ladi. U endi “bola” emas, lekin hali “katta” ham emas. Uning o‘z-o‘ziga va atrofdagilarga nisbatan bo‘lgan munosabatlari butunlay boshqacha xarakter kashf etadi. Uning qiziqishlari tizimi, ijtimoiy yo‘nalishi qayta shakllanadi. O‘z-o‘zini baholashi, qadryatlar tizimi o‘zgaradi. Uning uchun o‘z “men”i va shu “men”ning ahamiyati ortadi. Bu davrda o‘smir rivojidagi keskin o‘zgarishlar asosida fiziologik hamda psixologik o‘zgarishlar yotadi. Fiziologik o‘zgarishlar jinsiy etilishning boshlanishi, ikkilamchi jinsiy belgilarning paydo bo‘lishi bilan harakterlanadi. Organizmdagi o‘zgarishlar bevosita o‘smir endokrin sistemasining o‘zgarishlari bilan bog‘liqdir. Bu davrda ichki sekretiya bezlaridan biri gipofiz bezining funksiyasi faollashadi. Uning faoliyati organizm to‘qimalarining o‘sishi va muhim ichki

sekretiya bezlarining, ya'ni qalqonsimon bez, buyrak usti, oshqozon osti, jinsiy bezlar ishini kuchaytiradi. Natijada bola bo'yining o'sishi tezlashadi, jinsiy balog'atga etish jarayoni amalga osha boradi. Psixologik o'zgarishlar o'smirlik davrida kattalarga nisbatan agressiv munosabatning paydo bo'lishi, kattalarga nisbatan negativizm singari noxush xulqatvor alomatlari paydo bo'lishi mumkin. Bu xususiyat o'z-o'zidan kelib chiqadigan bevosita jinsiy etilish tufayligina emas, balki o'smir yashaydigan ijtimoiy shartsharoitlar, uning tengdoshlari bilan, kattalar bilan munosabati, maktab va oilasidagi egallab turgan o'rni bilan bog'liq bo'ladi. O'smirlik egosentrizmning shakllanishi-butun olam va uning qonuniyatlari unga bo'ysunishi kerakday fikrning paydo bo'lishiga olib keladi. Shuning uchun ham aynan o'smirlik paytida bolalar o'z ota-onalari bilan hadeb tortishaveradilar. Aniq bir to'xtamga kelolmasa ham tortishish biror fikrni izhor qilish ehtiyojining o'zi unga yoqadi. O'smirlik yuqorida ta'kidlanganidek qarama-qarshiliklarga boy davrdir. Bu davr "krizis" (inqiroz) davri deb ataydilar. To'g'ri tashkil etilmagan hayot sharoiti, ya'ni ota-ona va pedagoglarning o'smir rivojlanish qonuniyatlarini bilmasligi o'smir shaxsi shakllanishida krizisni keltirib chiqaradi. O'smirlik davrida bola kattalik va kichiklik orasida qoladi va kattalar tomonidan uni katta inson sifatida tan olinishini kutadi. Oila bolani o'rab turgan ijtimoiy muhitning eng muhim bo'g'inidir. Oilaning bola shaxsi shakllanishiga ko'rsatadigan ta'siri benihoyat kattadir. Aynan oilada shaxs birinchi hayotiy tarbiyani va tajribani oladi, dastlabki kuzatuvlarni o'tkazadi va turli vaziyatlarda o'zini tutishni o'rganadi. Ota-onalarning bolaga o'rgatadigan tarbiyasi aniq misollar bilan tasdiqlanishi juda muhim, shunda u kattalarda nazariya amaliyotdan farq qilmasligini ko'radi; aks holda ota-onasining salbiy misollariga taqlid qilishni boshlaydi. Ota-ona va o'qituvchilar uni katta inson sifatida tan olishlari, ayrim masalalarni u bilan maslahatlashishlari o'smirda kuzatilayotgan inqirozni hech qanday psixik zo'riqishlarsiz o'tishiga sabab bo'ladi. Buning uchun har bir ota-ona va pedagog o'smirlik davri va bu davrda o'smirda qanday munosabatda bo'lishni bilishlari juda zarur. Shunga qaramay, o'smirlik davridagi «tanglik»ni tushuntirishdagi nazariy fikrlar taraqqiyoti shunday umumlashmani yuzaga keltiradiki, unga ko'ra, o'smirlik davrining namoyon bo'lishi va o'tishi hayotdagi ijtimoiy shart-sharoitlar, o'smirning rivojlanishi, uning kattalar olamidagi mavqeyiga bog'liq.

O'smirlar va kattalarning o'zaro munosabatlari o'zgaradi. O'smir avval bajonidil bajaradigan talablarga endi qarshilik ko'rsata boshlaydi. Uning mustaqilligini cheklashganda, vasiylik qilishganda, yo'naltirishganda, nazorat qilishganda, quloq solishni talab qilishganda, jazolashganda, uning qiziqishlari, munosabatlari va fikrlari bilan hisoblashishmaganda u xafa bo'ladi va norozilik bildiradi. O'smirda o'z qadrini bilish hissi paydo bo'ladi va u o'zini kamsitish, mustaqillik huquqidan mahrum qilish mumkin bo'lmagan inson deb biladi. Bolalikdagi kattalar bilan munosabat turi

o'zgaradi, uning o'z kattaligi darajasi haqidagi tasavvurlari bilan mos kelmay qoladi. U kattalar huquqini cheklaydi, o'zinikini esa kengaytiradi. Ishonch va mustaqillik namoyon etishga da'vo qiladi, ya'ni kattalar bilan ma'lum teng huquqlilikka va ularning shu narsani tan olishiga erishishga harakat qiladi. Tengdosh bolalarning asosiy tenglik holati mazkur munosabatlar muhitiga nisbatan o'smirda alohida qiziqish uyg'otadi, bu hol o'smirda yuzaga keladigan shaxsiy kattalik hissining etik mazmuniga mos keladi. O'smirda kattalarga nisbatan tengdoshlariga ko'proq tushunarliroq va yaqinroq bo'lgan qadriyatlar shakllanadi. Kattalar bilan muloqot tengdoshlar bilan muloqotning o'rnini bosa olmaydi. O'smir uchun tengdoshlar bilan muloqot u mustaqil harakat qilgan o'zining shaxsiy munosabatlari muhitiga ajraladi. U bunga haqqim bor deb o'ylaydi, o'z huquqlarini himoya qiladi, va aynan, shuning uchun ham kattalarning o'rinsiz, qo'pol aralashuvi xafagarchilik va norozilikka olib keladi. O'smirda bir tomondan tengdoshlar bilan muloqot qilish va hamkorlikdagi faoliyatga intilish yaqqol namoyon bo'ladi. Jamoa hayoti bilan yashash, yaqin o'rtoqlar, do'stga ega bo'lish xohishi do'stlar tomonidan qabul qilingan, tan olingan, hurmat qilingan bo'lishdek kuchli xohishdir. Bu muhim talabga aylanib boradi. O'smir uchun eng yoqimsiz vaziyat-jamoa va o'rtoqlarining noroziligi, muloqot qilishni xohlamaslik, eng og'ir jazo esa-ochiq yoki nooshkor aloqa uzish, gaplashmaslikdir. O'smirlar do'stlik munosabatlarining muhim me'yorlari-sha'nini hurmat qilish, tenglik, sodiqlik, do'stga yordam, to'g'ri so'zlikdir. O'smirning o'quv faoliyatida o'rta maktabga o'tish kuzatiladi. Bu bilan o'smirlarning o'qishi sezilarli darajada murakkablashadi: bitta o'qituvchi o'rniga besh-oltita yangisi paydo bo'ladi, ularning tushuntirish va so'rash usuli ham, o'quvchilarga talab va munosabati ham har xil. Buning ustiga o'qituvchilar ularni avvaliga yaxshi bilmaydilar, natijada "sevimli" va "sevimli bo'lmagan" o'qituvchilar paydo bo'ladi. O'smirlar bilimdon va talabchan, lekin materialni qiziqarli va aniq tushuntirib beradigan, darsni bir me'yorda tashkil eta oladigan, unga jalb qila oladigan, darsni har bir o'quvchi uchun maksimal darajada unumli o'ta oladigan adolatli, oqko'ngil va madaniyatli o'qituvchilarni yoqtiradilar. O'rta sinflarda o'quvchilar fanlar asosini o'rganish va o'zlashtirishga kirishadilar. Bolalar katta hajmdagi bilimlarni egallashi kerak bo'ladi. O'smirlik yoshining oxiriga kelib esa, ular o'zlarining bo'lg'usi kasbi va, umuman, kelajaklari haqida o'ylay boshlaydilar. Har bir ota-ona va pedagogik jamoa o'smir rivojlanish qonuniyatlarini bilishi, o'smirga nisbatan to'g'ri munosabatni yo'lga qo'yishi, farzandi xulq atvorini iloji boricha tushunishi, unga mustaqil inson sifatida munosabatda bo'lishi, undagi holat yetakchi faoliyat ekanini tushungan holda uning yaqin do'stlari davrasidan xabardor bo'lib, uning uchun hurmatli va ishongan do'stlari davrasida ko'proq bo'lishiga imkon berishi, qo'llab-quvvatlab turishi kerak. Yosh oilalar jamiyat ijtimoiy-siyosiy, iqtisodiy, madaniy-ma'naviy yangilanishi va yuksalishini muhim sub'ektlaridan bo'lib, ijtimoiy

hayotda ro‘y berayotgan murakkab jarayonlarga o‘z ta‘sirini o‘tkazishda va taraqqiyotni harakatga keltirishida muhim ro‘l o‘ynaydi.

Foydalanilgan adabiyotlar ro‘yxati:

1. G‘oziyev E. Psixologiya. Yosh davrlar psixologiyasi. – T.: “O‘qituvchi”, 1994. – 223-b.
2. Abdullayeva M. O‘smirlarni oilaviy hayotga ma’naviy tayyorlashning ijtimoiy pedagogik shart-sharoitlari. T.: 2004. –132-b.
3. Xidirova F.F. Oilada qizlarni mustaqil oilaviy hayotga tayyorlashning pedagogik shart-sharoitlari. Ped. fan. nom. diss. – T., 2007. –131-b.
4. Yorboboyeva.I.B. O‘smir yoshdagi o‘quvchilarni oilaviy hayotga tayyorlashning psixologik imkoniyatlari. Муғаллим ҳәм ўзликсиз билимлендириў" ilmiy-uslubiy jurnalining 2022-yil 6\7 sonida ISSN-2181-7138.
5. Yorboboyeva.I.B. Psychological Problems of Preparing Teenagers for Family Life During Education. Eurasian Journal of Learning and Academic Teaching ilmiy jurnalining Volume 15| December 2022 ISSN: 2795-739X.

КОТ ҚАЛЪАСИ – АФРИҒИЙЛАР СУЛОЛАСИ ПОЙТАХТИ

Турганов Б.Қ., Уразбаев А. П.

Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти Тарих ўқитиш методикаси кафедраси доценти, тарих фанлари номзоди

Ажиниёз номидаги Нукус давлат педагогика институти «Ижтимоий–гуманитар фанларни ўқитиш методикаси (тарих)» мутахассислиги магистранти

Аннотация. Мақолада ёзма манбалар ва археологик материаллар асносида илк ўрта асрларга оид Жанубий Орол бўйидаги Кот қалъаси тарихи ўрганилди. Кот қаласи IV–X асрларда Хоразм давлатида узоқ муддат ҳукмронлик қилган Африғийлар сулоласининг пойтахти ва марказий шаҳри бўлган. Кот шаҳрининг энг гуллаб яшнаган даври IX - X асрларга тўғри келади. Бу даврда шаҳар Буюк ипак йўли чорраҳасида жойлашган савдо-иқтисодий марказ сифатида муҳим стратегик аҳамиятга эга бўлди. Шунингдек, бу даврда Кот шаҳрида илм-фан ва маданий соҳалар ҳам ривож топади.

Афсуски, X аср охиридаги сиёсий воқеаликлар ва табиий факторларга боғлиқ Кот шаҳари ўзининг аввалги мавқеини йўқота бошлайди.

Калит сўзлар: Африғийлар сулоласи, Кот қалъаси, Жанубий Орол бўйи, Хоразм давлати, илк ўрта асрлар, ёзма манбалар, археологик материаллар, пойтахт шаҳар, маданий марказ, Буюк ипак йўли чорраҳаси, савдо-сотик, маданий марказ.

Марказий Осиё худудида илк давлатчиликнинг шаклланишида Жанубий Орол бўйидаги қадимий пойтахт шаҳарлар алоҳида ўрин тутган. Ўзбек давлатчилигининг тамал тошини қўйган Хоразм давлатининг 2700 йиллик тарихга тенг эканлиги кўплаб тарихий адабиётларда ўз ифодасини топган. Жанубий Орол бўйидаги қадимий Хоразм давлатининг Даржаш (Ақшахон қалъа), Тупроқ қалъа, Кот (Фил қалъа, Қият), Гургандж (Кўҳна–Урганч), Вазир – Дэвкескан, Хива каби марказий ва пойтахт қалъалари тўғрисида кўплаб афсона ва ривоятлар сақланган.

Айниқса, ўзбек давлатчилик тарихида 700 йиллик тарихга эга Африғийлар сулоласи ва унинг IV–X асрлардаги пойтахти Кот қалъаси тарихини ўрганиш давлатчилик тарихимиздаги долзарб масалалардан бири ҳисобланади. Кот

қалъаси Қорақалпоғистон Республикаси Беруний шаҳрининг жануби–ғарб томонида жойлашган. Кот сўзининг луғавий маъноси қадимги хоразм тилида «қишлоқ» деган маънони англатган. Баъзан «Кос» хоразм тилида даштликдаги узун девор маъносини билдиради. Ҳар иккаласи ҳам аҳоли яшовчи худуд кент маъносига тўғри келади. Сўнгги ўрта асрлардаги маҳаллий ва рус манбаларида шаҳар Қият номи билан аталган.

Кот қалъасида 1937 йили А.Н.Тереножкин томонидан дастлабки разведкалик археологик тадқиқот ишлари олиб борилган. 1963–йили археолог Ю.П.Маньлов томонидан археологик қазув ишлари давом эттирилган [8,49–53]. Қалъада олиб борилган археологиялик тадқиқотларда мил.авв. IV–II асрлар, мелодий II–IV ва VII–VIII асрларга оид артефактлар аниқланган.

Афсуски, Амударё сувининг бир неча бор тошқинлари ва қалъани сув босганлик туфайли Кот қалъасининг ўрта асрлардаги қиёфасини археологик жиҳатдан ўрганиш биров мушкул ҳисобланади.

Ёзма манбалардаги маълумотлар илк ўрта асрларда Кот – Хоразмнинг пойтахт шаҳар сифатида Шарқдаги йирик иқтисодий ва маданий марказлардан бири бўлганлигини кўрсатади.

Араб–форс муаллифлари асарларида шаҳар «ал–Фир – Фил (ат–Табарий), Кот ёки Кос (Истаҳрий, Ибн Хавкал, Мақдисий), Фил ёки Фир (Беруний)» каби номлар билан аталади.

Абу Райхон Берунийнинг «Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар» номли асарида Фирқалъа ва уни қурдирган Хоразм шоҳи ҳақида маълумотлар мавжуд: «Африғ Искандар тарихининг олти юз ўн олтинчи (мелодий 305 йили) йилида ал–Фир устига ўз қасрини қурдирди. Кейин хоразмликлар Африғ ва унинг авлоди подшоҳлигидан тарих олдилар» [1,71]. Унинг Кот шаҳари қурилиши тўғрисидаги маълумоти қизиқарлидир: «Ал–Фир Хоразм шаҳри яқинидаги қалъа эди, у лойдан ва хом ғиштдан қурилган бўлиб, бири ичига иккинчиси қурилган ва бирдан иккинчиси баланд учта девори бор эди ва уларнинг ҳаммасидан подшолар кўшкни баланд эди. Ал–Фир ўн миль ва ундан олисдан ҳам кўриниб турарди»[1,48].

Ҳозирда Фил қалъасининг сақланиб қолган қисми Беруний туманидаги Шоббоз қишлоғидан 2–2,5 км шимолроқда жойлашган. Фил қалъа квадрат шаклда қурилган қалъа бўлиб, ҳажми тахминан 220x220 метрдир[6,117]. Қалъани бир неча марта сув босган. Унинг деворлари жуда емирилиб нураб кетган. Қалъаниннг жануби–шарқий бурчагида квадрат шаклда ҳажми 54x54 метрга тенг кўшк бор. У жуда қалин ва баланд девор билан ўраб олинган. Деворлари баландлиги 10–11 метр, қалинлиги 6 метр. Деворлари лой пахсалар билан қурилган. Кўшкнинг ички қисми бўш.

Маҳаллий аҳоли ўртасида қадимда Хоразм подшолари бу иншоот ичида ўзларининг филларини асрашган деган ривоят сақланиб келган. Фил қалъадан сўнгги кушонлар даврига оид кам миқдордаги кулолчилик материаллари топилган. Мазкур археологик маълумотлар Фил қалъа 305 йилда Африғ кўши курилмасдан ва бу ерга африғийлар қароргоҳи кўчирилмасдан илгари мавжуд бўлганлигидан дарак беради.

Маълумки, Кот пойтахт шаҳарга айланган даврда Хоразмда ижтимоий–иқтисодий муносабатларда катта ўзгаришлар рўй берган давр сифатида изоҳланади. Бу даврда кулдорлик тузуми инқирозга учраб янги ижтимоий–иқтисодий феодал тузумнинг шаклланиш жараёни юз бермоқда эди. Шу сабабдан Кот шахрининг шаклланиш жараёни бир текис кечмаган.

Академик Я. Ғуломов фикрича, «IV асрда Кот канали рустоғида ва Тупроққалъада ҳаёт тугайди ёки инқирозга юз тутган. Кот рустоғи бўйидаги Фил қалъа қурилиши тугаланмай қолган» [6,123]. Ушбу ижтимоий–сиёсий инқироз икки аср давом этиб «воҳадаги маданий ва иқтисодий ҳаёт» фақат V–VI аср бошларида янгидан қайта жонлана бошлайди. Бу даврга келиб Африғийлар сулоласи томонидан Хоразм давлати сарҳадларини бирмунча мустаҳкамлашга эришилади.

Араблар ҳукмдорлиги даврида Хоразмнинг иккига бўлиниб кетиши воҳанинг сиёсий ва иқтисодий тараққиётини орқага сурувчи салбий омиллардан бири бўлди. Бу даврларда Жанубий Хоразм африғийлар сулоласига мансуб бўлган Хоразмшоҳ тасарруфида бўлиб, пойтахти Кот шаҳри эди. Шимолий Хоразмга араб амирлари бошчилик қилган; пойтахти Журжония (Урганч) шаҳри эди.

Араб муаллифлари томонидан Кот «Фил» шаҳри номи остида Табарий (839–923 йй.) томонидан 712 йилги арабларнинг Хоразмга ҳарбий юриши давридаги воқеаларни тасвир этиш муносабати билан тилга олинади. Муаллифлардан Табарий ва Белазурий асарларида Кот шаҳри Хоразмнинг ўша даврдаги учта шаҳарларидан бири сифатида тилга олади. Улар ал–Фир (Кот), Хазарасп ва Урганч шаҳарлари эди.

Белазурий (892 йилда вафот этган) таъкидлашича, Кот йирик (Хоразмда) мудофа иншоотида эга шаҳар, майдони жиҳатдан араблар давригача бўлган Самарқанд шаҳрига тенг бўлган [10,235]. Бироз кейинги даврдаги араб–форс муаллифларидан Истахрий (850–934 йй.) Хоразмнинг ўн учта шаҳрини санаб ўтади, улардан биринчилар қаторида Кот шаҳри номи келтирилади [9,180].

Ал–Истахрий ёзишича, «Унинг пойтахти хоразмчасига Кас дейилади. Унда қалъа бўлиб, ҳозирда унда ҳеч ким яшамайди. Унинг ичида шаҳар (мадина) бор, лекин уни дарё бузиб юборган, халқ эса унинг орқасига бошқа шаҳар қуриб

олган; дарё (ҳеч ким яшамайдиган) қалъа яқинига келиб қолганлиги сабабли, уни вайрон қилса керак деб хавфланадилар. Жоме масжид орқасида (ундан шарқроқда), Хоразмшоҳнинг саройи, жоме масжид ва зиндон қалъа (шу) ёнидадир. Шаҳар (мадина) ўртасида Жардур канали бор, бу канал шаҳар ва бозорни икки қисмга бўлиб туради. Шаҳарининг узунлиги 1/3 фарсахга (2 км дан ортик) тенг, кенглиги ҳам шунча» [9,178]. Демак, IX–X асрларда Кот қалъаси майдони тахминан 500 га яқин бўлган .

Ал–Муқаддасийнинг «Аҳсон Ат–тақосим фи–маърифат алақолим» («Иқлимларни ўрганиш учун энг яхши қўлланма») асарида (X аср) ёзилишича, «Кас (Кот)ни Шаҳристон деб атайдилар дейди. У (дарё) қирғоғида ва катталиги бўйича Нишопурга ўхшайди, дарёнинг шарқ томонидадир. Бозор жойнинг ўртасида жоме масжид бор. Ҳукумат девони шаҳар ўртасида арк бўлган, лекин уни дарё бузиб ташлаган. Шаҳар дарё тагида қолиб бормоқда, аҳоли эса соҳилдан узоқлашмоқда» [6,154].

Ал–Муқаддасий Кат ҳақидаги қуйидаги жумлаларни қўшимча келтириб ўтади: «Шаҳар (Кат) ғоят даражада кўркам, унда фозилу–олимлар, нафис адабиётнинг кўпдан–кўп билимдонлари бор...».

IX–XI асрларда Кот шаҳри Хоразм давлатининг иқтисодий, илмий ва маданий маркази бир бўлиб, бу борада у Самарқанд, Бухоро, Нишопур, Марв каби Шарқнинг йирик шаҳарлари билан беллаша оларди. Шаҳарда масжид ва мадрасалар фаолият кўрсатиб, уларда ўз даврининг илғор ва билимдон кишилари диний ва дунёвий фанлар, маданиятни тарғиб қилардилар.

Сайёх ал–Муқаддасий (985 йил) бу ҳақида қуйидаги маълумотларни беради: «Шаҳар улуғвор, унда кўплаб уламолар бор, улар ноёб китоблар билимдони»[3,29].

Ўша даврда Кат шаҳрида диний илмлар билан бир қаторда дунёвий фанлардан астрономия, математика, геодезия, математика, география каби фанлар анча ривожланганлиги, шубҳасиздир.

Абу Райҳон Берунийнинг гувоҳлик беришича, IX асрда Ўрта Осиёнинг баъзи йирик шаҳарларида расадхоналар мавжуд бўлиб, у жойларда маҳаллий олимлар фаолият юритишган. Жумладан, Марв, Амул (Чоржаў) ва Хоразм ҳукмдори Мансур ибн Талх даврида мунтазам астрономик кузатиш ишларини олиб борилган. X аср охири ва XI аср бошларида Ибн Ироқ ва Беруний Кот шаҳрида, Ибн Сино ва Беруний Гургон шаҳрида, Беруний Кўҳна –Урганч шаҳарларида бундай астрономик кузатувларни олиб боришган[3,19].

Абу Райҳон Беруний ёзишича, у 990–йилда Кот шаҳрида яшаган даврда муҳим аҳамиятга эга астрономиялик кузатишлар олиб борган. Бунинг

натижасида Кот шаҳрининг географик кенглигини аниқланган. У айланасимон асбоб ёрдамида шаҳарда қуёшнинг оғиш жараёнини ҳисоблаб чиққан [3,27–28].

Кот – Буюк ипак йўли чорраҳасида жойлашган муҳим савдо–иқтисодий аҳамиятга эга бўлган транзит шаҳар ҳисобланган. Ўрта асрларда Хоразмда Буюк ипак йўлининг тармоқлари ҳисобланган учта халқаро йўл туташган:

- 1) Мовароуннаҳрдан бошланган асосий карвон йўли;
- 2) Хуросондан;
- 3) Журжондан.

Ушбу Мовароуннаҳрдан бошланган асосий карвон йўли Бухоро –Варахша – Қизилкум (Амударёнинг ўнг қирғоғи бўйлаб) – Кот – Хос –Нузкат – Вайхон – Нукбоғ – Миздакхон – Кўҳна –Урганч орқали ўтган. Кот шаҳарининг Буюк ипак йўли чорраҳасида жойлашуви унинг шимол томондан Шарқий Европа ва кўчманчи туркий халқлар билан, жанубда Ўрта Осиё, Бухоро, Эрон, Хитой, Ҳиндистон ва араб халифалиги ҳудудлари билан савдо–иқтисодий ва маданий интеграциясини таъминлади ва шаҳарнинг юксалишига хизмат қилди.

Айниқса, Ўрта Осиёнинг Шарқий Европа ва кўчманчи туркий халқлар билан олиб бориладиган ташқи савдосида Кот шаҳри муҳим стратегик аҳамиятга эга бўлди [14,33–37].

Муаллифи номаълум «Худуд ал–алам мин ал–машриқ ила–л мағриб» (X аср) асарида ёзилишича: «Кос (Кот) –Хоразмнинг бош шаҳри .. турк товарлари, савдогарлари йиғиладиган жой.. У жойдан ёстик, сирланган кийимлар, пахта газламаси, рухбин (махсус пишлоқ тури) ташқи савдога чиқарилади»[9,216].

Ўрта аср муаллифларидан Истахрий (850–934 йй.) Кот шаҳри иқтисодий ҳаёти тўғрисида, «Кос (Кот–Хоразм) – бадавлат шаҳар, озиқ–овқат маҳсулотлари, мевалар.. пахта, жундан газламалар тайёрланади. ...Уларнинг ўлкасида (Хоразм) ҳеч қандай олтин, кумуш ёки қимматбаҳо тош конлари йўқ. Уларнинг асосий бойлиги турклар билан бўладиган савдодан ва чорва молларини кўпайтиришдан топади» дея маълумот беради [9,180].

Араб–форси муаллифлари маълумотлари шуни кўрсатадики, илк ўрта асрларда Кат шаҳарида тўқувчилик, кулоллик, металлсозлик ва бошқа кўплаб ҳунармандчилик соҳалари тараққий этган бўлиб, бу эса ўз навбатида шаҳарда илм–фан, маданий ва иқтисодий ҳайтнинг ривожланишига ҳам сезиларли даражада таъсир кўрсатади [12,116–119].

Манбаларда келтирилган маълумотлар таҳлилларига кўра, Кат шаҳрида Шарқ мамлакатларидан, шунингдек, Шарқий Европадан келган турли халқлар, ҳатто румликлар ва сурияликлар ҳам тўпланиб турли соҳалар юзасидан мулоқотда бўлишган.

Ўрта аср муаллифлари асарларида Кат шаҳрининг инқироzi тўғрисида ҳам баъзи маълумотлар учрайди. Абу Райхон Беруний «Қадимги халқлардан қолган ёдгорликлар» асарида кўрсатилишича, «Ал–Фир ўн милча ва ундан узоқроқ масофадан кўринар эди. Жайхун (Амударё) ҳар йили уни бузиб, йикитиб ва парчалаб олиб кета берди; ниҳоят Искандар (А. Македонский – Т.Б.Қ.) тарихининг минг уч юз бешинчи йилида ундан асар ҳам қолмайди» [1,71].

Унинг тахминан 994 йиллар атрофида Кат шаҳридаги Ал–Фир қасри дарёга фарқ бўлди, деган маълумотлари ҳақиқатдир. Шунингдек, 995 йилда Урганч ҳокими Маъмун ибн Муҳаммад иккала Хоразмни бирлаштириб ягона мустақил Хоразм давлатини ташкил этади ва Африғийлар сулоласи ҳукмронлиги барҳам топади. Урганч Хоразмнинг ягона пойтахтига айлантирилади.

Ибн Хавкал (997 йил) Кат шаҳарнинг вайронага айланганлигини тўлалигича тавсифлайди: «Унда сарой ва ташқи шаҳар бор эди. Дарё сарой яқиндаги ташқи шаҳар (рабод), марказий масжид ва қамоқхона барчасини ўз қаръига қамрам олди, ҳеч қандай иморат ёки яшаш жойлари излари ва қолдиқлари қолмади. Улар (Кот аҳолиси –Т.Б.Қ.) ундан нарироқда бошқа шаҳар қуришди» [9,183].

Афтидан, кўплаб муаллифлар маълумотларига кўра, X аср охирида Кат шаҳри сув тошқини остида қолган бўлсада, орадан узоқ вақт ўтмасдан қалъа қайта бунёд этилган. Бу ҳақида Ёқут Ҳамавийнинг (XIII аср боши) ёзишича, Кат қалъаси Жайхун (Амударё)нинг шарқий қирғоғида, Журжониядан (Кўхна–Урганч –Т.Б.Қ.) 20 фарсах (тахминан 160–170 км масофа) нарида бўлган. Ундаги жоме масжиди ва хоразмшоҳ қароргоҳи қалъа ортида жойлашган. Бозор шаҳарнинг марказида, Жардуришак сойи бўйида бўлган.

Мазкур маълумотлар IX–X асрларда Кат нафақат Хоразмнинг балки, Шарқдаги йирик иқтисодий, илмий ва маданий марказларидан бири бўлганлигини кўрсатади.

Хулоса ўрнида шуни таъкидлаш зарурки, ўзбек давлатчилиги, шаҳарсозлик тарихи, ўрта асрлардаги иқтисодий ва маданий ҳаётини ўрганишда Жанубий Орол бўйидаги Кат қалъаси ва унинг атрофидаги қадимий қалъалар тарихини ҳар томонлама ўрганиш муҳим аҳамият касб этади ва ёшларимизда ватанпарварлик туйғуларини шакллантиришга хизмат қилади.

АДАБИЁТЛАР

1. Абу Райхон Беруни. Избранные произведения. Т. I. –Ташкент.1957.
2. Амир Темур ва Улуғбек замондошлари хотирасида. –Тошкент. Ўқитувчи, 1996.
3. Булгаков П.Г. Жизнь и труды Беруни. –Ташкент. Фан. 1972.
4. Готье Ю.В. Английские путешественники в Московском государстве в

16 веке. –Москва: ОГИЗ. 1937.

5. Гулямов Я. Памятники города Хивы. – Тошкент. 1941.

6. Гуломов Я. Хоразмнинг суғорилиш тарихи. –Тошкент.Фан, 1959.

7. Иброҳимов Н. Ибн Баттута ва унинг Ўрта Осиёга саёҳати. –Тошкент. Шарқ. 1993.

8. Манылов Ю.П. К изучению городища Кят // ВКК ФАН УзССР. – Нукус, 1966. – № 2. – С. 49–53.

9. Материалы по истории туркмен и Турмении. Т. I. –М–Л.: 1939.

10. Толстов С.П. По следам древнехорезмской цивилизации. –М–Л.: 1948.

11. Хоразм тарихи. –Урганч. Хоразм нашриёти, 1997.

12. Турганов Б.К. [Металлообрабатывающее ремесло средневекового Хорезма \(по данным археологических и письменных источников\)](#) // Диалог городской и степной культур на евразийском пространстве //Материалы V Между– народной конференции, посвященной памяти Г.А. Федорова–Давыдова 2–6 октября 2011 года. –Казань, Астрахань. 2011. –Б. 116–119.

13. Турганов Б.К., Алламбергенов С.К. Роль металлических предметов в изучении средневековых культурно-экономических связей Хорезм //Международный научный журнал символ науки. ISSN 2410–700 х. 5/2021. – Б.48–54.

14. Турганов Б., Байниязов А. Средневековые весы Хорезма. Инновационная наука. Международная журнал. №1. 2020. –С.33–37. ISSN 2410–6070.

BA'ZI ETNOTOPONIMLARINING YASALISHI XUSUSIDA

Maftuna Zoir qizi Safarova,
Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi
Bukhara, Uzbekistan
maftunasafarova558@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada tilshunoslikda yasaliş masalalarining onomastik jihatdan o'rganilishi, ayrim etnonimlar hamda ular asosida shakllangan toponimlarning yasaliş xususiyatlariga alohida e'tibor qaratilgan. Buxoro etnotoponimlarining kelib chiqish tarixini lingvistik jihatdan tadqiq etish orqali, onomastik tizimda so'z yasalişining kompozitsiya, leksik-grammatik yoki onomastik konversiya kabi usullar natijasida tuzilishi aniqlanadi.

Key words: etnonim, toponim, etnotoponim, onomastik, lingvistik, yasaliş, konversiya, kompozitsiya, leksik, grammatik.

Respublikamiz hududida tarqalgan etnonim va etnotoponimlarni yig'ish, ularni tadqiq etish o'zbek tili uning shakllanish bosqichlari xususida ma'lumot tashiydi. Shuningdek, xalqimiz turmush tarzi, tarixi, milliy ananalari va qadriyatlari, hududlar arxeologiyasi, geografiyasi bo'yicha ma'lumot beribgina qolmay, ilmiy tadqiqotlar uchun boy manbaa bo'lib xizmat qiladi. Etnonim (*ethnos* – “xalq” va *onim* – “nom”) va etnotoponim (millat, xalq, urug', qabila nomlari asosida shakllangan joy nomlari) larni ma'lum bir hududlar bo'yicha to'plab o'rganish mintaqaviy lisoniy hodisalar tizimining o'ziga xos xususiyatlarini yanada chuqurroq anglashga yordam beradi.

Viloyatimiz hududida tarkibi birgina lug'aviy asosdan iborat obyekt nomlari, ya'ni sodda tarkibli etnotoponimlar ham uchraydi:

1) *tub sodda etnotoponimlar.* Bunday etnotoponimlarga Arlot//Alot//Olot Arablar, Arabon, Arabcha, Afg'onon, Bahrin, Burqut, Jaloir, Mang'itlar kabi ellikdan ortiq nomlarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

2) *yasama sodda etnotoponimlar.* Buxoro viloyati hududida bunday etnotoponimlarni uchratmadik.

Sodda tub etnonimlar, asosan, apellyativlarning onomastik konversiya usuli asosida toponimga ko'chishdan hosil bo'ladi, ya'ni toponimizatsiyalashadi. Sodda tub etnonimlarning lug'aviy asosi ma'noviy va morfologik jihatdan esa turlicha bo'ladi.

O'zbek tilida tub sodda asosli etnotoponimlarni morfologik jihatdan quyidagicha tasniflash mumkin:

1) ot asosli sodda tub etnotoponimlar: Arlot//Alot//Olot (*Peshko' tumani Sadir MFY*), Arablar (*Shofirkon t., G'ijduvon t. Ulfatbibi MFY, Jondor t., Vobkent t.*), Afg'onon (*Buxoro t., Amirobod, Guliston MFY*), Bahrin (*Romitan t. Mirishkor MFY*), Burqut (*Vobkent t.*), Jaloir (*Jondor t., Qorako'l t.*).

2) son asosli sodda tub etnotoponimlar: Mang'itlar – mo'g'ulchada ming soni manga so'zi bilan ifodalangan [7] (*Peshko' t. Quchoq MFY*), Mingon (*Shofirkon t. Bobur MFY*), Nayman (*Vobkent t.*), Qirqlar (*Romitan t.*), Yuzon (*Buxoro t. Bog'ikalon MFY*).

Bulardan tashqari barchamizga ma'lumki, tilshunoslikda so'z yasalishi alohida bo'lim, soha sifatida o'rganilib kelinmoqda [4]. So'z yasashdagi usul va vositalar etnonim va etnotoponimlarni yasashda ham ishtirok etadi, lekin bunda etnotoponimlarning o'ziga xos semantik va grammatik xususiyatlarini e'tiborga olish zarur. Leksemalar toponimga aylangach, ularda bir qator sifat o'zgarishlari sodir bo'ladi. Buxoro viloyati etnotoponimlarining derevatsion manzarasi rang-barang bo'lib, unda so'z yasalishining barcha usullarini uchratish mumkin.

Ma'lumki, xalq tili o'zining soda va ixchamligi, mazmunan teranligi bilan hamisha e'tiborni jalb etib kelgan. Shu ma'noda etnotoponimlar ham alohida ahamiyatga ega bo'lib, ularda so'z yasalishining kompozitsiya, affiksatsiya, onomastik konversiya, leksik-grammatik usullari qo'llanilgan.

Onomastik konversiya usuli bilan yasalgan nomlar. Etnotoponimlarni tahlilga tortganda uning toponimga aylangunga qadar bo'lgan ma'nosi, so'ngra toponimik ma'nosini farqlash muhim ahamiyatga ega. So'z yasalishi strukturadagi yasovchi-yasama munosabati etnotoponimning yasalishi, etnotoponimik ma'no toponimga aylangunga qadar bo'lgan ma'no munosabatlarida aks etadi. Masalan, Tuyachi, Takali, bahrin etnotoponimlari dastavval tuya+chi, taka+li, bahr+in tarzida shakllanganligini asta-sekin asos bilan qo'shimcha birlashib, o'rtadagi aloqa yo'qolib, tuya, taka, bahr ma'nolari unutilganligi, Tuyachi, Takali, bahrin kabi etnotoponimlarning yaxlit bir nomga kelib qolishini sezish unchalik qiyin emas, balki tuyachi, takali, bahrin leksemalari so'z yasalishining o'ziga xos bosqichini bosib o'tgan. Bu usul leksik-grammatik xarakterdagi usul yoki appelyativ toponimizatsiyalashuv (onomastik konversiya) deb qarash mumkin[1]. Onomastik konversiya yo'li bilan vujudga kelgan nol ko'rsatkichli bunday nomlar toponimga aylanmasdan oldin ma'lum bir etnik guruh nomini, kishilar to'pini anglatgan bo'lsa, endilikda, ularning vazifasi muayyan bir obyektga xuddi shunday boshqa bir obyektga farqlashdan iboratdir [3]. Onomastik konversiyada birinchi va ikkinchi elementlarni ajratish mumkin. Birinchi element yasovchi, ikkinchi element yasalma. Bunda birinchi elementning strukturasi e'tibor berish kerak. Birinchi elementning o'zi ham yasama bo'lishi mumkin. Toponimlarning

yasalish xususiyatiga e'tibor berish ularning morfologik strukturasi belgilashda ham muhim ahamiyatga ega.

Toponimlarning soddalashuvi natijasida ayrim komponentlarning tushishi tufayli toponimlar tarkibida sintaktik munosabat nol ko'rsatkichga ega bo'ladi. Masalan: *Bo'rilik mahalla – Bo'rilik, Qashqarmahalla – Qashqar* kabi.

Onomastik konversiya asosan atoqli otlar doirasida bo'lib, toponimning sintaktik qurshovi, formal-morfologik belgilari, funksional maydoni uni lug'at tarkibidagi umumiy leksik qatlamdan farqlaydi. Toponimlarning moslashuvi, yasalish strukturasi ham qator o'zgarishlarga olib keladi [1].

Kompozitsiya usuli bilan yasalgan joy nomlari. Kompozitsiyon usulida nom yasash toponimlar sistemasida ma'lum o'rinni egallaydi. Kompozitsiya (lotincha – composition – tuzish, birlashtirish) so'zlaridan olingan bo'lib, asosan, ikki yoki undan ortiq o'zakning qo'shilishi va birikuvidan yangi nom yasaydi. Nomlar ot, sifat, son, fe'l so'z turkumlariga oid so'zlarning bir-biriga qo'shilishi natijasida vujudga keladi [5].

O'zak tilida toponimlar asosan ikki va undan ortiq so'zning qo'shilishi, birikishidan hosil bo'lib, tilda qo'shma so'zning aniqlovchi, aniqlanmish munosabatidan yasalgan geografik nomlar keng tarqalgan lingvistik hodisa sanaladi. Bu, o'z navbatida, boshqa turkiy tillar toponimikasiga ham xos xususiyat bo'lib, ularni quyidagi guruhlariga bo'lish mumkin [6].

Ot+ot tipidagi etnotoponimlar:

Arab+mozor, Arab+qishloq, Tojik+arab, Tojik+qishloq, Tojik+mahalla, Arab+mahalla, Kallar+mahalla, Kirg'iz+mahalla, Kirg'iz+qo'rg'on, Qirg'iz+guzar, Qirg'iz+ovul kabi. Qo'shma nom uzvlarining bog'lanish yo'llari va uni yuzaga keltiruvchi omillar bir xil emas. Ot+ot tipidagi toponimlarni antroponim mansub bo'lgan etnonim nomi bilan bog'liq etnotoponimlar, laqablar asosida yuzaga kelgan etnotoponimlar, ijtimoiy mansubligi asosida yaratilgan etnotoponimlar kabi guruhlariga bo'lib o'rgansa bo'ladi.

Xulosa sifatida aytish mumkinki, etnonim va ular asosida shakllangan toponimlarni lingvistik jihatdan o'rganish til tarixini yoritishda eng muhim manbadir. Ularning yasalish xususiyatlari orqali qisman bo'lsada o'zbe tili tabiati anglashiladi. Til lug'at tarkibini boyitishga xizmat qiladi.

ADABIYOTLAR

1. Дўсимов З. Топонимларнинг ясалish масаласига доир // Ўзбек тили адабиёти. – Тошкент: Фан, 1984. – №4. – Б. 44-48.
2. Марқаев К.Ш. Ўзбек тили этнонимларининг лисоний тадқиқи. Фил. фан. ном. дисс. – Т.: 2007. 72-76-б.

3. Отажонова А. Хоразм этнопонимлари. – Тошкент: Фан, 1997. – Б. 75.
4. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент: ЎМЭ давлат илмий нашриёти. 2005. 212-Б.
5. Ҳожиёв А. Ўзбек тилида сўз ясалиши. – Тошкент: Фан, 1989. – Б. 30.
6. Эргашев А.А. Андижон вилояти этнопонимларининг ареал-ономастик тадқиқи. Фил. фан. ном. дисс. – Тошкент: 2012. – Б. 117.
7. Нафасов Т. Қашқадарё қишлоқномаси. – Тошкент: Муҳаррир, 2009. 161-б.
7. Bayramali Ergshovich Kilichev, Maftuna Zoir qizi Safarova. Toponyms formed on the basis of nation names. International Journals of Sciences and High Technologies. Vol. 25 No. 1 February 2021, pp. 104-107.
8. Bayramali Ergshovich Kilichev, Maftuna Zoir qizi Safarova. Bukhara region's typical toponyms transformed by means the names of nations. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science, <http://t-science.org/> p-ISSN: 2308-4944 (print) e-ISSN: 2409-0085 (online) 2021.02.05
9. Bayramali Ergshovich Kilichev, Maftuna Zoir qizi Safarova. [The Concept of Totemism and Ethnonym](#). Central Asian Journal of Literature, Philosophy and..., 2022.
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=xE0DgREAAAAJ&citation_for_view=xE0DgREAAAAJ:u-x6o8ySG0sC.
8. Maftuna Zoir qizi Safarova. [ALISHER NAVOIY IJODIDA ETNONIMLARNING QO‘LLANILISHI](#). FILOLOGIK TADQIQOTLAR: MUAMMO VA YECHIM” mavzusida xalqaro ilmiy KONFERENSIYA. 2021. https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=xE0DgREAAAAJ&citation_for_view=xE0DgREAAAAJ:d1gkVwhDpl0C.
9. Kilichev B.E. [Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari](#). O‘quv qo‘llanma. –Buxoro, Durdon, 2023. – 212 b.
10. Kilichev B.E. Onomastika. O‘quv qo‘llanma. – Buxoro, Durdon, 2023. – 180 b.
11. Kilichev B.E. [Til tizimi va ma’naviy munosabat muammosi](#). Monografiya. – Buxoro, Buxoro nashr. 2022. – 118 b.
12. Kilichev B.E., Haydarova A. Toponymy of G‘ijduvan. International Journal of Language Learning and Applied Linguistics (IJLLAL) <http://inter-publishing.com/index.php/IJLLAL/issue/view/41>.
13. Kilichev B.E., G.Shabonova. “Boburnoma” asaridagi ayrim toponimlarning etimologiyasi haqida. “Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnal.1-tom. №18 (2023) <http://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/8>.

14. Kilichev B.E., M.Rustamova. Muallif nutqi neologizmlari (Sirojiddin Sayyid she'rlari misolida). Innovation: The journal of social sciences and researches/International scientific journal. Volume 1, ISSUE 5, 2023

15. Kilichev B.E., M.Boltayeva. Jondor tuman shevasining ayrim ma'no guruhlari haqida. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 391) Jan.2023.

16. Kilichev B.E. Топонимлар таркибидаги сонлар ҳақида. “Ilm sarchashmalari” Urgench, 2021, 3-son. –B.148-151.

17. Kilichev B.E. Топонимлардаги ранг билдирувчи сўзлар. “Ilm sarchashmalari” Urgench, 2022, 2-son. –B.145-149.

18. Kilichev B.E., Raxmatullayev Sh. O‘zbek ertaklaridagi antroponimlarining lingvomadaniy asoslari. “Filologik tadqiqotlar: muammo va yechim” mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari (filologiya fanlari doktori, professor Hamid G‘ulomovich Ne‘matov tavalludining 80 yilligiga bag‘ishlanadi). –Buxoro, 2021. –B.145-148.

19. Kilichev B.E., Атоқли отларда кўчиш ходисаси. Масъалаҳои мубрами филологияи ўзбек ва тоҷик (маводи конференсияи онлайнӣ). “Нури маърифат”, Хучанд « 2020. –Б. 163-167.

20. Kilichev B.E., Zaripov B., Xolmuhamedov B., Raxmatullayev Sh. Anthroponyms in Uzbek folk tales: problem with content and frequency. Philosophical Readings XIII.4 (2021), pp. 1834-1840. 1835.

21. Kilichev B.E., Alisher Navoiy asarlarida til, so‘z, toponim va ma’no talqini. Алишер Навоий ижодий меросининг башарият маънавий-маърифий тараққиётидаги ўрни мавзусидаги IV анъанавий халқаро илмий конференция материаллари. –Навоий, 2021. –Б.840-844.

22. Kilichev B.E., Axmatova I. Ayrim toponimlarning tarkibi va semantikasi haqida. “Filologik tadqiqotlar: muammo va yechim” mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari (filologiya fanlari doktori, professor Hamid G‘ulomovich Ne‘matov tavalludining 80 yilligiga bag‘ishlanadi). –Buxoro, 2021. –B.145-148.

23. Kilichev B.E., Raxmatullayev Sh. Uzbek national folk tales and the nature of anthroponyms in live communication. Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 12 May 2021.

24. Kilichev B.E., Zaripov B., Kholmukhammedov B. Lingvoculturological characteristics of anthroponyms used in artistic works. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. Volume 2, Issue 5 May, 2021

25. Kilichev B.E., O.Safarova. Study of toponyms in the language of the work. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915. Vol.10/ Issue 1, Jan. (2022) 92–95.

26. Kilichev B.E. Атоқли отларда сўз ясалишининг бир усули. “Ўтимиой фанларда инновасија” Онлайн илмиј журнал, 2022, 2(1), 48–51.
27. Kilichev B.E., Bafojeva N. Some characteristics of onomastic units in Abdullah Qodiriy’s novel “Bygone days”. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. ISSN: 2249-7315 Vol. 12, Issue 01, January 2022.
28. Bayramali Ergashovich Kilichev, Timur Khojaoglu, Nodira Adizova. Classification of Oykons (On the Example of Bukhara Region). International Journal of Culture and Modernity ISSN 2697-2131, 2022, Volume 16 <https://ijcm.academicjournal.io/index.php/ijcm>
29. Kilichev B.E., M.Rustamova. Metaforaga xos ba’zi bir xususiyatlar (Sirojiddin Sayyid she’riyati misolida). EURASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE// Innovative Academy Research Support Center. Volume 3 Issue 1, January 2023 ISSN 2181-2888 P. 59-64.
30. Kilichev B.E., Shabonova G. “Boburnoma” asaridagi ayrim toponimlarning etimologiyasi haqida. “Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnal.1-tom. №18 (2023) <http://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/8>.
31. Yokubova, S. (2021). Tibbiy matnlarda obyektli birikmalarning voqelanishi. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 7(7).
32. Yokubova, S. (2021). Относительно формального грамматического описания объектных соединений. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 7(7).
33. Yokubova, S. (2020). Объектные сочетания. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu.uz), 1(1).
34. Khojjeva, M. Y., & Yokubova, S. Y. (2021). Language and speech expression of personal descriptions. TJE-Tematics journal of Education ISSN, 2249-9822.
35. Yusufovna, Y. S. (2022). ПОЕТИК NUTQDA MA’NO KO‘CHISH YO‘LLARI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIIY JURNALI, 674-677.
36. AR Akhmedov, P Sevara, [Theoretical and practical issues of creating uzbek areal linguistics](#). Middle European Scientific Bulletin 12, 142-146
37. AR Akhmedov. [Some Feedback About Linguistic Knowledge](#). AR Akhmedov, P Sevara. [O‘zbek shevalarini lingvo-geografik xaritalashtirish](#).

SODDA TARKIBLI ETNOTOPONIMLAR

Maftuna Zoir qizi Safarova,

Buxoro davlat universiteti o'qituvchisi

Bukhara, Uzbekistan

maftunasafarova558@gmail.com

Annotatsiya. Ushbu maqolada toponimlarni ichki tasnifi asosidagi yana bir ko'rinishi bo'lgan xalq, urug'-qabila nomlari asosida shakllangan joy nomlari bo'lib, ularning lisoniy xususiyatlari, tarkibiy tuzilishi xususida fikr yuritiladi. Asosan, sodda tarkibli etnotoponimlarning lingvistik xususiyatlari tahlilga tortiladi hamda ularning Buxoro viloyati hududida tarqalish ko'lamini haqida ham bahs yuritiladi.

Kalit so'zlar. Onomastik birlik, toponim, etnonim, etnotoponim, xalq, millat, qabila, urug', sodda etnonimlar, tub, yasama.

Etnonimlar negizida yotgan lug'aviy o'zaklar, yasama leksema hamda so'z shakllari turli-tumandir. Mana shu xususiyat o'zbek tilidagi etnonimlarni grammatik strukturasiga ko'ra o'rganishni va ularning lisoniy tabiatini ochishni talab qiladi. Etnonimlar grammatik shakllariga ko'ra ikki guruhga bo'linadi.

Sodda etnonimlar. Sodda etnonimlar grammatik tabiatiga ko'ra qo'shma, birikmali, juft va takror tuzilmali etnonimlarga qarama-qarshi qo'yiladi. Bunda asosiy mezon etnonim tarkibi bitta so'zdan iborat bo'lishidir. Sodda etnonimlarni tashkil qilgan lisoniy materialning tuzilishiga qarab ikkiga ajratish mumkin: *tub etnonimlar*, *yasama etnonimlar*.

O'zbek etnonimiyasi nomlarining sezilarli qismini tub etnonimlar tashkil qiladi. Ularni tub deb bilish ikki xususiyatga asoslanadi:

1. Etnonim aslida qadimiy tub leksemadan iborat bo'lganligiga: *qirq, noqi, uz, yuz, juz, uyas, as* kabi;
2. Etnonim hozirda bo'linmas o'zak tarzida tushunilgan so'zdan iboratligiga: *arlot, alday, bag'al, bag'ish, bo'ston, gadoy, jobu, jatta* va b.

Yasama etnonimlarda nom tarkibidagi qo'shimchadan nomning yasama ekanligi, uning o'zak va qo'shimchaga ajratish imkoni borligi yaqqol ko'rinib turadi: *qirdor, baymoqli, boltali, o'roqli, davurchi* kabi.

Etnonimlar asosan uch usulda hosil qilingan: 1) lug'aviy-ma'noviy konversiya usuli; 2) morfologik usul; 3) sintaktik usul.

Shulardan morfologik usul orqali sodda yasama etnonimlar hosil qilinishi mumkin.

Morfologik usul. Turkiy etnotoponimlarning yasalishi masalasi bo'yicha turkologlardan N.ABaskakov, D.E.Eremev va turkman tilshunosi S.Otaniyozov to'xtalgan.

Z.Do'simovning taqdqiqotlarida toponimlar tuzilishiga ko'ra quyidagicha tasniflangan:

1. Affikssiz toponimlar va tub nomlar: *Qal'a Alan, Bo'z, Jam, Adaq* kabi;
2. Affiksial toponimlar yoki yasama nomlar: *Tuyachi, Ko'salar, Toshloq, Tangzor.*
3. Prefiksial toponimlar: Payariq, Bevatan, sardaha.
4. Indikatorli toponimlar yoki toponim-kompozitlar.
5. Birikmali toponimlar¹.

X.Xolmo'minov Boysun mikrotoponimiyasi asosida toponimlarni tuzilishiga ko'ra uch turga ajratadi:

- 1) sodda nomlar; 2) qo'shma nomlar; 3) murakkab nomlar².

N.Uluqov ta'kidlaganidek, bu tasniflar yondashuv asosining va tasnif natijasida yuzaga kelgan guruhlarining turlichaligi bilan xarakterlanadi hamda tasnif xususiyatini, asosini belgilashda ham, toponimlarni guruhlashda ham umumiylik yo'q.

Toponimlarning tuzilishiga ko'ra tasnifi ham so'zlarning tuzilishiga ko'ra tasnifidan farqlanmasligi lozim.

Toponimlarning tuzilishi deganda uning morfologik tarkibi tushuniladi. Toponimlarning morfologik tuzilishi – nomning morfemalardan: lug'aviy asos va yasovchi affiks; lug'aviy asos va toponimik indikator yoki lug'aviy asos va topoformatdan iborat tarkibi. Shunday ekan, toponimlarning tuzilishiga ko'ra tasnifida uning tarkibidagi morfemalarni, ya'ni lug'aviy asos, yasovchi affiks, topoformant va toponimik indikatorlarni inobatga olish lozim³.

Toponimlarga oid yuqoridagi tasniflarga asoslangan holda Buxoro viloyati etnotoponimlarini tuzilishiga ko'ra quyidagicha tasniflash mumkin:

1. Sodda tarkibli etnotoponimlar:
 - a) tub sodda etnotoponimlar;
 - b) yasama sodda etnotoponimlar.
2. Qo'shma tarkibli etnotoponimlar.

Tarkibi birgina lug'aviy asosdan iborat obyekt nomlari sodda tarkibli etnotoponimlar hisoblanadi.

¹ Дўсимов З. Топонимлар таснифи масаласига доир // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1978. – № 1. – Б. 19-20.

² Холмўминов Х. Бойсун район микротопонимикаси // Ўзбек тили ва адабиёти. – Тошкент, 1989. – № 6. – Б. 60-61.

³ Темиров Ш. Самарқанд вилояти оронимларининг лисоний тадқиқи. Автореферат, – Тошкент: 2019. 81-бет

3) *tub sodda etnotoponimlar*. Bunday etnotoponimlarga Arlot//Alot//Olot Arablar, Arabon, Arabcha, Afg'onon, Bahrin, Burqut, Jaloir, Mang'itlar kabi ellikdan ortiq nomlarni misol qilib ko'rsatish mumkin.

4) *yasama sodda etnotoponimlar*. Buxoro viloyati hududida bunday etnotoponimlarni uchratmadik.

Kuzatishlarimiz natijasida, tilimizda uchraydigan sodda tub etnotoponimlarning katta qismi morfologik jihatdan tuzilgan ot asosli nomlardan iborat. Yasama sodda asosli etnotoponimlar esa deyarli uchramadi. Sababi, etnonim tarkibidagi yasovchi qo'shimcha asos tarkibiga singib ketgan. Bugungi kunda ular ajralmas holga kelib qolgan.

Adabiyotlar

1. Дўсимов З. Топонимларнинг ясалиш масаласига доир // Ўзбек тили адабиёти. – Тошкент: Фан, 1984. – №4. – Б. 44-48.
2. Марқаев К.Ш. Ўзбек тили этнонимларининг лисоний тадқиқи. Фил. фан. ном. дисс. – Т.: 2007. 72-76-б.
3. Отажонова А. Хоразм етнотопонимлари. – Тошкент: Фан, 1997. – Б. 75.
4. Қораев С. Ўзбекистон вилоятлари топонимлари. – Тошкент: ЎМЭ давлат илмий нашриёти. 2005. 212-Б.
5. Ҳожиёв А. Ўзбек тилида сўз ясалиши. – Тошкент: Фан, 1989. – Б. 30.
6. Эргашев А.А. Андижон вилояти этнотопонимларининг ареал-ономастик тадқиқи. Фил. фан. ном. дисс. – Тошкент: 2012. – Б. 117.
7. Bayramali Ergshovich Kilichev, Maftuna Zoir qizi Safarova. Toponyms formed on the basis of nation names. International Journals of Sciences and High Technologies. Vol. 25 No. 1 February 2021, pp. 104-107.
8. Bayramali Ergshovich Kilichev, Maftuna Zoir qizi Safarova. Bukhara region's typical toponyms transformed by means the names of nations. International Scientific Journal Theoretical & Applied Science, <http://t-science.org/> p-ISSN: 2308-4944 (print) e-ISSN: 2409-0085 (online) 2021.02.05
9. Bayramali Ergshovich Kilichev, Maftuna Zoir qizi Safarova. [The Concept of Totemism and Ethnonym](#). Central Asian Journal of Literature, Philosophy and..., 2022.
https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=xE0DgREAAAAJ&citation_for_view=xE0DgREAAAAJ:u-x6o8ySG0sC.
8. Maftuna Zoir qizi Safarova. [ALISHER NAVOIY IJODIDA ETNONIMLARNING QO'LLANILISHI](#). FILOLOGIK TADQIQOTLAR: MUAMMO VA YECHIM" mavzusida xalqaro ilmiy KONFERENSIYA. 2021.

https://scholar.google.com/citations?view_op=view_citation&hl=ru&user=xE0DgREAAAAJ&citation_for_view=xE0DgREAAAAJ:d1gkVwhDpl0C.

9. Kilichev B.E. [Nutq madaniyati va uslubiyat asoslari](#). O‘quv qo‘llanma. –Buxoro, Durdona, 2023. – 212 b.

10. Kilichev B.E. Onomastika. O‘quv qo‘llanma. – Buxoro, Durdona, 2023. – 180 b.

11. Kilichev B.E. [Til tizimi va ma’naviy munosabat muammosi](#). Monografiya. – Buxoro, Buxoro nashr. 2022. – 118 b.

12. Kilichev B.E., Haydarova A. Toponymy of G‘ijduvan. **International Journal of Language Learning and Applied Linguistics (IJLLAL)** <http://inter-publishing.com/index.php/IJLLAL/issue/view/41>.

13. Kilichev B.E., G.Shabonova. “Boburnoma” asaridagi ayrim toponimlarning etimologiyasi haqida. “Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnal.1-tom. №18 (2023) <http://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/8>.

14. Kilichev B.E., M.Rustamova. Muallif nutqi neologizmlari (Sirojiddin Sayyid she’rlari misolida). Innovation: The journal of social sciences and researches/International scientific journal. Volume 1, ISSUE 5, 2023

15. Kilichev B.E., M.Boltayeva. Jondor tuman shevasining ayrim ma’no guruhlari haqida. Oriental Renaissance: Innovative, educational, natural and social sciences. 391) Jan.2023.

16. Kilichev B.E. Топонимлар таркибидagi сонлар хақида. “Ilm sarchashmalari” Urgench, 2021, 3-son. –B.148-151.

17. Kilichev B.E. Топонимлардаги ранг билдирувчи сўзлар. “Ilm sarchashmalari” Urgench, 2022, 2-son. –B.145-149.

18. Kilichev B.E., Raxmatullayev Sh. O‘zbek ertaklaridagi antroponimlarining lingvomadaniy asoslari. “Filologik tadqiqotlar: muammo va yechim” mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari (filologiya fanlari doktori, professor Hamid G‘ulomovich Ne‘matov tavalludining 80 yilligiga bag‘ishlanadi). –Buxoro, 2021. –B.145-148.

19. Kilichev B.E., Атоқли отларда кўчиш ходисаси. Масъалаҳои мубрами филологияи ўзбек ва тоҷик (маводи конференсияи онлайнӣ). “Нури маърифат”, Хучанд « 2020. –Б. 163-167.

20. Kilichev B.E., Zaripov B., Xolmuhamedov B., Raxmatullayev Sh. Anthroponyms in Uzbek folk tales: problem with content and frequency. Philosophical Readings XIII.4 (2021), pp. 1834-1840. 1835.

21. Kilichev B.E., Alisher Navoiy asarlarida til, so‘z, toponim va ma’no talqini. Алишер Навоий ижодий меросининг башарият маънавий-маърифий

тараққиётидаги ўрни мавзусидаги IV анъанавий халқаро илмий конференция материаллари. –Навоий, 2021. –Б.840-844.

22. Kilichev B.E., Axmatova I. Ayrim toponimlarning tarkibi va semantikasi haqida. “Filologik tadqiqotlar: muammo va yechim” mavzusida xalqaro ilmiy-nazariy anjuman materiallari (filologiya fanlari doktori, professor Hamid G‘ulomovich Ne‘matov tavalludining 80 yilligiga bag‘ishlanadi). –Buxoro, 2021. –B.145-148.

23. Kilichev B.E., Raxmatullayev Sh. Uzbek national folk tales and the nature of anthroponyms in live communication. Middle European Scientific Bulletin, VOLUME 12 May 2021.

24. Kilichev B.E., Zaripov B., Kholmukhammedov B. Lingvoculturological characteristics of anthroponyms used in artistic works. ResearchJet Journal of Analysis and Inventions. Volume 2, Issue 5 May, 2021

25. Kilichev B.E., O.Safarova. Study of toponyms in the language of the work. Galaxy International Interdisciplinary Research Journal (GIIRJ) ISSN (E): 2347-6915. Vol.10/ Issue 1, Jan. (2022) 92–95.

26. Kilichev B.E. Атоқли отларда сўз ясалишининг бир усули. “Ijtimoiy fanlarda innovasiya” Onlayn ilmiy jurnali, 2022, 2(1), 48–51.

27. Kilichev B.E., Bafoyeva N. Some characteristics of onomastic units in Abdullah Qodiriy’s novel “Bygone days”. Asian Journal of Research in Social Sciences and Humanities. ISSN: 2249-7315 Vol. 12, Issue 01, January 2022.

28. Bayramali Ergashovich Kilichev, Timur Khojaoglu, Nodira Adizova. Classification of Oykons

(On the Example of Bukhara Region). International Journal of Culture and Modernity ISSN 2697-2131, 2022, Volume 16 <https://ijcm.academicjournal.io/index.php/ijcm>

29. Kilichev B.E., M.Rustamova. Metaforaga xos ba’zi bir xususiyatlar (Sirojiddin Sayyid she’riyati misolida). EURASIAN JOURNAL OF SOCIAL SCIENCES, PHILOSOPHY AND CULTURE// Innovative Academy Research Support Center. Volume 3 Issue 1, January 2023 ISSN 2181-2888 P. 59-64.

30. Kilichev B.E., Shabonova G. “Boburnoma” asaridagi ayrim toponimlarning etimologiyasi haqida. “Talqin va tadqiqotlar” ilmiy-uslubiy jurnal.1-tom. №18 (2023) <http://talqinvatadqiqotlar.uz/index.php/tvt/article/view/8>.

38. Yokubova, S. (2021). Tibbiy matnlarda obyektli birikmalarning voqelanishi. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 7(7).

39. Yokubova, S. (2021). Относительно формального грамматического описания объектных соединений. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 7(7).

40. Yokubova, S. (2020). Объектные сочетания. ЦЕНТР НАУЧНЫХ ПУБЛИКАЦИЙ (buxdu. uz), 1(1).

41. Khojjeva, M. Y., & Yokubova, S. Y. (2021). Language and speech expression of personal descriptions. TJE-Tematics journal of Education ISSN, 2249-9822.

42. Yusufovna, Y. S. (2022). POETIK NUTQDA MA'NO KO'CHISH YO'LLARI. BARQARORLIK VA YETAKCHI TADQIQOTLAR ONLAYN ILMIY JURNALI, 674-677.

43. AR Akhmedov, P Sevara, [Theoretical and practical issues of creating uzbek areal linguistics](#). Middle European Scientific Bulletin 12, 142-146

44. AR Akhmedov. [Some Feedback About Linguistic Knowledge](#).

AR Akhmedov, P Sevara. [O 'zbek shevalarini lingvo-geografik xaritalashtirish](#).

ZAMONAVIY TA'LIM TEXNOLOGIYALARINING FIZIKANI O'QITISHDAGI O'RNI

Irmatov Fozil Muminovich

Jizzax davlat pedagogika universiteti

Fizika va uni o'qitish metodikasi kafedrası

dotsent vazifasini bajaruvchi

irmatov-fozil-84@mail.ru

Annotatsiya. Maqolada fizikani o'qitishda zamonaviy o'qitish vositalari bilan rivojlantirish yondashuvlari bayon qilingan. Ta'lim jarayonida zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish talabalarning aqliy faolligini rivojlantiradi, ta'lim jarayonini talabalar uchun tushunarli va qiziqarli qilish imkonini beradi.

Tayanch so'zlar: fizika predmeti, fizik jarayon, fizik tushuncha, innovatsion pedagogik texnologiyalar, multimedia, interaktiv, interfaol o'qitish usuli, ijodkorlik.

Zamonaviy ta'lim texnologiyalarini fizikani o'qitishda qo'llash so'nggi yillarda jaxondagi etakchi universitetlarda qo'llanilib kelinayotgan Internet yoki Intranet tarmog'i orqali elektron shakldagi ta'lim turi Elearning (elektron ta'lim) atamasi bilan kirib keldi.

Fizik jarayonlarni anglash topqirlik va zukkolikni talab qiladi. Ma'lumki, fizik tushuncha, hodisa va jarayonlarni tushunib etish, vazifalarni hal etish natijasida shakllanadi. Shuning uchun, bu vazifalarni hal qilishda amaliy mashg'ulotlarda zamonaviy ta'lim texnologiyalari orqali biz talabalarda qiziqishni shakllantirishimiz kerak.

O'qitish tajribasi shuni ko'rsatadiki, hal etiladigan vazifalar nafaqat an'anaviy yondashuv bilan, balki multimediyadan foydalanish bilan ham ta'minlanadi. Har bir bo'lajak o'qituvchilar uchun fizika bo'yicha amaliy mashg'ulotlarni olib borish

talabanning o'quv materialini samarali o'rganishi, uni o'zlashtirishi, talabanning tayyorgarlik darajasiga muvofiq vazifalarni tanlash orqali amalga oshirilishi zarur.

Yuqoridagi aytilgan fikrlardan kelib chiqib quyidagi talablar qo'yiladi: didaktik va tarbiyaviy maqsadning aniq bayoni, har bir darsning maqsadlari, o'qitishning umumiy vazifalari o'rtasidagi mantiqiy bog'liqlik, o'quv materialini ilmiy tanlash talabalarning rivojlanish darajasiga mos kelishi.

Fizika bo'yicha barcha ma'ruzalar talabalarga yangi bilimlarni beradi. Shuning uchun, ma'ruza davomida o'qituvchi talabalarning passiv bo'lib qolmasligi uchun barcha sa'y-harakatlarini amalga oshirishi kerak.

Amaliy fizika darslaridagi interfaol stend talabalarga yangi ko'nikamalarni rivojlantirishga yordam beradi, shu jumladan loyihalash, qaror qabul qilish va ijodiy ishlarni bajarish va saqlash qobiliyati, innovatsiyalarning yuqori darajasini egallash. Ta'lim vazifalarini to'g'ri tanlash juda muhim bo'lib, ular interfaol doskadan foydalanishning ratsionalligi va ixchamligini belgilab beradi.

O'qitishda interfaol doskadan foydalanish o'quv jarayonini optimallashtirish uchun asos sifatida talabalar fizikani o'rganish jarayonida hisobga olinadi. Xususan, bu borada ma'ruza va amaliy mashg'ulotlarda interfaol doskadan foydalanishga katta e'tibor qaratilmoqda.

Kelajakda interfaol doska vositasida fizikani o'qitish mazmuni va tizimini takomillashtirish, laboratoriya ishi, individual topshiriqlar va mustaqil ishlarni olib borish bo'yicha tavsiyalar beriladi. Masalan, "Atom fizikasi" bobini olaylik fizika o'qitishni an'anaviy va zamonaviy ta'lim texnologiyalarini qo'llash bilan, ya'ni interfaol doska vositasida amalga oshiriladi. Energiyasi 5 MeV bo'lgan alfa -zarralarning Cu yadrolari bilan har qanday muvofiqlashtirilgan reaksiyada, oxirgilari 3,9 MeV energiya bilan orqaga uchib ketadi. Cu va alfa- yadrosining massa nisbati aniqlanishini interfaol doska vositasida ko'rsatishimiz mumkin.

Demak, zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan fizik masala echishda, virtual laboratoriya ishlarini namoyish qilishda keng foydalansa bo'ladi. Bu texnologiyalar

ta'lim tizimida fizikaning barcha bo'limlari bilan ishlash, jarayonlarni chuqur o'rganish imkoniyatini yaratadi.

ADABIYOTLAR

1. Демин Е.В. Методика использования новых информационных технологий в процессе преподавания квантовой физики в педагогических ВУЗах.: Дис. канд. пед. наук. – М., 2004.

2. Ариас Е.А. Дифференцированный подход к обучению физике студентов различных нефизических специальностей университета. // Дис. канд. пед. наук. – Санкт-Петербург. 2004

3. Ирматов, Ф. М. Эффективность современных образовательных технологий в педагогическом процессе (на примере обучения физике). научное знание современности, (8), 34-37.

4. Irmatov F. Talabalarning fizika fanidan o'zlashtirish darajalarini oshirishda zamonaviy ta'lim texnologiyalaridan foydalanish. *Fizika va texnologik ta'lim jurnali*. <https://science.jspi.uz/index.php/phys-tech/article/view/229>

5. Irmatov F.M. Nofizik mutaxassisliklar bo'yicha fizika ta'limi samaradorligini oshirish yo'llari // Pedagogika. Ilmiy-nazariy va metodik jurnal. –Toshkent. -2020.– 2-son. – B.86-90 b.

6. Irmatov F. Assessment of students' levels of studying physics. *Mental Enlightenment Scientific-Methodological Journal* : Vol. 2021 : Iss. 02 , Article 9.

DOI: <https://www.doi.org/10.51348/tziuj2021S29>

Available at: <https://uzjournals.edu.uz/tziuj/vol2021/iss02/9>

ADABIYOTDA LIRIKA VA LIRIK QAHRAMON TUSHUNCHALARI

Ro‘ziyeva Dilyayra Nurmurodovna

Buxoro Davlat Universiteti
Adabiyotshunoslik (ingliz)fakulteti
2-bosqich magistranti

Obidova Adiba Bahodirovna

Buxoro viloyati IIV akademik litseyi ingliz tili o‘qituvchisi

Anatatsiya: Ushbu maqolada adabiyotimizda ko‘p uchraydigan lirika va lirik qahramon tushunchalari yoritilgan. Shu bilan birga lirik qahramonlar yaqqol tasvirlangan adabiy durdonalardan misollar keltirilgan.

Kalit so‘zlar: Lirika, qahramon, obraz, poetika, xarakter.

Lirika (yunoncha) "lira (yoki "liros") deb atalmish cholg‘u asbobi nomidan yasalgan so‘z bo‘lib, kuylanadigan asar demakdir. Lirikaning bosh obrazi lirik qahramon hisoblanadi. Lirikada lirik qahramonning ichki dunyosi birinchi o‘rinda turadi. Barcha ifoda shoirning „men“i orqali o‘tadi. Lirikada, eposdan farqli o‘laroq, muayyan epik syujet bo‘lmaydi. Dramatik turdan ajralib turadigan jihati esa, lirikadada sub’yektivlik kuchli. Ayni paytda lirika emotsionalligi, o‘quvchi qalbini hayajonga solishi bilan farqlanadi. Lirik asarda sub’yekt va ob’yekt bir shaxsda mujassam topadi, undagi markaziy „personaj“ ijodkorning o‘zi, yanada aniqrog‘i, uning ichki ma’naviy-ruhiy olami sanaladi. Lirika ijtimoiy, madaniy, maishiy, ishqiy mavzularni qamrab olishi va juda katta ijtimoiy, estetik mohiyat kasb etishi ham mumkin. Biroq bunda ham, baribir, lirik asar o‘zagida individual shaxs kechinmalari, his-tuyg‘ulari yetakchilik qiladi. Poetik „men“ va biografik „men“ L.ning odatiy, o‘zaro ajralmas unsuri sanaladi. Ammo har qanday biografik ma’lumot poetik matn ichida o‘z mazmun-mohiyatini o‘zgartirib, ijtimoiy-madaniy yoki ma’naviy-estetik mohiyat kasb etishi mumkin. Adabiyotshunos olimlarning shoir Abdulhamid Cho‘lpon qalamiga mansub „Aldanish“ sarlavhali she’rini turlicha talkin etishlari buning isbotidir. O‘quvchini o‘zligiga, o‘z ma’naviy-ruhiy dunyosiga nazar solishga undaydi.

Lirika qadimda xalq og'zaki ijodi tarkibida mavjud bo'lib, ma'lum bir mavsum, fasl yoki urf-odatlariga bag'ishlab aytilgan. Shuni takidlab o'tish joizki, lirika ayniqsa G'arbda Qadimgi Yunoniston va Rim shoirlari ijodida, Sharqda xitoy, fors va o'zbek shoirlari ijodida asosiy o'rinni egallaydi.

Lirik asar mazmuni ikki jihatdan muqarrar ravishda avtobiografik xarakterga ega. Birinchidan, lirik asarga shoirning o'z boshidan o'tgan biror voqea, uning xayoliga kelgan biror muhim fikr yoki uni shaxsan larzaga solgan biror his mazmun berishi mumkin. Ikkinchidan, shoir o'zining boshidan o'tmagan biror voqeani yoki o'zi shaxsan kechirmagan biror hisni tasvir etganda ham, u voqea va hislarni o'zi ko'rgan, bilgan, sezgandek his etmasa, o'sha "holat"ga o'zini sola bilmasa, uning tasviri rostlik, hayotiylik kasb etmaydi, o'quvchiga Navoiyning "Layli va Majnun"ida Laylining majnunga xati Navoiyning oddiy ma'nodagi avtobiografiyasi fakti emas, ammo shunday shaxsiy tarjimai hol darajasiga ko'tarilgan faktdir. "Zaynab va omon" poemasi Hamid Olimjon o'z qahramonlari tilidan gapirganda ham ana shunday hodisa - shoirga begona bo'lgan biografik faktning shoir hayoti faktiga aylanishi hodisasiga duch kelamiz. Navoiyning "ko'rgali husningni zoru muftalo bo'ldim sango" misrasi bilan boshlanuvchi g'azalini qat'iy ravishda avtobiografik asar deb ayta olmaganimiz kabi, Pushkinning avtobiografik ekanligi aniq bo'lgan (A. A. Kronga bag'ishlangan) "ya pomnyu Chud-Noe mgnovenie" she'rining faqat konkret shaxs to'g'risida emas, balki umuman inson va hayotga muhabbat haqida ekani ham har bir o'quvchiga ayon, chunki bu ikki she'rdagi fikr va his umuminsoniydir.

Lirikada har qanday his va fikrlar emas, balki Navoiy terminologiyasi bilan aytganda "xos hol"¹ va "xos ma'no"² o'z in'ikosini topadi. Lirik asarda ifoda etilgan har qanday holat inson hayotida uchraydi, ammo o'zidagi dramatism, kechinmaning g'oyat darajada yorqinligi bilan ajralib turadi. "Kecha kelgumdur debon..." g'azalida tasvir etilgan holat ana shunday "xos hol" namunasidir. "Xos ma'no" - oddiy, siyqa, ahamiyati kam fikr emas, balki chuqur va salmoqdor mazmundir.

Furqatning:

"Charxi kajraftorning bir shevasidan dog'man

Ayshni nodon surib, kulfatni dono tortadur" -bayti bilan tugallanuvchi mashxur g'azali "xos ma'no" ifodasining yaxshi misoli bo'la oladi. U lirik qahramon, uning amallari, ohang tabiati shuni unutmazlik kerak.

Shunday qilib, lirik asarda muallif va hislari tasvirlanayotgan shaxs orasida birlik yuzaga keladi. Ayni choqda, bunday asarning yuqorida aytilgan ikki ma'noda avtobiografik xarakterga ega ekanini ham rad etish mumkin emas. Bu hol so'nggi yillarda adabiyotshunoslikda yangi bir terminning maydonga kelishiga sabab bo'ldi: "lirik qahramon" termini iste'molga kirdi. Lirik qahramon - lirik asarda kechinmalari tasvirlanayotgan kishi, shoirning umumjamiyat uchun qimmatli his va fikrlarini tashuvchi shaxsdir. U shoir shaxsi bilan estetik idealning quymasidir. Shoirning ko'pincha shaxsiy avtobiografiya Lirikaning mazmuni vasiga taalluqli bo'lgan fikr va hislaridan shaklida o'ziga xoslik jamiyat uchun eng zarurlarini in'ikos ettirish (in'ikos ettirganda ham idrok, mantiq yo'li bilan emas, balki Ilhom bilan in'ikos ettirish) vazifasi lirikaning mazmuni va shaklidagi ba'zi o'ziga xosliklarni keltirib chiqaradi.

FOYDALANILGAN ADABIYOTLAR

1. Adabiy turlar va janrlar [3 j.li], 2-j., Lirika, T., 1992. Bahodir Karimov.
2. O'zME. Birinchi jild. Toshkent, 2000-yil

V.SHEKSPIRNING “OTELLO” FOJIASIDA TUSHNING YORITILISHI

Qurbonova Nodira Roziqovna,

Buxoro davlat universiteti,

f.f.f.d (PhD)

n.r.qurbonova@buxdu.uz

Ro‘ziyeva Dilyayra Nurmurodovna

2-kurs magistratura talabasi

Buxoro davlat universiteti,

ruziyevadilyayra300@gmail.com

Annotatsiya: Ushbu maqolada siz mashhur ingliz yozuvchisi V. Shekspirning “Otello” asarida tush tasviridan mahorat ila foydalanganiga govoh bo‘lasiz. Uning qalamiga mansub ushbu fojiada boshqa asarlaridan farqli o‘laroq “tush” motivi aynan kelajakda sodir bo‘ladigan noxush hodisalardan ogohlik berish maqsadida qo‘llanilgan. Ushbu maqolada asar qahramolarining ko‘rgan tushlaridan misollar va izohlar bilan tanishishingiz mumkindir.

Kalit so‘zlar: tush, tush tasviri, tush voqealari, ta’birnoma, taqdir, bashorat, kelajak.

Shekspirdan avlodlarga 37 ta sahna asari, ko‘plab she‘rlar va dostonlar meros bo‘lib qoldi. U buyuk insonparvar edi. Uning asarlarida xalqlar orasidagi do‘stlik, totuvlik ulug‘lanadi, insonlar hayotiga soya soluvchi har qanday milliy, diniy, irqiy ayirmachiliklar keskin qoralanadi. Buyuk ijodkor insonlarni hamisha halol, insofli, adolatli bo‘lishga undaydi. Vilyam Shekspir bundan to‘rt asr muqaddam yashab, ijod etdi. Shundan beri dunyoga necha nasllar kelib ketdi. Ammo Shekspir ijodi hamon biz bilan yashab kelmoqda. Uning asarlari million-million tomoshabinlar, o‘quvchilar qalbiga zavqu shavq bag‘ishlab, ingliz mumtoz adabiyoti dovrug‘ini hamon dunyoga taratib turibdi.

